O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI

“XUSUSIY-HUQUQIY FANLARNING RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari to‘plami
2-qism

2025-yil 25-iyun

KBK - 585
X - 10

“Xususiy-huquqiy fanlarning rivojlantirish tendensiyalari: muammo va yechimlar” // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent. Jamoat xavfsizligi universiteti. 2025. –639 bet.

Ushbu to‘plamdan fuqarolik huquqiy fanlarini rivojlantirish tendensiyalari va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish istiqbollariga, fuqarolik qonunchiligi bilan aniq asoslarda tartibga solinmagan ayrim shartnomalarning nomlanmagan turlari va xillariga, davlat-xususiy sheriklik, klaster shaklida tadbirkorlikni yo’lga qo’yishg, elektron tijorat, kripto-valyuta aylanmasi, er uchastkalarini xususiylashtirish, ulushli qurilish, autsorsing, autstafing va boshqa zamonaviy fuqarolik-huquqiy institutlarga bag'ishlangan konferentsiya tezislari o'rin olgan.

Tahrir hay’ati:

Sh.Gaziyev – Jamoat xavfsizligi universiteti “Fuqaroviy huquqiy fanlar” kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori, dotsent.

O‘.Davletov – Jamoat xavfsizligi universiteti “Fuqaroviy huquqiy fanlar” kafedrasi boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Sh.Norboyev – Jamoat xavfsizligi universiteti “Fuqaroviy huquqiy fanlar” kafedrasi dotsenti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2025

KIRISH

Ma’lumki, bugungi kunda yangi O‘zbekiston islohotlari sharoitida davlat-xususiy sheriklik, iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy mulk himoyasini kuchaytirish, investitsiya va biznesni rag‘batlantirish yanada faollashgan. Bu jarayonni huquqiy jihatdan tartibga solishda fuqarolik qonunchiligi ahamiyati yuqori.

Bu qonunchilik negizini tashkil etuvchi amaldagi Fuqarolik kodeksi, Oila kodeksi, Uy-joy kodeksi, Yer kodeksi va boshqa sohaga oid qonunchilik mustaqillik yillarida bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri talablari va ruhiga mos ishlab chiqilgan edi.

Endilikda, mamlakatimizda ishbilarmonlik muhiti kengayib, xalqaro reytinglardagi O‘zbekiston indeksini oshirishda xususiy-huquqiy qonunchilik sohasini yangilashni davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Xususan, biznesni raqamlashtirish, elektron tijorat, kripto-valyuta aylanmasi, sun’iy intellekt, klaster shaklida biznes yuritish, qurilish sohasidagi ulushli ishtirok, eskrou tizimi, ish-xizmatlarni autsorsing, autstafing, frilans va rekruting asosda tashkil qilish kabi boshqa ko‘plab zamonaviy munosabatlar xususiy - huquqiy fanlarga aloqador.

Barchamizga ayonki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan ham qonunchilik sohasida ko‘plab vazifalar qo‘yilmoqda. Shular qatorida “Tadbirkorlik kodeksi”, “Ijtimoiy himoya kodeks”larini ishlab chiqish vazifalari hali oldimizda turibdi.

Bular o‘z navbatida xususiy–huquqiy fan sohalari zamon bilan hamnafas rivojlanishi lozimligidan darak beradi.

Shu o‘rinda xususiy-huquqiy fanlar jamoat xavfsizligiga bevosita aloqador ekanligini ta’kidlash ham o‘rinli.

Chunki, jinoyatchilik sabab va shart-sharoitlari ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lmoqda.

Masalan, Fuqarolik huquqiy munosabatlardagi mulk huquqining buzilishi iqtisodiy jinoyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Mehnat huquqidagi bandlik va ishsizlik masalalari jinoyatchilik asosiy ijtimoiy omillaridan biriga aylanayotgani ham hech kimga sir emas.

Yoki masalan, Oila huquqida belgilangan ota-ona o‘z majburiyatlarini bajarmasligi, oila-turmush doirasidagi ziddiyatlar, mas’uliyatsizlik ayollar va yoshlar jinoyatchiligini kelib chiqishiga sabab bo‘layotgani ham aniq.

Shunga ko‘ra, hozirgi kunda Universitetimizda bu fan sohalarini chuqur o‘qitish maqsadida yangidan-yangi o‘quv adabiyotlari va darsliklar chop etilayapti, ilmiy tadqiqotlar olib borilayapti.

O‘ylaymizki, bugungi xalqaro konferensiyamiz ham yuqoridagi ezgu maqsadlarni ko‘zlaydi.

Konferensiyamizda xorijiy hamkorlarimiz, vazirlik va idoralar, respublikaning ilmiy va ta’lim muassasalari mutaxassislari ham ishtirok etmoqda.

Ishtirokchilarga minnatdorchilik bildirgan holda konferensiya samarali o‘tishini, tilab qolamiz!

TALABALARNING IJTIMOIY HIMOYASINI TA’MINLASH

Tojikulov Sh.M.
JXU 203-guruh talabasi

Ijtimoiy himoya – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui tushuniladi.

Uning asosiy maqsadi aholi farovonligining to‘xtovsiz yaxshilanishini ta’minlash, aholi qatlamlarining ta’lim, madaniyat, kasb malakasi, daromadlari jihatidan keskin tafovutlariga barham berish, jamiyat tomonidan insonga munosib hayot darajasini va inson taraqqiyotini ta’minlashga yordam berishdan iborat.

«Ijtimoiy himoya» tushunchasi birinchi martta 1935-yilda AQSHning **«Ijtimoiy xavfsizlik bo‘yicha qonuni»** da qollanilgan va keyinchalik Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalarida bu tushuncha mazmuni takomillashtirilgan.

Hozirgi kunda esa har bir davlatda ijtimoiy yordamga muhtoj odamlar ko‘payib bormoqda. Jamiyatimizda nafaqat mehnat sohasidagi balki boshqa sohalarda ham nogironligi bor yoki mehnatga layoqatsiz insonlar uchun yordam qolini cho‘zish maqsadida hamda ularni parvarishlash uchun jamiyatning bir qismi sifatida ularga ijtimoy-madaniy, moddiy hamda tibbiy taraflama ham yordam berish zarur.

Xususan respublikamizda so‘ngi yillarda prezidentimiz tomonidan imkonyatlar yaratilib bu masala bo‘yicha ko‘plab tizimlarni joriy qilish hamda ularni takomillashtirish, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan jamiyatimizdagi ayrim qatlamlarga qulaylik yaratish maqsadida elektron tizimlarni joriy qilish va boshqa shu kabi sohadagi muammolarga yechib topish maqsadida qonunchlik hujjatlari qabul qilindi. Lekin avvalam bor jamiyatimizning poydevori hisoblangan yosh avlodlarga e’tibor qaratishimiz lozim.

Talabalar jamiyatning eng faol, bilimga chanqoq qatlamidir. Ularning asosiy vazifasi – o‘qish, bilim olish va kelajakka tayyorlanish.

Biroq bu jarayonda ularga yordam berish, ya’ni ijtimoiy himoya ko‘rsatish shunchaki yaxshi niyat emas – bu ularning konstitutsiyaviy huquqi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Har kim ijtimoiy ta’minot olish huquqiga ega” deb yozilgan. Talaba ham bu “har kim” degan tushunchaga kiradi. Zamonaviy jamiyatda ta’lim sohasi nafaqat bilim va malaka berish, balki fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy tenglikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, oliy ta’limda tahsil olayotgan yoshlarning ijtimoiy himoyasi — ularning salomatligi, turmush darajasi, psixologik holati va moliyaviy barqarorligini ta’minlash orqali yanada samarali ta’lim olishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab ko‘plab davlatlar talabalarning ijtimoiy himoyasini ta’minlashni ustuvor vazifalardan biri sifatida qaramoqda.

O‘zbekiston tajribasida ham bosqichma-bosqich tizimli yondashuvlar qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasida talabalarning ijtimoiy himoyasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Xususan:

1. Stipendiyalar tizimi orqali iqtidorli va faol talabalarni moddiy jihatdan rag‘batlantirish;

2. Ijtimoiy toifa talabalar — nogironligi bo‘lganlar, yetimlar, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan yoshlarga alohida yordam choralarini ko‘rish;

3. Yotoqxona joylari sonini ko‘paytirish, xususan, ijarada yashovchi talabalarni davlat subsidiyalari orqali qo‘llab-quvvatlash;

4. “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” kabi mexanizmlar orqali ijtimoiy yordamga muhtoj talabalarni aniqlab, ularga maqsadli yordam ko‘rsatish;

Undan tashqari O‘zbekiston Respublikasining prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan PF-175-son 26.07.2022 yilda O‘zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida farmoni qabul qilindi. Ozbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilandi.

Xorijiy tajribalarga tayangan holda bir nechta davlatlarni ko‘rib chiqishimiz mumkin:

1. Germaniya: Bepul oliy ta’lim va keng qamrovli talaba yordami. Germaniyada davlat universitetlari ko‘pchilik yo‘nalishlarda tahsil olishni bepul ta’minlaydi. Shu bilan birga, talabalar uchun quyidagi ijtimoiy kafolatlar mavjud:

-BAföG (Bundesausbildungsförderungsgesetz) dasturi orqali ehtiyojmand talabalar har oyda maqsadli grant yoki imtiyozli qarz oladi;

-Universitetlarda psixologik xizmatlar, maslahat markazlari, arzon talabalar oshxonalari faoliyat yuritadi;

-Davlat va nodavlat turar joy fondlari keng rivojlangan.

2. Shvetsiya: Talaba davlatning to‘liq kafolatida. Ya’ni Shvetsiyada ta’lim mutlaqo bepul bo‘lib, barcha talabalarga yashash xarajatlari uchun maxsus stipendiyalar, uy-joy yordami, salomatlik sug‘urtasi ajratiladi. Eng muhim jihati — har bir talabaning ijtimoiy holati hukumat tomonidan monitoring qilib boriladi.

3. AQSh: Talabalarga moliyaviy yordam va kampusda to‘liq qo‘llab-quvvatlash tizimi. AQShda ta’lim pulli bo‘lsa-da, talabalar uchun keng ko‘lamli moliyaviy yordam mavjud. Unga quyidagilar kiradi:

- Federal grantlar (Pell Grant, FSEOG) — daromadi past bo‘lgan talabalarga to‘lovsiz yordam;

- Ijtimoiy xizmatlar (psixologik maslahatlar, oziq-ovqat banklari, talabalar sog‘liq markazlari);

-Ko‘plab universitetlarda “Student Affairs” bo‘limlari orqali turar joy, ovqatlanish, ruhiy salomatlik, bandlik masalalari hal qilinadi.

4. Yaponiya va Janubiy Koreya: Avtomatlashtirilgan stipendiya va sog‘liqni saqlash tizimi. Yaponiya va Janubiy Koreyada talabalar sog‘liqni saqlash sug‘urtasi, turar joy bilan ta’minlash va grantlar tizimi davlat tomonidan muvofiqlashtirilgan. Barcha talabalar uchun imtiyozli transport, kutubxona xizmatlari va bandlik markazlari mavjud.

Takliflarga keladigan bolsak, O‘zbekiston talaba yoshlarini ijtimoiy himoyalash borasida muhim yutuqlarga erishilmoqda. Ammo chet el tajribasi asosida quyidagi yo‘nalishlarda tizimni yanada mukammallashtirish mumkin:

1- Avtomatlashtirilgan stipendiya tizimi — talabalar ijtimoiy holatidan kelib chiqib, byurokratik to‘siqlarsiz yordam olishlari uchun

raqamlashtirilgan platformalar yaratish. Bundagi asosiy muommo sifatida hozirgi kunda ijtimoiy yordam va stipendiyalarni olishda koʻplab talabalar hujjat yigʻish, ariza topshirish va byurokratik toʻsiqlar bilan duch kelishmoqda. Bu esa yordamga eng koʻp muhtoj boʻlgan qatlamlar uchun qiyinchilik tugʻdiradi. Taklifda esa raqamlashtirilgan, avtomatlashtirilgan stipendiya tizimini joriy etish lozim. Ushbu platforma talabalar ijtimoiy holatini (ota-onaning daromadi, oilaviy ahvoli, nogironlik holati, yetimlik, kam ta'minlanganlik va h.k.) davlat maʼlumotlar bazalari orqali avtomatik tarzda aniqlaydi va mos yordam turini belgilaydi. Amalga oshirish yoʻli esa Moliya, Bandlik, Mahalla, Sogʻliqni saqlash vazirliklari va OTMlar oʻrtasida maʼlumot almashish tizimini yaratadi. Stipendiyalar va ijtimoiy yordamlar uchun arizalarni raqamli shaklda qabul qilish va koʻrib chiqish.

2- Ijtimoiy xizmatlar markazlarini tashkil etish — har bir OTMda talabalar psixologik, moliyaviy va huquqiy maslahat oladigan yagona markazlar faoliyatini yoʻlga qoʻyish. Talabalar hayotida uchraydigan psixologik, moliyaviy va huquqiy muammolar koʻpincha vaqtida hal qilinmaydi. Bu esa ularning oʻqish samaradorligi va ruhiy holatiga salbiy taʼsir qiladi. Shuning uchun har bir oliy taʼlim muassasasida yagona ijtimoiy xizmatlar markazini tashkil etish. Bu markazlar orqali talabalar quyidagi xizmatlarni olishlari mumkin:

1. Psixologik maslahat (depressiya, stress, motivatsiya yetishmovchiligi va h.k.);
2. Moliya rejalashtirish boʻyicha maslahatlar (stipendiya, ijara, ish topish);
3. Huquqiy yordam (shartnoma, mehnat huquqlari, ariza va shikoyatlar bilan ishlash).

3- Davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali yotoqxona va arzon ijara bozorini rivojlantirish. Bunda yotoqxona joylari yetarli emas, mavjudlar esa barcha talabalarni qamrab olishga qodir emas. Shuningdek, xususiy ijara bozori talaba uchun qimmat va nazoratsiz. Shuni inobatga olgan holda davlat-xususiy sheriklik asosida yangi yotoqxonalar qurish, mavjud ijara bozori ustidan monitoring oʻrnatish va talabalar uchun arzon ijaralarni ragʻbatlantirish lozim. Buning uchun esa xususiy tadbirkorlarga yer ajratish, soliq imtiyozlari va subsidiya taklif qilish evaziga talabalarga moʻljallangan

uy-joylar qurdirish va ijara bozorini tartibga soluvchi onlayn platformani yaratish kerak.

4- Sog‘liqni saqlash va ovqatlanish xizmatlarida talabalar uchun subsidiyalangan tizimlarni yo‘lga qo‘yish. Ko‘plab talabalar sog‘liqni saqlash xizmatlari va sifatli ovqatlanish imkoniyatlaridan foydalana olmaydi. Bu ularning umumiy salomatligiga salbiy ta’sir qiladi. Talabalar uchun subsidiyalangan tibbiy xizmat va ovqatlanish tizimini, OTMlar huzurida esa talabalar poliklinikalarini tashkil etish yoki mavjudlarini takomillashtirish kerak.

Talabalarning ijtimoiy himoyasi nafaqat ularning hayot sifatini oshiradi, balki jamiyatning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bois, bu yo‘nalishdagi islohotlar doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi zarur. Avtomatlashtirilgan stipendiya tizimi, ijtimoiy xizmatlar markazlari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi uy-joy infratuzilmasi va subsidiyalangan sog‘liqni saqlash hamda ovqatlanish xizmatlari — bularning barchasi talabalarning hayot sifatini oshirish, teng imkoniyatlarni yaratish va ularning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Talabalarning ijtimoiy farovonligini ta’minlash nafaqat ularning individual rivojlanishiga, balki butun jamiyatning intellektual va iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, bu sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, har bir yangilik amaliy samaradorlik bilan baholanishi lozim. Raqamlashtirish, integratsiyalashgan xizmatlar va institutsional hamkorlik asosida qurilgan ijtimoiy himoya tizimi O‘zbekistonning raqobatbardosh va ijtimoiy barqaror jamiyat sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 25.07.2022 PF-175-son;

HARBIY XIZMATCHILAR ORASIDA JINOYATLARNI OLDINI OLISH BORASIDA HARBIY SUDLAR FAOLIYATINING AHAMIYATI

Babaqulov Bekzod Normuxamedovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyasi

Konstitutsiyasiga muvofiq adolat faqat sud tomonidan amalga oshiriladi. Hech qanday boshqa organlar va shaxslar odil sudlovni amalga oshirish huquqiga ega emaslar. Hokimiyat bo‘linishining konstitutsiyaviy prinsipiga muvofiq, sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatidan mustakil ravishda faoliyat ko‘rsatadigan davlat hokimiyatining alohida tarmog‘i hisobpanib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga bo‘ysungan holda konstitutsiyaviy, jinoiy, fuqarolik, ma’muriy va iqtisodiy sud ishlarini yuritishda odil sudlovni amalga oshiradilar. Harbiy sudlar sudyalarining odil sudlovni amalga oshirish borasida faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi va har qanday aralashuv Respublika qonuni bilan javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ldi.

Qat’iy tartib-intizom tinchlik davrida ham urish paytida ham harbiy qismlarning jangovar shayligini va tayyorgarligini ta’minlashning ajralmas shartidir.

Harbiy sudlar o‘z faoliyatlari davomida harbiy xizmatchnlarni vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga, qonunlar va harbiy qoidalarning aniq va barqaror ijro etilishiga, harbiy va boshqa davlat mulklariga halol munosabatda bo‘lishga, asrab avaylash va g‘amxo‘rlik qilishga, bir so‘z bilan aytganda, harbiy intizomga qat’iy rioya etishlarida o‘zlarining munosib xissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Mamalakatdagi harbiy islohotlar jarayonida harbiy majburiyat, harbiy xizmat va harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya qilish, shuningdek, Respublika konstitutsiyasida huquq va erkinliklari kafolatlangan fuqarolar, shu jumladan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Harbiy xizmatchilar tomonidan shartnomani jiddiy ravishda buzilishi harbiy xizmatchining konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish imkoniyatidan yoki harbiy xizmatchining oila a’zolarining qonunda ko‘zda tutilgan eng muhim huquq va imtiyozlardan foydalanish huquqidan mahrum bo‘lganligi deb tan olinishi mumkin.

Harbiy sudlarning vazifalari ko‘p jixatdan umumiy sudlarning vazifalariga o‘xshaydi. Shu bilan bir qatorda, harbiy sudlarda odil sudlov asosay harbiy xizmatchilarga, shuningdek, harbiy tayyorgarlik paytida harbiy xizmatga jalb qilingan shaxslarga hamda bir guruh shaxslar tarkibida jinoyat sodir etgan harbiy xizmatchilarga nisbatan amalga oshiriladi.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi va hududiy harbiy sudlar birinchi instansiya sudi sifatida faoliyat olib boradilar. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tarkibiga sud raisi, rais o‘rinbosari, 5 nafar sudyalar 10 nafar sud apparti xodimlari (1-bo‘lim boshlig‘i, sudya katta yordamchisi, malaka hay’ati kotibi, arxiv mudiri), texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar tashkil qilsa, hududiy harbiy sudlar tarkibiga sud raisi, 2 ta sud apparati xodimi (sudya yordamchisi va devonxona mudiri), arxivarius, ish yurituvchi, xo‘jalik mudiri, haydovchi va farroshlar kiradi.

Harbiy sudlar yurisdiksiyasining o‘ziga xos xususiyati uning ikki tomonlama altsrnativasidir: qonun harbiy xizmatchilarga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga umumiy yurisdiksiya sudining turini (harbiy yoki fuqarolik) tanlash huquqini beradi, shuningdek birinchi instansiya sudi yashash joyida (harbiy xizmat joyida) yoki harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat qiladigan harbiy qo‘mondonlik joylashgan joyda olib boriladi.

Shu o‘rinda, harbiy xizmatchining harbiy sudga shikoyat qilishining o‘ziga xos xususiyati qoida taraqisida, o‘zining harbiy xizmatdagi qonuniy huquqlari (manfaatlari)ni tiklashga urinishidir.

Harbiy xizmatdan bo‘shatilgan yoki harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan fuqarolar harbiy xizmatni o‘tash paytida buzilgan huquqlari, erkinlik va qonuniy manfaatlari yuzasidan (boshliqlarning noqonuniy harakatlari (harakatsizligi) va ularning qarorlari ustidan) harbiy sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Harbiy xizmatchilar tomonidan harbiy tayyorgarlikdan yoki ro‘yxatga olinishidan oldin sodir etilgan jinoyatlar bundan mustasno.

Qurolli Kuchlarda olib borilgan islohotlarga xamoxang ravishda harbiy xizmatchilar huquq va erkinliklarini sud orqali himoya etilishida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, sud-huquq islohotlari asosida takomillashtirib borilmoqda. Albatta, bu jarayonda harbiy sudyalariing harbiy-yuridik ma’lumotga ega bo‘lishi, harbiy xizmat va harbiy intizom bilan yaqindan tanish bo‘lishi talab etiladi. Shuning uchun ham aksariyat davlatlarda Harbiy-yuridik akademiyalar faoliyat ko‘rsatadi va ulariing asosiy vazifalaridan biri harbiy sud tizimiga oliy harbiy-huquqshunos ma’lumotiga ega bo‘lgan ofitserlarni tayyorlashdan iboratdir.

Ana shularda kelib chiqib, harbiy xizmatchilar huquq va erkinliklarini sud orqali himoya etilishini takomillashtirishda harbiy-ma’muriy qonunchilikning lozim darajada bilmaslik, qonunlar talablarini noto‘g‘ri va ko‘pincha o‘zboshimchalik bilan talqin qilish va ularni noto‘g‘ri qo‘llash, ba’zan esa ularning qoidalarini ataylab e’tiborsiz qoldirish, xizmat vazifalarini malakali va mukammal bajarish uchun bilimlarining pastligi va buyruq berishga yetarlicha tayyor emasligi, mavjud idoraviy ma’yoriy hujjatlarning qonunga nomuvofiqligi, harbiy-ma’muriy huquqning ko‘plab normalarini amalga oshirish mexanizmining yo‘qligi, harbiy xizmatchilarning maqomi to‘g‘risidagi qonun-hujjatlarining eskirganligi, harbiy xizmatchilarning asossiz ishdan bo‘shatilishi, harbiy xizmatda buzilgan huquqlarini tiklashning imkoniyati va samaradorligi pastligicha qolayotganligi bilan izohlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, harbiy xizmatchilar har qayday fuqaro bilan teng huquqlarga ega, bu huquq Qurolli Kuchlarning samaradorligi uchun zarur bo‘lgan holda, faqat harbiy xizmat talablari doirasida va qat’iy qonunchilik asosida cheklanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2023. 67 bet.

2.O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni, 28 iyul 2021 yil., O‘RQ-703-son. Lex.uz.

3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini

oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 21 fevraldagi PF-4966-sonli Farmoni. Lex.uz.

4.Мирзаев Т.К. Деятельность военных судов: проблемы и решения. На соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Т., 2001. – С. 156.

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARINING XUQUQIY MAQOMI

Qodiralieva Ijobat Baxromjon qizi
Namangan davlat universiteti
o‘qituvchisi

Ta’limning davlat va jamiyat hayotida tutgan roli haqida uzoq gapirishning hojati yo‘q. Bu xususda butun bashariyatning teran fikr sohiblari – davlat va jamoat arboblari, ilm-fan namoyandalari va hatto, oddiy odamlar ham yakdil va tugal xulosaga kelib bo‘lishgan ta’lim nafaqat davlat yoki jamiyat, balki oddiy insondan tortib butun boshli millat va xalqlar taqdiriga bevosita daxldor bo‘lgan, ularning buguni va istiqbolini belgilaydigan omilga aylanib ulgurgan. [3]

Mamlakatimizda ayni kunlarda yuridik shaxslar faoliyatini huquqiy tartibga solish borasida qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, yuridik shaxslarni huquqiy tartibga soluvchi manbalarni takomillashtirish maqsadida milliy va xorijiy qonun hujjatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish, moslashtirish va bunda O‘zbekiston Respublikasiga xos xususiyatlarni hisobga olish, yuridik shaxslar bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishda vaqtinchalik normativ hujjatlar o‘rniga “muqim” normativ hujjatlar qabul qilish, yuridik shaxslar huquqiy munosabati ishtirokchilari huquqlarini kengaytirish va ularning huquqlari kafolatini yaratishning o‘ziga xos chora-tadbirlarini belgilash dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xorijiy tajribalar davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat fuqarolarning sifatli ta’lim olishga bo‘lgan huquqini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilishini ko‘rsatmoqda. Ma’lumki, nodavlat notijorat tashkilotlari jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond, muassasa shaklida,

shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda tashkil etilishi mumkin. [19]

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasi 7-xatboshiga asosan nodavlat ta’lim tashkiloti (muassasa) davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida yoki xabardor qilish tartibida ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs xisoblanadi deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, qonunning 30-moddasiga asosan nodavlat ta’lim muassasalarini tashkil etish ularning ta’sischilari tomonidan amalga oshirilishi va nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatini litsenziya asosida amalga oshiradi xamda litsenziya talablariga va shartlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatishi belgilab qo‘yilgan. [4]

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 40-moddasiga asosan yuridik shaxslar ikkiga bo‘linadi: ya’ni, foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo‘lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs xo‘jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta’minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin. Tijoratchi bo‘lmagan tashkilot o‘zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Yuridik shaxslar uyushmalar (ittifoqlar)ga va boshqa birlashmalarga Qonunga muvofiq birlashishlari mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki nodavlat oliy ta’lim tashkiloti muassasa shaklida tashkil etiladigan davlatga qarashli bo‘lmagan yuridik shaxs xisoblanadi. Yuridik shaxslar mulkdor yoki u vakil qilgan shaxs tomonidan yoxud vakolatli organning farmoyishi asosida, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi.

Mulkdorlar, xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi sub’ektlari yoxud ular vakil qilgan shaxslar yuridik shaxslarning muassislari hisoblanadi. (FKning 42-moddasi)

Fuqarolik kodeksining 76-moddasiga asosan boshqaruv, ijtimoiy-madaniy vazifalarni yoki tijoratchilikdan iborat bo‘lmagan boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun mulkdor tomonidan tashkil etilgan va to‘la yoki qisman moliyaviy ta’minlab turiladigan tashkilot muasasa xisoblanadi.

Muassasaning o‘ziga biriktirib qo‘yilgan va o‘zi sotib olgan mol-mulkka bo‘lgan huquqlari Fuqarolik Kodeksning 178 va 180-moddalariga muvofiq belgilanadi.

Muassasa o‘z majburiyatlari bo‘yicha ixtiyoridagi pul mablag‘lari bilan javob beradi. Bu mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, tegishli mol-mulkning egasi uning majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo‘ladi.

Ayrim turdagi davlat muassasalari va boshqa muassasalar huquqiy mavqeining xususiyatlari qonunchilik bilan belgilanadi.

Bugungi kunda oliy ta’lim sohasida muassasalarning bir necha turlari mavjud. Masalan, davlat oliy ta’lim muassasalari, davlat xususiy sherikchiligi asosida tashkil etilgan oliy ta’lim muassasalari, xususiy oliy ta’lim muassasalari.

Shu o‘rinda xaqli ravishda savol tug‘iladi davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari yuridik shaxs sifatida yuridik shaxslar tizimida qanday o‘rin tutadi?

Bu savolga javob berish uchun avvalo yuridik shaxs institutini moxiyatini tushinib yetish lozim.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarning butun bir turkumi vujudga keltirilgan. Jumladan, «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi, «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi, «Notariat to‘g‘risida»gi, «Ma’suliyati cheklangan va qo‘shimcha ma’suliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi, «Xo‘jalik shirkatlari to‘g‘risida»gi, «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi, «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi, «Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi, «Jamoat fondlari to‘g‘risida»gi, qonunlari shular

jumlasidandir. Ularning har birida turli xo‘jalik yuritish shakliga ega bo‘lgan u yoki bu yuridik shaxslarga o‘ziga xos ta’riflar, tushunchalar berilgan. Shuningdek, yuridik shaxslarni vujudga kelishi va tugatish tartiblari o‘z mujassamini topgan.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi esa ularning barchasini umumlashtirib, yuridik shaxslarga quyidagicha ta’rif beradi: O‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan, hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.[19] (FKning 39-moddasi)

Yuqorida berilgan ta’rifga ko‘ra, har qanday tashkilot emas, balki muayyan talablarga javob beradigan tashkilotlargina yuridik shaxs bo‘la oladi.

Yuridik shaxslar tashkiliy birlik; mulkiy mustaqillik; mustaqil mulkiy javobgarlik; fuqarolik muomalasida o‘z nomidan harakat qilish belgilariga ega bo‘lishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilgan tub islohotlarning mazmun-mohiyatida Respublika iqtisodiyotini yuksaltirish va halq turmush farovonligi darajasini oshirish yotadi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishi va istiqbolda yuksalishida yuridik shaxslar alohida o‘rin tutadi. Aynan yuridik shaxslar jamiyat a’zolarining yirik sarmoyalarini birlashtirish, ko‘p miqdordagi moddiy ne’matlar almashinuvi va bu orqali katta daromad olish evaziga mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida asosiy sub’ekt hisoblanadi.

Ta’lim sohasida qabul qilingan bir qator yangi huquqiy hujjatlar, jumladan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangilangan tahriri, “Pedagogning maqomi”ni belgilab beruvchi qonun hamda ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa me’yoriy hujjatlar oliy ta’lim maskanlari faoliyatining huquqiy poydevorini yanada mustahkamladi. Bu o‘z navbatida ta’lim xizmatlari sohasida raqobat muhitini rivojlantirish va ta’lim sifatini yuksaltirishga zamin yaratmoqda. [4, 5,6]

Bugungi kunda dunyoda 30.000 mingdan ortiq oliy ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lib, ularning 2.000 mingga yaqinigina xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings(QS WUR), Times Nigher Education(THE) yoki Academic Ranking of World Universities) reytingiga kirish mezonlariga javob beradi. [17]

Oliy ta’lim tashkilotlari va ularni oldida turgan dolzarb masalalar xamda ularni yechimlari to‘g‘risidagi fikr va muloxazalar ayrim tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan. [8,9,10,11].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasiga asosan “Har kim ta’lim olish huquqiga ega”. Ma’lumki fuqarolarning ta’lim olishi ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan:

a) kadrlar tayyorlash sifati va ko‘lamini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash:

birinchi toifa - flagman universitetlar (O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti);

ikkinchi toifa - ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta’lim muassasalari;

uchinchi toifa - sohalar uchun ta’lim va ilmiy tadqiqotlar bo‘yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta’lim muassasalari;

b) institut maqomidagi oliy ta’lim muassasalari faoliyati ko‘lamini kengaytirish va institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

v) oliy ta’lim muassasalarini ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich yiriklashtirib borish;

g) tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo‘lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta’lim muassasalarini (oliy harbiy ta’lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish

va xususiylashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va xokazolar. [2]

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining rivojlanishida sezilarli an’analardan biri yetakchi OTM (universitet, akademiya, institut, oliy maktab) larning paydo bo‘lishi xisoblanadi. Mazkur OTMlar O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish, ilm-fan integratsiyasini ta’minlash va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Biz eng avvalo ta’lim tashkiloti deganda nima tushiniladi? Ta’lim tashkilotining xuquqiy maqomi qanday aniqlanadi? Degan savollarga javob berishimiz lozim.

Ta’lim tashkiloti deganda davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini amalga oshiradigan va ta’lim xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxs tushuniladi.

Ta’lim tashkilotlarining xuquqiy maqomi nafaqat O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi balki o‘zida ommaviy va xususiy xuquqning elementlarini mujassam etgan ta’lim qonunchiligi bilan ham aniqlanadi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 29 - moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari, shuningdek xorijiy davlatlar ta’lim tashkilotlarining filiallari yuridik shaxs maqomi bilan tashkil etiladi. [4].

Ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatini ustav yoki boshqa ta’sis hujjatlari asosida yuritadi.

Ta’lim tashkilotining ustavida, qoida tariqasida, quyidagilar ko‘rsatiladi:

ta’lim turi va shakli;

ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari;

o‘quv-tarbiyaviy va ilmiy-metodik ishlarni tashkil etish hamda mazmuni;

ta’lim tashkilotiga qabul qilish tartibi;

ta’lim tashkilotining tuzilmasi, boshqaruv organlari va jamoatchilik tuzilmalari;

ta’lim oluvchilar, pedagog kadrlar, o‘quv-tarbiya ishlari bo‘yicha xodimlar, ma’muriy-boshqaruv xodimlarining maqomi, huquqlari va majburiyatlari;

ta’lim tashkilotining mol-mulki va vositalari;

ta’lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi.

Ta’lim tashkilotlarining lokal xujjatlarida ya’ni, ustavida nazarda tutilgan xolda oliy ta’lim muassasalari tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin. Masalan:

oliy ta’lim tashkilotining mulki va unga qarashli bo‘lgan binolar va inshootlarni ijaraga berish;

aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va ulardan foyda olish;

boshqa ta’lim tashkilotlari faoliyatida ulushli ishtirok etish;

pulli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish;

vositachilik xizmatlarini ko‘rsatish va xokazolar.

Shu o‘rinda xaqli savol tug‘iladi. Oliy ta’lim muassasalari o‘z ustavlarida ko‘rsatilmagan faoliyati turlari bilan bilan shug‘ullanishlari mumkinmi? Afsuski mumkin emas. Chunki ta’lim muassasalari maxsus xuquq layoqatiga ega yuridik shaxs xisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki ta’lim tashkilotlari faqat o‘zlarini ustavlarida belgilangan faoliyat bilan shug‘ullanishlari mumkin. Ya’ni, ularning ustavlarida qonunchilikda ruxsat berilgan faoliyat turlari ko‘rsatilishi lozim. [13,14,15,16].

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim muassasalarining quyidagi turlari mavjud: universitet, akademiya, institut (qonunchilik hujjatlariga muvofiq maqomi) ularga tenglashtirilgan boshqa oliy ta’lim muassasalari) [7].

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari bilan bir qatorda, haq evaziga xizmat ko‘rsatish uchun ta’lim sohasida, ta’lim muassasasining huquqiy maqomi ham belgilab berilgan. Xususan, qonunning 29-moddasi ma’nosidan oliy ta’lim tashkilotlarining xuquqiy maqomi ularning yuridik shaxs ekanligi omili bilan aniqlanishi va amaldagi qonun xujjatlariga asosan oliy ta’lim tashkilotlari faqat muassasa shaklida tashkil etilishi mumkinligi kelib chiqadi.

Keyingi yillarda oliy ta’lim tizimiga nodavlat va xususiy sektorning, shuningdek, ko‘plab xorijiy oliy o‘quv yurtlari va filiallarining kirib kelishi ijobiy holat bo‘ldi. Bir jihatdan oliy ta’limning qamrovi kengaysa, ikkinchidan, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida ijobiy ma’nodagi o‘zaro raqobatni ta’minlaydi, tizimda bozor qonunlari ishlay boshlaydi. Zero uning natijasi muhim hisoblanadi, chunki har bir oliy o‘quv muassasasi sifatli kadrlar tayyorlash uchun kurashadi. Natijada raqobatbardosh mahsulot yaratish har bir oliy ta’lim muassasasining asosiy maqsadiga aylanadi, natija kutilganidek yuqori bo‘ladi. Shularning o‘ziyoq ta’limdagi islohotlar chuqur o‘ylangan holda olib borilayotganini anglatadi. [12].

Ma’lumki, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2023 yilda jami 69 ta, 2024 yilda 26 ta nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari faoliyati o‘rganilgan. O‘rganilgan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida aniqlangan kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo‘yicha 1 oy muddat berilgan. Berilgan muddatlarda kamchilikni bartaraf etmagan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining litsenziyasini bekor qilish bo‘yicha tegishli Sudlarga da’vo arizalari kiritilgan. Jumladan, o‘rganish natijalariga asosan 2023 yilda 6 ta, 2024 yilda 5 ta nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarini litsenziyasini bekor qilish bo‘yicha tegishli Sudlarga da’vo arizalari kiritilgan.

Sud jarayonlarida 2023 yilda jami 6 ta oliygohning, 2024 yilda esa 1 ta oliygohning litsenziyasi bekor qilingan. 4 ta holatda tegishli Sudlar tomonidan vazirlik kiritgan davo arizalarni qanoatlantirmasdan qoldirgan.

2023 yilda litsenziyasi sud tartibida bekor qilingan nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida tahsil olgan 8 mingga yaqin talabalarning o‘qishi boshqa nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarining mos va turdosh ta’lim yo‘nalishlariga vazirlik tomonidan ko‘chirib o‘tkazilgan. [18].

So‘nggi yillarda ta’lim sohasida xususiy sektorga berilgan imkoniyatlar tufayli 71 ta xususiy oliygoh va 51 ta xususiy texnikum tashkil etilib, ularda 500 ming nafarga yaqin talaba va o‘quvchilar tahsil olmoqda. Buning natijasida mamlakatda oliy ta’lim bilan qamrov 9 foizdan 42 foizga oshdi.

Albatta, bugungacha amalga oshirilgan ishlar ko‘plab yoshlarning kasbiy va oliy ma’lumot olishiga imkon yaratdi. Ammo, nodavlat ta’lim tashkilotlarining barchasida ham ta’lim sifati birdek ta’minlanmagan.

Nodavlat ta’lim tashkilotlarida qabul parametrlari, ta’lim dasturlari, o‘quv jarayonlari hamda ilmiy salohiyatni sifat jihatidan yaxshilash, ularni zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish eng asosiy masalalardan biridir.

Xozirgi kunda respublikamizda oliy ta’lim tizimida ko‘plab nodavlat xususiy va xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallari soni oshib bormoqda. Bu xolat birinchidan, oliy ta’limning qamrovi kengayishi, ikkinchidan, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasida ijobiy ma’nodagi o‘zaro raqobatni vujudga kelishi, tizimda bozor qonunlarini ishlay boshlashini ta’minlaydi. Natijada raqobatbardosh mahsulot yaratish har bir oliy ta’lim muassasasining asosiy maqsadiga aylanadi, natija kutilganidek yuqori bo‘ladi.

Fikrimizcha, oliy ta’lim tashkilotlarini xuquqiy maqomini xar tomonlama ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jixatdan tadqiq etish va oliy ta’lim tashkilotlarini xuquqiy maqomini belgilab beruvchi “Oliy ta’lim to‘g‘risida”gi maxsus qonun xujjati bilan tartibga solinishi lozim. Mazkur qonun xujjatida davlat oliy ta’lim tashkilotlari, xususiy oliy ta’lim tashkilotlari, davlat xususiy sherikchiligi asosida tashkil etiladigan oliy ta’lim tashkilotlarining xuquqiy maqomi aniqlashtirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -Toshkent. 2023.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”.

3. Topildiev V.R. Oliy ta’limning normativ-huquqiy asoslari. – Toshkent., 2018. 356. B.

4.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. //Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son

5.O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun. //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024 y., 03/24/901/0082-son

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–54-son qarori. //Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.02.2024 y., 07/24/54/0092-son.

7. Prikaz ministra vыsshego i srednego spesialnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan “Ob utverjdenii polojeniya o vыsshem obrazovanii” Zaregistrirovan Ministerstvom yustitsii Respubliki Uzbekistan ot 22 fevralya 2003 g. Registratsionnыy № 1222.

8.Topildiev V.R. Masofaviy ta’lim xususida ayrim mulohazalar. 2023. *Journal of Integrated Education and Research, 2* (2), 51-60 betlar.

9.Topildiev V.R. Oliy ta’lim tizimini isloh qilishning me’yoriy-huquqiy ta’minoti xususida ayrim mulohazalar // *Sovremennoe obrazovanie*, 2017. (6), 8-14.

10.Topildiev V.R. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim soxasiga oid farmonlaridan kelib chiqadigan vazifalar xususida ayrim muloxazalar // “Mirzo Ulug‘bek buyuk mutafakkir olim va davlat arbobi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. –T., 2024. 1057-1065 betlar.

11. Topildiyev V.R. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning o‘ziga xos muammolari. **Sotsiologiya va huquq,** Ilmiy jurnali 2-son11-21 betlar.

12. https://yuz.uz/news/oliy-talim-islohotlari-muammolar-echimlar-yutuqlar.

13. Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. O‘quv qo‘llanma - T.: Cho‘Ipon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. - 624 b.

14.Topildiev V.R. Fuqarolik huquqi. Darslik. –T., «Yridik adabiyotlar publish» 2022. –B. 592.

15.Topildiev V.R. Zamonaviy texnologiyalarni fuqarolik-huquqiy fanlarning rivojlanishi va fuqarolik huquqiy munosabatlarga ta’siri // “Fuqarolik huquqiy fanlarini rivojlantirish tendensiyalari va fuqarolik

qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2022. 47-62 betlar.

16. Topildiev, V.R. Fuqarolik huquqi. Darslik. -T.: “Universitet, (2014).

17. https://www.aubsp.com/.

18.Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi brifingi materiallari. 20.10.2024 yil.

19.O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Rasmiy nashr. – T., Adolat., 2018. -547 b.

XORIJIY MAMLAKATLARDA MEHNATGA HAQ TO‘LASH

Jaloldinov Javohirbek Jahongir o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
203-guruh talabasi

Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatga haq to‘lash tizimi har bir mamlakatlarda xususan AQSh, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston kabi davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shuningdek Xorijiy mamlakatlarda mehnatga haq to‘lash tizimi rivojlangan qonunchilik, kasaba uyushmalari va ish beruvchilarning mas’uliyatiga asoslanadi. Ushbu maqolada xorijiy tajriba o‘rganilishi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ham taqqoslanadi.

Mehnatga haq to‘lash — ish beruvchi tomonidan xodimga uning mehnati uchun to‘lovlar belgilash va ularni amalga oshirish yuzasidan mehnat shartnomasi taraflari o‘rtasidagi mehnat to‘g‘risidagi qonunchilik, mehnat haqidagi boshqahuquqiy hujjatlar va mehnat shartnomasi bilan tartibga solingan munosabatlar tizimidir. Oddiy qilib aytganda: Mehnatga haq to‘lash — bu ishchining qilgan ishi uchun oladigan oyligi yoki maoshidir. Mehnatga haq to‘lash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Asosiy ish haqi – belgilangan tarif yoki stavka bo‘yicha to‘lov (masalan, oylik).

2. Qo‘shimcha to‘lovlar – ortiqcha ish vaqti, bayram kunlari ishlaganlik uchun qo‘shiladigan to‘lov.

3. Mukofot va rag‘batlantirishlar – yaxshi ishlaganlik, reja bajarilganlik uchun beriladigan mukofotlar.

4. Imtiyoz va kompensatsiyalar – zararli ish sharoitlari yoki boshqa sabablar tufayli beriladigan qo‘shimcha to‘lovlar.

2025-yil holatiga ko‘ra, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Qozog‘iston va Tojikiston davlatlarida mehnatga haq to‘lash tizimi va qonunchilikda quyidagi asosiy o‘zgarishlar va rivojlanishlar kuzatildi:

AQSh: «No Tax on Tips» qonuni va minimal ish haqi tashabbuslari

- «No Tax on Tips» qonuni: 2025-yil 21-may kuni AQSh Senati bir ovozdan xizmat ko‘rsatish sohasidagi xodimlar uchun federal daromad solig‘idan ozod etuvchi qonunni qabul qildi. Bu qonun yillik daromadi $160,000 dan kam bo‘lgan va ish beruvchiga rasmiy tarzda hisobot berilgan choychaqalarni olgan xodimlarga $25,000 gacha soliq chegirmasini taqdim etadi [3].
- Minimal ish haqi tashabbusi: «Raise the Wage Act of 2025» qonun loyihasi federal minimal ish haqini 2030-yilgacha bosqichma-bosqich $17 ga oshirishni taklif qilmoqda. Ushbu qonun loyihasi 22 million amerikalik ishchining hayot darajasini yaxshilashni maqsad qilgan bo‘lsa-da, Kongressdagi siyosiy qarama-qarshiliklar tufayli uning qabul qilinishi noaniq bo‘lib qolmoqda.

Germaniya: Minimal ish haqi oshishi va byurokratiyan qisqartirish

- Minimal ish haqi: 2025-yil 1-yanvardan boshlab Germaniyada minimal ish haqi €12.82 ga ko‘tarildi. Shu bilan birga, «minijob» ishlar uchun oylik daromad chegarasi €556 ga oshirildi.
- Byurokratiyani qisqartirish: «To‘rtinchi Byurokratiyani Qisqartirish Qonuni» doirasida ish beruvchilar endi mehnat shartnomalarini elektron shaklda (masalan, elektron pochta orqali) taqdim etishlari mumkin. Bu o‘zgarish ishga olish jarayonlarini soddalashtirishga yordam beradi.
- Parental leave: 2025-yil 1-maydan boshlab ota-onalar tug‘ruq ta’tili uchun arizalarni matn shaklida (masalan, elektron pochta orqali) topshirishlari mumkin bo‘ladi, bu esa jarayonni soddalashtiradi.

Rossiya Mehnatga haq to‘lash va qonunchilikdagi o‘zgarishlar

- Minimal ish haqi: 2025-yil boshidan boshlab, Rossiyada minimal ish haqi 22,440 rublga oshirildi .demotest.safeguardglobal.com+1en.iz.ru+1
- Ish haqi to‘lovlaridagi kechikishlar uchun kompensatsiya: 2024-yil 30-yanvardan boshlab, ish beruvchilar ish haqi va boshqa to‘lovlardagi kechikishlar uchun foizli kompensatsiya to‘lashga majburdirlar. Bu foizlar Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasiga bog‘liq ravishda hisoblanadi.
- Ish haqi o‘sishi: 2024-yil dekabr oyida Rossiyada ish haqi o‘sishi 21.9% ni tashkil etdi, bu so‘nggi 16 yildagi eng yuqori ko‘rsatkichdir .The Moscow Times
- Tibbiyot bitiruvchilari uchun yangi talablar: 2026-yil 1-yanvardan boshlab, davlat tomonidan moliyalashtirilgan tibbiyot va farmatsiya dasturlarining bitiruvchilari bir yil ichida ishga joylashishlari yoki davlat tomonidan sarflangan ta’lim xarajatlarining uch barobarini qaytarishlari talab etiladi .

Qozog‘iston Mehnatga haq to‘lash tizimi va qonunchilikdagi o‘zgarishlar

- Minimal ish haqi: 2025-yilda Qozog‘istonda minimal ish haqi 85,000 tenge miqdorida belgilandi.
- Ijtimoiy soliqlar: 2025-yil 1-yanvardan boshlab, ijtimoiy soliq stavkasi 11%, ijtimoiy badallar 5%, majburiy ish beruvchining pensiya badali esa 2.5% etib belgilandi .PwC
- Mehnat xavfsizligi: 2024-yilda mehnat xavfsizligi sohasida olib borilgan chora-tadbirlar natijasida ish joylarida baxtsiz hodisalar soni 30% ga kamaydi

O‘zbekistonda 2025 yilda eng kam ish haqi (minimal maosh) 1 155 000 so‘m miqdorida belgilangan. Quyida esa AQSh, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston va O‘zbekiston davlatlarida 2025 yil uchun eng kam ish haqi miqdorlarining taqqoslama jadvali keltirilgan (milliy valyutada va AQSh dollariga tenglashtirilgan holda):

Davlat	Milliy valyutada eng kam ish haqi	AQSh dollariga teng (taxminan)	Qo‘shimcha ma’lumotlar
AQSh	$8.25 – $15/soat (shtatlarga qarab)	$1 320 – $2 400 / oy	Eng kam maosh har bir shtatda turlicha. Oylik miqdor taxminan hisoblangan.
Germaniya	€1 620 / oy	$1 750	Federal darajada belgilangan eng kam oylik maosh. 2025 yil ma’lumotlari.
Rossiya	16 242 ₽ / oy	$220	Mintaqalarga qarab farq qilishi mumkin. 2025 yil ma’lumotlari.
Qozog‘iston	70 000 ₸ / oy	$150	2025 yil uchun belgilangan eng kam maosh.
O‘zbekiston	1 155 000 so‘m / oy	$105	2025 yil ma’lumoti. Valyuta kursi: 1 AQSh dollari ≈ 12 940 000 so‘m.

2025-yilda O‘zbekiston Respublikasida mehnatga haq to‘lash tizimi va mehnat qonunchiligi sohasida bir qator muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Quyida ushbu o‘zgarishlarning asosiy jihatlari keltirilgan:

🏛 Mehnat kodeksiga kiritilgan asosiy o‘zgarishlar 2025-yil 13-fevralda qabul qilingan O‘RQ-1030-sonli Qonun bilan Mehnat kodeksiga quyidagi muhim o‘zgartirishlar kiritildi:

❖ Elektron mehnat shartnomalari: Endilikda mehnat shartnomalari “Yagona milliy mehnat tizimi” orqali elektron shaklda rasmiylashtiriladi.

❖ O‘rtacha ish haqi hisoblash tartibi: Xodimning o‘rtacha ish haqi, ish haqi saqlanib qoladigan oydan oldingi o‘n ikki kalendar oy uchun hisoblangan mehnatga haq to‘lash tarzidagi barcha daromadlar summasining o‘n ikki oyga bo‘linishi orqali aniqlanadi.

❖ Mehnat ta’tili va kompensatsiya to‘lovlari: Har yilgi mehnat ta’tili va pulli kompensatsiya to‘lovlarida yakshanba kunlari inobatga olinmaydi.

❖ Davlat xizmatchilariga oid mehnat munosabatlari: Davlat fuqarolik xizmatchilarining mehnatga oid munosabatlari, agar “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonun bilan tartibga solinmagan bo‘lsa, Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

💼 Mehnatga haq to‘lash tizimidagi yangiliklar

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan davlat xizmatchilariga nisbatan yagona, shaffof va adolatli mehnatga haq to‘lash tizimi joriy etilishi rejalashtirilmoqda :

- Yagona tarif tizimi: Barcha vazirlik va idoralar uchun yagona tarif koeffitsiyentlari, martaba darajalari, qo‘shimcha ustamalar (KPI) va yillik bonuslar tizimi joriy etiladi.
- Budjet mablag‘lari asosida to‘lovlar: Ish haqi faqat davlat budjeti hisobidan to‘lanadi; budjetdan tashqari mablag‘lardan foydalanish taqiqlanadi.
- Moliyalashtirish manbalarini birxillashtirish: Barcha vazirlik va idoralar uchun ish haqi tizimi va ularni moliyalashtirish manbalari birxillashtiriladi.

📊 Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori

2025-yil 1-yanvardan boshlab, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori quyidagicha belgilandi :

- Eng kam oylik ish haqi: **1 155 000 so‘m.**
- Bazaviy hisoblash miqdori: **375 000 so‘m.**
- Eng kam yoshga doir pensiya / Pensiya hisoblashning bazaviy miqdori: **834 000 so‘m** / **920 000 so‘m.**
- Bolalikdan nogironlarga beriladigan nafaqa: **800 000 so‘m.**
- Zarur ish stajiga ega bo‘lmagan keksa yoshdagi va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga beriladigan nafaqa: **745 000 so‘m.**

⚖️ Mehnat qonunchiligi va ijtimoiy himoya

2025-yil 1-yanvardan boshlab, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

✓ Kambag‘al oilalar farzandlari uchun imtiyozlar: Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga imtiyozli asosda qabul qilinadi.

✓ Kasbiy ko‘nikmalar markazlari: Ish beruvchilar talabiga asosan tezkor kurslar yo‘lga qo‘yiladi.

✓ Ishga joylashgan kambag‘al oilalar uchun soliq imtiyozlari: Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo‘lmagan oylik ish haqi to‘langan holda ishga joylashgan kambag‘al oilalar reyestriga kiritilgan oila a’zosi uchun ijtimoiy soliq uch yil davomida 1 foiz stavkada to‘lanadi.

✓ Ijtimoiy shartnoma asosida ko‘mak choralari: Mehnatga layoqatli oila a’zolarining bandligini ta’minlash, o‘z tomorqasidan samarali foydalanish, oila a’zolari, shu jumladan, farzandlarining bilim olishi, kasb-hunar va xorijiy tillarni o‘rganishi hamda sog‘lig‘ini nazoratga olishi, uy-joyini ozoda tutishi kabi shartlar inobatga olingan holda ko‘rsatiladi.

Xulosa:

Xorijiy mamlakatlar – AQSh, Germaniya, Rossiya, Qozog‘iston kabi davlatlarning mehnatga haq to‘lash tizimi tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu mamlakatlarda mehnat munosabatlari kuchli qonunchilik bazasi, zamonaviy raqamlashtirilgan tizimlar va xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta’minlovchi mexanizmlar bilan mustahkamlangan. Ularning tajribasidan ko‘rinadiki, ishchilarning oylik ish haqi, ijtimoiy imtiyozlari, sog‘lom mehnat muhitini yaratish va soliqqa oid yengilliklar davlat tomonidan ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. O‘zbekistonda ham 2025-yildan boshlab mehnatga haq to‘lash tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularning aksariyati xorijiy tajriba bilan uyg‘unlashadi. Yagona tarif tizimi, elektron mehnat shartnomalari, ijtimoiy soliq imtiyozlari va mehnatga layoqatli fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga, mehnatga haq to‘lashda adolat, shaffoflik va barqarorlikni ta’minlash borasida qo‘shimcha chora-tadbirlar zarur.

Yechimlar:

1. Yagona elektron platformalarni rivojlantirish: Mehnatga haq to‘lash, ishga qabul qilish, ta’til va kompensatsiya kabi barcha mehnat jarayonlarini yagona elektron tizimda yuritish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

2. Hududlar bo‘yicha minimal ish haqi belgilash: Rossiya tajribasi asosida mintaqaviy iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, minimal ish haqini differensial tarzda belgilash mamlakat ichida tenglikni ta’minlaydi.

3. Ish beruvchilarga soliq rag‘batlantirish: Ishchilar uchun yuqori maosh va ijtimoiy paketlar taqdim etgan ish beruvchilarni soliq yengilliklari bilan qo‘llab-quvvatlash foydali bo‘ladi.

4. Kasbiy malakani oshirish dasturlarini kengaytirish: Xodimlarning mehnat unumdorligini oshirish uchun ular uchun bepul yoki imtiyozli asosda qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur.

Takliflar:

- Mehnatga haq to‘lash tizimida KPI (Ko‘rsatkich asosida rag‘batlantirish) elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish, bu orqali xodimlarning shaxsiy mehnat samaradorligi bevosita maoshga bog‘lanadi.
- Har yili minimal ish haqi miqdorini inflyatsiya va yashash minimumi asosida indeksatsiya qilish, bu ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiladi.
- Xususiy sektor uchun mehnat shartnomalarini elektronlashtirishni majburiylashtirish, bu nafaqat shaffoflikni ta’minlaydi, balki norasmiy bandlikni kamaytiradi.
- Mehnatga haq to‘lashga oid qonunchilikda xalqaro standartlar (ILO tavsiyalari)ni kengroq aks ettirish, bu mehnat bozori ishtirokchilarining huquqiy himoyasini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2025.

2. O‘RQ-1030-sonli “Mehnat kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun. Qabul qilingan sana: 2025-yil 13-fevral.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy ma’lumotlari. – www.mf.uz

4. The Guardian. (2025). *No Tax on Tips Act Passed by U.S. Senate*. – www.theguardian.com

5. The Telegraph. (2025). *Raise the Wage Act of 2025: Debate and Outcomes*. – www.thetelegraph.com

6. Labourlawyer.de. (2025). *Germany’s Minimum Wage Reforms*. – www.labourlawyer.de

7. The Moscow Times. (2024). *Russia's Wage Growth Hits Record Levels*. – www.themoscowtimes.com

8. PwC Kazakhstan. (2025). *Tax and Labor Legislation Changes in Kazakhstan*. – www.pwc.kz

9. Kasipodaq.kz. (2025). *Mehnat xavfsizligi va ish haqi statistikasi*. – www.kasipodaq.kz

10. BCC.kz. (2025). *Qozog‘istonda eng kam ish haqi va ijtimoiy badallar*. – www.bcc.kz

PARALLEL IMPORT SIYOSATINI QO‘LLASHDA JAHON SAVDO TASHKILOTINING TRIPS BITIMI VA MILLIY QONUNCHILIK

Furqat Utapov
Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Ma’lumki, O‘zbekiston hududiga olib kiriladigan va bojxona nazorati ostida turgan intellektual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqlarning himoya qilinishini ta’minlash uchun bojxona organlari mas’ul hisoblanadi.

Xususan, TRIPS bitimining 51-moddasida bojxona organlari tomonidan mahsulotlarni muomilaga kiritishda (olib kirishda) to‘xtatish vakolatiga to‘xtalib o‘tilgan. Mutlaq huquqlari buzilgan holda ishlab chiqarilgan yoki mualliflik huquqlari buzilgan holda tayyorlangan tovarlar yuzasidan huquq egasida shubha paydo bo‘lganda, tovar belgisi mutlaq huquqlari egasi vakolatli organga yoki sud organlariga tovarlarni muomilaga kiritishda bojxona organlari tomonidan ularni to‘xtatib turishga doir murojaat qilish huquqini berishni nazarda tutgan. Shuningdek, ushbu modda nafaqat import qilinayotgan balki eksport qilinayotgan tovarlarga nisbatan ham xuddi shunday harakatni amalga oshirishni JSTga a’zo davlatlarga tavsiya etgan [1].

O‘zbekistonda bugungi kunga qadar huquq egalari tomonidan bojxona organlariga intellektual mulk ob’ektlariga nisbatan chora ko‘rish bo‘yicha taqdim etilayotgan arizalar asosan uchinchi shaxslar tomonidan huquq egasining ruxsatisiz asl tovarlarni olib kelishini to‘xtatish bilan bog‘liq murojaatlarni tashkil etmoqda, ya’ni tovarlarda “kontrafakt” yoki “soxtalashtirish” alomatlari mavjud emas. (bojxona organlariga chora ko‘rish bo‘yicha taqdim etilayotgan arizalar asosan mutloq huquq buzilishi bilan bog‘liq holatlarni tashkil etadi, amaliyotida bu kabi xarakatlar “parallel import” deb nomlanadi va bugungi kunga qadar “parallel import” tushunchasiga milliy qonunchilikda aniq ta’riflar berilmagan).

Fuqarolik kodeksining 1107^{1}-moddasida bevosita tovar belgisining egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan fuqarolik muomalasiga qonuniy tarzda kiritilgan tovarlarga nisbatan tovar belgisidan boshqa shaxslarning foydalanishi mazkur tovar belgisiga doir mutlaq huquqning buzilishi bo‘lmasligi belgilangan. Bundan kelib chiqib, amaliyotda sud organlari tomonidan ushbu tovarlarni chiqarib yuborishga ruxsat berilmoqda, bunda import qiluvchi tomonidan ko‘rilgan zarar (bojxona omborida saqlash, shartnomani o‘z vaqtida bajarmaslik, xaridorni yo‘qotish, ma’naviy zarar) huquq egasi tomonidan qoplab berilmayapti. Chunki import qiluvchi ko‘rilgan zararni qoplatish uchun sud organlariga alohida murojaat etishi lozim bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 apreldagi PQ–221-son qarori bilan 2022 yil 1 sentabrdan boshlab, bojxona organlari tomonidan Reestrga kiritilgan intellektual mulk ob’ektlari huquq egalarining qonuniy manfaatlarini quyidagicha himoya qilish huquqi berildi:

- bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonida intellektual mulk huquqlari buzilganligi alomati aniqlanganda, huquq egasini xabardor qilish;

- Reestrga kiritish to‘g‘risidagi arizalarni elektron tarzda yuborish va qabul qilish, ularni ko‘rib chiqish bosqichlarini onlayn ravishda kuzatib borish.

O‘zbekiston bojxona reestrini yuritsa-da, “yex-officio” prinsipi to‘liq qo‘llanilmaydi. Tovar belgilari bojxona reestrida ro‘yxatga olingan deylik. Bunday holda, tovar belgisi egalari o‘zlarining eksklyuziv huquqlarini

parallel ravishda olib kirishdan, ya’ni eksklyuziv huquqlarni buzadigan ruxsatsiz olib kirishdan ta’minlash uchun bojxona organlariga murojaat qilish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 386-moddasiga muvofiq, Bojxona qo‘mitasi intellektual mulk ob’ektlarining bojxona reestriga kiritish uchun yozma ariza talab qiladi. Shuning uchun huquq egasining intellektual mulk huquqini buzuvchi tovarlarni O‘zbekiston hududiga olib kirishni oldini olishning yagona yo‘li Bojxona qo‘mitasiga oldindan murojaat qilishdir. Biroq, bugungi kunda mamlakatda bojxona hisobini yuritish instituti mavjud emasligi sababli, bojxona organlari har qanday tovar egasining huquqlarini buzadigan har qanday tovarlarning monitoringini boshlash majburiyatini olmaydilar. Demak, bojxona organlari har qanday aybdan yoki javobgarlikdan butunlay ozod qilinadi, agar ba’zi huquqbuzarlar tovar egasining intellektual mulk huquqlarini buzgan har qanday yukni mamlakatning bojxona hududiga olib kirsa. Boshqacha qilib aytganda, bojxona kodeksiga o‘zgartirish kiritish bojxona organlariga “yex-officio” vakolatini mustaqil ravishda topish va buzilgan tovarlarni tortib olish huquqini berish, shuningdek bojxona organlariga xabarnomani yuborish orqali tovarlarni olib kirish uchun distribyutorning vakolatini tekshirishni majbur qilish.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda ayrim turdagi tovarlarni olib kirishda tovarlarni sifatini, iqtisodiy xavfsizligini, kafolat va servis xizmatlarini tartibga solish ist’emolchilarni xuquqlarini himoya qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 yanvardagi “Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-15-qarori 17-bandida “2024 yil 1 fevraldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda ularning sifati, xavfsizligi hamda servis kafolatini ta’minlaydigan ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili yoki rasmiy dilerlari mavjud bo‘lishi talab qilinadigan mahsulotlar ro‘yxati tasdiqlanib, bunda, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili va (yoki) rasmiy dilerlarning servis xizmati mavjud bo‘lishi kerak” ekanligi belgilab berildi. Ushbu qaror qabul qilinishi oqibatida O‘zbekistonda ham iste’molchilarni huquqlarini himoya qilish, ularga kafolatlangan tovarlarni taklif qilish uchun JSTga a’zo bo‘lishni tezlashtirish hamda parallel importga qarshi kurashuvchi

qonunlarimizni takomillashtirib ishlash mexanizmlarini shakllantirishimiz maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, 2024 yil 27 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga bojxona tartib-taomillarini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qabul qilingan qonunning ahamiyati yuqoridagi keltirilgan qonundan kam bo‘lmay, intellektual mulkka doir tartiblarni yanada takomillashtirishga qaratilgan. Zero, bojxona organlarining intellektual mulk himoyasini ta’minlashdagi asosiy roli “parallel import”, “intellektual mulk ob’ektlarining bojxona reestri”, “birinchi sotuv doktrinasi” kabi qoida va mexanizmlar bilan belgilanadi. Shuningdek, TRIPS bitimining 4-qismi bevosita chegaraga doir munosabatlarning muhim talablariga bag‘ishlangan. Aynan mazkur qismda tovarlarni bojxona organlari tomonidan to‘xtatish, “ex officio” tizimi, tovar egasi va import qiluvchiga yetkazilgan zararni qoplash va boshqa shu kabi bojxona faoliyati bilan bog‘liq qoidalar mavjud.

Tovar belgisidan transchegaraviy foydalanish, o‘z navbatida, huquqni o‘tkazish va huquqdan foydalanishni taqdim etishdan iborat. Huquqni transchegaraviy o‘tkazish huquqni qabul qiluvchi davlat qonunchiligiga ko‘ra muhofaza ostiga olinadi. Huquqdan foydalanish esa taqdim etuvchi davlat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Foydalanish huquqini taqdim qilish huquq egasi va huquqdan foydalanuvchi o‘rtasida parallel import yuzaga keltiradi. Huquq egasi huquqni qabul qiluvchiga tovarni huquq egasi mamlakatiga eksport qilish vakolatini cheklashi mumkin. Lekin uchinchi shaxslarning tovarni import qilishga nisbatan talabi huquq egasining talabi doirasiga tushmaydi. Ta’kidlash lozim, tovar belgilariga bo‘lgan transchegaraviy munosabatlarning faol rivojlanishi, shuningdek bunday munosabatlarni tartibga solishning yagona birlashtiruvchi tizimining yo‘qligi transchegeraviy tijorat muomalasida tovar belgisi maqomini belgilash zaruriyatini shakllantirdi. Transchegeraviy savdo muomalasida tovar belgisi maqomi – huquqiy himoya so‘raladigan davlat qonuniga (lex loci protectis) asoslanadi. Huquqiy himoya so‘ralayotgan davlat qonunchiligiga ko‘ra, nafaqat milliy normalar, balki tegishli davlatning

xalqaro shartnomalari xam tushunilish lozim. “Lex loci protectis” tamoyiliga ko‘ra, xam milliy qonun hujjatlari, xam unifikatsiya qilingan xalqaro shartnoma qoidalari transchegaraviy tijorat muomalasida tovar belgilariga nisbatan bir xilda qo‘llaniladi. Tovar belgilariga oid nizolarni transchegeraviy tijorat mumalasida ko‘rib chiqishda chet el huquqini qo‘llash faqat tegishli davlatning xalqaro shartnomasidan bevosita kelib chiqadigan hollardagina yo‘l qo‘yiladi. Transchegaraviy savdolarda parallel import qoidalarini qo‘llash davlatning iqtisodiy potensialini oshiruvchi iqtisodiy va uning barqarorligini saqlovchi munosabatdir. Barchamiga ma’lumki, RF va Ukraina o‘rtasidagi munosabatlar sabab AQSh va Yevropa davlatlari tomonidan iqtisodiy sanksiyalar qo‘llanilmoqda. Rossiya esa parallel import sabab mazkur sanksiyalarning salbiy oqibatlarini parallel import orqali yumshatib bormoqda va ta’bir joiz bo‘lsa buning uddasidan chiqmoqda. Boshqa aytganda, parallel import huquq egasining mutlaq zo‘ravonligidan himoya qilish vositasi hisoblanadi. Biroq, rivojlangan yetakchi mamlakatlar parallel importni tan olmasligini xam unutmaslik lozim. Parellel importni muayyan sohalarda jumladan chakana savdoda, bir martallik distribyuterlik bitimlarida qo‘llash mamlakatimizda milliy sub’ektlar ayniqsa iste’molchilar huquqlarini himoya qilishda muhim axamiyatga ega [2].

O‘zbekistonda shiddat bilan davom ettirilayotgan islohotlar samarasini hozirda jamiyatining har bir jabhasida, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va xalqaro munosabatlarida, eng asosiysi xalqimizning osoyishta hayotida ko‘rishimiz mumkin. Xususan, bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”ning 3-yo‘nalishi “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” deb nomlanib, ushbu yo‘nalishda bir so‘z bilan aytganda davlatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan maqsadlar belgilangan [3].

Mamlakatimiz aholisining turmush tarzini yanada yaxshilash hamda ularga sifatli mahsulotlar yetkazib berish, bundan tashqari mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar

“brend”ini yaratish va ularni jahon bozorlarida o‘z mavqeiga ega bo‘lishida ko‘maklashishda xorijiy tajribalarni o‘rganishimiz va qonunchiligimizga tatbiq etishimiz maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soglashenie po torgovым aspektam prav intellektualnoy sobstvennosti. https://wipolex-res.wipo.

2. Babakulov Z.K. Tovar belgisining transchegaraviy savdo muomalasidagi fuqarolik-huquqiy maqomi masalalari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 2 (2023) B. 41-48.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023 y., 06/23/21/0085-son. https://lex.uz/docs/5841063

AHOLI BANDLIGINI TAMINLASHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH

Abdullayev Javohir Azizjon o‘g‘li
Jamoat xavsizligi Unversiteti 2-bosqich talabasi

XXI-asr axbarot asri, zamonaviy texnologiyalar kirmagan soha qolmadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Inson doimo o‘z “aqliy faoliyati”ni yengillashtirishga harakat qilib kelgan. Sun’iy intellekt bugungi kunda jamiyatni jadallashtirish va rivojlantirish sohasi sifatida qaralmoqda. Aholini ish bilan taminlash borasida sun’iy intellektdan to‘g‘ri foydalanish tog‘risida ko‘rib chiqamiz.

Bugungi kunda sun’iy intellektdan foydalanish borasida olimlarimizda ikki xil qarash yuzaga kelgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bir guruh olimlar xususan rus olimlari N.A.Petuxov va M.V.Chijonning fikricha, sun’iy intellektdan foydalanish insoniyatda juda katta yengilliklar olib keladi degan fikrda bo‘lsalar,ikkinchi guruh olimlari

esa sun’iy intellektdan foydalanish insonlardan o‘z ish joylarini olib qo‘yadi, degan fikrlarni ilgari surishgan.

Sun’iy intellekt orqali o‘zbek tarixini va sanatini “tiriltirayotgan”Hikmatullo Ubaydullayev Kun.uz ga bergan intervyusida: sun’iy intellektni o‘zi odamlarni ishini olib qo‘ymaydi, leki sun’iy intellektdan unumli foydalana oladigan boshqa bir insonlar olib qo‘yishi mumkin degan fiklarni aytib o‘tgan.

Sun’iy intellekt so‘nggi yillarda texnologiya sohasida inqilobiy o‘zgarishlar kiritib, dunyo iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda.

Bu texnologiya nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, balki xizmat ko‘rsatish va yaratish jarayonlarida ham inson ishtirokini o‘zgartirib, kelajakda ish o‘rinlariga qanday ta'sir qilishi haqida keng muhokamalarni yuzaga keltirdi. AI rivojlanishi bilan birga iqtisodiy o‘sish imkoniyatlari paydo bo‘layotgan bo‘lsa-da, ish o‘rinlari masalasida turli nuqtai nazariyalar mavjud.

Sun’iyintellektni ma’lum manoda sanoat inqilobi desak bubolag‘a bo‘lmaydi bunday atashga bir necha asoslar keltirib o‘tishimiz mumkin.

Ilk sanoat inqilobi Buyuk Britaniyada XVIII- asrning 60-yillariga tog‘ri kelgan,bu davrda ilk marotada inson manufakturasidan (qo‘l mehnat) zamonaviy texnikalardan foydalanila boshlaydi va o‘z o‘rida 150 ming odamni qo‘l mehnatiga teng ishni qilgan.

Jahon Iqtisodiy Forumida (WEF) 2025 -yilga borib ,sun’iy intellekt tufayli 85 millionga yaqin ish o‘rinlarini bo‘shatishni bashorat qilmoqda. Ushbu ishlarning aksariyati mijozlarga xizmat ko‘rsatish,ma’lumotlar yig‘ish,yig‘ish yiliyasini ishlab chiqish,yoki asosan takrorlanadigan ishlarni o‘z ichiga olgan.

Biroq shuni hisobga olish kerakki,inson kundalik turmush xizmatlardan ozod qilgan holda,sun’iy intellekt yaratadigan yanada qiziqarli va hayajonli ishlarga e’tiborini qaratmoqda.

WEF hisobotida, shuningdek sun’iy intellekt 2025-yilga kelib ma’lumotlar fanlari,RPA (robotic jarayonlrini avtomatlashtirish) mutaxasislari va dasturiy ta’minot ishlab chiqaruvchilari kabi toifalarda 97 millionga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratiladi, deb bashorat qilmoqda. Sun’iy intellekt yordamida biz nafaqat yangi ish o‘rinlarini optimallashtirishimiz

mumkin,shuningdek yangi ish o‘rinlari yaratishga turtki bo‘lyapdi desak adashmagan bo‘lamiz.Masalan ,algoritm muxandisi, sun’iy intellekt mutaxasisi kabi yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lmoqda,bu esa yangi ish o‘rinlarini yaratishga bandlik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar fuqarolarning psixalogik va intellectual xususiyatlarini baxolay oladi.

Sun’iy intellekt aholi bandligini taminlashda bir qancha yengilliklar yaratib beradi:

1.Mehnat bozorini tahlil qiladi. Sun’iy intellekt yordamida mehnat bozorida talab qilinadigan ishlarni takliflarni taxlil qilish,eng ko‘p talab qilinadigan kasblarni aniqlash mumkin. Bu orqali orqali Hukumat ,yokiish beruvchiga kerakli malakali va zarur ishchilarni tayyorlashga e’tibor qaratiladi.

2.Kasbga yo‘naltirish va maslahat xizmati. Sun’iy intellekt asosidagi platformalar fuqarolarning qiziqishlari, ma’lumot darajasi va qobiliyatlariga ko‘ra mos kasb yoki ish o‘rinlarini tavsiya qilishi mumkin. Bunday tizimlar yoshlar va qayta tayyorgarlikdan o‘tuvchi ishchilar uchun ayniqsa foydalidir.

3. Onlayn ta’lim va malaka oshirish. SI texnologiyalari orqali individual ta’lim dasturlari yaratilib, aholining o‘zlashtirish tezligi va uslubiga mos ravishda kurslar taklif qilinadi. Bu orqali fuqarolar zamonaviy kasblar bo‘yicha tezroq malaka egallashi mumkin.

4. Ishga joylashish platformalarini optimallashtirish. Ish qidiruvchilar va ish beruvchilarni samarali bog‘laydigan SI tizimlari, masalan, rezyume va vakansiyalarni avtomatik moslashtirish xizmatlari.

5. Uzoqdan ishlash imkoniyatlarini kengaytirish. Sun’iy intellekt ko‘plab sohalarda (masalan, tarjima, dizayn, xizmat ko‘rsatish) masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu ayniqsa chekka hududlar aholisi uchun bandlikni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

6. Yangi ish o‘rinlari yaratish. SI texnologiyasini ishlab chiqish, joriy etish va xizmat ko‘rsatish uchun yangi kasblar (data analitik, SI mutaxassisi, algoritm ishlab chiquvchi va boshqalar) paydo bo‘ladi.

Aholi bandligini taminlashda Sun’iy intellektdan foydalanishda horijiy mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak Kanadada

“Magnet.Today” platformasi orqali sun’iy intellekt orqali ish izlovchilar va ish beruvchilarni avtomatik bog‘lash yo‘lga qo‘yilgan.

Universitetlar, kompaniyalar va hukumat hamkorligida ishlaydi.Hozirgi kunda Magnet platformasidan 200 ming dan ortiq foydalanuvchi va 12 mungdan ortiq ish berivchi foydalanmoqda.

Hindiston – “AL for Jobs (AL4J”) tashabusi, bu sayt orqali kambag‘allikdagi aholiga IT va boshqa zamonaviy sohalarda treninglar tashkil qilinmoqda va natijada 2023-yilga kelib 1 milliondan ortiq fuqarolarga kasbiy ko‘nikmalar berilgan , ular ko‘plab ish topishgan.

Buyuk Britaniya, ”National Careers Service”.Hukumat tomonidan yuritiladigan bu xizmat Sun’iy intellekt yordamida fuqarolarning qiziqishlari , bilim va malakalariga qarab kasb tanlashda yo‘naltiradi. 2021-yilda Sun’iy intellekt asosida maslaxat olgan foydalanuvchilarning 68% ishga joylashgan.

AQSH -Linkedln va IBM SkillsBuild. Linkedln Sun’iy intellekt asosida foydalanuvchilarni profiliga mos ish e’lonlarini tavsiya qiladi.Shunungdek ,IBM o‘zining “SkillsBuild” platformasi orqali Sun’iy intellekt yordamida bandlikka tayyorlov kurslarini taklif qiladi. IBM “SkillsBuild” orqali 2023-yiloda 7 milliondan ortiq kishi malaka oshirdi.

Aholi bandligini taminlashda sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha Ozbekiston tajribasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak:

- Mehnat portal-My.mehnat.uz. Ish izlovchilar va ish beruvchilarni bog‘lovchi portal.Rezyume joylashtirish, ish topish ,bandlik xizmatlariga yozilish imkonini beradi. Sun’iy intellekt asosidagi tavsiyalar qisman joriy etigan (https://my.mehnat.uz).
- One Million Uzbek Coders (1MUC). Bepul onlayn ta’lim platformasi. Dasturlar, sun’iy intellekt, ma’lumotlar tahlili kabi yo‘nalishlarda kurslar mavjud.Bu ko‘nikmalar orqali ishsizlar yangi kasb egallab, ish topish imkoniga ega bo‘ladi (https://uzbekcoders.uz).
- Raqamli hukumat portali-E-ijro.gov.uz. Davlat xizmatlari avtomatlashtirilgan. Mehnat, bandlik va ijtimoiy himoya xizmatlari raqamlashtirilgan.Sun’iy entellekt imkonyatlari hukumat tizimlarida bosqichma -bosqich joriy qilinmoqda.

❖ IT Park Uzbekiston. Texnalogiyalar,sun’iy intellekt va startaplarni qo‘llab -quvvatlaydi.Bandlikni oshirishga qaratilgan ko‘plab loyixalar mavjud (https://itpark.uz).

Sun’iy intellekt insoniyatning ko‘plab yumushlarini yengillashtirib kelmoqda.

Ayrim olimlarning fikricha yangi ish o‘rinlari yaratish bilan bir qatorda insonlarning ish o‘rnini ham olib qo‘yishi mumkin ekan.

Xodimlar ish o‘rnini yo‘qotmaslik uchun nima qilish kerak? Bu jarayonda faqat kadrlarni qayta tayyorlash, o‘z ustida ishlash bilan ish bitmaydi. Yana ijtimoiy mas’uliyat, javobgarlik masalasi o‘rtaga chiqadi.

Insoniyat tarixidagi ixtirolar odamlarnining og‘irini yengil qilish uchun qaratilgan. SI ham shular qatorida. Shu sabab kompaniya egalari, davlatlarning mas’ul tashkilotlari ham bu imkoniyatni kishilarning ishini osonlashtirish uchun deb qabul qilishi kerak.

Odamlar bir vaqtlar dam olishsiz ishlagan, taraqqiyot natijasida sekin-sekin ish soatlari qisqardi, bir yo ikki kun dam olish kuni beriladigan bo‘ldi.

Yevropada allaqachon 4 kunlik ish tartibiga o‘tish boshlangan. Odamlarda dam olish, sayohat qilish, masofadan ishlash, ijod, yangilik qilishga vaqt qolyapti. Asrlar davomida shuncha yangilik odamlarning hayotini yaxshilash uchun xizmat qilib, endi SI ularni ishidan ayirib, tang ahvolga solsa, bu insoniyat taraqqiyotining izdan chiqqanini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham faqat moddiy manfaatni ko‘zlamasdan, bunga yengillik beruvchi navbatdagi yangilik sifatida qarash zarur, nazarimizda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Sanoat_to%CA%BBntarishi
2. https://www.yoshlarovozi.uz/oz/news/suniy-intellekt
3. https://ishonch.uz/oz/news/suni-intellekt-ai-kelazagi-is-rinl
4. https://www.nasscomfoundation.org/
5. https://www.mycareersfuture.gov.sg/

ISH VAQTI: XORIJIY TAJRIBA VA UNING O‘RNI

Sayfiddinov Zuhriddin
Jamoat Xavfsizligi universiteti 2-kurs talabasi

Ish vaqti mehnat huquqining markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlarida ish vaqtini to‘g‘ri tashkil etish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki xodimning dam olishi va sog‘ligini muhofaza qilishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda global iqtisodiy rivojlanish, texnologik taraqqiyot va raqamli mehnat bozori sharoitida ish vaqtini boshqarish masalasi yanada dolzarb bo‘lib bormoqda.

Xalqaro tajribada ish vaqti ko‘plab konvensiyalar va qonunlar bilan tartibga solinadi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)ning 1919-yilda qabul qilingan 1-sonli Konvensiyasiga ko‘ra, ish vaqti haftasiga 48 soat etib belgilanadi. Bu konvensiya ish vaqtini mehnat unumdorligini oshirish va xodimlar salomatligini muhofaza qilish maqsadida qisqartirish zarurligini ta’kidlaydi. Keyinchalik rivojlangan davlatlar ushbu normani yanada qisqartirish va moslashuvchanlashtirish orqali xodimlarning hayot sifatini oshirishga qaratilgan siyosat yurita boshladi.

Nazariy jihatdan ish vaqtini belgilashda asosiy yondashuvlar quyidagilardan iborat:

- Normativ yondashuv – davlat tomonidan qonuniy me’yorlar orqali ish vaqtini qat’iy belgilash (masalan, 40 soatlik ish haftasi).
- Moslashuvchan yondashuv – xodim va ish beruvchi o‘rtasida kelishuv asosida ish vaqtini belgilash, mehnat unumdorligini oshirish va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olishga qaratilgan.
- Kombinatsiyalashgan yondashuv – davlat tomonidan umumiy me’yor belgilab, lekin uni ishchi va ish beruvchilar o‘zaro kelishuv orqali o‘zgartirishlari mumkin bo‘lgan tartib.

Germaniya ish vaqtini tartibga solishda Yevropa davlatlari orasida yetakchi o‘rin egallaydi. Ish vaqti, odatda, 35–40 soatlik ish haftasiga moslashtirilgan bo‘lib, bu ko‘pincha korxona darajasida kasaba uyushmalari bilan kelishilgan holda belgilanadi. 1990-yillardan boshlab Germaniyada

ish vaqtini moslashuvchanlashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirilgan. “Arbeitszeitkonto” (ish vaqti hisobvaraqlari) tizimi orqali xodimlar ortiqcha ishlagan soatlarini keyinchalik kompensatsiya sifatida ishlatishi mumkin.

Germaniyada ish vaqti faqatgina ishlab chiqarish samaradorligi emas, balki ishchilar hayot sifati va salomatligini muhofaza qilish bilan ham uzviy bog‘liq. Shu sababli, kasaba uyushmalari tomonidan ishlab chiqilgan jamoaviy kelishuvlar asosida ish vaqtini qisqartirish va masofaviy ish shakllari joriy qilinmoqda. Bu tajriba mehnat unumdorligini oshirish bilan birga xodimlarning motivatsiyasini ham oshiradi.

Fransiyada 2000-yilda qabul qilingan “35 soatlik ish haftasi” qonuni ish vaqti sohasida tub burilish yasadi. Bu qonun hukumatning ishsizlikni kamaytirish va hayot sifatini oshirish siyosatining tarkibiy qismi edi. Shu bilan birga, Fransiyada ortiqcha ish soatlari uchun qo‘shimcha haq to‘lanishi qonuniy ravishda majburiy hisoblanadi. Bu esa ish beruvchilarni ortiqcha ishlatishdan tiyadi.

Fransiya mehnat qonunchiligi ish vaqti, dam olish kunlari, onalik va otalik ta’tillari, kasallik ta’tillari kabi ijtimoiy kafolatlarni yuqori darajada ta’minlagan. Bu esa xodimlar farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Fransiya tajribasida mehnat unumdorligi qisqa ish vaqtiga qaramay yuqori bo‘lib, bu zamonaviy boshqaruvning samarali modelini ko‘rsatadi.

Yaponiya mehnat bozorida ish vaqtining huquqiy chegaralari mavjud bo‘lsa-da, amaliyotda xodimlarning ortiqcha ishlashi keng tarqalgan. Rasmiy ravishda haftalik ish vaqti 40 soat etib belgilangan, biroq ko‘pchilik korxonalarda xodimlar haftasiga 50–60 soat ishlashadi. Bu holat jamiyatda “karoshi” (ishdan o‘lish) hodisasiga sabab bo‘lib, davlatni ish vaqtini tartibga solishga majbur qilmoqda. 2019-yilda qabul qilingan “Mehnat islohoti” qonuni ortiqcha ishni cheklash, dam olish kunlarini kafolatlash va mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan. Hozirda Yaponiya masofaviy ish va qisqa ish haftasi tizimlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratmoqda.

AQSHda ish vaqti masalasi davlat tomonidan nisbatan kam tartibga solingan bo‘lib, federal darajada haftalik ish vaqti 40 soat etib belgilangani bilan, xususiy sektor amaliyotida bu ko‘rsatkich ko‘pincha oshib ketadi. Ayniqsa, moliya, IT va xizmat ko‘rsatish sohalarida xodimlar haftasiga 45–50 soat ishlashadi. AQShning yirik kompaniyalari ish vaqtini boshqarishda

moslashuvchanlikni afzal ko‘rib, xodimlarga shaxsiy ehtiyojlariga mos grafiklar taklif etmoqda. Google, Apple kabi texnologik kompaniyalarda masofaviy ish, qisqa ish haftasi va “work-life balance” dasturlari joriy qilinmoqda. Bu esa yuqori mehnat unumdorligi va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga imkon bermoqda.

Shvetsiya, Norvegiya va Daniya kabi davlatlarda ish vaqti masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu davlatlarda ish haftasi 37–38,5 soat bo‘lib, oilaviy hayot va dam olish uchun yetarli vaqt ajratilgan.

Masalan, Shvetsiyada ayrim kompaniyalar 6 soatlik ish kunini tajriba tariqasida joriy qilib, mehnat unumdorligini oshirishga erishmoqda. Skandinaviya davlatlarida ortiqcha ish uchun qattiq cheklovlar mavjud bo‘lib, xodimlar huquqlari yuqori darajada himoyalangan. Bu esa inson salomatligi va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi ish vaqtini boshqarish sohasida turli xil yondashuvlarni namoyon etmoqda. Germaniya va Fransiyada kasaba uyushmalari bilan jamoaviy kelishuvlar samarali tizim sifatida xizmat qilmoqda. Yaponiya ish vaqtini qisqartirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishga majbur bo‘lib, AQSh esa bozor iqtisodiyoti sharoitida ish vaqtini moslashuvchan tashkil qilish orqali yuqori samaradorlikka erishmoqda. Skandinaviya davlatlari esa inson salomatligi va barqaror rivojlanishni ustuvor deb bilmoqda.

O‘zbekiston uchun ushbu tajribalarni o‘rganib, milliy mehnat qonunchiligini zamonaviylashtirish, ortiqcha ishni cheklash, moslashuvchan grafiklarni rivojlantirish va xodimlarning mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhimdir. Ayniqsa, yoshlar bandligini ta’minlash va raqamli iqtisodiyotga moslashish uchun masofaviy ish va qisqa ish haftasi kabi zamonaviy mexanizmlarni joriy qilish O‘zbekistonning mehnat bozorini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO). Working Time Conventions and Recommendations. www.ilo.org

2. European Commission. Working Time Directive. Europa.eu
3. Bundesministerium für Arbeit und Soziales (Germaniya Mehnat va Ijtimoiy Ishlar Federal Vazirligi). www.bmas.de
4. Ministère du Travail (Fransiya Mehnat Vazirligi). www.travail-emploi.gouv.fr
5. Japan Ministry of Health, Labour and Welfare. www.mhlw.go.jp
6. U.S. Department of Labor. www.dol.gov
7. Nordic Labour Journal. www.nordiclabourjournal.org
8. OECD Employment Outlook. www.oecd.org/employment/outlook
9. Eurofound. Working time developments in the EU. www.eurofound.europa.eu

NORASMIY BANDLIK VA UNING OQIBATLARI

Odilova Fotima
Jamoat xavfsizligi universiteti
2-kurs talabasi

Bugungi globallashuv va iqtisodiy o‘zgarishlar davrida mehnat bozori turli shakllarda rivojlanmoqda. Rasmiy bandlik bilan bir qatorda, norasmiy bandlik ham keng tarqalmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasida ham bu hodisa dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Norasmiy bandlik fuqarolarning mehnat huquqlari, ijtimoiy himoyasi va umuman, davlatning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Norasmiy bandlik — bu ishchi va ish beruvchi o‘rtasida qonuniy mehnat shartnomasisiz, davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshiriladigan mehnat faoliyatidir. Bunda ishchi hech qanday huquqiy himoyaga ega bo‘lmaydi.

Norasmiy bandlik quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- Uy sharoitida ishlovchi ayollar (tikuvchilik, pazandalik va boshqalar);
- Kunlik yoki mavsumiy ishlarda ishlovchilar;

- Qurilish, transport va xizmat ko‘rsatish sohasidagi norasmiy ishchilar;

- Tashqi mehnat migratsiyasi orqali hujjatsiz ishlayotgan fuqarolar.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda ham ish bilan band bo‘lgan aholining sezilarli qismi norasmiy sektorda ishlaydi. Bu holat, albatta, davlat tomonidan nazorat qilinmagan mehnat munosabatlari sonining ortib borayotganidan dalolat beradi.

1-jadval. O‘zbekistonda norasmiy bandlik tarqalgan asosiy sohalar

T/r	Soha	Norasmiy bandlar ulushi (%)
1	Qurilish	37%
2	Savdo (bozorlar)	21%
3	Qishloq xo‘jaligi	15%
4	Xizmat ko‘rsatish	11%
5	Uy-mehnat (uy bekalari)	8%

Norasmiy bandlik bir necha omillar sababli yuzaga keladi va ular quyidagilar:

1. Rasmiy ish o‘rinlarining yetishmasligi
2. Soliq va rasmiylashtirish xarajatlaridan qochish
3. Huquqiy savodsizlik
4. Moslashuvchanlik

Norasmiy bandlik mehnat huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- Ijtimoiy himoyadan mahrumlik
- Ish haqining kafolatlanmasligi
- Ish joyidagi xavfsizlikning ta’minlanmasligi
- Iqtisodiy va demografik beqarorlik

2-jadval. Rasmiy va norasmiy bandlikning taqqoslanishi

Ko‘rsatkich	Rasmiy bandlik	Norasmiy bandlik
Ish shartnomasi	Bor	Yo‘q
Soliq to‘lovlari	To‘laydi	Ko‘pchilik to‘lamaydi
Pensiya va nafaqa	Taqdim etiladi	Taqdim etilmaydi
Huquqiy himoya	Bor	Zaif yoki mavjud emas
Barqarorlik	Yuqori	Past

Norasmiy bandlik ishchining asosiy konstitutsiyaviy huquqlari — mehnat qilish, adolatli ish sharoitlari va ijtimoiy himoya olish huquqlarini poymol qiladi. Mehnat kodeksiga ko‘ra, har bir ishchi ishga qabul qilinishda yozma mehnat shartnomasiga ega bo‘lishi kerak. Shartnoma bo‘lmasa, ishchining ishdan bo‘shatilganida yoki boshqa muammolar yuz berganida o‘z huquqlarini sud orqali himoya qilish imkoni yo‘q.

Shuningdek, bu holat ayollar va yoshlar uchun ham og‘ir oqibatlarga olib keladi. Ular ko‘pincha yengil aldanuvchan qatlam sifatida norasmiy ishlarga jalb etiladi va haq to‘lanmaydigan mehnatga duchor bo‘ladilar.

Norasmiy bandlikni kamaytirish yo‘lida O‘zbekiston hukumati bu muammoni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda:

1. O‘zini o‘zi band qilganlarni ro‘yxatga olish tizimi
2. Yoshlar va ayollar bandligini qo‘llab-quvvatlash dasturlari
3. Axborot va targ‘ibot ishlari
4. Yangi ish o‘rinlari yaratish

Norasmiy bandlik — bu nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy muammolar majmuasidir. U ishchilarning asosiy huquqlaridan mahrum bo‘lishiga, davlatning soliqqa oid daromadlarining kamayishiga va iqtisodiy beqarorlikka olib keladi. Bu muammoni bartaraf etish uchun davlat, ish

beruvchilar va ishchilar o‘zaro hamkorlikda harakat qilishi kerak. Har bir fuqaro o‘z mehnat huquqlarini bilib, uni himoya qilishni o‘rganmog‘i zarur.

Norasmiy bandlik bilan kurashish masalasi ko‘plab davlatlar uchun ham dolzarb bo‘lib kelmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, samarali huquqiy tizim va ijtimoiy himoya vositalari orqali bu muammoni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

“Germaniya”da ishchilarning har qanday mehnat faoliyati rasmiylashtirilishi shart. Mamlakatda mehnat inspeksiyalari kuchli tizimga ega bo‘lib, ish joylarida muntazam tekshiruvlar o‘tkaziladi. Norasmiy ishga jalb etgan ish beruvchilar uchun katta miqdorda jarimalar qo‘llaniladi.

“Janubiy Koreya”da hukumat kichik biznes egalari va norasmiy ishlovchi shaxslar uchun maxsus ijtimoiy sug‘urta dasturlarini joriy etgan. Bu orqali norasmiy sektor ishtirokchilariga rasmiy bozorga o‘tish rag‘batlantirilmoqda.

“Turkiya”da esa o‘zini o‘zi band qilganlar uchun soliq imtiyozlari va oddiylashtirilgan ro‘yxatdan o‘tish tizimi mavjud. Bu tartib huquqiylashtirishni osonlashtiradi va rasmiy bandlikni oshiradi.

Ushbu xorijiy tajribalar O‘zbekistonda ham moslashtirilgan tarzda joriy etilishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy sug‘urtaning jozibadorligini oshirish, raqamli nazorat tizimlarini joriy etish va fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyatga ega.

MEHNATDA AYOLLAR: JINSIY DISKRIMINATSIYA: QONUN AMALDA ISHLAYABDIMI?

Xoliqulova Umida Qodir qizi
Jamoat xavfsizligi universiteti 2-bosqich talabasi

Zamonaviy jamiyatda mehnat munosabatlarida ayollarning o‘rni ortib bormoqda.Hozirgi kunda har sohada bu- ta’lim,tibbiyot ,ishlab chiqarish va boshqa shu kabi sohalarda ayollarimizni ko‘rishimiz mumkin .Shu bilan birgalikda gender tenglik masalasi va ayollarning huquqlarini himoya qilish global darajadagi muammolardan biri bo‘lib kelmoqda.Xususan,ayollarga nisbatan mehnat jarayonida sodir bo‘layotgan jinsiy diskriminatsiya

holatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bunday kamsitishlarga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qator qonun normalari belgilagan bo‘lsada, ularning ijrosi doimo o‘z aksini topavermaydi.Ushbu maqolada mehnatda ayollarga nisbatan jinsiy diskriminatsiya masalasi ,mavjud huquqiy asoslar va ularning real hayotdagi samaradorligi tahlil qilinadi.

Keling birgalikda ,avvalo, jinsiy diskriminatsiya nima degan savolga javob beraylik. Jinsiy diskriminatsiya-bu shaxsning biologik jinsi (ayol yoki erkak) asosida unga nisbatan teng bo‘lmagan munosabatda bo‘lish, huquq va imkoniyatlarini cheklash ,huquqiy ,iqtisodiy yoki ijtimoiy jihatdan kamsitish holatlaridir .Bu kamsitish (ochiq va aniq shaklda) yoki bilvosita(tashqi jihatdan neytral,ammo aslida bir jins vakiliga zarar yetkazuvchi tarzda) amalga oshirilishi mumkin.

Hozir mehnat sohasidagi jinsiy diskriminatsiya tularini ko‘rib chiqamiz

1. Ishga qabul qilishda diskriminatsiya. Ish beruvchi faqat erkak yoki ayol nomzodlarni tanlashi yoki jinsiga qarab rad etishi. Misol: «Faqat erkaklarni ishga olamiz» yoki «Ayollar bu ishni bajara olmaydi» degan e’lonlar.

2. Lavozim bo‘yicha o‘sishdagi tengsizlik. Ayollarga yuqori lavozimlar berilmasligi yoki ularning xizmat pillapoyasida ko‘tarilishi sun’iy ravishda cheklanadi. Misol: Ayol xodim uzoq yillik tajribaga ega bo‘lsa-da, erkak hamkasbiga rahbarlik lavozimi taklif qilinadi.

3. Maoshdagi farqlar (gender pay gap). Ayollar va erkaklar bir xil ish bajarsa-da, ularga turlicha maosh to‘lanishi. Misol: Erkak xodim 5 million so‘m maosh olsa, ayol xodim shu vazifada 4 million so‘m olayotgan bo‘lishi.

4. Mehnat sharoitlaridagi tengsizlik. Ayol va erkaklar uchun turli ish sharoitlari, bonuslar yoki imkoniyatlar yaratilishi. Misol: Ayol xodimlar uchun kasbiy rivojlanish kurslari yoki xizmat safarlari cheklanishi.

5. Onalik va oila bilan bog‘liq diskriminatsiya. Ayol xodim onalik ta’tiliga chiqqani yoki farzand borligi sababli imkoniyatlardan chetlatilishi. Misol: “Yangi tug‘ilgan chaqalog‘i bor, mas’uliyatli ishni bajara olmaydi” degan asosda ayolni muhim loyihalardan chetlatish.

6. Ish joyida jinsiy tazyiq (harassment). Ayollarning jinsiy jihatdan bezovta qilinishi yoki ularning jinsiylikka oid stereotiplarga duch kelishi. Misol: Ayolning tashqi koʻrinishi asosida uni kamsitish, nomaqbul hazillar qilish.

7. Bilvosita (yashirin) diskriminatsiya. Genderga bevosita ishora qilinmasa-da, qabul qilingan siyosat yoki qoidalar ayollarga nisbatan salbiy ta’sir koʻrsatadi. Misol: Ish vaqti kechki 8 gacha belgilanishi — bu ayol xodimlarga (ayniqsa, bolali) noqulaylik tugʻdiradi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilinga yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining 4-moddasida mehnat sohasidagi tenglik prinsipi mustahkamlangan. Mazkur modda har qanday kamsitishni, jumladan, jinsiga koʻra mehnat huquqlarini cheklash yoki afzalliklar berishni ta’qiqlaydi Kodeksda jinsiy diskriminatsiya atamasi toʻgʻridan toʻgʻri qoʻllanmagan boʻlsada, uning mohiyatan ta’qiqlanishi yaqqol ifodalangan .

Mehnat va mashgʻulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga boʻlgan munosabati, e’tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatlari va mehnati natijalari bilan bogʻliq boʻlmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashgʻulotlar sohasida biror-bir toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitish deb yozib qoʻyilgan.

Shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 42-moddasida aytilganidek:

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan boʻshatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi.

Koʻrib turganimizdek jinsiy diskriminatsiya masalasi qonun bilan kafolatlangan.

Bugungi kunda ayollarimiz ishga qabul vaqtida ish beruvchilar tomonidan Turmushga chiqqanmisiz, Farzand koʻrishni rejalashtiryapsizmi, Homiladormisiz kabi noqonuniy savollarga duch kelmoqda .Hozir bu kabi savollar va uning huquqiy bahosini jadval asosida koʻrib chiqamiz.

Ayollarga intervyu vaqtida beriladigan kamsituvchi savollar va ularning huquqiy bahosi

Savol	Tavsiya etilmaydi / Noto‘g‘ri sababi	Huquqiy asos / izoh
“Turmushga chiqqanmisiz?”	Shaxsiy hayotga oid. Ishning mazmuniga aloqasi yo‘q.	O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, 34-modda — jins va oilaviy holat bo‘yicha kamsitish taqiqlanadi.
“Qachon to‘y qilmoqchisiz?”	Ayolning nikoh rejalari uning mehnatga layoqatini belgilamaydi.	“Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, 6-modda — bevosita yoki bilvosita gender kamsitish taqiqlanadi.
“Farzandingiz bormi?”	Farzand borligi sababli ishga yaroqsiz deb hisoblash — diskriminatsiya.	Mehnat kodeksi, 234-modda — bolali ayollar uchun ijtimoiy kafolatlar belgilangan.
“Homilador bo‘lishni rejalashtiryapsizmi?”	Bu savol sog‘liq va shaxsiy rejalarga oid, berilishi mutlaqo noo‘rin.	XMT 111-son konvensiyasi — ishga qabulda jins va ona bo‘lish holati bo‘yicha ajratish taqiqlanadi.
“Bu ish sizga og‘irlik qilmaydimi?”	Ayolni zaif deb hisoblash — stereotip.	Mehnat kodeksi, 4-moddasi — mehnat tengligi va kamsitmaslik kafolatlanadi.

Bundan tashqari jinsiy diskriminatsiyaning eng keng tarqalgan shakllaridan biri ayollarni homiladorligi yoki bola parvarishiga oid majburiyatlari sababli kamsitishdir. Bu holat, ayniqsa, mehnat munosabatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ayolning homilador bo‘lishi yoki tug‘ruq ta’tiliga chiqishi sababli unga nisbatan ishda noxolis munosabatda bo‘lish, lavozimidan chetlatish yoki umuman ishdan bo‘shatish holatlari ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham uchrab turadi.

Bunday diskriminatsiya nafaqat ayollarning mehnat huquqlarini buzadi, balki ularning ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Homiladorlik tufayli intervyudan o‘tkazilmaslik, ishga qabul qilinmaslik yoki bola parvarish ta’tilidan so‘ng avvalgi lavozimiga qaytish imkoniyatining yo‘qligi bu boradagi dolzarb muammolardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining tegishli moddalariga ko‘ra, homilador ayollar, shuningdek, 3 yoshgacha farzandi bo‘lgan ayollar bilan mehnat shartnomasi ularning roziligisiz bekor qilinmasligi lozim. Bundan tashqari, ular bola parvarish ta’tilidan qaytganidan so‘ng o‘zining avvalgi ish joyi yoki unga teng lavozimga tiklanish huquqiga ega.

Shunga qaramay, amaliyotda ayrim ish beruvchilar bunday mehnat huquqlarini chetlab o‘tishga urinadi, bu esa qonunchilikni buzish bilan birga, ayollarga nisbatan gender tengligini ta’minlash borasida jiddiy to‘siqlarga olib keladi. Shu boisdan, jinsiy diskriminatsiyani oldini olish va ayollarning mehnat huquqlarini himoya qilish borasida huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, xususan, homiladorlik va bola parvarishi bilan bog‘liq kafolatlarning amalda to‘liq qo‘llanishini ta’minlash zarurdir.

Amaliyotdagi bu kabi holatlarning yuzaga kelayotgani bizning bugungi kundagi kamchiligimiz deb aytsak bo‘ladi.Yana bir holat ayollarimizning mehnat munosabatlaridagi bandligi,rahbarlikdagi ulushi,lavozim ko‘tarilishidagi masala ham dolzarb ahamiyatga ega.

Statistikaga nazar tashlaydigan bo‘lsak;

Ko‘rsatkich	Ma’lumotlar	Manba
Ayollarning umumiy mehnat bozoridagi bandligi	Taxminan 48-50%	O‘zbekiston Mehnat statistikasi
Rahbarlikdagi ayollar ulushi	33%	Uza.uz (2023)
Davlat va jamoat tashkilotlaridagi rahbar ayollar soni	2,000 ga yaqin	Uza.uz (2023)
Siyosiy partiyalardagi ayollar ulushi	47%	Uza.uz (2023)
Oliy ta’limdagi ayollar ulushi	40%	Uza.uz (2023)
Tadbirkorlikdagi ayollar ulushi	37%	Uza.uz (2023)
Vazir o‘rinbosarlari, qo‘mita raislari o‘rinbosarlari, agentlik direktor	11 nafar	Uza.uz (2023)

Ko‘rsatkich	Ma’lumotlar	Manba
o‘rinbosarlari lavozimlaridagi ayollar soni		
Ayollar sudya lavozimidagi ulushi	14% (25 nafar)	Uza.uz (2023)
Ichki ishlar organlaridagi ayollar ulushi	10.2%	Uza.uz (2023)
2023 yilda mansabda ko‘tarilgan rahbar ayollar soni	6 nafar	Kun.uz (2024)
«Yuksalish» harakati rahbar ayollar reytingi bo‘yicha kiritilganlar soni	40 nafar	Kun.uz (2024)

Keling shu o‘rinda xorijiy tajribani ham bir ko‘rib o‘tamiz.AQSH va Fransiya misolida ayollarning mehnatdagi o‘rni: AQSH va Fransiya bo‘yicha solishtirma jadval:

Ko‘rsatkich	US AQSH	FR Fransiya
Mehnatga layoqatli ayollar ulushi	47%	52%
Ishchi kuchidagi ayollar ulushi	47%	49%
Ayollar bandlik darajasi	57% (2023)	68% (2024)
Ayollar o‘rtacha maoshi erkaklardan past	~16–18% kamroq	~15–20% kamroq
Rahbarlik (CEO) lavozimidagi ayollar ulushi	11% (Fortune 500)	6.25% (CAC 40)
Kompaniya rahbarlari orasida ayollar	30% (boshqaruv kengashlarida)	25% (umumiy)
Davlat idoralarida (vazirlar, parlament a’zolari)	48% (Biden hukumati) / 28% Kongress	36% parlament / 40% hukumat a’zolari (2024)
Lavozim ko‘tarilishi bo‘yicha gender tengligi	Tashabbuslar kuchli, lekin ko‘rsatkich pastroq	Yirik korporatsiyalarda hali yetarli emas

Ko‘rsatkich	US AQSH	FR Fransiya
Gender tengligi qonuniy himoyasi	Title VII, Equal Pay Act, EEOC	Code du travail, Loi Copé-Zimmermann

AQSH da ham jinsiy diskriminatsiyani tartibga solib turadigan qonunchilik mavjud. 1963-yilgi Teng Maosh To‘lash Qonuni haqida. 1963-yilgi Teng Maosh To‘lash Qonuni — bu AQSh mehnat qonuni bo‘lib, u Fair Labor Standards Act (Adolatli Mehnat Standartlari Qonuni)ga o‘zgartirish kiritgan. Uning maqsadi jinsga asoslangan ish haqidagi tafovutlarni yo‘q qilishdir (bu gender maosh farqi deb ataladi). Qonun 1963-yil 10-iyun kuni Jon F. Kennedi tomonidan New Frontier dasturining bir qismi sifatida imzolangan.

Qonun qabul qilinishida Kongress jinsga qarshi diskriminatsiyani quyidagilar bilan ta’riflagan:

- Ishchilarning sog‘ligi va samaradorligi uchun zarur bo‘lgan daromad va hayot darajasini pasaytiradi;
- Mehnat resurslarining maksimal darajada foydalanilishiga to‘sqinlik qiladi;
- Mehnat nizolarini keltirib chiqaradi, bu esa savdoni qiyinlashtiradi;
- Tovarlar va xizmatlarning erkin oqimini to‘sadi;
- Noto‘g‘ri raqobat shaklini yuzaga keltiradi.

Qonunga ko‘ra, hech bir ish beruvchi xuddi shu korxonada ishlayotgan xodimlarga jinsiga qarab farq qilib, bir jinsdagi ishchilarga kamroq ish haqi to‘lay olmaydi, agar ular teng ishni qilayotgan bo‘lsa. Teng ish quyidagilarni talab qiladi:

- Teng mahorat,
- Teng mehnat yoki kuch,
- Teng javobgarlik.

Shuningdek, ish sharoitlari ham o‘xshash bo‘lishi kerak. Biroq, maosh farqlari quyidagi holatlarda ruxsat etiladi:

- Ish tajribasiga asoslangan tizim,
- Mehnat samaradorligiga asoslangan tizim,
- Ish hajmi yoki sifatiga qarab o‘lchanadigan tizim,
- Yoki jinsga bog‘liq bo‘lmagan boshqa asosiy omillar.

Daromad farqi

O‘rtacha amerikalik ayollarning maoshlari EPA (Teng Maosh To‘lash Qonuni) qabul qilinganidan beri erkaklarnikiga nisbatan oshib bormoqda — 1979-yilda erkaklar maoshining 62.3% ini tashkil qilgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 81.1% ga yetdi.

Dastlab Teng Maosh To‘lash Qonuni ijrochi rahbarlar, administratorlar, tashqi sotuvchilar va professional kasblarga taalluqli bo‘lmagan, ammo 1972-yildagi Ta’limga oid o‘zgartirishlar orqali bu guruhlar ham qonun doirasiga kiritildi.

1970-yilgi Teng Maosh To‘lash Qonuni — Buyuk Britaniya parlamenti tomonidan qabul qilingan qonun bo‘lib, unda erkaklar va ayollar o‘rtasida ish haqi va ish sharoitlari bo‘yicha kamroq foydali munosabatlarni taqiqlaydi. 1970-yilgi Teng Maosh To‘lash Qonuni hozirda asosan 2010-yilgi Tenglik Qonuni (Equality Act 2010)ning 5-bobi, 3-bo‘limi bilan almashtirilgan.

Jinsiy diskriminatsiya bilan bog‘liq yana shu kabi ko‘plab muammolarni sanab o‘tishimiz mumkin. Aslida bu muammolarning asl sababi nimada ,aholining huquqqiy savodxonlik darajasining pastligidami?, yo huhuqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi nazoratning sustligidami?, yo ish beruvchi va jamiyat o‘rtasidagi pozitsiya shunaqami.Aslida bularning hammasini jinsiy diskriminatsiyaning asosiy sabablaridan biri desak bo‘ladi. Buning uchun nima qilishimiz kerak?

XULOSA:Hayot davom etaverar ekan ,inson yashashi va yaxshi hayot kechirmog‘i uchun mehnat munosabatlari bilan doimiy aloqada bo‘ladi.Ayol ham erkak ham birdek kurashadi. Birdek harakat qilayabdimi,demak birdek huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak.

YECHIM VA TAKLIFLAR: Mehnat munosabatlarida jinsiy diskriminatsiyani imkon qadar yo‘q qilishda ;ishga qabul qilishda inson omilini minimallashtirish va onlayn rejimga o‘tish kerak.Ya’ni qabul jarayonida anonim rezyume(Yoshi,jinsi,oilaviy holati ko‘rsatilmagan holda) va onlayn test sinovlari kabi amaliyotni tadbiq etish lozim.Albatta, bu kabi amaliyotning shaffof va adolatli tarzda yuritilishini ham ta’minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi,2023

2.O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi(yangi tahriri).-Toshkent:Adolat nashriyoti,2023

3.”Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun.-Qabul qilingan sana:2019-yil 2-sentabr, O‘RQ-561.-Toshkent:Lex.uz

4.XMT 111-son konvensiyasi-”Bandlik va kasb bo‘yicha kamsitish to‘g‘risida” 1958-yil.-www.ilo.org

5.Equal Pay Act of -1963 AQSH(USA)

NOFORMAL BANDLIK: MEHNAT HUQUQLARIGA TAHDID VA UNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Soliyeva Surayyoxon
Jamoat xavfsizligi universiteti
203-guruh talabasi

Аннотация: В настоящей статье освещается широко распространённая в Республике Узбекистан проблема — неформальная занятость, а также её негативное влияние на трудовые права, правовую незащищённость работников, их отстранённость от системы социального страхования и пенсионного обеспечения. На основе статистических данных выявляется масштаб проблемы, применён аналитический подход с опорой на Трудовой кодекс, международные правовые стандарты (рекомендации МОТ) и другие нормативные акты. Кроме того, в статье представлены предложения и решения по сокращению неформальной занятости на основе сравнительного анализа международного опыта.

Ключевые слова: неформальная занятость, международный опыт, МОТ, электронный трудовой договор, охрана труда, механизмы защиты, статистика.

Annotation: This article highlights the widespread issue of informal employment in the Republic of Uzbekistan, focusing on its negative impact

on labor rights, workers' legal vulnerability, and their exclusion from social insurance and pension systems. Based on statistical data, the scope of the problem is identified using an analytical approach grounded in the Labor Code, international legal standards (including ILO recommendations), and other normative documents. Furthermore, the article presents a set of proposals and solutions aimed at reducing informal employment through comparative analysis of international practices.

Keywords: informal employment, international experience, ILO (international Labour Organization), electronic employment contract, occupation safety, protective mechanisms, statistics.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida mehnat munosabatlarini tartibga solish, xususan, ishchilarning qonuniy huquqlarini himoya qilish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligida inson huquqlari, adolatli mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bu huquqlardan ko‘pchilik to‘liq foydalana olmaydi. Ayniqsa, noformal (yoki norasmiy) bandlik sharoitida ishlayotgan fuqarolar bu himoyadan butkul chetda qolishadi.

Noformal bandlik: mohiyati va statistika. Noformal bandlik (norasmiy mehnat faoliyati) — unda ishchi va ish beruvchi o‘rtasida amaldagi mehnat qonunchiligi talablariga muvofiq tuzilgan yozma mehnat shartnomasi mavjud emas, mehnat munosabatlari davlat tomonidan rasmiy ro‘yxatga olinmagan, ish haqi, ish vaqti, dam olish, mehnat muhofazasi, ijtimoiy sug‘urta va pensiya tizimi kabi asosiy mehnat huquqlari kafolatlanmagan bo‘ladi.

Noformal bandlik — bu fuqarolarning mehnat faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 34-, 35-, 36- va 37-moddalarida belgilangan tartibda yozma mehnat shartnomasi tuzmasdan va uni “Yagona milliy mehnat tizimi”da ro‘yxatdan o‘tkazmasdan amalga oshirishi holatidir. Bu holat ishchilarning mehnat huquqlari, ijtimoiy sug‘urta va pensiya tizimidan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Xalqaro Mehnat Tashkilotining (ILO) 204-sonli tavsiyasiga binoan, noformal bandlik fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari to‘liq

ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qiladi, rasmiy iqtisodiyotdan chetda qolishiga, ishchilarning ekspluatatsiya qilinishiga va ijtimoiy adolatsizlikka sabab bo‘ladi.

2023-yil yakuniga qadar band aholining 48,3 foizi noformal sektorda faoliyat yuritgan. Bu esa 5 milliondan ortiq fuqaro hech qanday mehnat shartnomasiz, ijtimoiy sug‘urtasiz, himoyasiz mehnat qilayotganini anglatadi. Soha bo‘yicha taqsimot:

Qishloq xo‘jaligi: 58%

Savdo va xizmat ko‘rsatish: 23%

Qurilish: 15%

Uy xizmatlari (enaga, tozalovchi, oshpaz): 4%

Ushbu raqamlar xalqaro darajada ham tahlikali ko‘rinishda. Masalan, ILO ma’lumotiga ko‘ra, Markaziy Osiyoda o‘rtacha noformal bandlik darajasi 37% atrofida, ya’ni O‘zbekistondagi ko‘rsatkich undan sezilarli darajada yuqori.

Noformal ishchilarning mehnat huquqlarining buzilishi. *Mehnat kodeksi 103-moddasi* - Mehnat shartnomasining tushunchasi va taraflari: Mehnat shartnomasi xodim va ish beruvchi o‘rtasidagi taraflarning o‘zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo‘lib, unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini ko‘zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat qoidalariga rioya etish majburiyatini, ish beruvchi esa xodimga shartlashilgan mehnat vazifasi bo‘yicha ish berish, xodimga ish haqini o‘z vaqtida hamda to‘liq miqdorda to‘lash, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarda va ushbu kelishuvda nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini ta’minlash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

Mehnat shartnomasisiz ishlash:

Ishga qabul qilish faqat yozma mehnat shartnomasi orqali amalga oshiriladi. Shartnomasiz ish boshlagan xodim mehnat munosabatlarining isbotlanishida qiyinchiliklarga duch keladi. Noformal ishchi ishdan bo‘shatilganda, ish staji, ish haqi, ish vaqtining qonuniy tartibi, ishdan bo‘shatishning sabablari huquqiy asosda tasdiqlanmaydi.

Mehnat daftarchasi va ish stajining yo‘qligi:

Noformal ishchi mehnat stajini to‘plashda qiyinchiliklarga uchraydi, bu esa kelgusida pensiya olish huquqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ish haqi va ish vaqtining qonuniy tartibda kafolatlanmasligi:

Mehnat kodeksining 121–124-moddalari ish haqi miqdori, to‘lash vaqti va shaffofligini belgilaydi. Noformal ishchilar ko‘pincha og‘zaki kelishuv asosida kamroq haq oladi yoki ish haqi kechiktiriladi. Ular ish haqi bo‘yicha sud orqali da’vo qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Mehnat sharoitlari va mehnat muhofazasi talablariga rioya etilmasligi:

Mehnat kodeksining 179–183-moddalari mehnat muhofazasi, sog‘lom va xavfsiz ish sharoitlariga rioya qilinishini kafolatlaydi. Noformal ishchilarga shaxsiy himoya vositalari berilmasligi, xavfli sharoitda ishlash, baxtsiz hodisa yuz berganda javobgarlikning rad etilishi kuzatiladi.

Ta’til, dam olish va ish vaqti huquqlari:

Mehnat kodeksining 147–151-moddalari yillik mehnat ta’tili, ish vaqti va dam olish kunlari tartibini belgilaydi. Noformal ishchilar ko‘pincha dam olishsiz yoki ish vaqtining normalaridan ortiq ishlaydi, ammo kompensatsiya ololmaydi.

Ijtimoiy sug‘urtadan foydalanish huquqining buzilishi:

O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, ish beruvchi ishchi uchun ijtimoiy sug‘urta to‘lovlarini amalga oshirishi lozim. Noformal ishchi kasallik, homiladorlik yoki nogironlik yuzasidan nafaqa olish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi. Shu bilan birga, pensiya ta’minoti uchun ish staji hisoblanmaydi.

Noformal bandlik mehnat muhofazasi va himoya vositalari bilan ta’minlanmaganligi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 179–183-moddalariga muvofiq, har bir ish beruvchi xodimlar uchun xavfsiz, sog‘lom va texnika talablariga javob beradigan mehnat sharoitlarini yaratishi shart. Jumladan:

shaxsiy himoya vositalari (SHHV) bilan ta’minlash;

ish joyida texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnoma o‘tkazish;

ishchi sog‘lig‘ini tibbiy ko‘rik orqali nazorat qilish;

ish joyida favqulodda holatlarning oldini olish choralarini ko‘rish.

Noformal sektor, ayniqsa qurilish, yengil sanoat, ko‘cha savdosi, xususiy transport va uy xizmatlari sohalarida, ushbu muhofaza choralari aksariyat hollarda qo‘llanilmaydi:

a) Shaxsiy himoya vositalari bilan ta’minlanmaslik:

Kaska, qo‘lqop, maxsus poyabzal, niqob, xavfsizlik kamar kabi SHHVlar noformal ishchilarga odatda berilmaydi. Ishchilar o‘z hisobidan yoki umuman vositasiz ishlashga majbur bo‘lishadi. Bu holat og‘ir sanoat yoki qurilish kabi xavfli sohalarda jismoniy jarohatlar, kasbiy kasalliklar va hatto o‘lim holatlariga olib kelmoqda.

b) Texnika xavfsizligi bo‘yicha yo‘riqnoma o‘tkazilmasligi:

Rasmiy ishga qabul qilinmagan ishchilarga xavfsizlik bo‘yicha ko‘rsatma berilmaydi, bu esa ularning og‘ir texnika bilan ishlayotganda o‘zini himoya qila olmasligiga olib keladi. Ishchilarning texnologik xatoliklar qilishi, elektr toki urishi, mexanik shikastlanishlar holatlari ortmoqda.

c) Tibbiy ko‘rikdan o‘tmaslik:

Mehnat qonunchiligi har yili ishchilarni tibbiy tekshiruvdan o‘tkazishni talab qiladi (ayniqsa og‘ir va zararli sharoitda ishlovchilar uchun). Noformal ishchilar bunday nazoratdan o‘tmaydi, bu esa ularning sog‘lig‘i muntazam yomonlashishiga olib keladi.

d) Baxtsiz hodisalarda ish beruvchining javobgarligi yo‘qligi

Rasmiy mehnat munosabatlari yo‘qligi sababli, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa yuz bergan taqdirda, ish beruvchi ishchini sug‘urtalamagan bo‘ladi.Jabrlanu vchi ishchi sudga murojaat qilishda huquqiy asosga ega bo‘lmaydi, ya’ni moddiy va ma’naviy zararni undira olmaydi. ILO (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha har yili 2.3 millionga yaqin ishchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar natijasida vafot etadi. Noformal sektor ulkan xavfga ega.

O‘zbekiston mehnat qonunchiligida mavjud himoya vositalari. 2023-yilda kuchga kirgan yangi Mehnat kodeksi bir qancha zamonaviy mexanizmlarni o‘z ichiga oldi:

1.Elektron mehnat shartnomasi va Yagona milliy mehnat tizimi (YMMT)

Ish beruvchi bilan ishchi o‘rtasida tuzilgan har bir mehnat shartnomasi Yagona milliy mehnat tizimi (my.mehnat.uz) orqali elektron ro‘yxatdan o‘tkazilishi majburiy va quyidagilarni kafolatlaydi:

Ishchi faoliyatining rasmiy hujjat asosida yuritilishi;

Mehnat stajining hisoblanishi;

Sug‘urta, pensiya va boshqa ijtimoiy kafolatlardan foydalanish.

2.Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining Inspeksiyasi – endilikda noqonuniy ishlatilayotgan mehnat kuchini aniqlash va ish beruvchini javobgarlikka tortish vakolatlariga ega. Funksiyalari:

Rasmiylashtirilmagan bandlikni aniqlash;

Mehnat shartnomasi bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini nazorat qilish

Noformal ishchilarning huquqlarini tiklashga ko‘maklashish.

3. Yozma mehnat shartnomasining majburiyligi

Mehnat kodeksi 34–36-moddalariga asosan, har bir ishchi bilan yozma ravishda mehnat shartnomasi tuzish shart. Muhim jihatlar:

Ish vaqti, dam olish, ish haqi va boshqa shartlar huquqiy asosda belgilanadi;

Sud yoki inspeksiya tomonidan nizolarni ko‘rib chiqishda ishonchli dalil bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy sug‘urta va pensiya tizimi bilan bog‘liqlik;

Mehnat munosabatlarining rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lishi;

Pensiya jamg‘armasiga hissa qo‘shish;

Kasallik nafaqasi;

Homiladorlik va tug‘ruq nafaqasi;

Baxtsiz hodisa yoki nogironlik bo‘yicha kompensatsiya olish imkoniyatiga ega qiladi.

4. Ishchi murojaatlari va sud himoyasi huquqi

Mehnat kodeksi 20- va 117-moddalari ishchilarga:

Ish beruvchi ustidan bevosita inspeksiyaga yoki sudga murojaat qilish,

Huquqlari buzilgan taqdirda qayta ishga tiklash yoki kompensatsiya talab qilish huquqini beradi.

5. Tahlil va monitoring tizimlari

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi elektron tizimlar (hisobotlar, avtomatlashtirilgan ish haqi nazorati, soliq axborotlari) orqali:

Norasmiy bandlik darajasini aniqlash,

Sektorlar bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish,

Ehtiyojmand hududlarga e’tibor qaratadi.

Noformal bandlik bo‘yicha xalqaro tajriba va ILO standartlari. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) noformal bandlikni global darajadagi dolzarb muammo sifatida tan olgan va unga qarshi kompleks yondashuv ishlab chiqqan. ILO tavsiyasi – R204 2015-yil “Noformal iqtisodiyotni rasmiylashtirish to‘g‘risida”gi tavsiyanoma. *Asosiy tamoyillar:*

Har bir davlat noformal iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha milliy strategiya ishlab chiqishi kerak;

Rasmiylashtirish jarayoni ishchilarni ijtimoiy himoya bilan qamrab olish, huquqlarini tan olish va yuridik xavfsizlikni ta’minlashni o‘z ichiga olishi kerak;

Mehnat shartnomalari, sug‘urta, sog‘liqni saqlash va kasbiy xavfsizlik standartlari barcha ishchilar uchun tatbiq etilishi lozim.

Statistika (ILO, 2023-yil holatiga ko‘ra)

Dunyoda jami ishchilarning 61% noformal sektorda faoliyat yuritadi.

Afrika va Janubiy Osiyoda bu ko‘rsatkich 80–90% ga yetadi.

Yevropa va Markaziy Osiyoda esa bu daraja 34% atrofida.

O‘zbekistonda noformal bandlik darajasi: 48% atrofida (2022-yil Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlari).

Braziliya – Simplified Employment System (Simples Nacional):

Noformal ish beruvchilar uchun soliqqa tortish va ijtimoiy to‘lovlarni birlashtirgan soddalashtirilgan tizim joriy qilingan. Natijada 2012–2019-yillar oralig‘ida 4,5 million ishchi noformal sektorni tark etdi.

Hindiston – e-Shram Portal (2021). Mamlakat bo‘yicha barcha noformal ishchilar maxsus elektron portalda ro‘yxatdan o‘tkaziladi. Ro‘yxatdan o‘tgan ishchilar: ijtimoiy yordam paketlariga ega bo‘ladi, sug‘urta va kasallik nafaqalari bilan qamrab olinadi.

AQSh (Amerika Qo‘shma Shtatlari). AQShda noformal sektor darajasi juda past (~8–10%), chunki ishchilarni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazmasdan ishlatish katta qonunbuzarlik hisoblanadi. Har bir ishchi uchun SSN (Social Security Number) bo‘lishi majburiy. Asosiy himoya mexanizmlari:

1. IRS (Ichki daromad xizmati) va mehnat inspektsiyasi

Har bir ishchi uchun soliqlar avtomatik ushlab qolinadi;

Ishchilarning mehnat haqi, soatlik ish vaqti va pensiya ajratmalari kuzatuvda bo‘ladi.

2. Fair Labor Standards Act (FLSA) – Adolatli mehnat qonuni:

Ishchilarning minimal ish haqi,

Ortiqcha ishlash uchun kompensatsiya,

Ishchilarni noto‘g‘ri toifalarga ajratib, noformal sifatida yollashga qarshi qat’iy choralarni belgilaydi.

3. Social Security System:

Pensiya, nogironlik, nafaqalar bo‘yicha to‘liq qamrov,

Rasmiy bo‘lmagan ishchi bu tizimdan foydalana olmaydi, shuning uchun AQShda odatda barcha ish munosabatlari huquqiy yo‘l bilan rasmiylashtiriladi.

Yondashuv xususiyati:

Qonunbuzarlik aniqlansa, ish beruvchi katta miqdorda jarima va soliq to‘lash bilan jazolanadi (ba’zan jinoiy javobgarlikka ham tortiladi).

Ishchilar esa o‘z huquqlarini himoya qilishda ixtiyoriy advokat, ommaviy ishchi tashkilotlari orqali ko‘mak oladilar.

Turkiya – 2023-yil holatiga ko‘ra noformal bandlik darajasi 26,4% atrofida (TÜİK – Turkiya Statistika Instituti ma’lumotlari). Bu ko‘rsatkich, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi, turizm, uy xizmatlari, kichik tadbirkorlik sohalarida yuqori. Asosiy chora-tadbirlar:

1. SGK (Sosyal Güvenlik Kurumu – Ijtimoiy himoya tashkiloti):

Har bir ishchi SGK tizimiga ro‘yxatga olinadi;

Ishchilar uchun ish beruvchi tomonidan sigorta (sug‘urta) to‘lovlari to‘lanishi majburiy;

Tibbiy xizmatlar, homiladorlik, pensiya kabi huquqlarni kafolatlaydi.

2. e-Devlet platformasi:

Har bir fuqaro o‘z ish haqi, sug‘urta holati, pensiya staji, mehnat shartnomasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni onlayn ko‘rish imkoniga ega;

Norasmiy ishlayotgan shaxslar bu tizimda mavjud emas — bu esa ularga huquqiy va ijtimoiy himoyani inkor etadi.

3. Cezai yaptırımlar (jarimalar):

Ishchini rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazmaslik, sug‘urtasiz ishlatish kabi holatlar moliyaviy jazoga tortiladi;

Ba’zi holatlarda ish beruvchiga faoliyatni to‘xtatish sanksiyasi qo‘llaniladi.

Yondashuv xususiyati:

Turkiyada so‘nggi yillarda raqamli monitoring, mobil ilovalar, va xodimlarning bevosita shikoyat qilish tizimi joriy etildi.

Davlat kasb-hunar markazlari orqali ishchilarni qayta tayyorlab, rasmiy sektor bilan bog‘lashga harakat qiladi.

Xulosa va takliflar

O‘zbekistonda noformal bandlik darajasi yuqoriligi — bu davlat uchun jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammo sanaladi. Uni bartaraf etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Elektron mehnat shartnomasi tizimini butun mamlakat bo‘ylab keng joriy etish va uni ommalashtirish;
2. Yagona milliy reestr: barcha ishchilar, shu jumladan, vaqtinchalik va mavsumiy ishchilarni ro‘yxatga olish.
3. Imtiyozli soliqqa tortish: kichik tadbirkorlar va xizmat ko‘rsatish sohasi uchun ijtimoiy to‘lovlarni yengillashtirish.
4. Ishchi markazlari orqali mehnat huquqi bo‘yicha konsultatsiya: huquqiy savodxonlikni oshirish.
5. Kasalxona varaqalari va homiladorlik uchun to‘lovlarni davlat tomonidan to‘liq qamrab olish — ishonchni oshiradi va rasmiy sektorni tanlashga undaydi.
6. Kasaba uyushmalarini faollashtirish va ularni monitoring jarayoniga jalb etish.
7. Davlat inspeksiyalarining salohiyatini oshirish, shuningdek, ishonchli “xabar berish” kanallarini yaratish.

ZAMONAVIY JAMIYATDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH

Bekmatov Ibrat Qudrat o‘g‘li
Jamoat Xavfsizligi Universiteti 2-bosqich kursanti
bekmatov1808@gmail.com

Mehnatni muhofaza qilish zamonaviy tashkilotlarni boshqarishning muhim jihatini anglatadi. Xavfsiz va sog‘lom mehnat sharoitlarini ta'minlash ish beruvchilar va davlatning ustuvor vazifasidir. Xodimlarning sog‘lig‘iga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish nafaqat ularning mahsuldorligini oshirishga, balki kompensatsiya va davolanish xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, u kasbiy kasalliklar va ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan.

Mehnatni muhofaza qilish g‘oyalari 19-asrning oxirida, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq xavflar tan olinishni boshlaganda shakllana boshladi. Ishlab chiqarish xavfsizligini tartibga soluvchi birinchi qonunlar qabul qilindi. Eng muhim qadamlar 1991 yildan davlat mehnat inspektsiyalarini tashkil etish va birinchi xavfsizlik standartlarini joriy etish bilan amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasida mehnatni muhofaza qilishning zamonaviy tizimi Mehnat kodeksiga va «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunga, shuningdek boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanadi.

Xodimlarning xavfsizligi va sog‘lig‘ini tartibga soluvchi ushbu hujjatlar ish beruvchilar va xodimlarning mehnat xavfsizligi sohasidagi huquqlari va majburiyatlarini belgilaydi. Ish beruvchilarga xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash, xodimlarga esa belgilangan me'yor va qoidalarga rioya qilish buyuriladi.

Mehnatni muhofaza qilish ishchilarni ishlab chiqarish xavfidan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga oladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko‘ra, har yili 2,78 milliondan ortiq odam ish bilan bog‘liq infektsiyalar va baxtsiz hodisalar tufayli vafot etadi.

Mehnatni muhofaza qilish bir nechta asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Mehnat xavfsizligi. Bu ish jarohatlari va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui. Xatarlarni baholash va profilaktika choralarini ishlab chiqish muhim rol o‘ynaydi.

2. Mehnat salomatligi. Bunga ishchilarning sog‘lig‘iga ta'sir qiluvchi sharoitlar, masalan, yorug‘lik, shovqin, harorat va kimyoviy omillar kiradi. Ish joyini to‘g‘ri tashkil etish, shuningdek binolarni shamollatish sog‘liqqa salbiy ta'sirni kamaytirishga yordam beradi.

3. Psixosotsial omillar. Ish muhiti, stress, charchash mahsuldorlik va sog‘liqqa sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy mehnatni muhofaza qilish qulay mehnat sharoitlarini yaratib, ushbu jihatlarni hisobga oladi.

Bundan tashqari, ushbu yo‘nalishlarning ishlashini ta'minlash uchun quyidagi usullar mavjud:

1. Profilaktik choralar-bu xavfni kamaytirish va salbiy oqibatlarning oldini olishga qaratilgan potentsial xavflarning paydo bo‘lishidan oldin oldini olish. Ular xavfli vaziyat yuzaga kelishidan oldin amalga oshirilishi kerak bo‘lgan muhandislik, tashkiliy, shuningdek mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik choralari kabi turli xil harakatlarni o‘z ichiga oladi. Profilaktika choralariga misollar:

Tashkiliy choralar-xavfsizlik qoidalarini tuzish va muntazam tekshiruvlarni o‘z ichiga oladi. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, signallarni o‘rnatish, qulay ish sharoitlarini yaratish, sog‘liqni saqlash holatini kuzatish. Profilaktika choralari aholini xavf haqida xabardor qilish va xabardor qilishni o‘z ichiga oladi profilaktik tadbirlarni o‘tkazish;

Profilaktika choralarini amalga oshirish tamoyillari:

Tizimlilik-profilaktika choralari doimiy va izchil amalga oshirilishi kerak.

Ustuvorlik - birinchi navbatda, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan eng yaxshi himoyani ta'minlaydigan chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak.

Natijaga e'tibor qaratish-profilaktika choralari samarali bo‘lishi va xavflarni kamaytirish va salbiy oqibatlarning oldini olishni ta'minlashi kerak.

2. Xodimlarni o‘qitish-xavfsizlik masalalari bo‘yicha xodimlarni muntazam ravishda tayyorlash. Ish beruvchining vazifasi xodimlarni mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha o‘qitishdir. Kirish brifingi asosiy xavfsizlik qoidalarini qamrab olishi kerak va maxsus treninglar potentsial xavfli mexanizmlar va materiallar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatishga qaratilgan. Muntazam kurslar xabardorlik darajasini oshiradi va ishlab chiqarishdagi hodisalar sonini kamaytiradi.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha ta'limning asosiy maqsadlari:

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni oshirish - ishchilarga qoidalar va me'yorlar, shuningdek ishni xavfsiz bajarish usullari o‘rgatilishi kerak.

Baxtsiz hodisalar va jarohatlarning oldini olish – trening ishchilarga ish joyidagi xavfli vaziyatlarni aniqlash va oldini olishga yordam beradi.

Xavfsiz va qulay ish muhitini yaratish-mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar korxonada xavfsizlik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha o‘qitish shakllari:

- Kirish brifingi: har bir yangi xodim bilan o‘tkaziladi, korxonada umumiy xavfsizlik qoidalari bilan tanishish.
- Birlamchi brifing: ma'lum bir ish joyida ish boshlashdan oldin amalga oshiriladi, ish sharoitlari va xavfsizlik choralari bilan tanishtiradi.
- Takroriy brifing: bilimlarni takrorlash va mustahkamlash uchun vaqti-vaqti bilan amalga oshiriladi.
- Rejadan tashqari brifing: ish sharoitlari o‘zgarganda yoki baxtsiz hodisadan keyin amalga oshiriladi.
- Maqsadli brifing: ayniqsa xavfli ishlarni bajarishdan oldin amalga oshiriladi.
- Amaliyot: ish joyida xavfsiz ishlash ko‘nikmalarini amaliy mashq qilish.

- Trening: mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha malaka oshirishga qaratilgan kurslar, treninglar va seminarlar.
- Bilimlar testi: mehnat xavfsizligi bo‘yicha bilim darajasini baholash, odatda test yoki imtihon shaklida.

3. Xatarlarni baholash-ish joyidagi potentsial tahdidlarni aniqlash va tahlil qilish. Xavfni baholash xavf manbalarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash uchun muhim jarayondir. U xavflarni aniqlash, xavf darajasini baholash va oqibatlarini minimallashtirish choralarini ko‘rishni o‘z ichiga oladi. Baholash natijalari asosida xodimlar uchun ko‘rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Ish joyidagi xavfni baholashning asosiy bosqichlari:

1. Xavflarni aniqlash:

Ish joyida bo‘lishi mumkin bo‘lgan barcha xavflarni aniqlash. Bunga jismoniy xavflar (masalan, mashinalar, balandliklar), kimyoviy xavflar (masalan, toksik moddalar), biologik xavflar (masalan, infektsiyalar), psixosotsial xavflar (masalan, stress, aloqa etishmasligi) va xavfsizlik qoidalari bilan bog‘liq xavflar (masalan, uskunadan noto‘g‘ri foydalanish). Identifikatsiya ish joylarini tekshirish, xodimlar bilan suhbatlashish, baxtsiz hodisalar statistikasini tahlil qilish va ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Xatarlarni baholash:

Xavf aniqlangandan so‘ng, ular yuzaga kelish ehtimoli va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning og‘irligi bo‘yicha baholanadi. Xatarlarni baholashning bir necha usullari mavjud, masalan sifat (ekspert xulosalari asosida xatarlarni baholash) va miqdoriy (ma'lumotlar va matematik modellar asosida xatarlarni baholash). Baholash natijalari har bir xavf darajasini va uni kamaytirish choralarining ustuvorligini aniqlashga imkon beradi.

3. Nazorat choralarini ishlab chiqish:

Xatarlarni baholashdan so‘ng, ushbu xavflarni minimallashtirish yoki yo‘q qilish uchun nazorat choralari ishlab chiqiladi. Nazorat choralari muhandislik (masalan, xavfli uskunalarni xavfsiz uskunalar bilan almashtirish), tashkiliy choralar (masalan, xodimlarni o‘qitish, ko‘rsatmalarni ishlab chiqish) va himoya choralarini (masalan, shaxsiy

himoya vositalaridan foydalanish) o‘z ichiga olishi mumkin. Nazorat choralari amalga oshirilishi va ularning samaradorligi tekshirilishi kerak.

4. Monitoring va qayta ko‘rib chiqish:

Nazorat choralari samaradorligini doimiy monitoring qilish va ularning dolzarbligini ta'minlash uchun xavflarni baholashni qayta ko‘rib chiqish. Ishlab chiqarish jarayonlari, texnologiyalar yoki qonunchilikdagi o‘zgarishlar xavfni baholashni qayta ko‘rib chiqishni talab qilishi mumkin. Monitoring jarohatlarni kuzatish, xavfsizlik choralariga rioya etilishini baholash va ish joyini muntazam ravishda tekshirishni o‘z ichiga oladi.

Nima uchun xavfni baholash kerak?

Xodimlarning xavfsizligi va salomatligi:

Xavfni baholash tashkilotlarga ish joyidagi jarohatlar, kasalliklar va baxtsiz hodisalarning oldini olishga yordam beradi.

Zararni kamaytirish:

Baxtsiz hodisalarning oldini olish va ulardan zararni minimallashtirish davolanish xarajatlarini, sug‘urta to‘lovlarini va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan da'volarni kamaytiradi.

Qonunchilikka muvofiqligi:

Ko‘pgina mamlakatlarda tashkilotlarni xatarlarni baholashga majbur qiladigan qonunlar va qoidalar mavjud.

Samaradorlikni oshirish:

Xavfsiz va sog‘lom ish muhiti samaradorlikni oshirishi va xodimlarning ruhiy holatini yaxshilashi mumkin.

Xavfni baholashni kim amalga oshirishi kerak?

Xavflarni baholash mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis yoki mehnatni muhofaza qilish xizmati tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ko‘proq samaradorlik uchun ish beruvchining vakillari, xodimlar va mehnat xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan xavflarni baholash komissiyasini tuzish tavsiya etiladi.

Hujjatlar:

Xavfni baholash hujjatlashtirilishi kerak.

Xavflar reestri, xavfni kamaytirish rejasi va xavflarni baholash hisoboti bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, ish joyidagi xavfni baholash tashkilotlarga o‘z xodimlari uchun xavfsiz va sog‘lom ish muhitini ta'minlashga yordam beradigan muhim jarayondir.

Zamonaviy texnologiyalar. Zamonaviy texnologiyalar mehnatni muhofaza qilish uchun yangi ufqlarni ochmoqda. Avtomatlashtirish tizimlari va taqiladigan qurilmalar kabi texnologiyalardan foydalanish mehnatni muhofaza qilishni yaxshilashga yordam beradi. Ular sizga real vaqt rejimida ish sharoitlarini kuzatish va favqulodda vaziyatlarning paydo bo‘lishiga tezda javob berish imkonini beradi. Datchiklar shovqin darajasini, haroratni va hatto havoning ifloslanish darajasini kuzatishi mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat baxtsiz hodisalarning oldini olishga imkon beradi, balki ish joyidagi umumiy mahsuldorlikni yaxshilaydi.

Mehnat xavfsizligi va sog‘lig‘iga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish xavfsiz va sog‘lom ish o‘rinlarini yaratish, shuningdek, korxonalar samaradorligini oshirish yo‘lidagi muhim qadamdir.

Dunyo bo‘ylab ko‘plab kompaniyalar mehnat xavfsizligi bo‘yicha ilg‘or amaliyotlarni amalga oshirmoqdalar. Masalan, ba'zi yirik ishlab chiqarish korxonalari umumiy sifat menejmenti tizimlari bilan birlashtirilgan mehnatni muhofaza qilishni boshqarish tizimlaridan foydalanadilar. Bu xavfsizlik darajasini oshirish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, mehnatni muhofaza qilish nafaqat Qonunchilik talablari, balki ishchilar farovonligi va ishlab chiqarish samaradorligining kalitidir. Bundan tashqari, bu har qanday tashkilotning barqaror rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir. Xavfsiz mehnat sharoitlari jarohatlar va kasbiy kasalliklar darajasini pasaytirishga, jamoada mahsuldorlik va axloqiy muhitni yaxshilashga yordam beradi. Barcha manfaatdor tomonlar mehnatni muhofaza qilish choralarini amalga oshirishda faol ishtirok etishlari muhimdir. Mehnatni muhofaza qilish investitsiyalari-bu barcha xodimlar uchun sog‘lom, xavfsiz va samarali ish joyini yaratish uchun kelajakka sarmoya kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://www.lex.uz
2. https://www.gramota.net
3. https://journal.ecostandard.ru
4. https://data.who.int

PROKURATURA ORGANLARINING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDAGI FAOLIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Xonniyozov Doston Nurali o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistri
+998909590608

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 5 mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig‘ilishida ishtirok etdi. Yig‘ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilandi. Bu yo‘nalishda prokuratura organlarining tutgan o‘rni va rolini alohida ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunida mazkur organning vakolatlari alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi o‘z vakolatlari doirasida:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi;
- korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshiradi;

- korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to‘g‘risidagi axborotni yig‘ish hamda tahlil qilishni amalga oshiradi;

- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko‘rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonun ijodkorligi faoliyatida, shu jumladan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda ishtirok etadi;

- aholi o‘rtasida jamiyatda huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ‘ibotga doir faoliyatda ishtirok etadi;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o‘z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo‘yilishini ta’minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi [1].

Ta’kidlash kerakki, prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari hisoblangan qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik aynan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va bartaraf etishda muhim o‘rin egallaydi. Zero, mazkur tamoyillar korrupsiyaga qarshi kurashishning ayrim asosiy prinsiplari (*qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik*) bilan o‘zaro hamohangdir.

“Prokuratura organlari faoliyatida mustaqillik tamoyili o‘ta muhim davlat va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, unga doimiy tartibda rioya qilingan taqdirdagina prokuratura organlari jamiyatda qonun ustuvorligini va yaxlitligini ta’minlashni, fuqarolarning huquqlarini, shuningdek, davlat va jamiyat manfaatlarining samarali himoya qilinishini ta’minlaydi” [2].

Yuqorida sanab o‘tilgan prinsiplar asosida korrupsiyani oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan huquqiy mexanizm choralarini amalga oshirishda prokuratura organlarining boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan

hamkorlik aloqalari muhim o‘rin egallaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatlari orasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilishga alohida urg‘u qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev, “Biz har qaysi huquqni muxofaza qilish organi bevosita o‘z vakolati doirasidan chiqmaydigan, bir-birining funksiyasini takror etmaydigan tizim shakllantirishimiz shart. Lo‘nda qilib aytganda, ichki ishlar - jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash bilan, milliy xavfsizlik - davlatni ichki va tashki tahdidlardan himoya qilish bilan shug‘ullanishi lozim. Prokuratura esa qonun lar ijrosi ustidan nazorat olib borishi zarur. Sudlarning asosiy vazifasi adolatni qaror toptirishdan iborat. Buning uchun sud xar bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli karor chikarishi lozim. Shu maksadda o‘tgan bir yil mobaynida sud, prokuratura, ichki ishlar organlari faoliyatini tubdan isloh kilish bo‘yicha keng qo‘lamli ishlarni amalga oshirdik. Ushbu idoralarning vazifalari aniq belgilanib, ularning faoliyati xalq manfaatlariga xizmat qilishga yo‘naltirilmoqda”, [3] deb ta’kidlagan edi. Haqiqatdan ham so‘nggi yillarda prokuratura organlarining bu yo‘nalishdagi vakolatlari kengaytirildi.

Ta’kidlash kerakki, mazkur hamkorlik nafaqat davlat organlari bilan balki keng jamoatchilikka ham taalluqli hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2021 yil 6 dekabrda aholiga qilgan murojaatida “Bosh prokuratura mamlakatimizning har bir fuqarosini jamiyatda, xususan prokuratura organlarida korrupsiyani tag-tomiri bilan bartaraf etishda faol hamkorlikka chaqirgan”ligini qayd etish lozim [4].

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo‘llab-quvvatlashga doir masalalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Inson qadrini ulug‘lash va faol

mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi”ning 303 bandidan ham o‘rin olganligini ta’kidlash kerak [5].

Mazkur hamkorlik aloqalari yuqoridagi kabi alohida tartibda amalga oshirilish bilan birga, Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya doirasida ham mavjud. Zero, “*korrupsiyaga qarshi kurashish va mazkur sohada idoralararo hamkorlik qilish*” mazkur maxsus komissiyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturi”da korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy tizimlar samaradorligini oshirish, shu jumladan, davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy koordinatorlarning o‘zaro hamkorligini ta’minlashga doir vazifa Bosh prokuraturaga yuklatilgan.

Fikrimizcha, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishda prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishda boshqa davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi yetarli darajada ta’minlangan. “Ixtisoslashtirilgan korrupsiyaga qarshi organ uning maqomini, maqsad va vazifalarini, boshqa institutlar (ayniqsa, huquqni muhofaza qilish va nazorat qilish organlari) bilan o‘zaro munosabatlar tartibini, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik mexanizmlarini va uni ta’minlaydigan jarayonlarni belgilab beradigan aniq qonunchilik bazasiga ega bo‘lishi kerak”

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar nafaqat mazkur yo‘nalishdagi nafaqat muayyan davlat organlari, balki butun jamiyat a’zolari hamkorlikda ish olib borilmoqda.

Ma’lumki, “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning 84-maqsadida korrupsiyani oldini olish va barataraf etishga doirquyidagi bir qator masalalar o‘z aksini topgan.

Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishga zamonaviy axborot, shu jumladan sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, jamoatchilik nazoratini olib borishni qo‘llab-quvvatlash.

Korrupsiyaga qarshi kurashish amaliyotida tizimli preventiv choralarni kuchaytirish.

Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish.

Normativ-huquqiy hujjatlarning «korrupsiyadan xoli qonunchilik» tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash [8].

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyani oldini olish ishlarini jadallashtirishda prokuratura idoralarining davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilishlari muhim sanaladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish, prokuratura idoralarining bu yo‘nalishdagi vazifa va funksiyalarini yanada kengaytirish hamda hamkorlik masalalarini zamon talablari darajasida tashkil etish lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 26.02.2025 y., 03/25/1038/0188-son. // https://www.lex.uz/acts/3088008

2. Vinokurova Yu.Ye. “Prokurorskiy nadzor”., M-2004., B. 40.

3. Sh.M.Mirzieyov. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –Toshkent. ”O‘zbekiston”. – 2018. – B-110.

4. Bosh prokuratura aholiga murojaat bilan chiqdi. https://xs.uz/uzkr/post/bosh-prokuratura-aholiga-murozhaat-bilan-chiqdi-2

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari

milliy bazasi, 01.03.2025 y., 06/25/27/0196-son. // https://lex.uz/docs/5841063

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 07.07.2021 y., 06/21/6257/0645-son. // https://www.lex.uz/ru/docs/4355387#4356167

7. Set po borbe s korrupsiey dlya stran Vostochnoy Yevropы i sentralnoy Azii. Antikorrupsionnыe reformы v Uzbekistane. 4-y raund monitoringa v ramkax Stambulskogo plana deystviy po borbe s korrupsiey. OESR 2019. – B.324.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.03.2025 y., 06/25/27/0196-son. // https://lex.uz/docs/5841063

QO‘RIQLASH XIZMATINING QO‘RIQLANADIGAN OBYEKTLAR HUDUDIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH FAOLIYATINI HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Shokirov Farruxbek Odiljon o‘g‘li
Sirdaryo viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi bo‘linma boshlig‘i, katta leytenant.

SH.M.Mirziyoyev

«O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda. Konstitutsiyamiz asosida mamlakatimizda milliy qonunchilik tizimi, davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari shakllandi. Bugungi kunda barcha jabhalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va harbiy salohiyatimiz yuksalib, fuqarolarimizning dunyoqarashi tobora o‘sib bormoqda «

Davlat xavfsizligi va tartibotini ta’minlash har qanday mamlakat uchun eng muhim vazifalardan biridir. O‘zbekiston Respublikasida bu vazifani amalga oshirishda Qo‘riqlash xizmati asosiy rol o‘ynaydi. Qo‘riqlash xizmati, shuningdek, mamlakatning strategik, davlat, xususiy va jamoat obyektlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklarning oldini olish kabi murakkab vazifalarni bajaradi. Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida sodir bo‘ladigan huquqbuzarliklar nafaqat obyektlarning xavfsizligiga tahdid soladi, balki butun jamiyatning tinchligi va barqarorligiga ham zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashish Qo‘riqlash xizmatining asosiy vazifalaridan biridir.

Zamonaviy dunyoda terrorizm, ekstremizm, kiberjinoyatlar va boshqa xavfli hodisalar tobora ko‘payib borayotgani hisobga olinsa, qo‘riqlash xizmatining ahamiyati yanada ortmoqda. Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati nafaqat qonunlar va qoidalarga rioya qilishni ta’minlash, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun ham zarurdir. Bu jarayon faqatgina qo‘riqlash xizmati xodimlarining shaxsiy jasorati va fidoyiligi bilan emas, balki qonunchilikning aniq va samarali mexanizmlari bilan ham amalga oshirilishi lozim.

Huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyatini huquqiy asoslari tahlili shu borada muhim ahamiyatga ega. Qonunchilikning aniq va izchil bo‘lishi, Qo‘riqlash xizmati xodimlarining huquqiy bilimlari va ularning amaliy faoliyati o‘rtasidagi muvofiqlik, shuningdek, xalqaro tajribadan samarali foydalanish bu jarayonni yanada samarali qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, qonunchilikda mavjud bo‘lgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash ham tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Ushbu maqolaning maqsadi qo‘riqlash xizmatining qo‘riqlanadigan obyektlar hududida huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish, bu boradagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolada quyidagi vazifalar hal etiladi:

1. Qo‘riqlash xizmati faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni tahlil qilish.

2. Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida keng tarqalgan huquqbuzarliklar turlari va ularning sabablarini o‘rganish.

3. Huquqbuzarliklarning oldini olish choralarini tahlil qilish.

4. Qonunchilikdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Maqolada ilmiy tadqiqot usullari, shu jumladan, qonun hujjatlari tahlili, statistik ma’lumotlarni o‘rganish, xalqaro tajriba bilan solishtirish va amaliy misollar keltirish usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari nafaqat Qo‘riqlash xizmati faoliyatini takomillashtirishga, balki qo‘riqlash sohasidagi qonunchilikni yanada rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Qo‘riqlash xizmati faoliyatining huquqiy asoslari

1. Konstitutsiyaviy asoslar

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat xavfsizligi va tartibotini ta’minlashga oid normalar;

- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda Qo‘riqlash xizmatining roli.

2. Milliy qonunchilikdagi asosiy hujjatlar

- «Milliy gvardiya to‘g‘risida»gi qonun;

- «Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida»gi qonun;

- Boshqa qonunlar va qarorlar

3. Xalqaro huquqiy me’yoriy hujjatlar

- Xalqaro shartnomalar va kelishuvlar

- Xalqaro tajriba va O‘zbekiston qonunchiligidagi o‘ziga xosliklar.

Qo‘riqlash xizmati faoliyatining huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, prezident farmonlari, hukumat qarorlari va boshqa normativ hujjatlarda mustahkamlangan. Bu hujjatlar Qo‘riqlash xizmatining vazifalari, vakolatlari va javobgarligini belgilab beradi, shuningdek, qo‘riqlash xizmatining huquqbuzarliklarni oldini olishdagi roli va usullarini tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat xavfsizligi, tartiboti va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni eng muhim vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Konstitutsiyaga ko‘ra, davlat fuqarolarning hayoti, shaxsiy erkinligi, shaxsiy daxlsizligi va mulkini himoya qilish majburiyatini oladi. Qo‘riqlash xizmati ham aynan shu vazifalarni amalga oshirish uchun

tashkil etilgan bo‘lib, uning faoliyati Konstitutsiyaning quyidagi tamoyillariga asoslanadi:

- Davlat xavfsizligi va tartibotini ta’minlash
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish
- Jinoyatlar va huquqbuzarliklarning oldini olish

Konstitutsiyaviy normalar Qo‘riqlash xizmatining faoliyatini huquqiy jihatdan asoslab beradi va uning qo‘riqlash xizmati orqali huquqbuzarliklarning oldini olishdagi rolini mustahkamlaydi.

Qo‘riqlash xizmati faoliyatini tartibga soluvchi asosiy qonunlar va normativ hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabrdagi «Milliy gvardiya to‘g‘risida»gi O‘RQ-647-son Qonuni

Bu qonun Qo‘riqlash xizmatining tashkil etilishi, vazifalari, vakolatlari va faoliyat tartibini belgilaydi. Qonunning 3-moddasida Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari ko‘rsatilgan bo‘lib, ular orasida qo‘riqlanadigan obyektlarning xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va tartibotni saqlash kabi mas’uliyatlar mavjud.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 15 iyundagi «Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ-778-son Qonuni

Bu qonun qo‘riqlash xizmatining huquqiy asoslarini belgilaydi. Unda qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar, ushbu subyektlarning huquqlari va majburiyatlari, shuningdek, qo‘riqlash faoliyatining prinsiplari, Milliy gvardiyaning vakolatlari keng yoritilgan.

3. Prezident qarorlari va farmonlari va hukumat qarorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 fevral kunidagi «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4997-son Qarori hamda 2021 yil 22 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xodimlar tomonidan xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5089-son Qarori Milliy gvardiyaning rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan.

Xalqaro huquqiy me’yoriy hujjatlar:

Qo‘riqlash xizmati faoliyati nafaqat milliy qonunchilik, balki xalqaro huquqiy me’yoriy hujjatlar hamda shartnomalar asosida amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi BMTning terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha konvensiyalariga, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik tashkilotlari doirasidagi kelishuvlarga qo‘shilgan. Bu hujjatlar terrorizm, ekstremizm va boshqa xalqaro tahdidlarga qarshi kurashishda Milliy gvardiyaning rolini mustahkamlaydi.

Huquqiy asoslarning amaliy ahamiyati.

Milliy gvardiya faoliyatining huquqiy asoslari nafaqat uning vakolatlari va majburiyatlarini belgilaydi, balki qo‘riqlash xizmati xodimlarining harakatlarini ham huquqiy jihatdan himoya qiladi. Masalan, qo‘riqlanadigan obyektlar hududida huquqbuzarlikni aniqlagan holda, Milliy gvardiya xodimlari qonun bilan belgilangan tartibda harakat qilishi lozim.

Bu esa fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va davlat xavfsizligini ta’minlashni bir vaqtning o‘zida amalga oshirish imkonini beradi.

Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida huquqbuzarliklarning turlari va ularning sabablari

Huquqbuzarliklarning turlari:

- Ruxsatsiz kirish va tartibsizliklar.
- Terror xavfi va ekstremizm harakatlari.
- Moddiy qimmatbaho narsalarni o‘g‘irlash yoki buzish.
- Korrupsiya va ichki tahdidlar
- Kiberjinoyatlar

Huquqbuzarliklarning sabablari:

- Ichki va tashqi tahdidlar (masalan: siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar).
- Qo‘riqlash tizimidagi kamchiliklar (texnik jihozlar etishmasligi, xodimlarning mas’uliyatsizligi va xodimning malakasi yetishmasligi).

Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida sodir bo‘ladigan huquqbuzarliklar turli xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Bu huquqbuzarliklar nafaqat obyektlarning xavfsizligiga tahdid soladi, balki jamiyatning tinchligi va barqarorligiga ham zarar yetkazishi mumkin.

Huquqbuzarliklarning turlari va ularning sabablarini tahlil qilish, ularning oldini olish choralarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Ruxsatsiz kirish va tartibsizliklar.

Qo‘riqlanadigan obyektlar hududiga ruxsatsiz kirish eng keng tarqalgan huquqbuzarliklardan biridir. Bu turdagi huquqbuzarliklar odatda obyektlarning xavfsizlik tizimlarini chetlab o‘tish yoki ularni buzish orqali amalga oshiriladi. Tartibsizliklar obyektlar hududida tartibni buzish, shovqin-suron qilish yoki xavfsizlik xodimlariga qarshilik ko‘rsatish shaklida namoyon bo‘ladi.

Terror xavfi va ekstremizm harakatlari.

Qo‘riqlanadigan obyektlar, ayniqsa strategik va davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan obyektlar, terror xujumlarining asosiy nishonlaridan biridir. Ekstremizm harakatlari obyektlar hududida targ‘ibot ishlari olib borish, norasmiy yig‘inlar tashkil etish yoki zo‘ravonlik harakatlarini uyushtirish shaklida namoyon bo‘lishi mumkin.

Moddiy qimmatbaho narsalarni o‘g‘irlash yoki buzish.

Qo‘riqlanadigan obyektlar aksariyat hollarda moliyaviy yoki madaniy qimmatga ega bo‘lgan narsalarni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi obyektlarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan o‘g‘irlik yoki vandalizm sodir etilishi mumkin.

Vandalizm obyektlarning muhim qismlarini buzish yoki boshqa shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Korrupsiya va ichki tahdidlar.

Qo‘riqlash xizmati xodimlari o‘rtasida korrupsiya hodisalari obyektlarning xavfsizligiga jiddiy tahdid soladi. Masalan, xodimlar tomonidan ruxsatnomalarni noqonuniy tarzda berish yoki huquqbuzarliklarni yashirish.

Ichki tahdidlar obyektlarning xavfsizlik tizimlarini buzish, ma’lumotlarni oshkor qilish yoki boshqa shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Kiberjinoyatlar.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi bilan qo‘riqlanadigan obyektlarning kiberxavfsizligi muammoga aylangan. Kiberjinoyatchilar

obyektlarning xavfsizlik tizimlarini buzish, ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki ularni blokirovka qilish orqali huquqbuzarlik sodir etishlari mumkin.

Huquqbuzarliklarning sabablari.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Qashshoqlik, ishsizlik va ijtimoiy adolatsizlik huquqbuzarliklarning asosiy sabablaridan biridir. Moliyaviy qiyinchiliklar tufayli ba’zi shaxslar noqonuniy yo‘llar bilan pul topishga harakat qilishi mumkin. Ijtimoiy muammolar, masalan, oilaviy zo‘ravonlik yoki ta’limning yetishmasligi, shaxslarni huquqbuzarliklarga undashi mumkin.

Psixologik omillar. Ba’zi shaxslar psixologik jihatdan beqaror bo‘lib, ularning huquqbuzarliklarga moyilligi yuqori bo‘ladi. Masalan, giyohvandlik yoki ruhiy kasalliklar shaxslarni noqonuniy harakatlarga undashi mumkin. Yoshlar orasida «qahramonlik» tuyg‘usi yoki g‘ayritabiiy qiziqishlar huquqbuzarliklarga olib kelishi mumkin.

Texnik kamchiliklar. Qo‘riqlanadigan obyektlarning xavfsizlik tizimlarining yetarli emasligi yoki eskirganligi huquqbuzarliklarning sodir bo‘lishiga imkon yaratadi. Masalan, videokuzatuv kameralari tizimlarining yo‘qligi yoki ularning samaradorligining pastligi.

Xavfsizlik xodimlarining malakasining pastligi yoki ularning yetarli darajada tayyorgarlikka ega bo‘lmaganligi ham huquqbuzarliklarning oldini olishda muammolarga olib keladi.

Huquqiy kamchiliklar. Qonunchilikda mavjud bo‘lgan kamchiliklar huquqbuzarliklarning oldini olishni qiyinlashtiradi. Masalan, huquqbuzarliklar uchun belgilangan jazolar yetarli darajada qattiq bo‘lmaganligi yoki ularni amalga oshirish jarayonidagi noaniqliklar. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining huquqlari va majburiyatlarini belgilovchi qonunlar noaniq yoki yetarli darajada batafsil bo‘lmaganligi.

Tashqi tahdidlar. Xalqaro miqyosdagi siyosiy yoki iqtisodiy mojarolar qo‘riqlanadigan obyektlarning xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Masalan, terror tashkilotlari yoki boshqa mamlakatlarning razvedka xizmatlari tomonidan uyushtirilgan diversiya harakatlari.

Huquqbuzarliklarning oldini olish choralari.

Huquqbuzarliklarning oldini olish Milliy gvardiya qo‘riqlash xizmatining asosiy vazifalaridan biridir. Bu jarayon faqatgina

huquqbuzarliklarni bartaraf qilishni emas, balki ularning sodir bo‘lishining oldini olishni ham o‘z ichiga oladi. Huquqbuzarliklarni oldini olish choralari quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Profilaktika choralari:

- Huquqiy targ‘ibot va ogohlantirish ishlari.
- Fuqarolarni xavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘qitish.

Texnik vositalardan foydalanish:

- Videokuzatuv kameralari tizimlari, datchiklar va boshqa zamonaviy uskunalar.
- Sun’iy intellekt va kiberxavfsizlikning qo‘llanilishi.

Milliy gvardiya xodimlarining malakasini oshirish:

- Maxsus mashg‘ulotlar va treninglar.
- Xalqaro hamkorlikda malaka oshirish dasturlari.

Huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlari:

- Tezkor reaksiya guruhlari va ularning faoliyati.
- Huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlik.

Huquqiy targ‘ibot va ogohlantirish ishlari. Qo‘riqlanadigan obyektlar atrofida yashovchi fuqarolarni huquqiy bilimlar bilan ta’minlash. Bu maqsadda mahalliy aholi bilan muntazam ravishda uchrashuvlar, seminarlar va treninglar o‘tkaziladi. Obyektlar hududida huquqbuzarliklar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jazolar va ularning oqibatlari haqida ogohlantirish materiallari tarqatish.

Fuqarolarni xavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘qitish. Fuqarolarni xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va shubhali holatlarni darhol xabar qilish bo‘yicha o‘qitish.

Obyektlar hududida xavfsizlikni ta’minlashda fuqarolarning faol ishtirokini rag‘batlantirish.

Kamerazorlik tizimlari va datchiklar. Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida yuqori sifatli videokuzatuv kameralari tizimlari o‘rnatish. Bu tizimlar orqali obyektlarning barcha qismlari doimiy ravishda nazorat qilinadi va shubhali harakatlar aniqlanganda darhol choralar ko‘riladi. Harakatni aniqlash datchiklari, tovushni aniqlash tizimlari va boshqa zamonaviy texnik vositalardan foydalanish.

Biometrik tizimlar. Kirish nazorati uchun biometrik tizimlarni joriy etish. Masalan, barmoq izlari, yuzni tanib olish yoki koʻzni skanerlash orqali faqat ruxsat etilgan shaxslarning obyektlar hududiga kirishini taʼminlash.

Kiberxavfsizlik choralari. Obyektlarning kiberxavfsizligini taʼminlash uchun zamonaviy dasturiy taʼminot va apparat yechimlaridan foydalanish. Maʼlumotlarni shifrlash, tarmoq xavfsizligini taʼminlash va kiberhujumlarni aniqlash tizimlarini oʻrnatish.

Maxsus mashgʻulotlar va treninglar. Qoʻriqlash xizmati xodimlarini huquqbuzarliklarni aniqlash va bartaraf etish boʻyicha muntazam ravishda oʻqitish.

Xodimlarning psixologik tayyorgarligini oshirish, shuningdek, ularni stressli sharoitlarda toʻgʻri qaror qabul qilishga oʻrgatish.

Xalqaro hamkorlikda malaka oshirish dasturlari. Xalqaro tajribalardan foydalanish va xorijiy mamlakatlarda oʻtkaziladigan treninglarga qatnashish. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda oʻtkaziladigan seminarlar va konferensiyalarda ishtirok etish.

Tezkor reaksiya guruhlari. Qoʻriqlanadigan obyektlar hududida tezkor reaksiya guruhlarini tashkil etish. Bu guruhlar shubhali holatlarni darhol aniqlash va ularga tezda javob berish imkonini beradi. Guruhlar xodimlarining maxsus jihozlar va transport vositalari bilan taʼminlanishi.

Huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlik. Qoʻriqlash xizmati va huquq-tartibot idoralari oʻrtasida samarali hamkorlikni yoʻlga qoʻyish. Bu hamkorlik orqali huquqbuzarliklar tezda aniqlanadi va ularga qarshi choralar koʻriladi. Maʼlumot almashish tizimlarini yaratish va ularni doimiy ravishda yangilab borish.

Fuqarolarning ishtirokini ragʻbatlantirish. Fuqarolarni shubhali holatlarni darhol xabar qilishga undash. Buning uchun maxsus telefon raqamlar, mobil ilovalar yoki onlayn platformalar yaratish. Fuqarolarning xavfsizlikni taʼminlashdagi rolini oshirish uchun ragʻbatlantirish choralari (masalan, mukofotlar yoki eʼtirof etish).

Qonunchilikni takomillashtirish. Huquqbuzarliklarning oldini olishni taʼminlash uchun qonunlarni zamonaviy talablarga moslashtirish. Huquqbuzarliklar uchun belgilangan jazolar samaradorligini oshirish.

Nazoratni kuchaytirish. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilish va ularning qonunlarga rioya qilishini ta’minlash. Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki nazorat tizimlarini samaradorligini oshirish.

Ichki nazorat tizimining zaifligi. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun samarali ichki nazorat tizimlari mavjud emas. Bu esa korrupsiya va suiiste’mollik holatlarining ko‘payishiga olib keladi. Xodimlarning huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga nisbatan choralar ko‘rish jarayoni noaniqligi va samarasizligini oshiradi.

Fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning yetarli emasligi. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining harakatlari fuqarolarning huquqlarini buzishi mumkin. Masalan, shubhali shaxslarni tekshirish jarayonida fuqarolarning shaxsiy daxlsizligi buzilishi mumkin. Fuqarolarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish va ularga javob berish mexanizmlari samarali ishlamaydi.

Takliflar va yechimlar

Qo‘riqlash xizmati xodimlarining huquqlari va majburiyatlarini aniq belgilovchi yangi qonunlar va normativ hujjatlarni ishlab chiqish. Huquqbuzarliklar uchun belgilangan jazolar samaradorligini oshirish va ularni amalga oshirish jarayonini aniq tartibga solish. Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida huquqbuzarliklarni oldini olishni tartibga soluvchi normativ hujjatlarni ishlab chiqish. Masalan, obyektlarning turiga qarab xavfsizlik talablarini belgilash. Kiberxavfsizlik va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni tartibga soluvchi qonunlarni joriy etish. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining faoliyatini nazorat qilish uchun samarali ichki nazorat tizimlarini yaratish. Xodimlarning huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga nisbatan choralar ko‘rish jarayonini aniq tartibga solish. Xalqaro tajriba va me’yoriy hujjatlardan to‘liq foydalanish. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan seminarlar va treninglarda qatnashish. Qo‘riqlash xizmati xodimlarining harakatlari fuqarolarning huquqlarini buzmasligini ta’minlash. Masalan, shubhali shaxslarni tekshirish jarayonida fuqarolarning shaxsiy daxlsizligini himoya qilish. Fuqarolarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish va ularga javob berish mexanizmlarini samarali ishlashini ta’minlash. Fuqarolarni shubhali

holatlarni darhol xabar qilishga undash. Buning uchun maxsus telefon raqamlar, mobil ilovalar yoki onlayn platformalar yaratish. Fuqarolarning xavfsizlikni ta’minlashdagi rolini oshirish uchun rag‘batlantirish choralari (masalan, mukofotlar yoki e’tirof etish).

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, qo‘riqlash xizmatining qo‘riqlanadigan obyektlar hududida huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatini huquqiy asoslari tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu jarayon nafaqat davlat xavfsizligi va tartibotini ta’minlash, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

Huquqiy asoslarning muhimligi. Milliy gvardiya faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va normativ hujjatlar qo‘riqlash xizmatining samaradorligini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Milliy gvardiya to‘g‘risida»gi qonun, «Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida»gi qonun va boshqa normativ hujjatlar bu faoliyatning huquqiy asoslarini shakllantiradi. Biroq, qonunchilikda mavjud bo‘lgan kamchiliklar va noaniqliklar huquqbuzarliklarning oldini olishni qiyinlashtiradi.

Huquqbuzarliklarning turlari va sabablari. Qo‘riqlanadigan obyektlar hududida sodir bo‘ladigan huquqbuzarliklar turli xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Ruxsatsiz kirish, terror xavfi, vandalizm, korrupsiya va kiberjinoyatlar eng keng tarqalgan huquqbuzarliklardan hisoblanadi. Bu huquqbuzarliklarning sabablari ijtimoiy-iqtisodiy omillar, psixologik muammolar, texnik kamchiliklar va huquqiy noaniqliklar bilan bog‘liq.

Huquqbuzarliklarni oldini olish choralari. Huquqbuzarliklarning oldini olish uchun profilaktika choralari, texnik vositalardan foydalanish, xodimlarning malakasini oshirish, tezkor reaksiya guruhlari tashkil etish va fuqarolarning ishtirokini rag‘batlantirish kabi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu choralarni samarali amalga oshirish uchun qonunchilikni takomillashtirish va xalqaro tajribadan foydalanish zarur.

Huquqiy muammolar va takliflar. Tadqiqot jarayonida aniqlangan huquqiy muammolar qonunchilikning noaniqligi, ichki nazorat tizimining zaifligi va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning yetarli emasligi bilan bog‘liq. Bu muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikni

takomillashtirish, normativ hujjatlarni yangilash, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va xalqaro tajribadan foydalanish kabi takliflar ishlab chiqilgan.

Kelajakdagi chora-tadbirlar. Kelajakda qo‘riqlash xizmatining samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

Qo‘riqlash xizmati xodimlarining huquqiy bilimlarini oshirish bo‘yicha muntazam treninglar o‘tkazish.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish va obyektlarning xavfsizlik tizimlarini yangilash.

Fuqarolarning ishtirokini rag‘batlantirish va ularni xavfsizlik masalalari bo‘yicha o‘qitish.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro tajribadan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda, qo‘riqlash xizmatining huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyati nafaqat obyektlarning xavfsizligini ta’minlash, balki butun jamiyatning tinchligi va barqarorligini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari qonunchilikni takomillashtirish, amaliyotni yaxshilash va kelajakda samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – 08.12.1992 y. (so‘nggi o‘zgartirishlar bilan).

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – 22.09.1994 y. (so‘nggi o‘zgartirishlar bilan).

3. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. – 22.09.1994 y.

4. O‘zbekiston Respublikasi “Milliy gvardiya to‘g‘risida”gi Qonuni.– 18.11.2020 y.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 15.06.2022 y.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo‘riqlash bosh boshqarmasining faoliyatini

sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4997-son Qarori. 20.02.2021 y.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida xodimlar tomonidan xizmatni o‘tash tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5089-son Qarori. 22.04.2021 y.

8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining rasmiy veb-sayti: www.ng.uz

9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti: www.stat.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi IIV va Milliy gvardiyaning qo‘riqlash xizmatiga oid statistik hisobotlari.

11.Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining veb sayti: www.natlib.uz

SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH MODELLARI VA ULARNING QIYOSIY TAHLILI

Madumarov Farruxbek Tolibjonovich
Andijon davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Sanoat sohasida global mahsulot ishlab chiqarish zanjirining yaratilishi turli korxonalarda sifat menejmenti bilan bog‘liq bo‘lgan boshqaruv amaliyotini rivojlantirishga ustuvorlik qaratilishiga olib keldi. Natijada turli korxonalar ma’lum bir tur va usullarga asoslangan holda mahsulot sifatini boshqarish amaliyotiga o‘tish jarayonlari jadallashdi. Bu esa menejment sohasida mahsulot sifatini boshqarish modellarining shakllanishiga olib keldi.

Mahsulot sifatini boshqarish modellari turli mamlakatlar iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan korxonalar amaliyotida foydalanilayotgan sifatni boshqarish usullarini o‘zida mujassamlashtirgan holda, boshqa korxonalar amaliyotida ham qo‘llash imkoniyati mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli, bugungi kunda jahon amaliyotida shakllangan va amaliyotda keng qo‘llanilayotgan mahsulot sifatini boshqarish modellarining o‘ziga xos

xususiyatlarini tadqiq etish, ularni qiyosiy taqqoslash asosida mahalliy sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish jarayonida amaliy foydalanish imkonyaitlarini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'lum bir turdagi mahsulot sifatini boshqarish modelidan foydalanilishi hisobiga mahalliy sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlar tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda jahon amaliyotida mahsulot sifatini boshqarishning Modern Quality Management (MQM), TQM, Quality standards specialty (QSS) kabi modellari amal qiladi. Ushbu modellar tarkibiy jihatdan ikki yoki undan ortiq mahsulot sifatini boshqarish usullaridan bir vaqtning o‘zida o‘zaro kombinatsiyalashgan holda foydalanilishi hisobiga shakllangan hisoblanadi.

Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning “Modern Quality Management (MQM)” modeli F. Teylor va uning tarafdorlari tomonidan mahsulot sifatini boshqarishga nisbatan yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlovchi Teylorizm maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan hisoblanadi. “MQM” modeli tarkibiy jihatdan Teylorizm iqtisodiy maktabi vakillarining ilmiy menejment (Scientific Management) nazariyalari bilan xulq-atvor fani (Behavioral Scence) o‘rtasidagi chuqur integratsiyalashuv hisobiga shakllangan. Shuningdek, korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning “MQM” modeli quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

mehnat shart-sharoitlari va uning xavfsizligi – sifatli mahsulot ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda birinchi galda hodimlar uchun tegishli sifat va qiymatni yaratish imkoniyatini beruvchi shart-sharoitlarni yaratish bilan birgalikda, hodimlar salomatligini saqlagan holda, ularning kreativ faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi kerak bo‘ladi. Shu o‘rinda ta'kidlash joizki, hodimlarning kreativ faoliyatini qo‘llab-quvvatlash elementi mahsulot sifatini boshqarishning “Kaizen” konsepsiyasining tarkibiy komponenti hisoblanadi;

hodimlarni tanlash va ishga yollash samaradorligi – ushbu tamoyil korxona tomonidan hodimlarni ishga yollashda ulaarning kasbiy kvalifikatsion va kompetentlik darajalari bo‘yicha tegishli lavozim uchun belgilangan talablarga mos kelishini anglatadi. Bu orqali korxonada

mahsulot sifatini boshqarishda hodimlar salohiyatidan foydalanish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga erishiladi. Shuningdek, ushbu tamoyilda hodimlarni rag‘batlantirish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirilishi ham nazarda tutiladi. Mazkur tamoyil ham avvalgisi kabi “Kaizen” konsepsiyasi uchun xos hisoblanadi;

boshqaruvning tashkiliy samaradorligi – bunda korxona faoliyatini boshqarishning umumiy xususiyatlari, jumladan, mahsulot sifatini boshqarishning tashkiliy tuzilishi nazarda tutiladi. Korxonada tashkil etilgan boshqaruv tizimi korxona rivojlanish salohiyatidan to‘laqonli foydalanish imkonini berishi kerak bo‘ladi. Ushbu tamoyil amal qilishida sanoat korxonasida mahsulot sifatini olti sigma usuli asosida boshqarish orqali “DMAIC” tizimining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan elementlar uchraydi;

hodimlarning malakasini oshirish va rotatsiya – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha texnik xususiyatlari o‘zgarmagan holda ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishda texnologik o‘zgarishlar hisobiga sifatni takomillashtirishning samarali yo‘llarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tamoyil korxonada mahsulot ishlab chiqarishining texnologik o‘zgarishlari hisobiga resurslarni tejash va ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bunda ham “Kaizen” konsepsiyasiga xos bo‘lgan xususiyatlar mavjud hisoblanadi;

axborot almashinish tezligi – bunda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlarida sodir bo‘lgan turli nosozlik holatlari bo‘yicha ma’lumotlarni olish va ularni korxonadagi mahsulot ishlab chiqarish zanjirining turli bo‘g‘inlari o‘rtasida almashinish tezligi nazarda tutiladi. Bu orqali vujudga kelgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nosozlik hisobiga ishlab chiqarilishi kutilayotgan sifatsiz (brak) mahsulot hajmini kamaytirishga erishiladi. Bugungi kunda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning ushbu tamoyili “DQM” bilan “AI&IoT” kabi usullar orqali samarali hal etilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning “MQM” modeli mahsulot ishlab chiqarishining modernizatsion koeffitsienti past darajada bo‘lgan, yoki ishlab chiqarish

jarayonlarida inson omilining ishtiroki yuqori bo‘lgan sanoat tarmoqlarida qo‘llanilishi yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, modelning amal qilishida mahsulot sifatini boshqarishni tartibga solish va uni standrtashtirishga ustuvorlik qaratilishi aniqlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sanoat korxonalarida mhsulot ishlab chiqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha islohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinayotganligini inobatga olgan holda, mahalliy korxonalar faoliyatida mahsulot sifatini boshqarishda “TQM” modelidan amaliy foydalanish imkoniyatlari mavjud hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, modeldan foydalanish jarayonida korxonalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarishning milliy zanjirini shakllantirish asosida uning miqdor va sifat ko‘rsatkichlarini muntazam ravishda takomillashtirib borish imkoniyatiga erishiladi.

Iqtisodiy adabiyotda “QSS” modeli asosida mahsulot sifatini boshqarish amaliyotiga ega bo‘lgan global darajada faoliyat yurituvchi turli korxonalar faoliyatini tadqiq etishga bag‘ishlangan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra (1 jadvalga qarang), korxonaning mzkur yo‘nalishdagi dasturlaridan foydalanishdan ko‘zlangan strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda, uning amaliyotga joriy etilishida qo‘llaniladigan chora-tadbirlar bir biridan o‘zaro farqlanadi. Bu esa korxonalarda mahsulot sifatini boshqarish korxonaning strategik maqsadlariga asoslangan bo‘lishini anglatadi.

Korxonada “QSS” modelidan foydalanish orqali mahsulot sifatini boshqarishga qaratilgan tadqiqot natijalari qiyosiy tahlili

Iqtisodchi olim	Tadqiqot natijsida olingan xulosa
R. Volniak, L.M. Fronseka	Sifatni boshqarishdagi zamonaviy yondashuvlardagi amaliy ahamiyat kasb etuvchi fikrlarga ustuvorlik qaratiladi
J.P. Domingues, P.B. Machado	Sifatni boshqarish jarayonida korxona hodimlarini tizimlashtirilgan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalariga ustuvorlik qaratiladi
V.M. Lima	Sifat manejmenti (Quality Management – QM) konsepsiyasiga asoslanish kerakligini ta’kidlaydi
S. Chen, S. del Kastillo-Peses, D. Zimon	Sifatni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga ustuvorlik qaratilgan
M. Olkievich, B. Neyestani	Sifatni boshqarishda hamkorlik munosabatlariga asoslanadi

Tahlillarga ko‘ra, “QSS” modeli asosida mahsulot sifatini boshqarish jarayonlari ichki, tashqi salbiy ta’sirlar, baholash, tekshiruv-profilaktik va samarasiz (marjinal, muvaffaqqiyatsizlik) harajatlaridan tashkil topgan umumiy sifat boshqaruvi harajatlarini talab qiladi. Modelning amal qilishida uni amaliyotga joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni ta’minlash asosida korxonada mahsulot sifatini boshqarish samaradorligiga erishish mumkin bo‘ladi. Mahsulot sifatini boshqarishning “QSS” modelining amal qilishi sharoitida ichki va salbiy ta’sir xarajatlari bir biri bilan o‘zro bog‘liq xarajatlar hisoblanib, bu turdagi xarajatlarni mahsulot sifatini boshqaarishning baholaash hamda profilaktik-tekshiruv xarajatlari samaradorligini ta’minlanishi hisobiga kamaytirishga erishiladi.

Mahsulot sifatini boshqarishning “TQM” modeli amal qilish mexanizmiga ko‘ra, model iste’molchilarning mahsulot bo‘yicha nafaqar narx, balki uning sifati va iste’mol xususiyatlari (ya’ni, iste’molni qondirish darajasi) bo‘yicha mavjud talablariga mos bo‘lgan mahsulot taklifini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, mahsulotning sifat va iste’mol xususiyatlarini takomillashtirishda nafaqat mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi hodimlar, balki, korxona boshqaruvining turli bo‘g‘inlarining muntazam takrorlanib turadigan ishtirokiga asoslanganligi bilan xarakterlanadi (1.13-rasmga qarang). Modelning amal qilish mexanizmi tahliliga ko‘ra, mazkur modeldan mahsulot sifatini boshqarish jarayonida foydalanish ko‘proq bozordagi mavjud iste’mol talabi potensialiga yo‘naltirilgan bo‘lib, korxonaning umumiy boshqaruvi “MBM (Management Based on Marketing)”, ya’ni marketingga asoslangan menejment orqali amalga oshiriladi. Ushbu holat modelda iste’molchilar talabini o‘rganish bo‘yicha marketing tadqiqoti natijalariga asoslangan holda, mahsulot sifatini boshqarish qarorlari qabul qilinishini anglatadi.

Shuningdek, ishlab chiqarish munosabatlarida global daarajada mahsulot ishlab chiqarish zanjirida milliy iqtisodiyot tarmoqlarining ishtirokini kengaytirish, mamlakatlarda milliy darajada ma’lum bir turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishini barcha bosqichlarini to‘liq o‘zlaashtirish orqali chuqur ixtisoslashuvga erishishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish sharoitida mahsulot sifatini boshqarishning “Sifat standartlariga ixtisoslashuv (QSS – Quality standards specialty)”

modeli shakllandi. Korxonalarda mahsulot sifatini boshqarishning “QSS” modelidan foydalanish jarayonida yuqori darajadagi mahsulot sifatini ta’minlash asosida bozordagi raqobat ustunligiga erishishga ustuvorlik qaratish asosida bozorning qamrov darajasini oshirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uddin N., Hossain F. Evolution of modern management through Taylorism: An adjustment of Scientific Management comprising behavioral science. Peer-review under responsibility of organizing committee of The 2015 International Conference on Soft Computing and Software Engineering (SCSE 2015). Procedia Computer Science, Vol. 62, 2015 – pp. 578 – 584
2. Gummaraju Sh. Benefits of Emvracing Digitalization in Quality Management. August 2, 2023. Master Control [Web Resource]. URL: https://www.master
3. Aichouni A.B.E., Silva C. Ferreira L.M.D.F. A Systematic Literature Review of the Integration of Total Quality Management and Industry 4.0: Enhancing Sustainability Performance Through Dynamic Capabilities. Sustainability 2024, 16, 9108. https://doi.org/10.3390/su16209108
4. Haseeb M., Hussain H.I., Slusarczyk B., Jermsittiparsert K. Industry 4.0: A Solution towards Technology Challenges of ´ Sustainable Business Performance. Soc. Sci. 2019, 8, 154. doi:10.3390/socsci8050154

MILLIY GVARDIYA ORGANLARI MA’MURIY AMALIYOT FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

Nazarov G‘anisher Bahodirovich

Sirdaryo viloyati Qo‘riqlash boshqarmasi Yangiyer shaharlararo qo‘riqlash bo‘limi otryad komandiri, katta leytenant

telefon:+998934017377

ganishernazarov575@gmail.com

Mamlakatimiz taraqqiyoti yangi bosqichga yuz tutayotgan bir vaqtda, rivoj topib borayotgan o‘lkamiz jamiyati huquqiy ong va huquqiy madaniyat borasida yangi bir davrni boshdan kechirmoqda. Mamlakatimiz

erishayotgan yutuqlar dunyo davlatlari tomonidan tan olinishi bilan bir qatorda yurtimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlar qizg‘inlik bilan kuzatib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizning huquqiy-demokratik davlatlar qatorida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, iqtisodiyotning ravnaq topishi, investitsiya va o‘zaro hamkorlik masalalarida ko‘p jihatdan yuritimizda olib borilayotgan huquqiy islohotlarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda.

SH.M.Mirziyoyev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida yettita ustuvor yo‘nalishdan biri bo‘lgan, mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish yo‘nalishida “Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash” ko‘rsatib o‘tilgan.[1]

Mamlakat tinchiligi, va osoyishtaligi, farovonligi ta’minlash, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligi har bir davlatning oldiga qo‘ygan ustivor, muhim vazifalaridan biri hisoblanib kelmoqda. Bu ustivor vazifalarni amalga oshirish uchun huuqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqiy asosalarini ishlab chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining Jamoat tartibini saqlash fuqarolar xavfsizligini saqlashda Ma’muriy amaliyot faoliyatining huquqiy asoslari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: O‘zbekiston Respublikasida inson huquq va erkinliklari, demokratiya, tenglik, ijtimoiy adolat qonunlari jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga oid prinsiplarga asoslangan. Fuqarolar huquqlari va erkinliklarini himoya qilish jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarining asosiy vazifalaridan biridir. Qonunlar: Jamoat tartibini saqlashga doir qonunlar, Qonun osti xujjatlar, (masalan, Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy Javobgarik to‘g‘risidagi kodeks Prizident farmonlari va qarorlari Vazirlarmahkamasi qarorlari) jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarining huquqiy asoslarini belgilaydi. Bu qonunlar jamoat tartibini saqlash jarayonida nazorat va javobgarlikni belgilaydi. Normativ-huquqiy hujjatlar: Jamoat tartibini saqlash bo‘linmalari faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlar

(farmonlar, qarorlar) mavjud bo‘lib, ular amaldagi qonunlarni qo‘llashda ko‘maklashadi. Bugungi kunga kelib mamlakatimizning tinchiligi, osoyishtaligi, farovonligi va xavfsizligini ta’minlashda huquqni muxofaza qiluvchi organlar orasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining xizmat faoliyati muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 11 yanvar kundagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasiga jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash muhum vazifasini topshirganligi, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish uchun Milliy gvardiyaga qonun bilan vazifa sifatida belgilanganligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da PF-27-sonli farmoning 3-bandi 1-xatboshida “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda Milliy gvardiyaga jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mustaqil hududlar belgilanib berilganli”gi Ma’muriy Javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksda mustaqil hududlarda jamoat tartibiga oid vakolatli 21 ta modda berilganli ushbu berilgan moddalar yetarli emasligi, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq MJtKning Milliy gvardiya faoliyatininig yurutuviga berilishi mustaqil hududlar Milliy gvardiyaning samarali tashkil qilishga muhum ahamiyat kasb etadi.

Ma’muriy amaliyot – bu Qonun hujjatlarini amalga oshirish doirasidagi davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunlarning bajarilishi, talqin qilinishi va qo‘llanilishi bo‘yicha amalga oshirilgan tashkil etilgan va tizimlashtirilgan harakatlar majmuasidir. Ushbu harakatlar ma’muriy tartiblar doirasida amalga oshiriladi va litsenziyalash, ruxsatnomalar berish, qonunlarga rioya etilishiga nazorat qilish, sanktsiyalarni qo‘llash, turli sohalarda tartibga solish, shikoyatlarni va nizolarni hal qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ma’muriy amaliyotning maqsadi — qonunlarni samarali, adolatli va qonuniy ravishda ijro etishni ta’minlash, fuqarolar va tashkilotlarning huquq va qonuniy

manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, jamiyatda huquqiy tartibning barqarorligi va oldindan aytib bo‘ladiganligini yaratishdir. Ma’muriy amaliyot, shunday qilib, huquqiy normalar va ularning haqiqiy amalda qo‘llanilishi o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in hisoblanadi.

«Gvardiya» so‘zi – qo‘riqlamoq, saqlamoq degan ma’noni anglatadi. Gvardiya dastavval boshliqlarning shaxsiy soqsichilik qilish kabi vazifalarni o‘tagan bo‘lsa, keyinchalik gvardiyadan jangovar kuch sifatida foydalanila boshlangan hamda bu so‘z qo‘shinlarning alohida saralangan oldingi qismini, ya’ni birinchi qatorda jangga kirgan. Ko‘p davlatlarda Milliy gvardiyaning o‘zi yo‘q, Yevropa davlatlarda Milliy gvardiya asosan Xorijiy davlatlarning rasmiy vakillarini kutib olish va kuzatish kabi marosim va tadbirlarida ishtirok etadgan[2].

Milliy gvardiyaning tarixi uning qanday tashkil etilganini, qanday vazifalar yuklatilganini va qanday rivojlanish yo‘lidan o‘tganini o‘rganish orqali, uning bugungi kundagi ahamiyatini va vazifalarini yaxshiroq tushunish mumkin.

1. **1992-yil 23-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining** 29-son qarori bilan, “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida“gi 1991-yil 31-avgust kunidagi qonuniga muvofiq **O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining** 3408-son harbiy qismi negizida Milliy gvardiya Xorijiy davlatlarning rasmiy vakillarini kutib olish va kuzatishda marosim tadbirlarining xavfsizligini ta’minlashda, mamlakat Mudofaa ishlari vazirligi tasarrufiga berilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yisha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son. Ushbu dasturning 5-ustuvor yo‘nalishiga muvofiq tinshlikni ta’minlash, ya’ni mamlakatning ishki tartibsizliklariga shek qo‘yish va osoyishtalikni ta’minlashdan iborat hisoblanadi. Ommaviy tartibsizklar tushunshasining dolzarbligi shundaki, bunda barsha davlatda yuz berishi mumkin bo‘lgan real xavfni keltiruvshi omil sifatida qarash mumkin. Ushbu vaziyat joy va makon ta’lab yetmaydi. Sababi qaysi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy (oziq-ovqat yetishmasligi, narxlarning asossiz oshishi, siyosiy saylovlarda korrupsion holatlarning yuzaga kelishi, hokimiyat o‘zboshimshaligi, diniy- ikki din vakillari o‘rtasida nizoli vaziyat yuzaga kelishi, yetnik – mahaliy aholi va o‘zga yurt

vakillari orasida yuz berishi mumkin bo‘lgan real xavflarning oldini olishga jalb qilinishi kerak bo‘lgan kuchli tuzilma, ya’ni jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bilan shug‘ullanadigan bo‘linmalar goh Ichki ishlar vazirligi, goh Mudofaa vazirligi tasarrufida bo‘lib kelgan. Shu sababli ushbu bo‘linmalar o‘z o‘rnini topolmadi Ommaviy tartibsizklar tushunshasining dolzarbligi shundaki, bunda barsha davlatda yuz berishi mumkin bo‘lgan real xavfni keltiruvshi omil sifatida qarash mumkin. Ushbu vaziyat joy va makon ta’lab yetmaydi. Sababi qaysi mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy (oziq-ovqat yetishmasligi, narxlarning asossiz oshishi, siyosiy saylovlarda korrupsion holatlarning yuzaga kelishi, hokimiyat o‘zboshimshaligi, diniy-ikki din vakillari o‘rtasida nizoli vaziyat yuzaga kelishi, yetnik – mahaliy aholi va o‘zga yurt vakillari orasida yuz berishi mumkin bo‘lgan real xavflarning oldini olishga jalb qilinishi kerak bo‘lgan kuchli tuzilma, ya’ni jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash bilan shug‘ullanadigan bo‘linmalar goh Ichki ishlar vazirligi, goh Mudofaa vazirligi tasarrufida bo‘lib kelgan. Shu sababli ushbu bo‘linmalar o‘z o‘rnini topolmadi. Natijada tezkor qarorlar o‘z vaqtida qabul qilinmagan, vazifalar samarali bajarilmagan 2017 yil 4 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tashkil qilindi. Ma’lumki har bir vazirlik, tashkilot va muassasa o‘z faoliyatini tashkillashtirishi va olib borishi uchun huquqiy asoslari yaratilishi kerak edi shu bilan birga ularning vazifalari belgilab berildi va bu bo‘yicha ketma ketlikda quyidagi ishlar amalga oshirildi. Birinchidan, 1992 yil 8 dekabr kunidagi **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi** — Milliy gvardiya faoliyati Konstitutsiya tomonidan belgilangan davlat xavfsizligi, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va jamoat tartibini saqlash kabi prinsiplar asosida amalga oshiriladi. Konstitutsiyadagi «Davlatning asosiy vazifalaridan biri uning fuqarolarini himoya qilishdir», degan qoidalar Milliy gvardiya organlarining asosiy maqsadlarini belgilaydi.2019-yil 18 fevral kunidagi 522 sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba’zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi[3] qonuni; **T**erroristik faoliyatni oldini olish va to‘xtatish: Milliy gvardiya organlari terroristik tahdidlarga qarshi

kurashda faol ishtirok etadi. Bu, terroristik guruhlarning harakatlarini oldini olish, ularni aniqlash va zarur choralarni ko‘rishni o‘z ichiga oladi.

- Maxsus operatsiyalarni o‘tkazish: Milliy gvardiya, ayniqsa, terroristik guruhlarga qarshi maxsus operatsiyalarni tashkil etish va amalga oshirishda ishtirok etadi. Bu operatsiyalar, o‘z ichiga jinoyatchilarni ushlash, teraktlarni oldini olish yoki harbiy vositalar yordamida xavfli vaziyatlarni bartaraf etish kabi faoliyatlarni qamrab oladi.
- Alohida hududlarda xavfsizlikni ta’minlash: Milliy gvardiya terroristik faoliyatlar ehtimoli mavjud bo‘lgan hududlarda xavfsizlikni ta’minlash uchun kerakli choralarni ko‘rishi mumkin. Bu, o‘z ichiga jamoat joylarini qo‘riqlash, terroristik tahdidlarni aniqlash va xavfsizlikni kuchaytirishni o‘z ichiga oladi.
- Xavfli vaziyatlarda hamkorlik: Milliy gvardiya, boshqa xavfsizlik organlari bilan hamkorlikda ishlash orqali, terrorizmga qarshi kurashda birgalikda chora-tadbirlar ko‘radi. Bu, ichki xavfsizlikni ta’minlash va terroristik tahdidlarni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan barcha kerakli choralarni o‘z ichiga oladi.

Demak, Milliy gvardiya organlari terrorizmga qarshi kurashda xavfsizlikni ta’minlash, terroristik tahdidlarni aniqlash, maxsus operatsiyalarni amalga oshirish va zarur hollarda boshqa xavfsizlik organlari bilan hamkorlikda ishlash vazifalarini bajaradi. Bu faoliyatlar, umuman olganda, mamlakatda terrorizmga qarshi kurashishda Milliy gvardiyaning muhim o‘rnini ta’minlaydi. 2017 yil 18 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2017 yil 20 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Senati tomonidan ma’qullangan va O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvar kunidagi 458 sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida” gi qonunning 17 bandida “Milliy gvardiyasining, tegishli boshqaruv organlari, qo‘shinlari, harbiy tuzilmalari va muassasalari kirishi” tinchik, tahdid bo‘layotgan va urush davri bo‘yicha asosay vazifalari quyidagicha belgilangan. Milliy gvardiya davlatning ichki xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va harbiy mojarolarni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. U, shuningdek, terrorizmga qarshi kurashishda, favqulodda vaziyatlar, tabiiy

ofatlar va texnogen falokatlar paytida tezkor yordam ko‘rsatishda faol ishtirok etadi. Milliy gvardiya, Qurolli Kuchlar va boshqa xavfsizlik organlari bilan hamkorlikda mamlakat xavfsizligini saqlashga hissa qo‘shadi. Ushbu vazifalar Milliy gvardiyaning harbiy va ichki xavfsizlikka doir faoliyatini muvofiqlashtirib, davlatning umumiy mudofaa tizimi doirasida amalga oshiriladi. belgilab o‘tildi. Ikinchidan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 26-iyunda qabul qilingan Senat tomonidan 2018-yil 28-iyunda ma’qullangan, 2019-yil 18 fevral kunidagi 522 sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba’zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” gi qonunida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyati bo‘yicha bir qator o‘zgartirishlar kiritildi. Uchinchidan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 12-noyabrda qabul qilingan, Senat tomonidan 2019-yil 14-dekabrda ma’qullangan va O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabr kunidagi 647 sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida” qonun tasdiqlandi va ushbu qonunning 3 moddasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining huquqiy maqomi va asosiy vazifalari sifatida quyidagilar ko‘rsatilib o‘tildi: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (bundan buyon matnda Milliy gvardiya deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turidir. Milliy gvardiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish; terrorizmga qarshi kurashishda, shuningdek terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish; tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirish, surishtiruv o‘tkazish, jinoyat ishlarini qo‘zg‘atish va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni yuritish; davlat obyektlarini, o‘ta muhim, toifalangan obyektlarni hamda boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash; qo‘riqlash faoliyati sohasidagi davlat siyosatini

amalga oshirish; huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, shu jumladan mazkur huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish; jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash; favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni ta’minlash; qo‘riqlanadigan shaxslarning xavfsizligini ta’minlashda ishtirok etish; chet davlatlarning rasmiy vakillarini, oliy darajadagi xorijiy delegatsiyalarni kutib olishda va kuzatib qo‘yishda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ishtirokidagi tantanali tadbirlar chog‘ida rasmiy marosimlarni o‘tkazish; huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish maqsadida aholi punktlaridagi jamoat joylarida patrullik qilish; O‘zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasi tizimida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini jangovar qo‘llash rejalari bo‘yicha maxsus vazifalarni hal etish, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘shinlariga O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini qo‘riqlash hamda himoya qilishda ko‘maklashish. Milliy gvardiya O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.[4]. To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF 27 sonli qarori qabul qilindi va ushbu qarorda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etish bevosita Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan amalga oshirilishi bo‘yicha ustuvar vazifalar belgilab o‘tildi. Yuqordagi qonun, buyruq va qarorlarda ko‘rsatib o‘tilgan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huquqiy asoslarini amalda qo‘llash uchun Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari tomonidan quyidagi tushunchalarni bilishi taqazo etadi: jamoat xavfsizligi — jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o‘rinlarda — tahdidlar)

himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi; jamoat xavfsizligini ta’minlash — davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy choratadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim. Jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati quyidagi asosiy tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi: qonuniylik; fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish hamda ularni hurmat qilish; ochiqlik va shaffoflik; jamoat xavfsizligiga tajovuz qiluvchi tahdidlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlarining ustuvorligi; jamoat xavfsizligini ta’minlashda barcha vakolatli tuzilmalarning harakatlari izchilligi va birdamligi. jamoat xavfsizligi obekti - jamoat joylarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, shaxsiy xavfsizligi va mulklarining himoyasini ta'minlash; jamoat xavfsizligini ta'minlash - davlat tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan siyosiy, tashkiliy, ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, huquqiy va boshqa tadbirlar tizimini amalga oshirish; jamoat tartibi - fuqarolarning jamoat joylarida birga bo‘lganda, odob-axloq, an'ana va urf-odatlar normalariga asoslangan holda, jamoat hayotining muayyan tarzini belgilab beradigan huquqiy normalar va qoidalar majmuasi. Jamoat joyiga berilgan ta'rif esa bizni eng qiziqtirgan va uzoq kuttirgan ta'rif ekanligi shubhasiz. Chunki, uzoq yillar davomida ushbu tushunchaga birorta qonunimizda ta'rif berilmagan edi. Loyihada mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berilgan: jamoat tartibini saqlash – fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, tashkilotlarning normal faoliyat ko‘rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishi va dam olishi uchun to‘liq sharoit yaratishga , ularning sha’ni , qadr-qimmati hamda umumahloqiy qadryatlarni xurmat qilishga yo‘naltirilgan huquqiy va ijtimoiy normalar asosida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi. Jamoat joyi - to‘sqinliksiz tashrif buyurish (bo‘lish) mumkin bo‘lgan yoxud fuqarolarning turli ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan yerlar, binolar, imoratlar, inshootlar, ularning qismlari, shuningdek, transport kommunikatsiyalari. Shuningdek, ushbu loyihada jamoat joylarining quyidagi turlari sanab

o‘tilgan: doimiy xarakterdagi jamoat joylari – hududida vaqtinchalik ish rejimi bilan cheklanmagan fuqarolarning doimiy bo‘lishi va fuqarolarning doimiy yashash obektlarining mavjudligi bilan tavsiflanadigan jamoat joylari. Doimiy jamoat joylariga – transport magistrallari, ko‘chalar, turar-joy mavzelari, mahallalar, dahalar, mikrorayonlar hududlari, aeroport, temir yo‘l, avtomobil va suv vokzallarining binolari kiradi; vaqtinchalik jamoat joylari - hududida vaqtinchalik ish rejimiga ega bo‘lgan fuqarolarning vaqtincha bo‘lishi va fuqarolarning doimiy yashash obektlarining mavjud emasligi bilan tavsiflanadigan jamoat joylari. Vaqtinchalik jamoat joylariga – xiyobonlar, maydonlar, madaniyat va istirohat bog‘lari, savdo, ko‘ngilochar, savdo ko‘ngilochar majmualar va markazlar, gipermarketlar, supermarketlar, bozorlar va fuqarolar ommaviy yig‘iladigan boshqa joylar kiradi; bir martalik jamoat joylari - ommaviy tadbirlar o‘tkazish obektlari, ijtimoiy, qishloq xo‘jaligi yoki boshqa sohadagi ish va tadbirlar, shu jumladan, odamlar ommaviy yig‘ilganda o‘tkaziladigan, diniy marosimlar o‘tkaziladigan davrdagi alohida joylar. “Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda hamda istirohat bog‘lari, xiyobonlar va bozorlarda jamoat tartibini saqlashni tashkil etishda bevosita javobgar hudud yo‘l xaritasi belgilanib” ko‘rsatib o‘tilganligi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning rahbarligi ostida so‘nggi yillarda qabul qilingan qonun hujjatlari asosida Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash,jamoat xavfsizligini ta’minlashga doir ishlarni bir qancha ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ish uslublarini, aholiga xizmat ko‘rsatish masalalarini, hamkorlik mexanizmlarini, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini va shaxsiy tarkib bilan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish choralarini kuchaytirish bu boradagi tizimli ishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘ldi. Shuningdek, hududlarda jinoyatchilik darajasidan kelib chiqib, har bir tuman, shahar va mahallalarni qizil, sariq va yashil toifalarga ajratish hamda hokimliklar, sektorlar va jamoatchilik bilan birgalikda jinoyat o‘choqlarini bartaraf etish uchun barcha zarur kuch va vositalar jalb qilish belgilab olinganligi. Bu esa o‘z navbztida Milliy gvardiya organlarining jamoat tartibini saqlash,jamoat xavfsizligini ta’minlashgadoir ishlarni amalga

oshirishda ma’muriy amaliyot faoliyatdan foydalaniladi. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.10.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 575-son qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodimlar)ning huquqbuzarliklarni to‘xtatish, ommaviy namoishlarda, bayram konsert dasturlarda, favqulotda holatlar va boshqa shunga o‘xshash tadbirlarda huquqbuzarlik sodir etgan yoki shubhali ko‘ringan fuqarolarni shaxsini tasdiqlovchi xujjatlarni taqdim etishi yuzasidan Milliy gvardiya organlari (huquqni muxofaza qiluvchi organlari)ga borishdan uzurli sabablarsiz bosh tortish yuzasidan huquqbuzarlarni bayonnoma rasmiylashtirilib ko‘rib chiqish uchun ma’muriy tartibda sudga yuborish vakolaorganlari Milliy gvardiya organlariaga berilganligini[8] . Ushba vakolatli moddalar bilan Milliy gvardiya harbiy xizmatchi (xodimalri)ga jamoat tartibini saqlashda huquqbazar Islohatlar davomida Milliy gvardiya jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda yetarli vakolatlarga ega emasligi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2023 yil 12 may kunidagi O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy Javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksiga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ-842-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashdagi huquqbuzarliklarga oid MJtKning 21 moddasi bo‘yicha vakolatlar beriliganligi ushbu vakolatlar Milliy gvardiya organlari jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash[9]da o‘z samarasini berayotganligi islohatlarning to‘g‘ri olib borilayotganligining dalolatidir. Bundan tashqari 2023-yil 11-iyul 854-son O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarida (xodimlarida) zarur vakolatlar mavjud emasligi huquqbuzarlarga nisbatan o‘z vaqtida choralar ko‘rilishiga to‘sqinlik qilmoqda va rasmiylashtirish vakolatining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashga bevosita jalb etilgan xodimlarga berilishi Milliy gvardiya bo‘linmalarining ma’muriy faoliyatida ish samarasini oshirish va jamoat tartibini saqlashda

vakolatlardan foydalansa ma’muriy amaliyot faoliyatida muhum ahamiyat kasb etadi.

2. Салаев Р. Ш. Характеристики крипто активов, включая экономические, эмиссионные, функциональные и правовые аспекты, и их систематизация по авторской классификации //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 7. – С. 838-851.
3. Кочергин Д. А. Криптоактивы: экономическая природа, классификация и регулирование оборота //Вестник международных организаций: образование, наука, новая экономика. – 2022. – Т. 17. – №. 3. – С. 75-130.

4. Коржова И. В. Юридические основы обращения криптоактивов //ИВ Коржова. – 2020. – С.143.

5. Мачихин Д. С. Современные подходы к налогообложению криптовалюты //Вестник современных цифровых технологий. – 2021. – №. 8. – С. 23-29.

6. Мосакова Е. А. Криптовалюта как основа новой финансовой архитектуры в информационную эпоху //Информационное общество. – 2023. – №. 3. – С. 32-37.

TALABALARDA INGLIZ TILIDAN KASBIY-MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING SEMANTIK SHAKLLARI

Ashurova Zulayxo Erkinovna
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabasining kasbiy-muloqot darajadagi xorijiy ingliz tili bilan muloqot qilish qobiliyatining umumiyligi ikkilamchi lingvistik shaxs tushunchasini tashkil etadi. Oliy ta’lim tashkilotlarining bugungi maqsadi nafaqat ma’lum vakolatlarni rivojlantirish, balki bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining shaxsini tarbiyalashdir va “Ingliz tili” fanining bir qismi sifatida o‘z kasbiy vazifalarini bajara oladigan va boshqa madaniyatlar vakillari bilan o‘zaro muloqotda bo‘la oladigan musiqa o‘qituvchisini tayyorlashni anglatadi. Ilm-fan va texnologiya butun dunyo hamjamiyatining birgalikdagi sa’y-harakatlarisiz amalga oshirib bo‘lmaydigan yutuqni talab qiladi.

Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarining ingliz tilini o‘qitish jarayonida kasbiy-muloqotda to‘liq ishtirok etish qobiliyati o‘quv jarayonining tizimni tashkil etuvchi omili bo‘lib xizmat qiladi va o‘rganilayotgan tilning og‘zaki-semantik kodini o‘zlashtirish natijasida shakllanadi. Ushbu tilda so‘zlashuvchilar va insonga o‘zi uchun yangi bo‘lgan ijtimoiy voqelikni tushunishga imkon beradigan dunyoning global (konseptual) tasvirini, uning o‘zgarishini, undagi jarayonlarni anglash

imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Eslatib o‘tamiz, bugungi kunda aksiomatik – bu musiqa ta’limi sohasi talabalari uchun atrofdagi dunyoning uchta shakli (haqiqiy, konseptual, lingvistik)ni mavjudligini, bugungi haqiqiy dunyo – bu shaxsdan mustaqil ravishda mavjud bo‘lgan obyektiv voqelik; dunyoning konseptual tasviri “haqiqiy dunyoni inson tomonidan dunyoni bilish jarayonida ham jamoaviy, ham individual tajriba asosida shakllangan tushunchalar prizmasi orqali aks ettirish” deb qaraladi; dunyoning lingvistik manzarasi haqiqatni dunyoning madaniy manzarasi orqali aks ettiradi, chunki dunyo tillari sifatida keng e’tirof etilayotgan ingliz tili aynana anashu dunyoni idrok etishni tashkil qilmoqda.

Ushbu shakllarning bir-biri bilan chambarchas bog‘liqligi ham shubhasizdir: musiqa madaniyati bilan uzluksiz muloqotda bo‘lgan dunyoning lingvistik manzarasi insonni o‘rab turgan haqiqiy dunyoga qaytadi. Ona tilida so‘zlashuvchilarni o‘rab turgan dunyo rasmini o‘zlashtirish zarurati, bu nafaqat tilda aks etishi, balki nutqdan foydalanish xususiyatlarini belgilashi bilan izohlanadi.

Shu munosabat bilan, musiqa ta’lim yo‘nalishida ingliz tilini o‘qitishning dolzarb vazifasi ma’lum darajadagi kasbiy-muloqot kompetensiyani rivojlantirish bo‘lib, bu talaba shaxsiga boshqa tilshunoslik jamiyatlari vakillari bilan til vositalari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishga imkon beradi, bu musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalarining kasbiy tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining inliz tilini o‘qitishda kasbiy faoliyatning kasbiy-muloqot jihatini joriy etish turli madaniyatlar vakillarining o‘zaro ta’sirining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini qurishga, kasbiy-muloqot va kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlikni rivojlantirishga, kasbiy-muloqot muloqotning belgilangan xususiyatlariga mos ravishda imkon beradi. Bu o‘quv jarayonining tubdan mazmunli o‘tishini ta’minlab, u ham fan bilimlarini, ham didaktik o‘quv vositalari o‘zgartirishga olib keladi.

Shunday qilib, oliy ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rganish va o‘qitish metodikasi musiq ta’limi yo‘nalishi talabalarida o‘rganilayotgan ingliz tili madaniyati vakillari bilan o‘zaro tushunish va samarali muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan qobiliyat va shaxsiyat xususiyatlarini

rivojlantirishga qaratilgan. Ingliz tili ta’limi uchun yangi konseptual ahamiyatga ega model – bu ingliz tilini o‘qitish jarayoni “bilimlar yig‘indisini o‘zlashtirish, ma’noni aniqlash, shaxslararo muloqot, ma’ruza va sintaktik qoidalarni o‘zlashtirish, til muloqotsining ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarini o‘zlashtirish shular jumlasidandir. Shunday qilib, ingliz tiliin o‘rganish uch jihat nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi. Birinchisi, ingliz tilining kasbiy-muloqot ontologiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, u o‘zini o‘zi tashkil etuvchi yaxlitlik sifatida namoyon bo‘ladi; ikkinchisi epistemologiya bilan bog‘liq, ya’ni ingliz til bilish vositasi sifatida, u til va fikrlash muammolari kontekstida tasvirlanadi; uchinchisi ingliz tilini o‘qitish usullari musiqa ta’limi yo‘nalishining sinergetikasi bilan bog‘liq.

Aytishimiz mumkinki, ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy xususiyati uning poliparadigmal tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, u musiqa ta’limi yo‘naishi talabalari shaxsiyatining turli jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuvdan foydalanishni o‘z ichiga oladi va butun jarayonni optimallashtirish bilan birga o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishishga imkon beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, biz ijodiy soha vakillari hisoblangan musiqa ta’lmi yo‘nalishi talabalarining o‘zaro bog‘liq bo‘lgan -kasbiy-muloqot, ijtimoiy-madaniy va muloqotli rivojlanishiga murojaat qilishimiz maqsadga muvofiq bo‘lib, bu oliy ta’lim tashkilotlarining bugungi globallashgan tendensiyalariga javob beradi va talabalarning kasbiy-muloqot va shaxsiy amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan.

XXI asrning til ta’limiga asosiy yondashuvlar to‘plami-kasbiy-muloqot, muloqotli, kompetensiyaga asoslangan, shaxsga yo‘naltirilgan, kasbiy-muloqot yondashuv bilan belgilanadigan poliparadigmal yondashuv til bo‘lmagan musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirishga imkon beradi. O‘z navbatida, ushbu yondashuvlardan birgalikda foydalanish zarurati ijtimoiy va pedagogik qarama-qarshiliklarni va zamonaviy jamiyatda tilni o‘qitish bilan bog‘liq mavjud tashqi va ichki tendensiyalarni tahlil qilish natijalari bilan o‘zaro bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: Ped. fanl. … fals. d-ri PhD. – T., 2020.
2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik qayta ishlangan va to‘ldirilgan 2-nashri. – T.: O‘qituvchi, 2012. – 432 b.
3. Pulatova D.R. Intensiv ta’lim texnologiyalari asosida nofilologik ta’lim yo‘nalishi bo‘lajak o‘qituvchilarni kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish: Ped. fanl. … d-ri (PhD). – T., 2021.
4. Panjiyev Q.B. O‘zbek xalq qo‘shiqlari vositasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Ped. Fanla. Doktor (DSc). Diss. 2022. 298 b. T.: 2022.

QO‘RIQLASH SHARTNOMASINING TURLARI

Umbetov Olim Ortiq o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Amaldagi fuqarolik qonunchiligi qo‘riqlash shartnomalarining alohida turlarini batafsil tartibga solmaydi. Shu sababli, ushbu shartnomalarni turlarga ajratishda umumiy qabul qilingan tasniflash mezonlaridan (shartnoma sub’ekti va ob’ektidan) foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, qo‘riqlash xizmatlarining keng qamrovli mohiyati turli shakllarda namoyon bo‘lishi sababli, nafaqat ularni turlarga ajratish mumkin, balki zarur hamdir.

Ilm-fanda keng tan olingan fikrga ko‘ra, tasniflash predmetlarni bir-biriga o‘xshashligi yoki farqiga qarab, ma’lum guruh, tur yohud sinflarga bo‘lishdir[1]. U tasniflanishi lozim bo‘lgan sohani alohida guruhlarga bo‘lib, uni aniq va tushunarli shaklga keltiradi[2]. Shu boisdan, huquqiy tadqiqotlarda tasniflashning ahamiyati beqiyosdir, chunki “tasniflash – har qanday

[1] Mavlyanov A.A. Mantiq: Ma’ruzalar kursi. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. 57-bet. // https://api.lib.tipi.uz/media/bookFiles/A.Mavlyanov_Mantiq.pdf
[2] Қаранг: Ивин А.А. Логика: Учебник. -М.: Гардарики, 2004. С.104.

huquqiy fikrlashning zaruriy va mantiqiy asosidir”[3]. Aynan shu asosiy qarashlardan kelib chiqqan holda, qo‘riqlash shartnomalarining turlarini tizimlashtirishga harakat qilamiz.

Bizningcha, qo‘riqlash shartnomalarini turlarga ajratishda birinchi va eng muhim mezon – bu shartnoma doirasida qo‘riqlash xizmatini ko‘rsatuvchi shaxslar, ya’ni ijrochilar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, qo‘riqlash shartnomalarini ikki guruhga bo‘lish mumkin:

davlatga tegishli qo‘riqlash tashkilotlari ishtirokidagi shartnomalar;

xususiy (nodavlat) qo‘riqlash tashkilotlari ishtirokida tuzilgan shartnomalar[4].

Bu turdagi har bir shartnoma o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, mazkur shartnoma turlarida qatnashuvchi ijrochilarni qisqacha belgilab o‘tish maqsadga muvofiq. Davlatga tegishli qo‘riqlash tashkilotlari ishtirokidagi shartnomalarda ijrochi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi va Ichki ishlar vazirligi qatnashishi mumkin[5]. Xususiy shartnomalarda esa bu vazifani xususiy qo‘riqlash tashkilotlari bajaradi. Biroq, O‘zbekiston Respublikasining 17.09.2022 yildagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 13-moddasida qo‘riqlash faoliyatini shartnoma asosida amalga oshiruvchi sub’ektlar qatorida xususiy (nodavlat) qo‘riqlash tashkilotlari nazarda tutilmagan.

Qo‘riqlash shartnomalarini ijro etuvchi sub’ektlarga qarab tasniflashdan tashqari, ularni buyurtmachining xususiyatlariga ko‘ra ham turlarga ajratish mumkin. Bu asosda quyidagi shartnoma turlarini ajratish mumkin: tadbirkorlar bilan tuziladigan qo‘riqlash shartnomalari, jismoniy shaxslar bilan tuziladigan qo‘riqlash shartnomalari hamda fuqarolik huquqining boshqa sub’ektlari bilan tuziladigan shartnomalar.

Qo‘riqlash shartnomalarini tasniflashning navbatdagi mezoni – qo‘riqlash xizmati ob’ektiga bog‘liq bo‘lgan holatdir. Yuridik adabiyotlarda

---

[3] Маркова-Мурашова С. А. Значение категорий и классификаций в праве // Традиции, реформы и революции в развитии государства и права (К 100-летию Революции 1905 года): Материалы Всероссийской заочной научно-практической конференции / Отв. ред. Ю.Ю.Ветютнев. Волгоград: ВРОО ЮНШ, 2005. С. 11.

[4] Изоҳ: Ўзбекистонда хусусий қўриқлаш агентликлари 2014 йил 1 февралгача мавжуд бўлган. Улар ташкилотлар, корхоналар, дўконлар, офислар ёки шахслар билан шартнома тузиб, жисмоний ва техник қўриқлаш хизматларини кўрсатган / https://uztag.info/uz/news/zbekistonda-khususiy-ri-lash-agentliklariga-yana-rukhsat-beriladi-

[5] Қаранг: Ўзбекистон Республикасининг "Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги қонуни 13-моддаси // https://lex.uz/docs/6066682

bu mezon asosida quyidagi asosiy qo‘riqlash shartnomalari turlari keng tarqalgan: 1) mol-mulkni qo‘riqlash bo‘yicha shartnomalar; 2) jismoniy shaxslarni qo‘riqlashga oid shartnomalar; 3) jamoat tartibini saqlashni nazarda tutuvchi shartnomalar.

Mol-mulkni qo‘riqlash bo‘yicha shartnoma fuqarolik muomalasida eng ko‘p uchraydigan qo‘riqlash shartnomasining turlaridan biri hisoblanadi. Bu borada quyidagi fikr adolatli deb hisoblaymiz: “agar omonat saqlash shartnomasi asosan ko‘char mol-mulkni saqlash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlarni tartibga solsa, qo‘riqlash shartnomasi ko‘proq ko‘chmas mulkni, ya’ni boshqa turdagi ob’ektlarni saqlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi”[6]. Shunga qaramay, qo‘riqlash shartnomasi faqatgina ko‘chmas mol-mulkni emas, balki ko‘char mol-mulkni, jumladan, transport vositalari, transportda tashiladigan yuklarni qo‘riqlashni ham nazarda tutishi mumkin. Bunday ob’ektlarni qo‘riqlash zaruratini, odatda, ularning yuqori qiymati, ularga ziyon yetkazilishi xavfi yoki yo‘q qilib yuborilishi tahdidi, shuningdek, mol-mulkni o‘g‘irlash rejasi haqidagi ma’lumotlar mavjudligi kabi holatlar bilan izohlash mumkin.

Mol-mulkni qo‘riqlash bo‘yicha shartnomalarni keyingi navbatdagi tasniflash ob’ektning xususiyatlariga yoki uni qo‘riqlashda qo‘llaniladigan vosita va usullarga qarab amalga oshirilishi lozim.

Shu asosda, ko‘char va ko‘chmas mol-mulkni qo‘riqlashga oid shartnoma turlariga ajratish mumkin. Ko‘char mol-mulkni qo‘riqlashga oid shartnomalar orasida, ayniqsa, transport vositalari va transportda tashiladigan yuklarni qo‘riqlashga qaratilgan shartnomalar alohida o‘rin tutadi. Ko‘chmas mol-mulkni qo‘riqlashga oid shartnomalar esa, o‘z navbatida, qo‘llaniladigan vosita va usullarga qarab turlarga bo‘linadi. Masalan, qo‘riqlash signalizatsiyasi o‘rnatilgan va markazlashgan kuzatuv pultiga ulangan ob’ektlarni muhofaza qilishga oid shartnomalar hamda boshqa turdagi ob’ektlarni qo‘riqlash shartnomalarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

[6] Горовенко В.В. Гражданско-правовое регулирование частной детективной и охранной деятельности: Дисс. ... к. ю. н. –М., 2001. -С. 75-76.

Jismoniy shaxslarni qo‘riqlashga oid shartnomalar[7] ijrochi tomonidan “jismoniy shaxs yoki shaxslar guruhi hayoti hamda sog‘lig‘iga tahdid soluvchi hujumlar, dushmanona harakatlar va xavf-xatarlarni oldini olish yoki ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar”[8]ni amalga oshirishni nazarda tutadi.

Qo‘riqlash shartnomasining uchinchi turi jamoat tartibini saqlash bo‘yicha shartnoma hisoblanadi. Adabiyotlarda ayrim mualliflar bu shartnomani alohida, mustaqil turdagi shartnoma sifatida ko‘rib chiqadilar[9]. Biroq, bizning fikrimizcha, jamoat tartibini saqlashga qaratilgan shartnoma mustaqil shartnoma emas, balki qo‘riqlash shartnomasining turlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Bunday fikrga asos sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni 8-moddasi 1-qismi 11-bandini keltirishimiz mumkin. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘riqlash faoliyati sohasidagi vakolatlari doirasida qo‘riqlanadigan ob’ektlar hududida jamoat tartibini saqlaydi, huquqbuzarliklarning oldini oladi va ularga chek qo‘yadi[10].

Jamoat tartibini saqlash bo‘yicha shartnomani ikki asosiy turga ajratish mumkin: ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotgan paytda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha shartnoma hamda “Tashvish” tugmasi signalizatsiyasi bilan jihozlangan ob’ektlarda jamoat tartibini ta’minlashga qaratilgan shartnoma.

Ushbu shartnoma turlarining har birida o‘ziga xos jihatlar mavjud bo‘lib, ular alohida o‘rganish va tahlil qilishni talab qiladi.

Ommaviy tadbirlar o‘tkazilishi davomida jamoat tartibini saqlash bo‘yicha tuziladigan shartnoma doirasida “ommaviy tadbir” tushunchasiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Huquqiy adabiyotlarda “ommaviy tadbir” tushunchasi “oldindan rejalashtirilgan va joy, vaqt, ishtirokchilar soni va sabablari belgilanadigan ommaviy yig‘ilish (odamlar

---

[7] Изоҳ: Ўзбекистон Республикасининг "Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги қонуни 3-моддасида қўриқлаш объекти сифатида жисмоний шахслар ҳам назарда тутилган. Бундан ташқари, ушбу Қонуннинг 4-моддасида қўриқлаш фаолиятининг асосий вазифаларидан бири сифатида жисмоний шахсларнинг ҳаётини ва соғлиғини тажовузлардан ҳимоя қилиш кўрсатиб ўтилган / https://lex.uz/docs/6066682

[8] Горовенко В.В. Гражданско-правовое регулирование частной детективной и охранной деятельности: Дисс. ... к. ю. н. –М., 2001. -С. 73.

[9] Ручкин О.Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс.... к. ю. н. М., 1997. С. 108-113.

[10] https://lex.uz/docs/6066682

yig‘ilishi) bo‘lib, siyosiy, madaniy yoki reklama tadbiri yohud ishbilarmonlik uchrashuvi xarakteriga ega bo‘lgan tadbir”[11] deb ta’riflanadi.

“Tashvish” tugmasi signalizatsiyasi bilan jihozlangan ob’ektlarda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha shartnomaga kelsak, shuni qayd etish zarurki, bunday turdagi shartnoma faqatgina telefon aloqasi mavjud bo‘lgan binolarda jamoat tartibini ta’minlash maqsadida tuzilishi mumkin. Ushbu shartnomaning o‘ziga xos jihati shundaki, u zarurat tug‘ilganda “mijozlar uchun (do‘kon, bank xizmatchisi, maktab, bolalar bog‘chasi, boshqa ta’lim yoki madaniyat muassasalari qo‘riqchisi, xonadon yoki xususiy uyda egalariga) zudlik bilan xavfli vaziyatlar (talonchilik, hayot yoki sog‘liqqa tahdid, yong‘in va boshqa favqulodda holatlar) to‘g‘risida xabar berish imkoniyatini yaratadi”[12]

Buyurtmachi qo‘riqlash xizmati xodimlarini chaqirishni “Tashvish” tugmasi orqali markazlashgan nazorat pultiga xabar yuborish orqali amalga oshiradi. “Tashvish” tugmasi signalizatsiyasining ishlash prinsipi qo‘riqdagi ob’ekt va tezkor harakatlanuvchi guruhi bilan tunu kun aloqasini ta’minlaydi[13]. Dastlabki qarashda, bunday shartnomani mol-mulkni qo‘riqlashga doir shartnomalar qatoriga kiritish mumkindek tuyuladi, masalan, qo‘riqlash texnik vositalari bilan jihozlangan ob’ektlarni qo‘riqlashga oid shartnomalar turiga. Biroq amalda bu bunday emas. Chunki “Tashvish” tugmasi signalizatsiyasi bilan jihozlangan ob’ektlarda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha shartnoma asosida ijrochi tomon (ya’ni qo‘riqlash tashkiloti) aynan jamoat tartibini saqlash bo‘yicha majburiyatni o‘z zimmasiga oladi. Ushbu xulosani quyidagi asoslarga tayangan holda berish mumkin: avvalo, qo‘riqlash xizmatining asosiy majburiyati faqat “Tashvish” tugmasi signalizatsiyasi ishga tushgan paytda ob’ektga o‘z vaqtida yetib borishdan iborat. Shuningdek, mazkur qo‘riqlash xizmati fuqarolarning hayoti, sog‘lig‘i yoki mol-mulkiga noqonuniy harakatlar natijasida yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

[11] Горовенко В.В. Гражданско-правовое регулирование частной детективной и охранной деятельности: Дисс. ... к. ю. н. –М., 2001. С. 78.
[12] https://qbb.uz/uz/alarm
[13] https://qbb.uz/uz/alarm

Shu bilan birga, har ikki shartnomada ob’ektning qo‘riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlanishi nazarda tutilganligi sababli, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik amaliyotda yaqqol namoyon bo‘ladi. Ko‘pincha jamoat tartibini saqlash majburiyati (ya’ni buyurtmachi tomonidan yuborilgan “Tashvish” signaliga javob berish vazifasi) mol-mulkni qo‘riqlashga oid shartnomaga qo‘shimcha tarzida kiritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mavlyanov A.A. Mantiq: Ma’ruzalar kursi. –T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2006. 57-bet. // https://api.lib.tipi.uz/media/bookFiles/A.Mavlyanov_Mantiq.pdf
2. Ивин А.А. Логика: Учебник. -М.: Гардарики, 2004. С.104.
3. Маркова-Мурашова С. А. Значение категорий и классификаций в праве // Традиции, реформы и революции в развитии государства и права (К 100-летию Революции 1905 года): Материалы Всероссийской заочной научно-практической конференции / Отв. ред. Ю.Ю.Ветютнев. Волгоград: ВРОО ЮНШ, 2005. С. 11.
4. https://uztag.info/uz/news/zbekistonda-khususiy-ri-lash-agentliklariga-yana-rukhsat-beriladi-
5. Ўзбекистон Республикасининг «Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги қонуни 13-моддаси // https://lex.uz/docs/6066682
6. Горовенко В.В. Гражданско-правовое регулирование частной детективной и охранной деятельности: Дисс. ... к. ю. н. –М., 2001. -С. 75-76.
7. Ўзбекистон Республикасининг «Қўриқлаш фаолияти тўғрисида”ги қонуни. https://lex.uz/docs/6066682
8. Ручкин О.Ю. Организационно-правовые аспекты участия органов внутренних дел Российской Федерации в договорных обязательствах: Дисс.... к. ю. н. М., 1997. С. 108-113.
9. https://qbb.uz/uz/alarm

FUQAROLIK HUQUQLARI OBYEKTI SIFATIDA MUHOFAZA QILINADIGAN OBYEKTLAR INFRATUZILMASI

Saidov Baxodirxo‘ja Nosirxo‘jayevich
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi
bahodirxujasaidov@gmail.com

So‘nggi o‘n yilliklarda fuqarolik huquqlari infratuzilmasining kontseptual tushunchasi sezilarli darajada o‘zgardi. Birinchi navbatda jismoniy mulk huquqlariga qaratilgan an’anaviy yondashuvlar zamonaviy texnologik haqiqatlarni hisobga olgan holda raqamli integratsiyalashgan himoya paradigmalarini qamrab olish uchun kengaytirildi[14]. YUNESKOning Jahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konventsiyasi kabi xalqaro tuzilmalar muhofaza qilinadigan obyektlarning maqomini belgilashning asosiy tamoyillarini belgilaydi[15].

Himoya qilinadigan obyektlarning ta’rifi va tasnifi

Himoyalangan aktivlar infratuzilmaning ixtisoslashgan toifasi bo‘lib, ular tanqidiyligi, zaifligi yoki buzilish holatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ta’siri tufayli kuchaytirilgan xavfsizlik choralarini talab qiladi. Fuqarolik huquqi tizimlarida ta’riflashning asosiy yondashuvlari, odatda, bunday obyektlarga nisbatan qo‘llaniladigan ixtisoslashtirilgan mulk rejimlarini ta’kidlab, kuchaytirilgan himoya talablari va cheklangan egalik yoki kirish huquqlariga e’tibor qaratadi[16]. Ushbu ixtisoslashtirilgan rejimlarning kontseptual asoslari infratuzilmaning ayrim elementlari mulkning odatiy maqsadlaridan tashqari funktsiyalarni bajarishini tan olishga asoslanadi, bu esa maxsus huquqiy tartibni talab qiladi[17]. Xalqaro tuzilmalar ushbu kontseptual yondashuvlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Gaaga konventsiyasi madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish maqomini

[14]Cavoukian, A. (2011). Privacy by design: The 7 fundamental principles. Information and Privacy Commissioner of Ontario.
[15]UNESCO. (1972). Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
[16]Baram, M., & Lind?e, P. (2014). Modes of risk regulation for critical infrastructures. International Journal of Critical Infrastructures, 10(2), 113-130.
[17]Bryson, N., & Theohary, C. A. (2019). Cybersecurity: Selected issues for the 116th Congress. Congressional Research Service.

belgilashning asosiy tamoyillarini belgilab berdi, bu esa keyinchalik infratuzilmani muhofaza qilishning keng doirasiga ta’sir ko‘rsatdi[18].

Xalqaro atom energiyasi agentligining Yadroviy xavfsizlik seriyasi muhim energiya infratuzilmasi uchun ta'riflar bo‘yicha aniqroq yo‘riqnomani taqdim etadi, ruxsatsiz kirishdan zarar yetkazish potentsialiga asoslangan hayotiy hududlar, qo‘riqlanadigan hududlar va cheklangan hududlarni ajratib turadigan uch bosqichli tasnif tizimini o‘rnatadi[19]. Potentsial zararga asoslangan tasniflashning ushbu funktsional yondashuvi turli infratuzilma tarmoqlarida keng qo‘llanilib, muayyan amalga oshirishdagi yurisdiksiyaviy farqlarga qaramay, umumiy kontseptual asosni yaratdi[20]. Xususan, ushbu xalqaro tuzilmalar raqamli tizimlar jismoniy elementlarning ekvivalent himoyasini talab qiluvchi ajralmas komponentlar ekanligini tan olib, himoyalangan obyektlarning kiberfizik tabiatini tobora ko‘proq e’tirof etmoqda[21].

Qiyosiy tahlil turli yurisdiktsiyalarning muhofaza qilinadigan obyektlarni qanday belgilashi bo‘yicha sezilarli farqlarni ko‘rsatadi, garchi umumiy elementlarga odatda muhim xizmatlarning muhimligi, buzilish holatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan halokatli zarar va milliy xavfsizlik oqibatlari kiradi[22]. Rossiya Federatsiyasining «Yoqilg‘i-energetika kompleksi obyektlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi Federal qonuni (256-FZ, 2011 yil) energiya ishlab chiqarish va taqsimlash uchun zarur bo‘lgan jismoniy aktivlarni, operatsion tizimlarni va axborot texnologiyalari infratuzilmasini qamrab oladigan keng qamrovli ta’rifni beradi[23]. Xuddi shunday, Qozog‘istonning «Strategik ahamiyatga ega obyektlar to‘g‘risida»gi qonuni (№ 527- IV, 2012 y.) qo‘riqlanadigan obyektlarni iqtisodiy ahamiyati, aholiga potentsial ta’siri va xavfsizlik oqibatlaridan kelib chiqqan holda belgilaydigan ko‘p omilli yondashuvdan

[18]UNESCO. (1954). Convention for the protection of cultural property in the event of armed conflict with regulations for the execution of the convention. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
[19]International Atomic Energy Agency. (2011). Nuclear security recommendations on physical protection of nuclear material and nuclear facilities (INFCIRC/225/Revision 5). IAEA Nuclear Security Series No. 13.
[20]Organization for Economic Cooperation and Development. (2019). Good governance for critical infrastructure resilience. OECD Reviews of Risk Management Policies.
[21]Luijf, E., Nieuwenhuijs, A., Klaver, M., van Eeten, M., & Cruz, E. (2010). Empirical findings on European critical infrastructure dependencies. In A. Setola & S. Geretshuber (Eds.), Critical Information Infrastructure Security (pp. 302-310). Springer.
[22]Moteff, J., & Parfomak, P. (2004). Critical infrastructure and key assets: Definition and identification. Congressional Research Service.
[23]Federal Law of the Russian Federation On Security of Fuel and Energy Complex Facilities, No. 256-FZ. (2011).

foydalanadi[24]. Ushbu ta‘rifiy yondashuvlar sof jismoniy infratuzilma tushunchalaridan keng qamrovli xavfsizlik tizimini talab qiluvchi integratsiyalashgan kiberfizik tizimlarga qadar davom etayotgan evolyutsiyani namoyish etadi.

Xavfsizlik talablariga asoslangan tasniflash tizimlari himoyalangan obyektlarni xavf profillari va himoya ehtiyojlariga ko‘ra tasniflash uchun tizimli asosni ta’minlaydi. Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti 800-53 maxsus nashri xavfsizlikning buzilishi natijasida tashkiliy operatsiyalar, aktivlar va jismoniy shaxslarga mumkin bo‘lgan zararga asoslangan ta’sirning uch darajali tasnifini (past, o‘rtacha, yuqori) belgilaydi[25]. Ushbu tasniflash yondashuvi, tasniflangan ta’sir darajalariga asoslangan tegishli xavfsizlik choralarini aniqlash uchun standartlashtirilgan metodologiyani taqdim etish orqali butun dunyo bo‘ylab me’yoriy-huquqiy bazaga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi[26]. Yevropa Ittifoqi 2008/114/ EC Kengash Direktivida shunga o‘xshash yondashuvni qabul qildi, bu potentsial yo‘qotishlar chegaralari, iqtisodiy ta’sirlarni baholash va infratuzilma buzilishining ijtimoiy oqibatlariga asoslangan Yevropa muhim infratuzilmasini belgilash mezonlarini belgilab berdi[27].

Xulosa

Himoyalangan obyektlarning ta’rifi va tasnifi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot zamonaviy huquqiy va texnik amaliyotda sezilarli o‘zgarishlar yuz berayotganligini ko‘rsatadi. An’anaviy jismoniy mulk huquqlariga asoslangan yondashuvlardan raqamli integratsiyalashgan himoya paradigmalarigacha bo‘lgan evolyutsiya himoyalangan obyektlarning zamonaviy tabiatini tushunishda fundamental o‘zgarishlarni talab qilmoqda.

Xalqaro standartlar va konventsiyalar, xususan UNESCO madaniy meros konventsiyasi va IAEA yadroviy xavfsizlik serijalari, himoyalangan obyektlarni belgilashda kontseptual asoslarni yaratishda muhim rol o‘ynagan. Ushbu xalqaro tuzilmalar turli yurisdiktsiyalarda qo‘llaniladigan

[24]Law of the Republic of Kazakhstan On Objects of Strategic Importance, No. 527-IV. (2012).
[25]Joint Task Force Transformation Initiative. (2013). Security and privacy controls for federal information systems and organizations (NIST Special Publication 800-53, Revision 4). National Institute of Standards and Technology.
[26]Hathaway, M., Demchak, C. C., Kerben, J., McArdle, J., & Spidalieri, F. (2015). Cyber readiness index 2.0. Potomac Institute for Policy Studies.
[27]European Council. (2008). Council Directive 2008/114/EC on the identification and designation of European critical infrastructures and the assessment of the need to improve their protection. Official Journal of the European Union, L 345, 75-82.

umumiy tamoyillar va yondashuvlarni shakllantirishi bilan birga, milliy qonunchilikda o‘ziga xos xususiyatlarning saqlanib qolishiga ham imkon bergan.

Qiyosiy tahlil natijalarida Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston kabi davlatlarning himoyalangan obyektlarni belgilash yondashuvlarida umumiy elementlar mavjudligi aniqlandi. Bular qatoriga muhim xizmatlarning tanqidiyligi, buzilish holatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan halokatli zarar va milliy xavfsizlik oqibatlari kiradi. Biroq, aniq ta’rifiy mezonlar va tasniflash usullarida yurisdiksiyalar orasida sezilarli farqlar mavjudligini ham qayd etish kerak.

NIST 800-53 va Yevropa Ittifoqi 2008/114/EC direktivasi kabi xavfsizlik talablariga asoslangan tasniflash tizimlari himoyalangan obyektlarni sistemali tarzda kategoriyalash uchun samarali vositalar yaratgan. Ushbu standartlashtirilgan yondashuvlar xavf profillari va himoya ehtiyojlariga mos ravishda obyektlarni tasniflash imkonini beradi va butun dunyo miqyosida qo‘llanilayotgan amaliy metodologiyalarni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalaridan eng muhimi himoyalangan obyektlarning kiberfizik tabiatini tan olish zarurligidir. Zamonaviy infratuzilma obyektlari jismoniy

va raqamli komponentlarning ajralmas integratsiyasini talab qiladi, bu esa an'anaviy himoya yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Raqamli tizimlar endi jismoniy elementlarning ekvivalent himoyasini talab qiluvchi ajralmas komponentlar sifatida qaralishi kerak.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar tavsiya etiladi: birinchidan, kiberfizik tizimlar uchun yanada mukammal huquqiy bazalarni ishlab chiqish; ikkinchidan, xalqaro standartlarni milliy qonunchilik bilan yanada samarali integratsiyalash usullarini o‘rganish; uchinchidan, himoyalangan obyektlar tasnifida sun’iy intellekt va IoT texnologiyalarining ta’sirini hisobga oluvchi yangi mezonlarni ishlab chiqish.

Himoyalangan obyektlarning ta’rifi va tasnifi sohasidagi davom etayotgan o‘zgarishlar zamonaviy jamiyatning infratuzilma xavfsizligiga bo‘lgan ehtiyojlarining o‘sishi va texnologik taraqqiyotning ta’sirini aks ettiradi. Ushbu o‘zgarishlarni to‘g‘ri tushunish va tegishli huquqiy-texnik

choralarni amalga oshirish milliy va xalqaro xavfsizlikni ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cavoukian, A. (2011). Privacy by design: The 7 fundamental principles. Information and Privacy Commissioner of Ontario.
2. UNESCO. (1972). Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
3. Baram, M., & Lind?e, P. (2014). Modes of risk regulation for critical infrastructures. International Journal of Critical Infrastructures, 10(2), 113-130.
4. Bryson, N., & Theohary, C. A. (2019). Cybersecurity: Selected issues for the 116th Congress. Congressional Research Service.
5. UNESCO. (1954). Convention for the protection of cultural property in the event of armed conflict with regulations for the execution of the convention. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.
6. International Atomic Energy Agency. (2011). Nuclear security recommendations on physical protection of nuclear material and nuclear facilities (INFCIRC/225/Revision 5). IAEA Nuclear Security Series No. 13.
7. Organization for Economic Cooperation and Development. (2019). Good governance for critical infrastructure resilience. OECD Reviews of Risk Management Policies.
8. Luijf, E., Nieuwenhuijs, A., Klaver, M., van Eeten, M., & Cruz, E. (2010). Empirical findings on European critical infrastructure dependencies. In A. Setola & S. Geretshuber (Eds.), Critical Information Infrastructure Security (pp. 302-310). Springer.
9. Moteff, J., & Parfomak, P. (2004). Critical infrastructure and key assets: Definition and identification. Congressional Research Service.
10. Federal Law of the Russian Federation On Security of Fuel and Energy Complex Facilities, No. 256-FZ. (2011).
11. Law of the Republic of Kazakhstan On Objects of Strategic Importance, No. 527-IV. (2012).

12. Joint Task Force Transformation Initiative. (2013). Security and privacy controls for federal information systems and organizations (NIST Special Publication 800-53, Revision 4). National Institute of Standards and Technology.

13. Hathaway, M., Demchak, C. C., Kerben, J., McArdle, J., & Spidalieri, F. (2015). Cyber readiness index 2.0. Potomac Institute for Policy Studies.

14. European Council. (2008). Council Directive 2008/114/EC on the identification and designation of European critical infrastructures and the assessment of the need to improve their protection. Official Journal of the European Union, L 345, 75-82.

TA'LIM JARAYONLARIDA IJTIMOIY SHERIKLIK PRINSIPLARI ASOSIDA HUQUQIY MADANIYATNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY METODI

S.A.Ismailov

Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti dekani, PhD.

Yangi O‘zbekiston ilm-fan, sanoat va madaniyat sohasida katta salohiyatga ega mustaqil davlatdir. Unda dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlardan biri bo‘lish uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar mavjud.

Huquqiy madaniyat tushunchasi, bizningcha, huquqiy qadriyatlar tizimiga bog‘lanishi lozim. Bu huquqiy qadriyatlarning jamiyat erishgan huquqiy taraqqiyot darajasiga mos kelishi va shaxs erkinligining holatini huquqiy shaklda aks ettirishida ifodalanadi.

Huquqiy madaniyatning tuzilishi ancha murakkab. Huquqiy madaniyat turlarga bo‘linadi. Huquqiy madaniyatning tashuvchisiga (subyektiga) qarab jamiyat, ijtimoiy guruh, shaxs huquqiy madaniyatiga bo‘linadi. Mazmuniga ko‘ra, huquqiy madaniyatni Huquqiy ongga bo‘lish tavsiyaetiladi: qonuniyxulq - atvor va huquqiy fikrlash; qonuniyxatti-harakatlar va huquqiy fikrlash natijalari; huquqiy faoliyat (qonuniyxatti-harakatlar) tabiatiga ko‘ra-nazariy vaamaliy, shu jumladan, professional, samarali va reproduktiv.

Demak, huquqiy madaniyat huquqni chuqur bilish vaanglash, uning talablarini ongli zarurat va ichki ishonch sifatida puxta bajarishdir. U insoniyatning huquq sohasidagi yutuqlarini birlashtiradi. Huquqiy madaniyatning o‘zagi bo‘lgan huquqning asosiy qadriyatlari uning tartibga soluvchi, muhofaza va himoya funksiyalaridayotadi. Huquqiy madaniyat inson tomonidan qonun haqidagi bilimlarni egallash orqali o‘zlashtiriladi, u nafaqat shaxsning bilimida, balki uning harakatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Huquqiy ongning o‘zigaxosligi, avvalo, uning aks ettirish va ta’sir etishning o‘zigaxos subyekti – huquqiy voqelikkaegaekanligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, Huquqiy ong nafaqat uni huquqiy tamoyillar, toifalar, tushunchalar, nazariyalar, hissiyotlar, qarashlardaaks ettiradi, balki huquq subyektlarini huquqiy muhitda muayyan o‘zgarishlarni amalgaoshirishgayo‘naltiradi.

Shaxsning Huquqiy ongining tuzilishi uchta tarkibiy qismdan iborat: huquqiy bilim, huquqiy baho va huquqiy munosabat. Inson o‘z ongida turli huquqiy hodisalarni aks ettirish va tushunish jarayonida huquqiy bilimlarga, shu jumladan huquqning o‘zigaxos normalari, uning maqsadi haqidagi ma’lumotlar ega bo‘ladi. Huquqni baholovchi vakilliklarning roli shundan iboratki, inson nafaqat o‘z harakatlarida huquqiy normalarda modellashtirilgan narsalarni takrorlamaydi, balki ularni tanqidiy baholaydi, o‘zining huquqiy, majburiy, zaruriy qarashlari bilan bog‘liqlikni ongida qayta ko‘rib chiqadi, . Huquqiy ongning eng murakkab tarkibiy qismlaridan biri muayyan huquqiy xulq-atvorga tayyorlikni emas, balki muayyan g‘oyalarga moyillikni aks ettiruvchi huquqiy munosabat blokidir.

Huquqiy ongni odamlarning amaldagi qonunga munosabatini, uning maqsadlari, vazifalari, tartibga solish metodlari va usullarini, uning normalari va kelajakdagi huquqiy tizim va uning individual normalari haqidagi g‘oyalarini qonuniyligini baholashni ifodalovchi huquqiy qarashlar to‘plami sifatida aniqlash mumkin. Huquqiy ong davlatni yaratish, qonunni amalga oshirish va uning talablarini bajarish, qonun ustuvorligini shakllantirish va mamlakatda sivilizasiyalashgan qonun ustuvorligini yaratish jarayoniga ta’sir qiladi.

Shu nuqtai nazardan, shuni ta’kidlash kerakki, ijtimoiy hayotning huquqiy sohasidagi Huquqiy ongning maqsadi, o‘rni va roli uning turli xil

huquqiy hodisalar bilan bog‘liqligi, ularning paydo bo‘lishining sabablaridan biri ekanligi bilan belgilanadi.

Insonning haqiqiy madaniyati uning qonuniy xatti-harakatlaridan ajralmasdir va qonuniy xatti-harakatlar uning ijobiy Huquqiy ongini amalga oshirish natijasidir. Shuni tan olish kerakki, bugungi kunda moliyaviy, iqtisodiy, tashkiliy va siyosiy sabablarga ko‘ra huquqiy xabardorlik darajasi past. Shuning uchun Huquqiy ong va madaniyatni oshirish uchun quyidagilar zarur: “huquqiy adabiyotlarni tarqatish; ommaviy axborot vositalarida amaldagi qonunchilikni tushuntirish; huquqiy fanlarni o‘qitish va huquqiy ta’lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni va tajribali olimlarni huquqiy mavzulardagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etishga keng jalb etish”.

Uning umumiy madaniyatining bir qismi va jamiyat rivojlanish darajasining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan jamiyatning huquqiy madaniyati faqat shakllanish bosqichida bo‘lib, uning shakllanishi va faol rivojlanishi uchun maqsadli faoliyatni talab qiladi. Shunday qilib, huquqiy madaniyat muammosi o‘z yechimini kutayotgan muhim milliy vazifa ekanligini ta’kidlash mumkin. Binobarin, huquqiy ong va huquqiy madaniyat nafaqat amaldagi huquqni bilish, tushunish va psixologik idrok etish, balki shaxsning amaldagi huquqiy model doirasidagi xulq-atvoridir.

Shaxsning huquqiy ongini shakllantirish, huquqiy fikrlash, qonunchilikni bilish, huquqiy normalarni ongli idrok etish, ularga rioya qilish zarurati, huquqiy javobgarlik hissi, islohotlarning hozirgi bosqichida yoshlarning qadriyat yo‘nalishlarini tarbiyalash vaoliy ta’limning Evropa integrasiyasi, fuqarolarning faol ta’lim olish qobiliyati ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda ishtirok etish jamiyatdagi muhim jarayonlardir.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mahalliy va xorijiy olimlar Huquqiy ongning tuzilishi to‘g‘risidagi qoidalarni huquqiy va pedagogik madaniyatning muhim elementi, jamoat ongining shakli, uning o‘zigaxos xususiyatlari, ma’naviy mohiyati, maqsadi va tarixiy rivojlanish xususiyatlari sifatida o‘rganadilar (M. Svik, A. Petrishin, G. A. Markova, E. Nazarenko, P. Nedbaylo, V. Tkachenko, A. Skakun, P. Rabinovich, M. Panov, S. Slivka, M. Enikeev, V. Bede, N. Tkacheva va boshqalar.); Huquqiy ongning vazifalari va ijtimoiy maqsadini ilmiy tahlil qilish (N.

Bura, O. Skakun, O. Ratinov, V. Sapun); Huquqiy ongning deformatsiyasi va uning oldini olish muammosini ko‘rib chiqishadi(V. Tkachenko, I. Yakovyuk).

Huquqiy tarbiya va Huquqiy ong masalalari ham pedagogika (N. Tkacheva, I. Romanova, M. Fisula), kriminologiya (A. Dolgova, A. Ratinov, I. Ruschenko, A. Yarmыsh), davlat va huquq nazariyasi (M. Gorbatyuk, V. Kuchinskiy, M. Podberezskiy, O. Skakun), yuridik psixologiya (V. Tomsinov, G. Shixansov)ning tadqiqot predmeti hisoblanadi. Tadqiqotchilar Huquqiy ongni shakllantirish, yuqori axloqiy gumanistik xulq-atvor, profilaktik ta’lim muammolariga e’tibor qaratadilar. S.Maksimovning fikriga ko‘ra, ba’zi mualliflar «Huquqiy ong kabi murakkab hodisani faqat uning ta’rif shakllantirish orqali yoritib bo‘lmaydi», deb hisoblashadi va shuning uchun «Huquqiy ongning mohiyati haqidagi savolga javob berish uchun u yoki bu ta’rif berishning o‘zi etarli emas».

Xorijiy ekspertlarning (J. Habermas) huquqiy ong mazmunini aniqlashda eng ko‘p uchraydigan to‘siq huquqiy ong mazmunining «subektiv-ob’ektiv» va «ontologik-deontologik» divergensiyasida o‘z ifodasini topgan huquq tabiatining «aslida normativ» ikkilanishiga oid fikrlari e’tiborga molikdir. Huquqiy ongning ajralmas ta’rifi qonunning «moddiyligi» yoki «idealligi» atributlari bo‘lgan belgilar yoki xususiyatlarni izlashdan iborat emas, balki uning shakllanishi va amalga oshirilishining ekzistensial kontekstidan ajralmaydigan ikkinchisining interaktiv tabiatini aks ettirishdan iborat. Binobarin, huquqiy ong huquqiy voqelikning ajralmas tarkibiy qismidir, buning natijasida odatda uni anglash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Салова Ю.А. Правовая культура и правосознание // https://cyberleninka.ru/article/n/pravova-kultura-i-pravosvidomist

2. Султанова, Н. Э. Ҳуқуқий ислоҳотларнинг ёшлар ҳуқуқий онги ва маданиятини оширишдаги аҳамияти / Н. Э. Султанова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 22 (260). — С. 690-692. — URL: https://moluch.ru/archive/260/60022/ (дата обращения: 16.12.2022).

3. Quvvatov S. Yuksak huquqiy ong va madaniyat – mamlakatimiz taraqqiyoti garovi // http://bulungurhayoti.uz/index.php?newsid=1269

4. Ibaydullaev Q. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirish – ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishi // Zamonaviy ta'lim / Современное образование.2019. - № 5(78). – Б. 92.

5. Qурбонова Г.М.Олий таълим муассасалари талабаларида hyqyqий маданиуатни шакллантиришнинг назарий жиһатлари // Замонавий таълим / Современное образование. 2014 - № 11. – Б. 18.

6. Цимбалюк М.М. Формирование правосознаниуа граждан в процессе развитиуа гражданского общества: дис. ... канд. Юрид. науч. – К.,2004. - 183 с.

7. Максимов С.И. Правовауа реалност: опыт философского осмыслениуа. – Харков: 2002. – 255 с.

8. Habermas J. Between Facts and Norms. Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge, 1996.

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING DAROMAD KELTIRADIGAN FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING FUQAROVIY-HUQUQIY ZARURATI

Atadjanov Dilmurat Tadjimuratovich,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining mustaqil izlanuvchisi,

O‘zbekiston Respublikasining davlat organlari tizimida ichki ishlar organlari (bundan keyin matnda – IIO) o‘zining funksiya va vazifalari hamda boshqa davlat hokimiyat organlariga nisbatan ko‘p sonli shaxsiy tarkibga egaligi bilan ajralib turadi. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonunning 4-moddasida belgilanganidek, IIO faoliyati fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o‘tkazish kabi asosiy yo‘nalishlardan iborat. S.V. Gunich ta’kidlaganidek, “Davlat ichida yuzaga keladigan tahdidlarga qarshi turish aynan ichki ishlar organlari vazifasi etib belgilangan” [1. –S. 51.]. Shunga ko‘ra, IIO o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lishi kerak.

IIO bajaradigan vazifalar mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotida o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etishi IIOni davlat budjeti mablag‘lari bilan o‘z vaqtida, yetarlicha va tezkorlikda moliyalashtirishni taqazo etadi. Ammo, har qanday mamlakatda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham ushbu moliyaviy jarayonlar har doim ham muvofaqiyatli amalga oshmaydi. Bu holat IIOning o‘z funksiya va vazifalarini samarali hamda sifatli bajarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu kabi salbiy holatlarni oldini olish maqsadida fuqarolik qonunchiligida muassasalar uchun nazarda tutilgan, biroq IIO faoliyatiga oid maxsus qonunchilikda belgilanmagan qo‘shimcha daromad olishga talluqli qoidalarni joriy etish maqsadga muvofiq. Boshqacha aytganda, IIOga o‘zining mustaqil mablag‘lariga ega bo‘lish va zarur hollarda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun mustaqil foydalanish imkoniyatlarining huquqiy asoslarini yaratish zarur. Buning uchun milliy qonunchilikda nazarda tutilgan va boshqa davlat muassasalari tomonidan

amalga oshirishga ruxsat berilgan daromad keltiradigan faoliyatni va tadbirkorlik bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini IIO tizimiga ham tadbiq etish kabi choralarni belgilash kerak.

Ta’kidlash kerakki, bugun fuqarolik qonunchiligida davlat organlari, shu jumladan IIO tomonidan tadbirkorlik va daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirishi uchun huquqiy asoslar mavjud bo‘lsa-da, sivilistika fanida hali hanuz bu masala ilmiy jamoatchilik o‘rtasida bahsli bo‘lib qolmoqda. Xususan, bir guruh huquqshunoslar davlat organlari to‘liq budjet mablag‘laridan moliyalashtirilishi kerak va ularning qo‘shicha moliyaviy daromad olishga harakat qilishlariga hech qanday zarurat yo‘q desalar, boshqalari esa daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishlari ularning asosiy faoliyatini amalga oshirishga xalal bermaydi va aksincha o‘z vazifalarini samarali bajarilishiga qo‘shimcha moliyaviy yordam bo‘ladi deb hisoblaydilar. Masalan, A.Gorelik “Davlat, budjet muassasalariga budjetdan tashqari manbalar va ularga berilgan mol-mulk hisobidan o‘zlari uchun qo‘shimcha daromad olish imkoniyatini yaratib berish orqali moliyalashtirishdagi muammolarni yechishga hamda davlat xarajatlarini tejashga harakat qilmoqda. Biroq, muassasalarning bunday faoliyat bilan shug‘ullanishlari o‘z vazifalarini lozim darajada bajarishdan chalg‘itadi” [2. –S. 4.] deb aytsa, V.Kovyazin “Mamlakatda kechayotgan tijoratlashtirish jarayoni ichki ishlar organlarining yuridik shaxs sifatidagi faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Bu esa ularning faoliyatida zarur bo‘lgan maxsus vositalar, qurol-yarog‘, harbiy texnika va boshqa moddiy boyliklar bahosining muntazam oshib borayotgani budjetdan ajratilgan moliyaviy resurslar bilan adekvat bo‘lmayapti. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlarining zarur ehtiyojlarini qondirish uchun ichki zaxiralar va moliyalashtirish manbalarini tezkorlik bilan izlash va buni hal qilishda ularning daromad keltiradigan va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zarur” [3. – S. 3.] deb hisoblaydi.

Darhaqiqat, ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qilish sohasidagi asosiy vazifalarini amalga oshirishda mamlakatda sodir bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlardan ajralgan holda mustaqil faoliyat yurita olmaydi. D.Markelov ta’kidlaganidek, “IIO o‘zlarining asosiy vazifalarini bajarish uchun har qanday holatda ham mamlakatdagi iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishdan butunlay voz kechib faqat o‘z tizimida nufuzli davlat organi

sifatida harakat qila olmaydi. Chunki *birinchidan,* ashyoviy huquqlar asosida muayyan mulkka (mulkiy kompleks, moddiy resurslar, moddiy bazaga) ega bo‘lishi va *ikkinchidan,* davlat mulkining ichki ishlar organlariga berilishi qonunchilikda ushbu mulk va mulkiy huquqlardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu ikki holat IIOning fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishish zaruratini belgilaydi” [4.].

IIO tizimida ularning moddiy-texnik ta’minoti bilan shug‘ullanuvchi maxsus boshqarmalar, muassasalar, lavozimlar joriy etilgan. Mazkur tuzilmalarning asosiy faoliyati IIOning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish emas, balki bu funksiyalarni amalga oshirishga bevosita vakolatli bo‘lgan IIOning tarkibiy tuzilmalarini moliyaviy resurslar bilan ta’minlashdir. Ya’ni, IIOning daromad keltiradigan faoliyati ham aynan manashu tarkibiy tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladi. P.Skoblikov ta’kidlaganidek, “Shu sababli IIOga yuridik shaxs maqomi beriladi va xo‘jalik yurituvchi sub’ekt sifatida boshqa sub’ektlar bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarga kirishadi” [5. –S. 15.]. Shuningdek, Ye.Lыsenko aytganidek, “IIOga yuklangan vazifalarning bajaralishini ta’minlash uchun ular (yuqoridagi maxsus tuzilmalar – ta’kid. muallifniki) tadbirkorlik munosabatlariga ham kirishadilar” [6. –S. 115.]. Demak, IIOning daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishi haqida gap ketganda, aynan ularning yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan maxsus tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan IIOga daromad olib keladigan iqtisodiy faoliyati tushunilishi kerak.

D.V.Pogorelov va T.S.Kolesova o‘z tadqiqotlarida ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblangan IIO tadbirkorlik munosabatlariga quyidagi holatlarda kirishishlari mumkinligini qayd etadi:

- tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta’minlaydigan davlat organi sifatida;

- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini nazorat qiluvchi davlat hokimiyati organi sifatida;

- tadbirkorlik sub’ektlari (tadbirkorlar) bilan tuziladigan shartnomalar bo‘yicha kontragent sifatida [7. –S. 302.].

Bizning fikrimizcha yuqorida ta’kidlangan holatlarning faqatgina so‘ngisi ichki ishlar organlarining tadbirkorlik munosabatlarida to‘g‘ridan-

to‘g‘ri sub’ekt sifatida ishtirok etishini anglatadi. Birinchi va ikkinchi holatlar esa O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi qonuni 2-moddasida belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirish zarurati tufayli mazkur huquqiy munosabatlarga kirishishni ifoda etadi. Shu sababli, D.V.Pogorelov va T.S.Kolesova keltirgan ro‘yxatdagi birinchi va ikkinchi holatlarda ichki ishlar organlari fuqarolik yoki tadbirkorlik huquqi sub’ekti sifatida qatnashmoqda, deb hisoblash mumkin emas.

Ichki ishlar organlarining fuqaroviy-huquqiy munosabatlardagi ishtirokini tadqiq qilgan N.Qo‘ldoshevning fikriga ko‘ra, “IIO fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlat organi va yuridik shaxs sifatida ishtirok etadi” [8. –B. 3.]. Bunga qo‘shilgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, IIOning “davlat organi” sifatida kirishadigan huquqiy munosabatlari, garchi FK bilan tartibga solingan bo‘lsa-da ma’muriy huquqiy xususiyat kasb etadi. Masalan, FKning 991-moddasida “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlari va sudning qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun javobgarlik” nazarda tutilgan bo‘lib, bunday zararni qoplash tartibi ma’muriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan.

Ta’kidlanganidek, IIO turli mazmundagi huquqiy munosabatlarda va shu jumladan, tadbirkorlik va fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ham ishtirok etadi, bunda ham davlat organi, ham yuridik shaxs sifatida qatnashadi. Davlat hokimiyat organi sifatidagi ishtiroki qonunda belgilangan hollarda ko‘p hollarda majburiy tartibda bo‘ladi (ya’ni bu munosabatda ishtirok etishdan IIO bosh torta olmaydi) va bu munosabatlar ma’muriy-huquqiy xususiyat kasb etsa, yuridik shaxs sifatida tadbirkorlik va fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki ixtiyoriy bo‘lib, mazkur munosabatlar fuqarolik-huquqiy xususiyat kasb etadi.

IIO tuzilishi jihatidan murakkab bo‘lgan tashkilot va u o‘zida turli huquq layoqatiga ega tuzilmalarni birlashtiradi. Yu.Щerbakova va Ye.S.Lыsenko, “fuqarolik muomalasida yuridik shaxs sifatida faqat Ichki ishlar vazirligi emas, balki uning alohida tuzilmalari ham ishtirok etadi” [9. –S. 66.] desa, Yu.A. Fedorova “yuridik fan nuqtai nazaridan, ichki ishlar organlari tomonidan yetkazilgan zararni qoplash majburiyati davlat

zimmasida, biroq javobgarlik sub’ekti ichki ishlar organining o‘zi hisoblanadi” [10. –S. 211.] deb aytadi.

Yuqoridagi holatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, ichki ishlar organlari fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ham davlat organi, ham yuridik shaxs sifatida sub’ekt hisoblanadi. IIOning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda yuridik shaxs sifatida ishtiroki sof ma’nodagi fuqarolik-huquqiy xususiyat kasb etasa-da, davlat organi sifatida ishtiroki bu munosabatlarda ularga hech qanday imtiyoz va ustunlik bermaydi. Zero, fuqarolik huquqining asosiy tamoyillaridan biri ham fuqarolik-huquqiy munosabat sub’ektlarining tenghuquqligi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga asosan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan IIO davlat budjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladi. Ya’ni, ularni moliyalashtirish to‘liq davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Lekin, bozor iqtisodiyoti davlat budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlarga, shu jumladan ichki ishlar organlariga ham o‘zini-o‘zi moliyalashtirish zaruratini taqazo etadi. Bu esa milliy qonunchilikda ularga qo‘shimcha daromad olish imkonini yaratib berishga sabab bo‘lgan. Xususan, FKning 180-moddasida ta’sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilishi mumkinligi nazarda tutilgan bo‘lsa, FKning 40-moddasida esa tijoratchi bo‘lmagan tashkilot o‘zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkinligi belgilangan. Faqat bunda daromad olish bilan shug‘ullanishi ularning tashkil etish maqsadida ko‘zda tutilgan asosiy vazifalariga halaqit bermasligi hamda asosiy maqsadiga aylanib qolmasligi kerak. Zero, qonunda belgilangan bunday huquqdan foydalanishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida IIOning imkoniyati boshqalariga qaraganda yuqori. Chunki, yuqorida ta’kidlanganidek IIO tarkibida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan “Moliya-xo‘jalik faoliyati”ni amalga oshiruvchi maxsus tarkibiy tuzilmalar tashkil etilgan. Faqat, ichki ishlar organlari faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonunchilikda ularning daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirishi, bu faoliyat bilan kengroq shug‘ullanishi, qo‘shimcha pul topish imkoniyatlari tarqoq va tizimsiz tartibga solingan.

Ichki ishlar organlarining “moliyaviy faoliyati” ham “xo‘jalik faoliyati” ham iqtisodiy faoliyat hisoblanadi. Biroq, IIOning xo‘jalik faoliyati ularning moliyaviy faoliyatidan huquqiy tartibga solinishi hamda tomonlarda mulkiy manfaatdorlikning oz bo‘lsada mavjudligiga ko‘ra farq qiladi. Moliyaviy faoliyat moliyaviy huquq normalari bilan tartibga solinadigan moliyaviy huquqiy munosabat bo‘lsa, xo‘jalik faoliyati esa xo‘jalik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatdir. IIOning xo‘jalik faoliyati xaqida aytadigan bo‘lsak, bunda IIOning moddiy manfaatdorlik xususiyati hamda bu munosabatni ixtiyoriylik asosida amalga oshirishga huquqliligiga ko‘ra mazkur faoliyat fuqarolik-huquqiy munosabatlarga juda yaqin keladi. Masalan, IIO o‘zlarining daromad keltiradigan faoliyatida fuqarolik huquqining boshqa sub’ektlari bilan turli fuqaroviy-huquqiy shartnomalar (haq evaziga xizmat ko‘rsatish, bo‘sh turgan ob’ektlarni ijaraga berish, bo‘sh turgan pul mablag‘larini bank muassasalariga depozitlarga joylashtirish hisobidan olingan pul mablag‘lari (foizlar), tovarlarni sotish va sh.k.)ni tuzadi. Ya’ni, bu shartnomaviy munosabatlardan IIO muayyan darajada mulkiy manfaat ko‘radi. Shu xususiyatiga ko‘ra ularning daromad keltiradigan faoliyati xo‘jalik yuritishidan farq qiladi. Bundan tashqari, xo‘jalik faoliyatini yuritishda davlat muassasasi faqat o‘z vazifasini bajaradi, ya’ni ushbu faoliyatdan qancha foyda va daromad olish olmasligining ular uchun ahamiyati yo‘q. Albatta ushbu holat IIOning daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Chunki, qonunchilikda muassasaning daromad keltiradigan faoliyati xo‘jalik yuritish huquqi orqali amalga oshirilishi nazarda tutilgan va undan ajratib ko‘rsatilmagan. Ye.S.Lыsenko to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Davlat muassasalarining huquqiy layoqati tadbirkorlik va daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishga unchalik ham to‘g‘ri kelmaydi, chunki bunday faoliyat natijasida topilgan foyda va daromadni tasarruf etish imkoniyatidan mahrum etilgan muassasa bundan manfaatdor emas” [6. –S. 119.]. Darhaqiqat, IIOning qo‘shimcha daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishining pastligiga sabab bo‘lgan omillardan biri ham milliy qonunchilikda operativ boshqarish va xo‘jalik yuritishdagi mol-mulklara nisbatan mulk huquqining cheklanganligidir. Bu esa, IIOning

daromad keltiradigan faoliyat turlarini kengaytirishga qiziqishining pastligiga va pirovardida ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, davlat muassasasining daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun qonunchilikda zarur imkoniyatlarning taqdim etilishi va bundan foydalanishi ularning asosiy funksiya va vakolatlarini bajarishga to‘sqinlik qilmaydi, aksincha budjet mablag‘lari yuklamasini kamaytirishga, ularning moddiy-texnik bazasining yaxshilanishiga, ularga biriktirilgan mol-mulklardan samarali foydalanishga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti IIOga ham qo‘shimcha daromad olish hisobiga o‘zining moddiy texnik bazasini yaxshilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Akademik H.Rahmanqulov “tijoratchi bo‘lmagan tashkilot foyda olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini shaxsan o‘zi yoki ushbu maqsadda uning tomonidan tuzilgan tijoratchi tashkilot amalga oshirishi mumkin. Tijoratchi bo‘lmagan tashkilotning tadbirkorlik faoliyati davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan bo‘lishi kerak” [11. –B. 160.], deb aytadi. Darhaqiqat bugungi kunda IIO tizimida bir qator unitar korxonalar faoliyat yuritmoqda. Unitar korxonalar IIO tizimida va tarkibida tashkil etilgan bo‘lsa-da, Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonunda IIO zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalarni bajarish ularning faoliyatiga bevosita taalluqli emas. Aksincha, ular Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonunning 4-moddasida belgilangan asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha vakolatli bo‘lgan IIO tarkibiy tuzilmalari faoliyatini, funksiya va vazifalarini samarali amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlash, oziq-ovqat, kiyim-kechak, ijtimoiy-iqtisodiy rag‘batlantirish uchun moliyaviy ko‘mak berish maqsadida faoliyat yuritadi.

Xulosa qilib aytganda IIO murakkab va turli funksiyalarni amalga oshiruvchi tizimga ega bo‘lgan davlat hokimiyati organi hisoblanadi. IIO tizimida muassasa va unitar korxona maqomidagi yuridik shaxslar ham faoliyat yuritadi va aynan ular tadbirkorlik hamda boshqa daromad keltiradigan faoliyatni amalga oshiradilar. Biroq, milliy qonunchiligimizda IIOga daromad keltiradigan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga ruxsat etilgan bo‘lishiga qaramay yuqorida keltirilgan sababalarga ko‘ra ular bu imkoniyatlardan yetarli daraja foylanaolmayaptilar. Shu maqsadda IIOning

daromad keltiradigan faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish mumkin:

birinchidan, IIOning tegishli ustavlariga o‘zining asosiy vazifa va funksiyalarini bajarishiga to‘sqinlik qilmaydigan daromad keltiradigan faoliyat turlarini kiritish va uni amalga oshirish mumkinligini belgilash maqsadga muvofiq. Chunki, FKning 180-moddasiga ko‘ra aynan ta’sis hujjatlariga muvofiq muassasaga daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi berilgan bo‘ladi;

ikkinchidan, IIOning daromad keltiradigan faoliyat turlaridan topilgan foyda va daromadlarni o‘zlarining tasarrufida qoldirish bilan bog‘liq normalarni tegishli qonun hujjatlariga kiritish;

uchinchidan, bugungi idoraviy boshqaruv an’anasiga ko‘ra IIO o‘z nizomida ko‘rsatilgan daromad keltiradigan faoliyat turini amalga oshirishi uchun Ichki ishlar vazirligining ruxsatini olishi talab etiladi. Mazkur tartib IIOning funksiya va vazifalariga to‘sqinlik qilmaydigan daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini amalga oshirishga byurokratik to‘siq bo‘layotganligi sababli undan voz kechish lozim;

to‘rtinchidan, FKning 14-bobida belgilangan davlat muassasalari (shu jumladan IIO)ning xo‘jalik yuritish huquqi va operativ boshqarish huquqida turli cheklovlar, xususan mulkdorning vakolatlarida o‘ta qat’iylik va prinsipiallik mavjud. Bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari mazkur belgilangan talablarga har doim ham muvofiq kelmayotganligi sababli ularni qaytadan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Gunich S.V.* Formы i metodы deyatelnosti organov vnutrennix del Rossiyskoy Federatsii v sisteme obespecheniya natsionalnoy bezopasnosti // Gosudarstvennaya vlast i mestnoe samoupravlenie. 2016. № 1. S. 50 - 55.
2. *Gorelik A.P.* Grajdansko-pravovoy rejim imuщestva uchrejdeniy MVD Rossii avtoref. dis.... kand. yurid. nauk. M., 2004. 26 s.
3. *Kovyazin, Vitaliy Viktorovich.* Predprinimatelskaya deyatelnost nekommercheskix organizatsiy sistemы MVD Rossii: Pravovыe i organizatsionnыe aspektы: avtoref. dis.... kand. yurid. nauk. – M. 2000. 162 s.
4. *Markelov D.S. O* neobxodimosti uchastiya organov vnutrennix del

RF v grajdanskix pravootnosheniyax // Izvestiya RGPU im. A. I. Gersena. 2007. №29. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/o-neobhodimosti-uchastiya-organov-vnutrennih-del-rf-v-grazhdanskih-pravootnosheniyah (data obraщeniya: 07.05.2025).

5. *Skoblikov P.A.* Klassifikatsiya grajdanskix del, v kotorыx uchastvuyut organы vnutrennix del i ix doljnostnыe litsa // Arbitrajnыy i grajdanskiy protsess. 2015. № 3. –S.15-20.

6. *Lыsenko Yevgeniy Sergeevich.* Pravovыe osnovы uchastiya organov vnutrennix del v predprinimatelskix otnosheniyax v kachestve samostoyatelnыx sub'ektov // Agrarnoe i zemelnoe pravo. 2017. №7 (151). –S.115-119. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-osnovy-uchastiya-organov-vnutrennih-del-v-predprinimatelskih-otnosheniyah-v-kachestve-samostoyatelnyh-subektov (data obraщeniya: 20.05.2025).

7. *Pogorelov D.V., Kolesova T.S.* Mexanizm gosudarstvennogo regulirovaniya predprinimatelstva v period krizisa // V sbornike: Teoriya i praktika sovremennoy yuridicheskoy nauki Materialы zaochnoy mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii. Belgorodskiy universitet kooperatsii,ekonomiki i prava. 2012. S. 301-306.

8. *Qo'ldoshev N.* Ichki ishlar organlari fuqaroviy-huquqiy munosabatlar sub'ekti sifatida // O 'zbekiston qonunchiligi tahlili. – 2008. – B.3-4.

9. *Щerbakova Yu.V.* K voprosu o ministerstve kak yuridicheskom litse // Advokat. 2003. № 12. – S. 66.

10. *Fedorova Yu.A.* Pravovыe problemы privlecheniya organov vnutrennix del k deliktnoy otvetstvennosti // Kriminologicheskiy jurnal. 2023. №3. – S. 210-213. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-problemy-privlecheniya-organov-vnutrennih-del-k-deliktnoy-otvetstvennosti (data obraщeniya: 20.05.2025).

11. *Rahmonqulov H.R.* O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining birinchi qismiga umumiy tavsif va sharhlar. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997. – B.160.

MASOFADAN TUZILADIGAN SHARTNOMALARNI FUQAROLIK-HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Ikramov Davronboy To‘lanboy o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

1917 yil Oktabr inqilobidan so‘ng mamlakatimizda musulmon huquqi bekor bo‘lib, sovet qonunchiligi amal qila boshlagan[28]. 1922 yildagi RSFSR Grajdanlik kodeksida[29] (keyingi o‘rinlarda –RSFSR GK) amalga oshiriladigan bitimlarning shakliga oid zamonaviy tartibga yaqin me’yorlar aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu normativ-huquqiy hujjatga muvofiq, bitimlar og‘zaki tarzda yoki yozma shaklda tuzilishi mumkin bo‘lgan (RSFSR GK 27-moddasi). Bunda yozma shakldagi bitimni rasmiylashtirish uchun qat’iy talablar mavjud bo‘lmagan. Asosiy shart – hujjatni rasmiylashtirgan shaxsning imzo qo‘yishi kifoya qilgan (RSFSR GK 28-moddasi). Albatta, maxsus tartibda rasmiylashtiriladigan shakllar ham mavjud bo‘lib, ularga notarial va guvohlantiriladigan shakllar kirgan (RSFSR GK 27-moddasi). Shu bilan birga, guvohlantiriladigan shakl RSFSR GKda ochib berilmagan, notarial shakl esa qonunda nazarda tutilgan ayrim turdagi shartnomalar uchun majburiy etib belgilangan (RSFSR GK 130-moddasi). Bunday shartnomalarning ko‘lami ancha keng bo‘lib, ularga quyidagilar kiritilgan: qurilish huquqiga oid bitimlar, bino yoki uning garovi bilan bog‘liq shartnomalar, ming rubldan ortiq hadya berish bo‘yicha kelishuvlar, shuningdek, davlat muassasalari va korxonalari o‘rtasida yoki ularning jismoniy shaxslar bilan tuzadigan bitimlari. Biroq, ming yoki uch ming rubldan oshmaydigan va qonunchilikda alohida ko‘rsatilgan ayrim bitimlar bundan mustasno bo‘lgan (RSFSR GK 72, 90, 137-moddalari).

Albatta, keltirilgan tartib umumiy talablari bo‘yicha bugungi kundagi qonunchilikka ancha yaqin, ammo ko‘plab shartnomalarni notarial tasdiqlash talabi uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin emas edi. Shu

[28] Чориев М.Ш. Ҳадя муносабатларини ҳуқуқий тартибга солишни такомиллаштириш: назария ва амалиёт. Юридик фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун диссертация. –Т., 2020. 27-бет.
[29] Изоҳ: 1927 йил Ўзбекистон ССР ГК қабул қилингунга қадар мамлакатимиз ҳудудида РСФСР ГК амалда бўлган. Қаранг: Рахманкулов, Х.Р. Возникновение и развитие гражданского законодательства Узбекской ССР // Правоведение. -1975. - № 6. - С. 66-72.

asosda, O‘zbekiston SSRning 1964 yildagi Grajdanlik kodeksi yangi tahrirda qabul qilinib, notarial tasdiqlash talabi ancha kamaytirilgan. Endi u imperativ qoida emas, balki faqat ayrim holatlarda qo‘llaniladigan istisno sifatida qaralar edi. Shu bilan birga, yozma shakldagi bitimlarning bir turi bo‘lgan guvohlantiriladigan shakl qonunchilikdan chiqarib tashlandi. Natijada faqat ikki asosiy shakl saqlanib qolindi: og‘zaki va yozma bitimlar, ular oddiy yozma yoki notarial tartibda rasmiylashtirilishi mumkin bo‘lgan.

Bunday yondoshuvni bitim shaklini tartibga solishda qo‘llash mustaqillika erishgan O‘zbekiston Respublikasining yangi Fuqarolik kodeksiga[30] ham (keyingi o‘rinlarda – O‘R FK) kiritildi. Ushbu Kodeksda bitimlar og‘zaki shaklda, oddiy yozma yoki notarial tasdiqlangan shaklda tuzilishi mumkinligi belgilab qo‘yildi (O‘R FK 105-moddasi 1-qismi).

XX asr davomida bitim shaklini tartibga solishga oid qoidalar deyarli o‘zgarmasdan qolgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan bozor talablari o‘zgarib, ushbu tartib zamonaviy ehtiyojlarga javob bera olmay qoldi. Chunki dunyo miqyosida yangi texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanib, ilmiy-texnika taraqqiyoti jadal kechayotgan edi. Axborot almashinuvi ancha tezlashib, internet paydo bo‘ldi va fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining masofaviy hamkorlik imkoniyatlari kengaydi. Mana shu barcha omillar qonunchilikka o‘z ta’sirini o‘tkazishi tabiiy edi.

Buning natijasida, O‘R FKda shaxsiy imzoning muqobil usullari haqidagi qoida joriy etildi. Ushbu qoidaga muvofiq, shaxsiy imzodan tashqari boshqa vositalar orqali ham shaxsning irodasini tasdiqlash imkoniyati belgilandi (O‘R FK 107-moddasi). Bundan tashqari, O‘R FKda shartnomalarni hujjatlar almashinuvi orqali tuzish imkoniyati ham mustahkamlab qo‘yildi (O‘R FK 366-moddasi 4-qismi). Ta’kidlash joizki, bu o‘z navbatida, masofadan tuziladigan shartnomalarni tartibga solishdagi dastlabki va juda muhim qadamlardan biri bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu qoida fuqarolik muomalasi ishtirokchilariga yangi imkoniyatlarni yaratib, avval qo‘llanilmagan yangi usullarda shartnoma tuzish imkonini berdi.

[30] Изоҳ: ЎР ФК биринчи қисми 1995 йил 21 декабрда, иккинчи қисми эса 1996 йил 29 августда Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси томонидан қабул қилинди ва 1997 йил 1 мартдан кучга киритилди.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borishi shartnomalar tuzishning yangi-yangi usullarini yuzaga keltira boshladi: elektron imzo, SMS-xabarlar orqali tasdiqlash, internet tarmog‘ida turli ro‘yxatdan o‘tish amallari va boshqa usullar.

Bu qadamning ahamiyatini inkor etmagan holda, amaliyotda shaxsiy imzoning muqobil variantlaridan foydalanish va masofadan turib shartnoma tuzish hali ham ayrim cheklovlarga duch kelmoqda. Shaxsiy imzo o‘rnini bosuvchi usullarning yuridik kuchga ega bo‘lishi uchun, avvalo, ulardan foydalanish tartibini belgilovchi kelishuv tuzish talab etiladi.

Ushbu tartib uzoq muddatli shartnomaviy munosabatlarga ega taraf uchun qulay bo‘lishi mumkin. Biroq, agar taraflar bitta shartnoma bilan cheklansa, bu usulning amalga oshishi shubha ostida qoladi. Chunki, shaxsiy imzo muqobillaridan foydalanish to‘g‘risida avval qog‘oz shaklida kelishuv imzolash, so‘ngra shartnomani masofadan rasmiylashtirish o‘rniga, taraflar o‘zlariga qulay bo‘lgan an’anaviy qog‘oz shaklidagi shartnomani tuzib qo‘ya qolishadi. Ammo, bu ko‘rinib turganidek taraflar uchun qulay yechim emas. Ya’ni, dastlab masofadan shartnoma tuzish imkoniyati amalda avval uni qog‘oz shaklida rasmiylashtirish talabiga bog‘lab qo‘yilmoqda.

Qonun chiqaruvchi tomonidan bunday talabning qo‘yilishi fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining asossiz tavakkalchiligini oldini olish istagi bilan izohlash mumkin. Buning asosiy mantig‘i shundaki, taraflar avvalo bir-birini yaxshilab tanib olishi, ma’lumotlarni tekshirishi va kelishuvda ko‘rsatilgan sub’ekt bilan muloqot olib borilayotganiga ishonch hosil qilishi kerak.

Shundan keyingina kelishuvda ishonchli aloqa manzillari, telefon raqamlari va muloqot usullari aniq belgilanadi. Keyingi shartnomalar esa aynan shu tasdiqlangan kanallar orqali tuzilishi va taraflar o‘rtasidagi hamkorlik shu tarzda davom ettirilishi mumkin. Bunday usul masofadan shartnoma tuzuvchi taraflarning tavakkalchilik xavfini kamaytirib, firibgarlik xavfini kamaytiradi. Ammo u juda rasmiylashgan va noqulay jarayon bo‘lib, tarixiy taraqqiyot shuni ko‘rsatadiki, vaqt o‘tishi bilan u o‘zgarishi lozim. Bugungi kunda zamonaviy fuqarolik huquqi nazariyasida asosiy e’tibor shartnomaning tashqi shakliga emas, balki mazmuniga

qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, masofadan tuziladigan shartnomalarni har qanday holatda ham yozma hujjatga tenglashtirish mumkin bo‘lgan aniq va ishonchli mezonlarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Mamlakatimizda 2016 yilda mazkur yo‘nalishda muhim qadam tashlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 iyunda “Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 185-sonli Qarori qabul qilindi. Xususan, mazkur Qarorning 2-bandida “axborot tizimlaridan foydalangan holda tuzilgan shartnoma yozma shaklda tuzilgan va taraflar tomonidan imzolangan, shu jumladan taraflarning muhrlari bilan tasdiqlangan shartnomaga tenglashtiriladi”[31] deb belgilab qo‘yildi. Ushbu qaror fuqarolik muomalasini yanada rivojlantirish, huquqiy ahamiyatga ega kelishuvlarni mustahkamlash uchun zamonaviy vositalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bitim shaklining rivojlanish tarixi tahlil qilinganda, ilk davrlarda bu tushuncha hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, bitimlarni rasmiylashtirishga oid muayyan qoidalar mavjud bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ular keyinchalik ushbu subinstitutning paydo bo‘lishiga asos yaratgan. Bitimlar ilk bor shakllana boshlagan davrdanoq qonun chiqaruvchilar ularni qanday hujjatlashtirish mumkinligi haqida o‘ylashgan. Bu esa ularning yuridik kuchga ega bo‘lishi, majburiy bajarilishini ta’minlash va fuqarolik muomalasining barqarorligini saqlash uchun muhim bo‘lgan. Shu bois, bitimlarni rasmiylashtirish bo‘yicha dastlab qat’iy talablar joriy qilingan: maxsus ramziy harakatlarni bajarish, guvohlarning ishtirok etishi, vakolatli shaxslar tomonidan tasdiqlanishi va boshqalar.

Bugungi kunda texnika taraqqiyoti, aholi savodxonligining oshishi va hujjatlarni ekspertiza qilish imkoniyatlarining kengayishi yozma shaklda shartnoma tuzishning mustahkam asosini yaratdi. Shu bilan birga, bitimlarni qo‘shimcha tasdiqlash talablari bosqichma-bosqich bekor qilinib, rasmiylashtirish jarayoni soddalashtirildi.

Hozirgi kunda fuqarolik qonunchiligi yangi davr talablariga moslashish zarurati oldida turibdi. Texnologik taraqqiyot va axborot almashinuvining tezlashishi masofadan tuziladigan shartnomaviy

[31] https://lex.uz/acts/2973939

munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga soluvchi yangi normalarni joriy qilishni talab qilmoqda. Bu muammoning asosiy murakkabligi shundaki, shartnomalarni rasmiylashtirish jarayonidagi talablarni yengillashtirish kerak, biroq shu bilan birga, fuqarolik muomalasining barqarorligini ta’minlab, ortiqcha tavakkalchilik xavflarining kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik qonunchiligida kuzatilayotgan bunday o‘zgarishlar, bitim shaklini tartibga soluvchi qonunchilik rivojlanishining tarixiy qonuniyatlariga to‘la mos keladi. Huquqiy me’yorlar doimo rasmiyatchilik darajasini kamaytirish, munosabatlarni tartibga solishda asosiy e’tiborni ularning mohiyatiga qaratgan holda takomillashish va shartnomalarni tuzish jarayonini soddalashtirish sari yo‘naltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choriev M.Sh. Hadya munosabatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish: nazariya va amaliyot. Yuridik fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. –T., 2020. 27-bet.

2. Raxmankulov, X.R. Vozniknovenie i razvitie grajdanskogo zakonodatelstva Uzbekskoy SSR // Pravovedenie. -1975. - № 6. - S. 66-72.

3. O‘R FK birinchi qismi. lex.uz/acts/2973939

AHOLI BANGLIGINI TA’MINLASH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR

Jalolov Akbarali

Jamoat xavfsizligi universiteti Maxsus fakultet talabasi

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, aholining to‘liq bandligini ta’minlash, kambag‘allikni kamaytirish va mehnat bozorini yanada rivojlantirish kabi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda aholining demografik o‘sishi yuqori sur’atlarda davom etayotgan, yoshlar soni sezilarli darajada ko‘payayotgan hamda iqtisodiyot yangi tarkibiy o‘zgarishlar sari yo‘naltirilayotgan sharoitda bandlik siyosatini samarali amalga oshirish masalasi dolzarb vazifaga aylanmoqda.

O‘zbekiston hukumati so‘nggi yillarda aholining bandligini oshirish va ishsizlikni kamaytirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda. Shu maqsadda qator qonunlar va qarorlar qabul qilinib, amaliy chora-tadbirlar hayotga tadbiq etilmoqda. Masalan, 2020-yilning 20-oktabrida qabul qilingan “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarning faoliyati huquqiy asosga ega bo‘ldi. Bu esa aholining katta qismi uchun ish bilan ta’minlanishning yangi manbaini yaratdi.

2024-yilning 9-yanvarida Prezident tomonidan qabul qilingan “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi” esa barcha viloyat va tumanlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha aniq rejalarni belgilab berdi. Ushbu qaror asosida Buxoro viloyatida yil davomida rejalashtirilgan 209 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlariga qo‘shimcha ravishda yana minglab ish o‘rinlari yaratildi. Natijada **yangiish.mehnat.uz** elektron platformasi orqali bandlik jarayoni yanada soddalashtirildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev aholi bandligi masalasini har doim diqqat markazida ushlab, 2023-yil yanvar oyida o‘tkazilgan yig‘ilishda ayrim hududlarda bandlikni oshirish bo‘yicha rejalarning yetarli darajada ishlab chiqilmagani, mavjud imkoniyatlar yetarli darajada safarbar qilinmagani va real yordam ko‘rsatilmagani uchun ayrim rahbarlarni keskin tanqid qilgan edi. U ayniqsa Navoiy, Buxoro, Namangan, Qo‘qon, Ohangaron va Chirchiq shaharlari hamda boshqa tumanlarni tanqid qilib, ularga bandlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yukladi.

Davlat rahbarining bu masalaga bo‘lgan e’tibori tufayli keyingi bosqichda kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tashkil etilib, bandlikni oshirish bo‘yicha vazifalar yagona tizimga birlashtirildi. Shu bilan birga, aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish uchun “Har bir oila – tadbirkor” dasturi kengaytirildi. Natijada o‘tgan yilda 19 mingdan ortiq fuqaro imtiyozli kreditlardan foydalanib, 56 ming kishi hunarmandchilik va kasanachilikka jalb qilindi. Bundan tashqari, 47 mingdan ziyod fuqaro subsidiya olish imkoniyatiga ega bo‘lib, oilasini iqtisodiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga muvaffaq bo‘ldi.

Bundan tashqari, norasmiy ish o‘rinlarini legallashtirish orqali o‘tgan yilda 824 ming nafar fuqaroning bandligi ta’minlandi. Bu esa davlatning norasmiy iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishga bo‘lgan intilishlarini yaqqol ko‘rsatib berdi. Ayniqsa, “Ayollar daftari” orqali minglab xotin-qizlar ishga joylashtirilib, ularning iqtisodiy faolligi oshirildi. Hududlar bo‘yicha ham alohida yondashuv amalga oshirilmoqda. Masalan, Surxondaryo viloyatida 2024-yil davomida 170 ming fuqaro ishga joylashtirish va 82 ming fuqaro o‘zini o‘zi band qilgan sifatida rasmiylashtirish rejalashtirildi. Farg‘ona viloyatida esa 2017–2022-yillar davomida 828 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilib, aholiga 3,3 trillion so‘mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

Bandlikni oshirish yo‘lidagi bu ishlar qatorida kasb-hunarga o‘qitish ham alohida o‘rin egalladi. 2024-yilda 420 ta markaz faoliyat yuritib, 36 mingdan ortiq talabgor kasb-hunarga o‘qishga qabul qilindi va 22 ming nafardan ziyodi diplomga ega bo‘lib, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishga muvaffaq bo‘ldi. KOICA bilan hamkorlikda ochilgan zamonaviy markazlar esa yuzlab yoshlarni innovatsion kasblarga tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil yakuniga kelib, mamlakat bo‘yicha ishsizlik darajasi 8 foizgacha tushdi. Grafik ko‘rsatkichlar esa 2024-yilda yangi ish o‘rinlari yaratishda sezilarli o‘sishni ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, elektron platformalar va masofaviy ishga qabul qilish tizimlarining rivojlanishi bu jarayonni yengillashtirganini ta’kidlash joiz.

Iqtisodiyot fanlari doktori professor Alisher Karimovning fikricha, aholining bandligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy natija bermoqda, ammo hududlararo tafovutlarni kamaytirish va kasb-hunar ta’limini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Mehnat bozorini o‘rganish markazi direktori Dilfuza Islomova esa norasmiy bandlikni legallashtirish orqali aholi daromadlarini oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish mumkinligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, aholini bandligini ta’minlash borasida qator xorijiy davlatlar bilan hamkorlik migratsiya aloqalari o‘rnatilmoqda. Fuqarolarimizni xorijga ishga jo‘natishdan avval ularni majburiy ravishda kasbiy tayyorgarligini oshirish tartibi joriy etildi. Talabgorlar ish

beruvchining talablariga muvofiqligini maksimal darajada oshirish uchun qator mamlakatlar tilini o‘qitish markazlari ochildi. Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi fuqarolarning huquq va manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Hozirgi kunda O‘zbekistondan ishchi kuchini jalb qilish uchun 28 ta davlatdagi 300 ga yaqin ish beruvchi va rekruting agentliklari bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan. Hozirda 16 ta davlat, jumladan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan 10 ta davlat ish beruvchilarida O‘zbekiston fuqarolari uchun 160 mingta ish o‘rni aniqlangan. Ayniqsa, Yevropa davlatlari bilan hamkorlikda 100 mingdan ortiq ish o‘rinlariga yurtdoshlarimizni ishga jalb qilish uchun 30 dan ortiq loyiha amalga oshirilmoqda.

Masalan, Germaniyaning 23 ta ish beruvchi va rekruting agentligi bilan 60 mingga yaqin yurtdoshlarimiz tibbiyot, haydovchilik, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sohalarida, shuningdek, Ausbildung (dual ta’lim) tizimi orqali ishga jalb qilinmoqda. Bu ishchilar uchun o‘rtacha 2,1 ming dollar maosh taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, bu yil boshida Angliyada elektromexanik, qassoblik va qishloq xo‘jaligidagi mavsumiy ishlarga 7,5 mingta ish o‘rni aniqlangan edi. Hozir esa tibbiyot sohasida yana 10 mingta ish o‘rniga talabnoma kelib tushgan. Shuningdek, Litva, Latviya, Polsha, Bolgariya, Finlandiya va boshqa Yevropa mamlakatlariga ham 27 mingdan ortiq fuqarolarimizni yuk mashina haydovchisi, ishlab chiqarish, qurilish va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishga yuborish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

2023-yilda 38,4 ming fuqaro xorijda ishga joylashtirilgan bo‘lsa, 2024-yilning birinchi choragida esa bu ko‘rsatkich 20,9 ming nafarni tashkil etdi.

Aholi bandligi bo‘yicha ko‘plab rivojlangan davlatlarda qator samarali tajribalar mavjud jumladan, **Germaniyada tajribasida** odamlarni ish bilan ta’minlash borasida juda yaxshi tizim ishlaydi. Avvalo, u yerda yoshlar uchun dual ta’lim tizimi mavjud. Bu tizimda yoshlar kasb-hunar o‘rganish bilan birga, shu sohadagi ish joylarida amaliyot ham o‘tashadi. Shu sababli ular bitirganda ish topishda qiyinchilikka duch kelmaydi. Ish beruvchilar ham o‘zlariga kerakli mutaxassislarni aynan shunday tayyorlab olishadi.

AQSH tajribasida kasbiy yo‘nalish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Universitet va kollejlar Qoshida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maxsus markazlar va xususiy agentliklar tashkil Etilgan. AQSH mehnat vazirligi qoshida 1200 dan ortiq davlat hisobidan faoliyat urituvchi kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash markazlari ish olib borib, har yili ular Orqali 1 milliondan ortiq yoshlar o‘tishadi. Natijada mutaxassis tayyorlash xarajatlari 30-40 %ga kamayadi, kasbiy tanlov testlariga sarflangan bir dollar ming dollarlik Iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi.

Yaponiya tajribasida mehnat munosabatlari tizimi xodimlarni umrbod ishlashga qabul qilish (yollash) tamoyiliga asoslanadi. Bu tizim ishchilarni nafaqaga chiqishgacha (odatda 55–56 yoshgacha) ish bilan ta’minlashni kafolatlaydi. Umrbod yollash tizimi ishchilar uchun ish haqi, mukofotlar, rag‘batlantirish va ijtimoiy to‘lovlarning miqdori bosqichma-bosqich oshib borishini ta’minlaydi. Bu holat xodimlarning mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatini shakllantirish va yuqori sifatli mehnatga intilish siyosatini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Yaponiyada so‘nggi yillarda ishsizlik darajasi 3–3,5 foiz atrofida bo‘lib qolmoqda

Yaponiyada ishchilarni uzoq muddat ishlatishga urg‘u berilib, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasini oshirish ichki firma doirasida, ish o‘rinlari tarkibi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Bu jarayon, odatda, xodimning firma ichida kasbiy harakatchanligini hamda yuqori sifatli mehnatga bo‘lgan ijobiy yondashuvini shakllantirish imkonini beradi.

Takliflar:

1. O‘zbekistonda ishlab chiqarish, ishchi kuchiga bo‘lgan talabdan kelib chiqqan holda ishchi kuchiga talab bor shaxslar tomonidan bepul Germaniya tajribasi asosida dual ta’lim tizimi joriy etish.
2. Maktabni bitirgan kasb hunarga ega bo‘lmagan yoshlarni o‘qitib ishga qabul qilgan yuridik shaxslarga, tadbirkorlarga hunarmandlarga soliq, kommunal to‘lovlarda imtiyozlar joriy etish.

Foydalanilgan manbalar

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-642-son, 2020-yil 20-oktabr) Manba: https://lex.uz/uz/docs/-5055690

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-sonli qarori Manba: https://lex.uz/docs/-6752402

3. Bandlik vazirligining 2024-yilgi statistik ma’lumotlarini Manba: https://daryo.uz/2024/11/01/bandlik-vazirligi-ozbekistonda-ishsizlik-kamayganini-malum-qildi

4. Kambag‘allik darajasining kamayishi haqida ma’lumot Manba: https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/03/poverty/

5. “Aholi bandligini ta’minlashda qanday chora-tadbirlar ko‘rilmoqda?” maqolasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri Behzod Musayevning 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi axborotni. Manba: https://uz24.uz/uz/articles/bandlik-8-6

6. O‘zbekistonda ishsizlik darajasi 2020-yildan 2024-yilgacha kamaygani haqida ma’lumot Manba: https://kommers.uz/?p=30859

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari Prezident qarorlari va farmonlari ro‘yxati, jumladan, bandlikka oid hujjatlar. Manba: https://gov.uz/oz/bv/pages/prezident-qarorlari-va-farmonlari

8. Statistika agentligining 2024-yil uchun statistik dasturi 2024-yil uchun statistika dasturini tasdiqlash to‘g‘risidagi hujjat.Manba: https://lex.uz/uz/docs/-6755950

9. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari ro‘yxati“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonunlar ro‘yxati.Manba: https://gov.uz/oz/bv/pages/qonunlar

10. Bandlik vazirligining Telegram kanali

Manba: https://t.me/s/mehnatvazirligi

DEFINITIONS AND THEIR THEORETICAL ANALYSIS APPLIED TO ISLAMIC SECURITIES SUKUK

Mamatmurodov Farrux Farxod o‘g‘li
Xususiy huquq fakulteti tyutori Toshkent davlat yuridik universiteti
E-mail: mamatmurodovfirdavs@gmail.com

The principles underlying Sukuk certificates have been developed over fourteen centuries through the Quranic references and Shariah guidelines. The word Sukuk does not appear anywhere in the Quran. Sukuk emerged through development as a result of the regulation of lending and borrowing activities in people's daily lives through the guidelines in the Quran and Hadith. Asset-based lending and borrowing activities for production or other economic activities have been widespread in the Middle East and Mediterranean region with the spread of Islam and its penetration into various nations. Such lending practices were carried out by sharing risks and benefits over a certain period of time in order to increase liquidity.

By the end of the 19th century, as Muslim states weakened and European countries became colonies or semi-colonies, Islamic economic and financial relations based on Sharia, such as sukuk, began to lose their importance in economic and financial relations. Such Islamic financial services were replaced by modern European banking practices and finance, based on the lack of mutual risk sharing between parties and a predetermined percentage of profit. After about 40 years, after the re-introduction of banking practices based on profit sharing and risk sharing, the Islamic debt instrument sukuk appeared in a number of countries in the late 1990s.

When we talk about sukuk, we first see that there is a discrepancy in the definitions given by European scholars and Muslim scholars, as well as by various international financial organizations and national organizations of various countries. We can even see that there is no single, clear definition of sukuk among Muslim scholars.

The word sukuk is a certificate of ownership of a class of assets issued by a borrower to a lender as a document of ownership, plural of sak. Therefore, sukuk securities are debt instruments that require the creation of

assets in a separate entity, which are owned proportionally by the lenders, fund providers. Fully asset-backed lending is a fundamental principle of the sukuk contract.

The emergence of sukuk (trust investment certificates) in international capital markets and the growing interest in sukuk have raised a number of questions about the theory and origins of such structures. The rapid expansion of sukuk in a short period of time has surprised observers, and there is a great interest in learning more about the basics of sukuk and its historical development, especially in the Western world.

In a sense, this suggests that there can be no ethical financial transaction without the lender creating a long-term asset that supports the debt financing arrangement in which the borrower transfers income-generating assets. This suggests that all sukuk securities should have this safety net, so that from the outset of the agreement, lenders are backing the assets for their funds.

This makes sukuk securities safer than traditional bonds, as under a traditional loan agreement, the lender would need court permission to take ownership. Such permission would only be granted if a challenge is made at the time of the promised payment.

A sukuk contract can be viewed as a loan agreement between a lender (investor) and a borrower to participate in a production or service activity. The financing arrangements can vary, including ownership and control arrangements, equity securities, pure loan securities, and lease securities. Therefore, it is incorrect to describe sukuk as an Islamic debt instrument only, as is common practice in the financial media.

Unlike most sukuk issues, in musharakah sukuk securities issued to investors, investors receive a reward in the form of only a portion of the profits based on a pre-agreed profit ratio. If the ownership is in all of the assets of the borrower, whether or not the entity has control, this is also a musharaka sukuk, which is a limited-term equity financing arrangement (a concept rarely seen in modern finance).

As sukuk is a relatively new product, with only 12 markets, there is no consensus on its precise definition. Some international regulatory bodies, such as the Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial

Institutions (AAOIFI), the International Islamic Financial Market (IIFM), and the Islamic Financial Services Board (IFSB), have attempted to provide somewhat more precise definitions of sukuk that are closer to its nature.

As an institutional definition, we need to turn to Article 17 of the Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) Sharia Standards, according to which:

"Sukuk are certificates of equal value that represent indivisible shares in the ownership of a tangible asset, its benefits, or specific services or specific investment activities or assets of a specific project, but they become effective only after the value of the sukuk has been accepted, subscribed, and the funds received for the purpose for which the sukuk was issued have been directed."

In 2010, the IIFM (International Center for Islamic Finance) defined sukuk as "a commercial paper that gives an investor ownership rights over a specific asset." These are asset-based trust certificates that provide ownership of a specific asset or the benefits it generates, which in practice represent a relatively stable income stream and must be in accordance with the principles set forth by Sharia. Unlike traditional bonds, sukuk must have a tangible asset transaction in the form of ownership or a fixed lease agreement.

The definition of sukuk given by the IFSB (Islamic Financial Services Board) in 2009 is as follows:

Sukuk (plural of sakq), often referred to as «Islamic bonds», are certificates in which each sakq represents a non-proportional ownership interest in tangible assets or a pool of tangible assets, or a business venture (such as a muzaarabah). These assets may be invested in a specific project or investment activity in accordance with Shariah rules and principles.

This definition of sukuk differs from traditional interest-bearing securities (i.e. bonds) in the following ways:

• The funds raised through the issuance of sukuk must be used for investments in specific assets, rather than for general unspecified purposes. This means that identifiable assets must be the basis for Islamic bonds.

• Since sukuk is backed by real underlying assets, the income generated by the allocated assets must be related to the purpose for which the funds are used.

• The sukuk certificate represents a proportionate ownership interest in the allocated assets in which the funds are invested. Ownership is transferred from the original owner to the sukuk holders for a fixed period, ending with the maturity of the sukuk.

Some governments in Muslim countries, such as Qatar Financial House, require authorized firms to adhere to international definitions. Others define sukuk in their own way. The Securities Commission of Malaysia, which has issued guidelines for the offering of Islamic securities, defines sukuk as "a document or certificate representing the value of an asset." The Liquidity Management Center in Bahrain defines sukuk as "a certificate of equal value representing an undivided interest in tangible assets, usufruct and services, or in the assets of a specific project or investment activity."

This definition suggests that there is no time limit for sukuk. In other words, sukuk can be issued for both long-term and short-term financing. Short-term sukuk with maturities of up to one month are issued by various issuers; they are similar to traditional bills or notes. One of the first issues of short-term sukuk was the 30-day and 91-day salam (futures) sukuk issued by the Bahrain Monetary Agency in 2001.

Bank Negara Malaysia also issues one-year short-term sukuk. Since 1994, the bank has operated the Islamic Interbank Money Market (IIMM) as an intermediary for providing short-term investment sources based on Sharia principles. Although the IIMM operates using a form of financing called murabaha, the bank has not issued sukuk for specific purposes. When a sukuk is issued, the issuing regulator clearly defines the sukuk security and this is posted on the website of each sukuk issuer.

Another institutional definition of Sukuk is given by the Islamic Financial Services Board (IFSB), according to which:

Sukuk (plural of Suk) is an Islamic bond, each Suk representing an indivisible right of ownership over a tangible asset or a group of tangible assets or over a business venture (for example, murabaha). These assets may

be in a specific project or investment activity in accordance with the rules and principles of Sharia.

A more institutionalized definition of Sukuk has been provided by the International Islamic Financial Market, according to which:

“A commercial paper that gives an investor ownership rights to a specific asset. These are asset-based trust certificates that prove ownership rights to the asset or its useful value (income).”

Regarding the definition of sukuk by government agencies, the Securities Commission of Malaysia defines it as follows:

Sukuk are certificates of equivalent value that represent an indivisible ownership interest or investment in an asset based on Sharia principles and are approved by the SAC (Shariah Advisory Council).

Kuwaiti Ministerial Decree No. 388 of 2007 also defined sukuk, according to which:

Sukuk - Instruments of equal value issued by companies under certain types of contracts that comply with Islamic Sharia, such as Musharaka, Muzarab, Ijara or an investment agency, in a specific investment project or activity, in accordance with the provisions of relevant laws.

The Securities and Commodities Authority (SCA) in the United Arab Emirates defines sukuk as “financial instruments of equal value that represent an ownership interest in an asset or group of assets and are issued in accordance with Sharia law.”

Furthermore, the official definition of Sukuk can be found in the Sukuk Regulations 2015 of the Securities and Exchange Commission of Pakistan (SECP):

“An instrument of equal value representing the investment of the sukuk holders in the ownership of specified tangible assets in the capital of the issuer, representing the right of ownership in respect of a specific investment activity or a specific project asset, the participation in which requires approval by the Shariah Board.”

Sukuk is also described in traditional regimes, for example, the Australian Government's Taxation Board has set out the following definition:

“Sukuk is the Islamic financial equivalent of conventional marketable securities or bonds, which represent ownership (actual or beneficial) of an underlying asset or financing arrangement by sukuk holders in accordance with Sharia law. The income is paid to investors in accordance with their proportionate ownership of that asset and investment and varies based on the performance of the assets rather than the passage of time.”

Sukuk is the Islamic financial equivalent of traditional marketable securities or bonds, which represent ownership (actual or beneficial) of an asset or financing arrangement by sukuk holders in accordance with the underlying Sharia law. The return is paid to investors in accordance with their proportionate ownership of the asset and investment, and varies based on the performance of the assets, rather than the passage of time.

Furthermore, the Luxembourg Tax Inspectorate's January 12, 2010, circular on Islamic finance defines it as follows:

«Securities representing a claim or right to a share, where both income and capital are indexed to the performance of one or more assets owned by the issuer, the income stream being used to pay and settle the shuk.»

Conclusion.

From this definition, we can see that the understanding of the term sukuk fluctuates between broad and narrow definitions. The definitions of sukuk provided by Islamic finance standard-setting bodies such as AAOIFI and IFSB have not been reviewed by regulatory regimes in countries such as Kuwait, Malaysia, UAE and Pakistan. The definition of sukuk has found its place in relevant statutes or guidelines in several countries. The definitions mentioned above focus more on the specific aspect of sukuk as a representation of ownership. While all these definitions attempt to describe precisely what sukuk is, they fail to agree on the essence of sukuk. On the one hand, the AAOIFI definition limits the underlying asset of sukuk to tangible assets; In this regard, Dusuki noted that the AAOIFI definition does not consider financial assets or financial receivables as potential assets in a Sukuk, as the AAOIFI prohibits the sale of debt. On the other hand, the SC definition includes all types of assets and does not exclude financial receivables.

LIST OF REFERENCES

I.Articles

1.1 AAOIFI, Shari'a Standards for Islamic Financial Institutions (AAOIFI 2010) 307

1.2 Guidelines on Ṣukūk, Part A, Chapter 2.

1.3 Ministerial Decision 388 of 2007 of Ministry of Commerce and Industry, Article 2.

1.4 Issue of Ṣukūk Regulations 2015, Chapter I.

1.5 The Board of Taxation. June 2011 CHAPTER 3: THE BOARD'S RECOMMENDATIONS.

1.6 A Dusuki, 'Challenges of Realizing Maqasid al-Shariah (Objectives of Shariah) in Islamic Capital Market: Special Focus on Equity-Based Sukuk' (International Islamic Management Conference on Islamic Capital Market, Penang, October 2009) 10.

II. Electronic sources

2.1 IFSB, 'Capital Adequacy Requirements for Ṣukūk, Securitisations and Real Estate investment' (IFSB, January 2009) http://www.ifsb.org/standard/eng_%20IFSB-7%20

2.2 IIFM, 'IIFM Ṣukūk Report 1st Edition' (IIFM, 2010) 3. http://www.iifm.net/documents/iifm-sukuk-report-1st-edition. Accessed 4 March 2015.

2.3http://www.taxboard.gov.au/content/reviews_and_consultations/islamic_finance_products/discussion_paper/downloads/Islamic_Finance_Discussion_Paper.pdf

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ПОДПИСЕЙ И СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВОЙ ТОРГОВЛЕ: ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Абдусамадова Зарина Хасан кизи
курсантка 382 учебной группы
Университета Общественной безопасности
Республики Узбекистан

Цифровизация мировой экономики и стремительное развитие информационных технологий привели к трансформации традиционных форм торговли. Электронная коммерция (e-commerce) становится важнейшим элементом глобальной экономики, требующим не только технологических, но и правовых решений. В этом контексте особую значимость приобретают электронная подпись (ЭП) и смарт-контракты, обеспечивающие юридическую силу, подотчетность и исполнение обязательств сторон в цифровом пространстве.

Электронная цифровая подпись – это реквизит электронного документа, предназначенный для защиты данного электронного документа от подделки, полученный в результате криптографического преобразования информации с использованием закрытого ключа электронной цифровой подписи и позволяющей распознать владельца сертификата ключа подписи, а также установить отсутствие искажений информации в электронном документе. Электронная цифровая подпись в электронном документе равнозначна собственноручной подписи в документе на бумажном носителе при одновременном соблюдении следующих условий:

1.сертификат ключа подписи, относящийся к этой электронной цифровой подписи, не утратил силу (то есть действует) на момент проверки или на момент подписания электронного документа при наличии доказательств, определяющих момент подписания;

2.электронная цифровая подпись используется в соответствии со сведениями, указанными в сертификате ключа подписи.

При этом электронной документ с электронной цифровой подписью имеет юридическое значение при осуществлении отношений, указанных в сертификате ключа подписи.

Смарт-контракт- это автоматизированное цифровое соглашение, реализуемое с использованием технологий распределённого реестра (например блокчей), которое может исполняться без прямого участия сторон при наступлении заранее заданных условий.

Цифровая торговля (иногда употребляется как *электронная торговля, e-commerce)*- это форма осуществления торговых операций с использованием информационно-коммуникационных технологий, включая интернет, мобильные приложения, цифровые платформы и электронные платежные системы, для заключения, исполнения и сопровождения сделок.

Развитие законодательства и инфраструктуры.

[33] Лупинская, П. А. Доказывание в советском уголовном процессе... - С. 45.

одного человека, то есть подозреваемого. Если мы рассматриваем позицию внутреннего убеждения как признак истины или лжи, то любое субъективное убеждение в чем-либо должно быть признано истинным. Как справедливо отмечают некоторые ученые, признание внутреннего убеждения критерием истины порождает столько истины, сколько субъектов познания участвуют в процессе[34].

По мнению В.Мельника, средством оценки фактов является не внутреннее убеждение, а здравый смысл[35]. С. Пашин, напротив, рискует переоценить значение здравого смысла в правовых процессах[36]. Правда, поскольку здравый смысл является смыслом того, что воспринимается разумом, он необходим, но не является единственной основой для формирования внутренней веры, здравый смысл часто ограничивается поверхностным взглядом, не углубляясь в сущность явлений. По нашему мнению, знания, понимание и мышление судьи должны осуществляться в форме, установленной уголовно-процессуальным законом. То есть судья, руководствуясь законом и правосознанием, по своему внутреннему убеждению должен тщательно, полно, всесторонне и объективно оценивать все обстоятельства, подлежащие доказыванию по делу, с точки зрения относимости, допустимости и достоверности каждого доказательства.

Справедливо, высказывает свое мнение Ю.М. Грошева. Он отметил, что

сведения о личности подсудимого, его показаниях, общности собранных по делу доказательств, их односторонней оценке[37]. То есть факты и доказательства, представленные судье, приводят к одностороннему негативному мышлению или включению только тех фактов, которые соответствуют заранее существующему мнению. Односторонность приводит к судебным ошибкам при изучении фактических обстоятельств дела, а также при правовой квалификации преступления и выборе наказания. Следовательно, вывод о

[34] Рябинина, Т. К. Внутреннее убеждение в механизме доказывания по уголовному делу / Т. К. Рябинина, О. В. Петрова, Е. Д. Горевой // Российский судья. - 2003. - № 5. - С. 16

[35] Мельник, В. Здравый смысл при вынесении вердикта // В. Мельник // Российская юстиция. -1995.-№10.-С. 7.

[36] Пашин, С. Теория формальных доказательств и здравый смысл / С. Пашин // Российская юстиция. - 1996. -№ 1.- С. 52.

[37] Грошевой Ю. М. Сущность судебных решений в советском уголовном процессе. Харьков, 1979. С. 12.

достоверности доказательств осуществляется в результате внутреннего убеждения судьи, но это не означает, что другие участники процесса должны приходить к такому же убеждению. Следует помнить, что в структуре уголовного судопроизводства установлены и другие стадии производства, например, не случайно, если стороны не согласны с приговором, определением суда первой инстанции, они могут подать жалобу или протест в апелляционном, кассационном и ревизионном порядке в вышестоящий орган. Например, этот вопрос также рассматривается в статье 485 УПК, касающейся оснований для отмены или изменения приговора или определения[38].

Ю.В. Кореневский, следователь направляет дело в суд с обвинительным заключением, когда имеются собранные доказательства вины обвиняемого и он в этом убежден, хотя суд может согласиться или не согласиться с предъявленным обвинением[39]. Однако на практике оправдательные приговоры приводят к опровержению таких мнений. Поэтому обвинительные заключения, вынесенные следователем, предусматривают вынесение судом только предварительных заключений, поскольку суд является основным и окончательным субъектом оценки доказательств, всестороннее изучение представленных в суде доказательств (полнота, объективность, относимость, допустимость и достоверность) и их проведение на основе согласованности приводит к принятию достоверного решения. Каждое лицо, участвующее в деле, оценивает доказательства, исходя из своей позиции в деле, будь то обвинение или защита.

По мнению Н.А. Терновского, при оценке доказательств судья должен всесторонне учитывать показания свидетелей, объяснения сторон, собранную совокупность доказательств, заключения экспертов и каждую другую часть, пропуская их через интуицию[40].

---

[38] Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

[39] Кореневский, Ю. В. Доказывание в уголовном процессе (закон, теория, практика) / Ю. В. Кореневский // Доказывание в уголовном процессе: Традиции и современность; под ред. В. А. Львова. - М.: Юрист, 2000. - С. 151.

[40] Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей. М., 1967. С. 139: Строгович М. С. Курс ... 1968. С. 339.

Субъект оценки играет важную роль в процессе формирования судебного решения, поскольку его сознание, понимание ситуации, логическое мышление и психология непосредственно влияют на принимаемый процессуальный документ. В целом, каждое собранное по делу доказательство оценивается судьей с точки зрения относимости, допустимости и достоверности. Внутреннее убеждение судьи формируется без строгих правовых критериев, законодатель регламентировал процесс формирования доказательств, но не регламентировал, какие доказательства имеют отношение к делу, допустимы и достоверны. Это связано с тем, что законодатель гарантирует субъектам доказывания свободу и независимость в оценке доказательств. С этой точки зрения каждый субъект доказывания оценивает каждое доказательство индивидуально. Однако это не означает, что он может делать все, что угодно, в этом случае судья должен действовать в соответствии со своей совестью, законом и нормами этики при принятии решения.

В ходе судебного процесса стороны стараются убедить судью в правильности своих позиций и представить собранные доказательства, такие процессы способствуют формированию для сторон атмосферы состязательности, что, в свою очередь, служит объективному рассмотрению дела.

Создавая необходимые условия для выполнения процессуальных обязанностей сторон и осуществления предоставленных им прав, судья выступает в деле как беспристрастная сторона и имеет возможность получить обобщенные знания, опираясь на мнения, зачастую противоречащие друг другу.

Конечно, в ходе судебного разбирательства судья исследует доказательства, допрашивает, запрашивает дополнительную информацию, назначает экспертизу, уточняет основания, требует объяснений и таким образом формирует свою личную оценку доказательств. По окончании судебного разбирательства судья, основываясь на своем внутреннем убеждении, выносит приговор, признавая его обоснованным, если фактические обстоятельства дела установлены в нем достаточно полно, всесторонне и действительно

соответствуют тому, что имело место. При оценке доказательств суд основывается только на своих выводах, сформированных в процессе рассмотрения доказательств судом. Это состояние можно рассматривать как умственную деятельность.

Таким образом, при оценке доказательств судья принимает знания, основанные на практическом опыте, приобретенном в ходе деятельности, и превращает свои знания во внутреннее убеждение. Внутреннее убеждение, в свою очередь, является специфическим состоянием сознания, которое по своей природе не может быть воспринято извне в готовом виде и не может быть коллективным, поскольку оно должно быть эмоционально, осознанно и логически продумано самим субъектом. В процессе этой профессиональной деятельности судья использует все особенности своей психики, интересы и отношения, моральные идеалы, волевые качества, черты характера, темперамент, абсолютно все индивидуальные личностные качества, придающие убеждению эмоциональный оттенок.

Вышеизложенное, мнения и анализ показывают, что:

1. Внутреннее убеждение - это не критерий, а цель изучения обстоятельств дела, его метод и результат оценки доказательств;

2. Внутреннее убеждение всегда имеет индивидуальный характер, поскольку оно формируется в сознании конкретного субъекта, опирается на необходимые знания, является плодом его мыслей, основывается на личном опыте и находит свое отражение в принятом решении;

3. В уголовном процессе процесс познания шире и объемнее, чем процесс доказывания. Доказательство в широком смысле означает практическую и умственную деятельность из всей информации, полученной об обстоятельствах совершенного преступления;

4. Оценка доказательств служит необходимым условием целенаправленного проведения судебного следствия и судебного разбирательства, принятия законных и обоснованных процессуальных решений в целом, правильного применения уголовного законодательства.

5. При оценке доказательств судья выступает в качестве объективного субъекта, то есть участвует в деле в качестве объективного, беспристрастного и самостоятельного должностного лица.

Использованная литература:

1. Кореневский, Ю. В. Актуальные проблемы доказывания в уголовном процессе... - С. 60.

2. Лупинская, П. А. Доказывание в советском уголовном процессе... - С. 45.

3. Рябинина, Т. К. Внутреннее убеждение в механизме доказывания по уголовному делу / Т. К. Рябинина, О. В. Петрова, Е. Д. Горевой // Российский судья. - 2003. - № 5. - С. 16

4. Мельник, В. Здравый смысл при вынесении вердикта // В. Мельник // Российская юстиция. -1995.-№10.-С. 7.

5. Пашин, С. Теория формальных доказательств и здравый смысл / С. Пашин // Российская юстиция. - 1996. -№ 1.- С. 52.

6. Грошевой Ю. М. Сущность судебных решений в советском уголовном процессе. Харьков, 1979. С. 12.

7. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.

8. Кореневский, Ю. В. Доказывание в уголовном процессе (закон, теория, практика) / Ю. В. Кореневский // Доказывание в уголовном процессе: Традиции и современность; под ред. В. А. Львова. - М.: Юрист, 2000. - С. 151.

9. Ратинов А.Р. Судебная психология для следователей. М., 1967. С. 139: Строгович М. С. Курс ... 1968. С. 339.

O‘ZBEKISTONDA TOVAR BELGILARIGA NISBATAN INSOFSIZ RAQOBAT HOLATLARIDA YUZAGA KELADIGAN TRANSCHEGARAVIY NIZOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI

Adashov Hojiboy Xusan o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Bugungi globallashuv sharoitida savdo va iqtisodiy aloqalarning kengayishi tovar belgilariga bo‘lgan talab va ularning qiymatini oshirmoqda. Xalqaro bozorda tovar belgilari faqat brend va ishchanlik obro‘sining ramzi emas, balki iqtisodiy raqobatning markaziy elementi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu bois, ularga nisbatan insofsiz raqobat holatlari, ayniqsa transchegaraviy huquqbuzarliklar, dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday huquqbuzarliklar tovar belgilariga o‘xshatish, qalbakilashtirish, yolg‘on ma’lumotlar va ishonchsiz reklama tovar belgisi egasiga nafaqat moddiy zarar yetkazadi, balki xalqaro nizolarni ham keltirib chiqaradi. Bunday transchegaraviy nizolarni hal etishda xalqaro huquqiy me’yorlar, xususan Parij konvensiyasi (1883), VOIS doirasidagi shartnomalar, xususan, TRIPS kelishuvi (1994), shuningdek, YuNSITRAL va VOIS arbitraj qoidalari transchegaraviy miqyosdagi insofsiz raqobat holatlariga qarshi samarali himoya mexanizmlarini yaratishda asosiy o‘rin tutadi.

Parij konvensiyasining 10-bis moddasida a’zo davlatlar insofsiz raqobatga qarshi qonunchilik choralarini ko‘rishi talab etiladi; bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar belgisi himoyasi emas, balki ularni taqlid qilish yoki obro‘sini tushirish kabi harakatlarni qamrab oluvchi umumiy huquqiy poydevor hisoblanadi. TRIPS kelishuvi esa tovar belgilarini himoya qilish bo‘yicha majburiy huquqiy standartlarni belgilaydi, kontrafakt mahsulot tarqatish va belgilarni noto‘g‘ri ko‘rsatishni insofsiz raqobat sifatida baholaydi. Agar bir davlatda ro‘yxatdan o‘tgan belgi boshqa davlatda taqlid qilinsa, TRIPS asosida huquqiy himoyani talab qilish mumkin. Shu bilan birga, transchegaraviy nizolarda yurisdiksiya va qo‘llaniladigan huquqni aniqlashda xalqaro xususiy huquqning kollizion normalari muhim ahamiyat kasb etadi. YuNSITRAL va VOIS arbitraj va mediatsiya qoidalari orqali

bunday nizolarni suddan tashqari tezkor va kam xarajatli tarzda hal qilish imkoniyati yaratiladi. VOIS arbitraj markazi bu borada amaliy platforma vazifasini o‘tab, transchegaraviy intellektual mulk nizolarini hal etishda muhim vositaga aylanmoqda. Umuman olganda, xalqaro huquqiy me’yorlar nafaqat milliy qonunchilikka ta’sir o‘tkazadi, balki transchegaraviy nizolarda yagona va adolatli yondashuvni, samarali himoya va arbitraj imkoniyatlarini yaratadi.

O‘zbekistonda tovar belgilariga oid qonunchilik mustaqil milliy huquqiy tizim doirasida shakllantirilgan bo‘lsada, tashqi iqtisodiy aloqalar va global raqobat sharoitida yuzaga kelayotgan transchegaraviy huquqbuzarliklar xalqaro huquqiy himoya mexanizmlariga integratsiyani talab etmoqda.

O‘zbekiston bir qator muhim xalqaro shartnomalar va konvensiyalarga a’zo bo‘lgan, jumladan, 1991 yilda Parij konvensiyasi (1883 yil)ga qo‘shilgan. Parij konvensiyasining 10-bis moddasida belgilanganidek, “har bir a’zo davlat “insofsiz raqobat”ga qarshi samarali huquqiy chora-tadbirlarni joriy etishi shart”. Ushbu talab O‘zbekistonda Tovar belgilari to‘g‘risidagi qonuni va Raqobat to‘g‘risidagi qonunlar orqali milliy qonunchilikka implementatsiya qilingan. Konvensiya talablariga binoan, mamlakatda tovar belgilariga nisbatan huquqbuzarlik, taqlid, qalbakilashtirish kabi harakatlarga qarshi qonuniy mexanizmlar shakllangan.

O‘zbekiston hali Jahon savdo tashkiloti (WTO)ga a’zo emas. Ammo mamlakat 1994 yilda qabul qilingan va JST doirasida amal qiladigan “Intellektual mulk huquqlarining savdo jihatlari to‘g‘risida”gi TRIPS kelishuvi (TRIPS Agreement) talablarini qabul qilish va milliy qonunchilikka moslashtirish bo‘yicha izchil ish olib bormoqda. JSTga a’zo bo‘lish jarayonida O‘zbekiston intellektual mulk ob’ektlari, xususan, tovar belgilari sohasidagi himoyani kuchaytirish, kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish va huquq egalariga samarali huquqiy himoya mexanizmlarini taklif etish majburiyatlarini bajarishi lozim bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, TRIPS shartnomasining normalari hozircha rasmiy ravishda majburiy bo‘lmasada, ular milliy qonunchilikni takomillashtirishda me’yoriy va metodologik asos sifatida xizmat qilmoqda.

Transchegaraviy nizolarni hal etishda, an’anaviy sud muhokamasi bilan bir qatorda, alternativ nizolarni hal qilish usullari, xususan, VOIS Arbitraj va mediatsiya markazi muhim ahamiyat kasb etadi. VOIS tomonidan ishlab chiqilgan Arbitraj va mediatsiya qoidalari turli davlatlar o‘rtasida yuzaga keladigan intellektual mulk nizolarini, jumladan, tovar belgilariga oid insofsiz raqobat holatlarini betaraf, xalqaro va tezkor tartibda hal etish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, YuNSITRAL (UNCITRAL) tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro arbitraj va mediatsiya qoidalari ham tovar belgilari bilan bog‘liq transchegaraviy nizolarni hal etishda muhim vosita hisoblanadi. O‘zbekistonda ushbu mexanizmlar hali amaliyotda qo‘llanilmaydi, biroq ularni huquqiy qonunchilik amaliyotiga joriy etish kelgusida xalqaro nizolarni samarali va betaraf tarzda hal qilish imkoniyatini oshiradi.

O‘zbekistonda tovar belgilariga nisbatan insofsiz raqobat holatlarida yuzaga kelayotgan transchegaraviy nizolar, mamlakatning tashqi iqtisodiy munosabatlari faollashgan sari tobora dolzarblik kasb etmoqda. Jahon bozoriga chiqish istagidagi mahalliy kompaniyalar o‘z tovar belgilari himoyasini nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ta’minlashga ehtiyoj sezmoqda. Shu bilan birga, chet el kompaniyalari ham O‘zbekiston hududida o‘z tovar belgilari ustidan to‘liq va samarali huquqiy himoyaga ega bo‘lishni istaydi. Mana shunday sharoitda, transchegaraviy nizolar turli shaklda yuzaga kelishi mumkin va ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Qalbaki mahsulotlarning O‘zbekistonga olib kirilishi. O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tkazilgan tovar belgisiga o‘xshash yoki aynan shu belgi ostida xorijda ishlab chiqarilgan qalbaki mahsulotlarning mamlakat hududiga noqonuniy ravishda olib kirilishi holati amaliyotda tez-tez uchrab turibdi. Bu kabi holatlarda tovar belgisi egasining mulkiy huquqlari buziladi, bozorda raqobat muhiti izdan chiqadi va iste’molchilar sifati past, ishonchsiz mahsulotlar orqali aldanish xavfiga duchor bo‘ladi. O‘zbekistonning Tovar belgilari qonuniga ko‘ra, tovar belgisi egasi ishlab chiqarish, import, reklama va mahsulotni bozorga chiqarish borasida monopol huquqqa ega. Shu sababli, belgidan ruxsatsiz foydalanish – huquqbuzarlik hisoblanadi. Mazkur holat uchun O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga ko‘ra

ma’muriy javobgarlik, Jinoyat kodeksida esa kontrafakt mahsulot ishlab chiqarish va tarqatish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu kabi harakatlar moliyaviy zarar, ishonch yo‘qolishi va brend obro‘sining tushishi kabi oqibatlarga olib keladi. Ammo amaliyotda bu qonunlar to‘liq va samarali ishlamaydi. Bunga sabab huquqni muhofaza qilish mexanizmlarining zaifligi, xususan, bojxona organlarining qalbaki mahsulotlarni aniqlash imkoniyati cheklangani, yagona axborot bazasining mavjud emasligi va huquq egalarining sud orqali himoya olishidagi to‘siqlardir. Bundan tashqari, huquqiy ong va intellektual mulk madaniyatining yetarli darajada shakllanmagani huquqbuzarlarga keng imkoniyat yaratadi. Sud jarayonlarining cho‘zilishi, dalil bazasini to‘plashdagi texnik va protsessual muammolar, ekspert xulosalarini olishda infratuzilmaning yetishmasligi muammoni yanada keskinlashtiradi. Ushbu muammolarni hal etishda xalqaro huquqiy bazani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston “Parij konvensiyasi” (1883) va “TRIPS kelishuvi” (1994) kabi xalqaro hujjatlardagi majburiyatlarini amaliyotda to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi lozim.

Parij konvensiyasining 10-bis moddasida insofsiz raqobatga qarshi kurash talabi belgilab berilgan bo‘lib, qalbaki mahsulotlar orqali iste’molchilarni chalg‘itish va ishlab chiqaruvchi obro‘siga putur yetkazishni oldini olishga qaratilgan. TRIPSning 51-moddasi esa bojxona organlari qalbaki mahsulotlarni chegarada to‘xtatish uchun ko‘rishi mumkin bo‘lgan choralarni aniq belgilaydi. Shu asosda, O‘zbekistonda intellektual mulk ob’ektlari bo‘yicha yagona bojxona reestri (Customs IP Register)ni joriy etish, xorijiy tajriba asosida, huquqni samarali himoya qilishning muhim qadami bo‘ladi. Bu reestr orqali bojxona organlari va huquq egalari o‘rtasida ma’lumot almashish yaxshilanadi, tekshirishlar tezkorlashadi va kontrafakt tovarlar aylanmasi keskin kamayadi.

Umuman olganda, tovar belgilariga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish uchun qonunlarning nafaqat mavjudligi, balki ularning samarali amalga oshirilishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning moddiy-texnik bazasi va xalqaro mexanizmlar bilan integratsiyasi ta’minlanishi shart. Bu esa intellektual mulkni muhofaza qilishning amaliyotdagi samaradorligini

oshiradi va iste’molchilarning huquqlarini kafolatli himoya qilishga xizmat qiladi.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligida ham intellektual mulkni himoya qilishning samarali mexanizmlari mavjud. Masalan, YeIning 608/2013-sonli Reglamenti (Regulation (EU) No 608/2013) orqali qalbaki va noqonuniy tovarlarning chegaralardan olib o‘tilishini to‘xtatish bo‘yicha bojxona choralari belgilangan. Ushbu hujjatda huquq egasi ariza asosida bojxona organlariga murojaat qilib, shubhali yuklarni to‘xtatishni so‘rashi mumkinligi qayd etilgan. Bu kabi mexanizmlar O‘zbekiston qonunchiligida ham nazarda tutilishi kerak.

AQSh tajribasi “Lanham Act” qonuni asosida qurilgan bo‘lib, uning 1124-moddasida qalbaki mahsulotlarning import qilinishiga qarshi federal himoya belgilangan. Shuningdek, AQShda “Customs and Border Protection” idorasi tovar belgilarini rasmiy reestrga oladi va shubhali yuklarni avtomat ravishda aniqlash va ushlash imkoniyatiga ega. Bu amaliyotni O‘zbekistonga moslashtirish orqali huquq egalarining huquqlarini chegarada himoya qilish imkoni kengayadi.

Yaponiyaning Bojxona tariflari to‘g‘risidagi qonun va Insofsiz raqobatning oldini olish to‘g‘risidagi qonun orqali ham qalbaki mahsulotlarga qarshi qattiq choralar ko‘rilgan. Xususan, Insofsiz raqobatning oldini olish to‘g‘risidagi qonunning 2-moddasida qalbaki belgilar bilan mahsulot ishlab chiqarish “adolatsiz raqobat” sifatida baholanadi va bu jinoiy javobgarlikka asos bo‘ladi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini samarali tashkil qilish uchun sud-ekspertiza infratuzilmasi rivojlantirilishi, mahsulotlarning haqiqiyligini aniqlovchi ekspert xulosalarini tayyorlovchi laboratoriyalar tashkil etilishi lozim. Mazkur sohada Janubiy Koreya tajribasi e’tiborga molik, u yerda “KIPO” (Korean Intellectual Property Office) huzurida tezkor autentifikatsiya xizmatlari tashkil etilgan. Bundan tashqari, tadbirkorlik sub’ektlari va aholining intellektual mulk sohasidagi huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida davlat tomonidan huquqiy targ‘ibot dasturlari qabul qilinishi lozim. Bu maqsadda Yevropa davlatlarida keng qo‘llanayotgan “IP Awareness Campaign”lardan namuna olinishi mumkin.

2. Tovar belgisining boshqa davlatda noqonuniy ro‘yxatdan o‘tkazilishi (bad faith registration). O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxona yoki brendning tovar belgisi boshqa davlatda boshqa shaxs tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilishi holati bu “yomon niyatda ro‘yxatga olish” sifatida baholanadi. Bunday vaziyatlarda asl huquq egasi tovar belgisini qaytarib olish uchun yo xalqaro arbitrajga murojaat qilishi, yoki o‘sha davlat sud tizimi orqali o‘z huquqini talab qilishiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxona yoki brendning tovar belgisini boshqa davlatda boshqa shaxs tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazishi holati xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan *“bad faith registration”* ya’ni yomon niyatda ro‘yxatga olish sifatida baholanadi. Bu holat huquqiy jihatdan juda murakkab, chunki tovar belgilarining himoyasi har bir davlatning milliy qonunchiligiga asoslanadi va “hududiylik” tamoyiliga ko‘ra, har bir davlat tovar belgisiga alohida huquq himoyasini ta’minlaydi. Shu sababli, O‘zbekistonda to‘liq qonuniy asosda faoliyat yuritayotgan brendning tovar belgisi boshqa davlatda boshqa shaxs nomiga qonuniy ravishda ro‘yxatdan o‘tkazilishi mumkin va bu holatda asl huquq egasi avtomatik tarzda o‘sha davlatdagi himoyaga ega bo‘lmaydi. Bu kabi vaziyatlarda asl huquq egasi o‘sha davlatdagi sud organlari yoki ma’muriy organlar orqali o‘z huquqini isbotlashi kerak bo‘ladi. Agar u davlatda “yomon niyat” bilan ariza berilganini tan oluvchi qonun yoki amaliyot mavjud bo‘lsa, tovar belgisini bekor qilish mumkin. Aks holda, huquq egasi xalqaro arbitrajga murojaat qilishi mumkin, ayniqsa, agar u davlat JST, BIMT (WIPO) yoki boshqa xalqaro shartnomalar ishtirokchisi bo‘lsa.

Bu muammo yuzaga kelishining asosiy sababi O‘zbekistondagi biznes sub’ektlarining o‘z tovar belgilarini o‘z vaqtida xalqaro miqyosda ro‘yxatdan o‘tkazmasligi, ya’ni ularda himoya strategiyasining yo‘qligi. Jahon bozoriga chiqish niyatidagi brendlar ko‘p hollarda Madrid kelishuvi va bayonnomasi orqali tovar belgisini bir nechta davlatda himoya qilish imkoniyatidan foydalanmaydi. Natijada boshqa davlatlardagi shaxslar bu belgini bo‘shligidan foydalanib, uni o‘z nomiga rasmiylashtirib oladi. Ular ba’zi hollarda haqiqiy egasiga u belgidan foydalanish uchun litsenziya sotish yoki shantaj qilish maqsadida harakat qiladi – bu *“IP squatting”* deb ataladi. Bu kabi holatlar nafaqat iqtisodiy zararga, balki brendning xalqaro

imijiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Agar masalan, boshqa davlatda qalbaki yoki sifatsiz mahsulot shu nom bilan tarqalsa, bu haqiqiy brendning obro‘sini tushiradi. Shuning uchun O‘zbekistondagi tadbirkorlar va brend egalari uchun xalqaro huquqiy himoya strategiyasini oldindan ishlab chiqish va Madrid tizimiga ulanish orqali o‘z tovar belgisini xorijda ham ro‘yxatdan o‘tkazish zarur. Hozirda O‘zbekiston bu tizim a’zosi bo‘lgani uchun bu imkoniyat huquqiy jihatdan mavjud, faqat amaliyotda undan yetarlicha foydalanilmayapti. Qisqacha aytganda, bunday vaziyatlarning yuzaga kelishi huquqiy ongning yetishmasligi, himoya strategiyalarining ishlab chiqilmaganligi va xalqaro normalar bilan ishlash tajribasining kamligi tufayli sodir bo‘ladi.

Tovar belgisining boshqa davlatda “yomon niyat” asosida ro‘yxatdan o‘tkazilishiga qarshi samarali huquqiy himoyani ta’minlash maqsadida O‘zbekiston qonunchiligida quyidagi mazmundagi normalar joriy etilishi lozim. Bu qoidalar xalqaro konvensiyalar va xorijiy davlatlar qonunchiligidagi amaliyotlarga tayanadi hamda ular bilan mazmunan uyg‘unlashgan holda ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari to‘g‘risida”gi Qonuniga alohida “*Yomon niyatda berilgan tovar belgisi arizasini aniqlash mezonlari”* deb nomlangan modda kiritish va unda quyidagi qoidani belgilash lozim:

Agar tovar belgisi O‘zbekistonda yoki xalqaro darajada asl huquq egasi tomonidan faol ishlatilgan, tanilgan va bozorda obro‘ topgan bo‘lsa, boshqa shaxs tomonidan ushbu belgiga nisbatan ariza berilishi quyidagi holatlar mavjud bo‘lgan taqdirda yomon niyatda berilgan ariza deb baholanadi:

arizachi tovar belgisining asl huquq egasi tomonidan ishlatilayotganidan xabardor bo‘lgan holda, ushbu belgini ro‘yxatdan o‘tkazish orqali huquq egasining faoliyatiga to‘sqinlik qilish, undan tijorat foydasi ko‘rish, litsenziya berishga majburlash yoki bozorda raqobatni sun’iy ravishda cheklash maqsadida harakat qilgan bo‘lsa;

arizachi tovarni ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki mazkur tovar belgisi ostida tijorat faoliyatini amalga oshirish niyatiga ega emasligi aniq bo‘lsa;

belgining bozordagi tanilganligi va obro‘si asl huquq egasining harakatlari natijasida shakllangan bo‘lib, arizachi ushbu obro‘dan noqonuniy foyda olish maqsadida ariza bergan bo‘lsa. Ushbu norma Parij konvensiyasining 6-septies moddasi, Madrid protokoli qoidalari, YeI reglamenti 2017/1001 (59-modda), AQShning “Lanham Act” qonuni, Xitoy Tovar belgisi to‘g‘risidagi qonuni (4-modda) va Singapur Tovar belgisi to‘g‘risidagi qonuni (7(6)-modda) bilan mazmunan uyg‘un bo‘lib, xalqaro tajribaga asoslangan. Shuningdek, O‘zbekistonda faoliyat yurituvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun Madrid tizimi orqali tovar belgisini xalqaro darajada ro‘yxatdan o‘tkazishga doir axborot-maslahat platformasini yaratish, shuningdek, IP huquqlarini himoya qilish bo‘yicha davlat subsidiya dasturini yo‘lga qo‘yish ham maqsadga muvofiqdir.

3. O‘xshash tovar belgisi bilan chet elda mahsulot tarqatilishi. O‘zbekistondagi ishlab chiqaruvchi yoki vositalar o‘z tovar belgisini xalqaro miqyosda himoya qilmasdan turib, chet davlatda o‘xshash belgidan foydalanilayotganini aniqlashi mumkin. Bunday holatda iste’molchilar chalg‘ishi, brend obro‘siga putur yetishi va iqtisodiy zarar kelishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu esa ikki davlat o‘rtasidagi yuridik ziddiyatga aylanishi mumkin.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchilar o‘z tovar belgilarini xalqaro miqyosda, ya’ni boshqa davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazmasdan turib, uning o‘xshash yoki aynan bir xil belgisi boshqa shaxs tomonidan chet davlatda ro‘yxatdan o‘tkazilganini aniqlasa, bu holat huquqiy jihatdan “yo‘qotilgan ustunlik” deb qaraladi. Bu holatda iste’molchilarning chalg‘ishi, qalbaki mahsulotlar orqali bozordagi haqiqiy brend obro‘sining shikastlanishi, iqtisodiy zarar kelishi va mahsulotga nisbatan ishonchning yo‘qolishi ehtimoli juda yuqori bo‘ladi.

Xalqaro xususiy huquq nuqtai nazaridan bu masala “hududiylik prinsipi” bilan bog‘liqdir. Bu prinsipga ko‘ra, har bir davlat tovar belgilarini alohida huquqiy asosda ro‘yxatdan o‘tkazadi va boshqa davlatdagi ro‘yxatdan o‘tkazish holati uning hududida avtomatik himoyani anglatmaydi. Demak, agar O‘zbekistondagi ishlab chiqaruvchi o‘z tovar belgisini masalan, Turkiyada ro‘yxatdan o‘tkazmagan bo‘lsa, Turkiyada boshqa shaxs bu belgini o‘z nomiga qonuniy ravishda rasmiylashtirishi

mumkin. Hatto bu belgi haqiqiy egasi uchun tanish va keng foydalanilayotgan bo‘lsa ham, u mamlakatda himoyasiz hisoblanadi. Bu esa ikki yurisdiksiya O‘zbekiston va chet davlat o‘rtasida huquqiy manfaatlar to‘qnashuviga olib keladi. Agar O‘zbekistonda bu belgi ro‘yxatdan o‘tkazilgan va undan foydalanish bilan bog‘liq muvaffaqiyatli biznes yuritilayotgan bo‘lsa, ammo u xorijda himoyalanmagan bo‘lsa, unda o‘sha davlatdagi shaxs bu belgini qonuniy asosda egallab, himoya qilingan huquqli sub’ektga aylanadi. Bu holat “yomon niyatda” ro‘yxatdan o‘tkazish deb baholanishi mumkin, lekin amaliyotda buni isbotlash oson emas. Chunki ko‘plab mamlakatlar, ayniqsa brend belgisini ilk ro‘yxatdan o‘tkazgan shaxsni afzal ko‘radi va tovar belgisining qachon va qaerda ilk bor foydalanilganini to‘liq va ishonchli isbotlash talab etiladi.

Agar O‘zbekiston ishlab chiqaruvchisi ushbu holatga duch kelsa, u ikki xil yo‘l bilan o‘z huquqini talab qilishga urinadi: birinchisi, o‘sha davlatning ichki sud tizimi yoki tovar belgisi bo‘yicha ma’muriy organlari orqali; ikkinchisi, xalqaro arbitrajga yoki xalqaro shartnomalar doirasidagi mexanizmlarga murojaat qilish. Ammo har ikki holat katta mablag‘ va vaqt talab etadi. Bu kabi holatlarga yo‘l ochuvchi asosiy sabablardan biri O‘zbekistondagi ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida xalqaro huquqiy himoyaga nisbatan yetarli darajada bilimning shakllanmaganligi. Juda ko‘p hollarda korxonalar faqat ichki bozorga yo‘nalgan holda tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazib, uning xalqaro himoyasi haqida o‘ylamaydi. Mahsulot eksport qilinib, xalqaro bozorga chiqarilgandan so‘nggina muammolar yuzaga kela boshlaydi. Bu esa kech bo‘lgan harakatlarni talab qiladi va ko‘pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugashi mumkin. Qolaversa, amaldagi milliy qonunchilikda xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazishning afzalliklari, Madrid protokoli imkoniyatlari, yoki xalqaro himoya mexanizmlari haqida amaliyotdagi tushuncha va mexanizmlar hali ham yetarlicha keng tarqalmagan. Shu bois, bu kabi muammolar ko‘pincha profilaktika emas, balki oqibatlarni bartaraf etish darajasida hal etiladi.

4. *Domen nomlari bilan bog‘liq nizolar.* Internetda savdoning o‘sishi bilan, tovar belgilariga o‘xshash domen nomlarining boshqa davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi ham transchegaraviy nizolar turlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, mahalliy korxona “.com” domenida o‘z

brendini ishlatmoqchi bo‘ladi, lekin u domen boshqa davlatdagi shaxs tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘ladi. Bu holat “kiberqaroqchilik” sifatida baholanadi va, odatda, VOIS arbitraji orqali hal etiladi.

Internetdagi savdo va raqamli bozorning kengayishi natijasida tovar belgilarining muhofazasi faqat milliy darajada emas, balki transchegaraviy miqyosda ham hal etiladigan masalaga aylangan. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxona o‘z brendini “.com” kabi xalqaro domenlarda foydalanishni rejalashtirganda, ko‘pincha shunday holat yuz beradiki u domen nomi allaqachon boshqa davlatdagi shaxs tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘ladi. Bu shaxs, aksar hollarda, ushbu brendga aloqasi bo‘lmagan holda domenni olib, keyinchalik uni haqiqiy egasiga sotish yoki boshqa maqsadlarda foydalanishga urinadi. Bunday holat xalqaro huquqda “kiberqaroqchilik” deb yuritiladi va bu jahon miqyosida tan olingan huquqiy muammolardan biridir. Bu holat xalqaro xususiy huquqda shunday ko‘rinishda namoyon bo‘ladiki, domen nomlari milliy emas, global internet infratuzilmasiga oid bo‘lgan resurs hisoblanadi va ularning nazorati, yuritilishi va ular yuzasidan nizolarning hal qilinishi milliy qonunchilik orqali emas, balki xalqaro institutlar va qoidalar orqali amalga oshiriladi. Xususan, domen nomlari yuzasidan yuzaga keladigan nizolarni tartibga solishda asosiy xalqaro organ bu ICANN va aynan u qabul qilgan UDRP qoidasi doirasida nizolarni hal etish VOIS orqali amalga oshiriladi.

Mahalliy ishlab chiqaruvchi, agar u brendini “.com” domenida ishlatmoqchi bo‘lib, ammo domen nomi boshqa shaxs tomonidan yomon niyatda ro‘yxatdan o‘tkazilganini aniqlasa, u holda VOISning domen nizolari bo‘yicha arbitraj tizimiga murojaat qilishi mumkin. Arbitraj jarayonida u o‘z tovar belgisining mavjudligini, domen nomi u bilan o‘xshash yoki bir xil ekanini, domenni ro‘yxatdan o‘tkazgan shaxsning unga nisbatan qonuniy manfaati yo‘qligini va eng muhimi u domen yomon niyatda ro‘yxatdan o‘tkazilganini isbotlashi kerak bo‘ladi. Bu masala bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro qonunchilik va shartnomalar ichida VOISning UDRP siyosatiga qo‘shimcha ravishda Parij konvensiyasi va TRIPS kelishuvi ham dolzarb hisoblanadi. Ularda tovar belgilariga nisbatan noto‘g‘ri foydalanishni to‘xtatish, obro‘li brendlarni himoya qilish va savdo bilan bog‘liq huquqlar xalqaro miqyosda teng qo‘llanilishi kerakligi

belgilab qo‘yilgan. O‘zbekiston mazkur shartnomalar ishtirokchisi sifatida bu xalqaro mexanizmlarga suyanishi mumkin. Shuningdek, ayni muammo kelib chiqishining sabablari aksariyat hollarda mahalliy korxonalarning domen nomini o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazmasligi, internetdagi brendingni strategik muhofaza ob’ekti sifatida ko‘rmasligi va raqamli huquqiy xatarlarni oldindan baholamasligi bilan bog‘liq. Ba’zi hollarda esa tovar belgisi milliy darajada ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa ham, xalqaro darajada himoya qilinmagan bo‘ladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda raqamli aktivlar xususan, domen nomlari va veb-saytlar amalda intellektual mulk sifatida keng tushunib yetilayotgani yo‘q. Bu holatning oqibatlari jiddiy bo‘lishi mumkin: internetdagi brending yo‘qoladi, SEO natijalari zaiflashadi, iste’molchilar qalbaki saytlarga yo‘naltirilishi mumkin, eng muhimi brend obro‘si va ishonchning yemiralishi yuz beradi. Aslida, domen nomi bugungi kunda yuridik shaxsning raqamli faoliyatidagi “nomzod pasporti” hisoblanadi. Undan mahrum bo‘lish — virtual maydonda huquqiy mavqeni yo‘qotish bilan teng.

5. *Parallel import bilan bog‘liq nizolar.* Parallel import – bu tovar belgisi egasining roziligisiz, qonuniy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni boshqa davlatda sotishdir. Agar chet davlatdagi shaxs O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgisiga ega mahsulotlarni, hech qanday litsenziyasiz, mustaqil tarzda mamlakatga olib kirsa, bu holat huquq egasining iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazadi. Bunday nizolar sudlar va bojxona organlari orqali hal qilinadi.

Xalqaro xususiy huquqda parallel import muammosi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tovar belgilarining hududiylik tamoyili (territoriality principle) va ekspluatatsiya huquqining cheklanganligi bilan bog‘liq. Tovar belgisi huquqi har bir davlatda alohida himoya qilinadi va shu hudud bilan cheklanadi. Ya’ni, O‘zbekistonda ro‘yxatdan o‘tgan tovar belgisi mamlakat ichidagi ishlab chiqarish va savdoda to‘liq huquqiy himoyaga ega, biroq boshqa davlatdagi foydalanish, tarqatish yoki eksport qilish huquqi avtomatik ravishda berilmaydi. Agar mahsulot chet davlatda qonuniy ishlab chiqarilgan bo‘lsa ham, uni O‘zbekistonga tovar belgisi egasining roziligisiz olib kirish huquqni buzish deb qaralishi mumkin.

Bu yerda huquqiy tortishuvlar asosan intellektual mulk huquqlari va tovar erkin harakati o‘rtasidagi ziddiyatda namoyon bo‘ladi. Ayrim davlatlar parallel importni cheklaydi (joylashish doktrinasi), ayrimlari esa ma’lum shartlarda ruxsat beradi (huquqning xalqaro tugashi). O‘zbekiston amaliyotida, ayniqsa so‘nggi yillardagi islohotlar davrigacha, parallel importga nisbatan cheklovchi pozitsiya saqlab kelingan ya’ni huquq egasining roziligisiz mahsulotni import qilish mumkin emas. Bu esa mulkiy huquqlarni himoya qilish nuqtai nazaridan to‘g‘ri hisoblanadi, ammo savdo erkinligi va iste’molchilarning tanlov imkoniyatini cheklaydi. Bunday holatlarda tovar belgisi egasi o‘z huquqini himoya qilish uchun ikki yo‘lni tanlashi mumkin: bojxona organlari orqali mahsulotning mamlakatga kirishini to‘xtatish, yoki sud orqali parallel import bilan shug‘ullangan shaxsga nisbatan da’vo qo‘zg‘atish. O‘zbekiston bojxona kodeksida intellektual mulk ob’ektlarini himoya qilish uchun maxsus mexanizmlar mavjud jumladan, bojxona reestri va tovar belgisi asosida importni to‘xtatish imkoni. Shu orqali huquq egasi o‘z mahsulotining litsenziyasiz tarzda kirib kelishini nazorat qilishi mumkin. Bu muammoning yuzaga kelishidagi sabablar avvalo, ko‘plab chet el kompaniyalari O‘zbekistonda vositachilik, mutlaq savdo huquqlari va litsenziyalash masalalarini aniq va ochiq shartnomalar bilan rasmiylashtirmasligi. Shuningdek, O‘zbekiston bozorida faoliyat yurituvchi ba’zi korxonalar faqat ichki ro‘yxatdan o‘tkazish bilan cheklanib, tovar belgisini xalqaro savdo munosabatlarida qanday himoya qilish kerakligini yetarlicha baholamaydi. Qolaversa, parallel import ko‘pincha iste’molchilar uchun arzon mahsulot kirishi sababli bozorda keng tarqaladi va bu tadbirkorlik faoliyati bilan qonuniy ish yuritayotgan huquq egasi uchun iqtisodiy siqilish holatini yuzaga keltiradi.

Parallel import bilan bog‘liq nizolar O‘zbekistonda intellektual mulk huquqlari va xalqaro savdo erkinligi o‘rtasida nozik huquqiy muvozanatni talab etadi. Bu muammoni hal etishda huquq egasining mahsulot ustidan nazorati va iste’molchi huquqlarini hisobga olgan holda, qonunchilikda muvozanatli, ikki tomonlama yondashuvni shakllantirish zarur. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, aksar davlatlar parallel importni yo to‘liq taqiqlash, yoki cheklangan holatlarda ruxsat berish asosida huquqiy rejimni belgilaydi. O‘zbekistonda ham mazkur muammoni hal etish uchun Tovar

belgilari Qonun va Bojxona kodeksiga zamonaviy huquqiy yondashuvni kiritish maqsadga muvofiq.

Bir tomondan, tovar belgisi egasining bozordagi mulkiy huquqlarini himoya qilish, mahsulot sifatini, litsenziyalash siyosatini va tarqatish kanallarini nazorat qilish imkonini ta’minlash lozim. Buning uchun qonunchilikda tovar belgisi egasining yozma roziligisiz yoki litsenziyasiz ravishda chet davlatdan olib kirilayotgan mahsulotlarni parallel import sifatida huquqbuzarlik deb baholash va ularni bojxona organlari orqali to‘xtatish huquqi belgilanishi kerak. Mazkur mexanizm Parij konvensiyasidagi hududiylik tamoyili, TRIPS Bitimining 51-moddasi, shuningdek, Rossiya, Xitoy va Braziliya kabi davlatlardagi *“cheklangan parallel import”* siyosatiga muvofiqdir.

Biroq, parallel importni mutlaq taqiqlash bozorda raqobatni pasaytiradi, iste’molchilarni arzon va sifatli mahsulotlardan mahrum etadi. Shu bois, ikkinchi yondashuv sifatida “Nazorat huquqning tugashi” ya’ni cheklangan hollarda parallel importga ruxsat berish mexanizmini joriy etish zarur. Bunda parallel import qonuniy deb baholanishi uchun mahsulot asl tovar belgisi egasi yoki uning vakolati bilan chet davlatda ishlab chiqarilgan bo‘lishi, sifat jihatdan o‘zgartirilmagan bo‘lishi va iste’molchilarda adashish holatiga olib kelmasligi shart qilib belgilanadi. Shuningdek, huquq egasi ushbu mahsulotni chet davlatda real savdoga chiqargan bo‘lishi lozim. Bunday yondashuv Yevropa Ittifoqining 2017/1001 reglamenti, va TRIPS kelishuvining 6-moddasiga asoslangan holda huquqiy muvozanatni ta’minlaydi.

Shu tariqa, parallel import masalasida ikkilamchi, bir-birini to‘ldiruvchi qonuniy rejim joriy etiladi: bir tomondan, huquq egasi roziligisiz olib kirish huquqbuzarlik deb baholanadi va nazorat choralari amalga oshiriladi, ikkinchi tomondan esa, faqat belgilangan shartlar bajarilganda parallel importga cheklangan tarzda ruxsat beriladi. Bunday yondashuv O‘zbekiston huquq tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, milliy bozorni himoya qilish va iste’molchilar huquqlarini kafolatlashda samarali yechim sifatida xizmat qiladi.

O‘R Fuqarolik kodeksining 1107^{1}-moddasida bevosita tovar belgisining egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan fuqarolik

muomalasiga qonuniy tarzda kiritilgan tovarlarga nisbatan boshqa shaxslar tomonidan tovar belgisidan foydalanish mazkur tovar belgisiga doir mutlaq huquqning buzilishi deb hisoblanmasligi belgilangan. Bu norma huquqning tugashi prinsipiga asoslangan bo‘lib, asl huquq egasi mahsulotni muomalaga kiritgan paytda, unga nisbatan tarqatish huquqi cheklangan deb qaraladi. Biroq, amaldagi qoidada mazkur huquq tugashi qaysi hudud bilan cheklanishi, ya’ni milliy yoki xalqaro tugash prinsipi qo‘llanilishining aniq sharti bayon etilmagan. Shu munosabat bilan, ushbu moddaga parallel import masalasini tartibga soluvchi va huquq egasining manfaatlarini hisobga olgan holda, iste’molchi huquqlari bilan muvozanatdagi quyidagicha qo‘shimcha qoida kiritilishi taklif etiladi:

Agar tovar chet davlatda tovar belgisi egasi yoki uning rasmiy vakolati bilan qonuniy ravishda fuqarolik muomalasiga kiritilgan bo‘lsa, bunday tovarning O‘zbekiston Respublikasi hududiga tovar belgisi egasining yozma roziligisiz olib kirilishi parallel import deb baholanishi mumkin. Shu bilan birga, bunday parallel import huquqbuzarlik deb baholanmaydi, agar barcha quyidagi shartlar bir vaqtda mavjud bo‘lsa: mahsulot haqiqiy bo‘lib, tovar belgisi egasining o‘zi yoki rasmiy vakolatchisi tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lsa; mahsulotning sifati o‘zgartirilmagan bo‘lsa va u iste’molchida tovar manbasi yoki brendi haqida adashish holatiga sabab bo‘lmasa; tovar belgisi egasi mazkur tovarni parallel tarzda olib kirishga qarshi ekanini rasmiy organlar orqali yozma shaklda oldindan bildirmagan bo‘lsa (masalan, bojxona organlari huzuridagi intellektual mulk reestri orqali). Agar ushbu shartlardan biri buzilgan bo‘lsa, tovar belgisi egasi parallel importga nisbatan cheklov qo‘yish va ushbu tovarlarning mamlakatga kirishini bojxona organlari orqali to‘xtatish huquqiga ega bo‘ladi. Bu holda fuqarolik muomalasiga kiritilgan tovarga nisbatan tovar belgisidan foydalanish asl huquq egasining mutlaq huquqini buzish sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 2-songa ilova; 1997-y., 2-son, 56-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 26 apreldagi “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996-y., 5-6-son, 59-modda.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 30.08.2001-yildagi 267-II-son. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-son, 178-modda.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Firma nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 18.09.2006-yildagi O‘RQ-51-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 37-38-son, 370-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.01.2012-yildagi O‘RQ–319-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 1-son, 5-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Tijorat siri to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 11.09.2014-yildagi O‘RQ-374-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 37-son, 463-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 22-maydagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 20-son, 250-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2017-y., 03/18/455/0492-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

8. Beebe, B. Intellectual Property Law and the Sumptuary Code. // Harvard Law Review, 2010. – P. 845. (Maqola)

9. Beier, F. K. Basic Features of Anglo-American, French and German Trademark Law. // International Review of Industrial Property and Copyright Law, 1975. – P. 285. (Maqola)

10. Bennett, J. M. Women in the Medieval English Countryside: Gender and Household in Brigstock Before the Plague. Oxford University Press, 1987. – P. 47. (Monografiya)

11. Bently, L., & Sherman, B. Intellectual Property Law (4th ed.). Oxford University Press, 2014. – P. 1160. (Monografiya)
12. Bently, L., & Sherman, B. Intellectual Property Law (5th ed.). Oxford University Press, 2018. – P. 892. (Monografiya)
13. Bliznes, I. A. Intellektualnaya sobstvennost i zakon. M.: Prospekt, 2008. – S. 103. (Monografiya)
14. Court of Appeal The Hague, Darfurnica Case, 2011, p. 29.
15. TGI Paris, 17 fevrier 1990, J.-Cl. Marques, fasc. 7140, n° 15.
16. TGI Paris, 4 octobre 1996, PIBD, 1997, n° 627, III, p. 123.
17. TGI Paris, 9 mars 1987, G.P., 1987, 1, 343, Ph. Bertin.
18. Tgi de Paris, Pernod Ricard case (French case law, no specific page).
19. US District Court for the Eastern District of Virginia - 51 F. Supp. 2d 707 (E.D. Va. 1999) June 8, 1999. https://law.justia.com/cases/federal/district-courts/FSupp2/51/707/2497032/.
20. Porsche Cars North America, Inc. v. Porsch.com, 302 F.3d 248 (4th Cir. 2002).

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI “OMMAVIY MADANIYAT”NING YOSHLAR AXLOQIGA SALBIY TA’SIRLARI

No‘monjonov Xudoberdi Abdubakir o‘gli
ADU Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda axborot texnologiyalari (AT) va ommaviy madaniyat hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va boshqa raqamli vositalar kundalik hayotning muhim qismiga aylangan. Ushbu jarayon yoshlarning fikrlash, harakat qilish, hatto axloqiy qadriyatlar va salbiy fikirlarni shakllantirishda ham o‘ziga xos rol o‘ynamoqda. Shu sababli, zamonaviy axborot texnologiyalari orqali “ommaviy madaniyat”ning yoshlar axloqiga ta’sirini tahlil qilish jamiyatimiz uchun dolzarb masalalardan biridir.

Axborot texnologiyalarining yoshlar axloqiga ta’siri: Ma’lumki, XXI asr “Axborot texnologiyalari asri”. Haqiqatdan ham ilmiy texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Axborot tarqatish sohasida ilgari ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan sur’at va ko‘lamga erishildi. Globallashuv davri deb qaralayotgan bugungi kunda milliy va umumbashariy madaniy estetik qadriyatlar insoniyat hayotida har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, globallashuv sharoitida turli yod g‘oyalarni yoshlar axloqiga salbiy ta’sirini ko‘zlagan o‘zlarining g‘arazli niyatlarini amalga oshirishga intilayotgan, jirkanich muddaolariga “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib qilish orqali erishishga intilayotgan qora kuchlar mavjudki, ular hali ijtimoiy ongi shakllanib ulgurmagan, hayotiy tajribalari yetarli bo‘lmagan yosh avlodga ta’sir etishning turli vositalaridan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali axborot texnologiyalaridan unumli foydalanib yoshlarning bilim olish, muloqot qilish va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega bo‘lish mumkun. Internet orqali oson va tezkor axborot olish, onlayn ta’lim, global madaniyatlar bilan tanishish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Shu bilan birga, AT yoshlarning axloqiy qarorlar qabul qilishida yangi mezonlar, yangi qadriyatlar shakllanishiga ham sabab bo‘lmoqda. Shu bilan birga axborot texnologiyalarining salbiy ta’sirlari ham mavjudligini yana bir bor takidlash lozim. Yoshlar internet tarmoqlarida noto‘g‘ri, zararli yoki axloqiy jihatdan yaroqsiz ma’lumotlarga duch kelishi mumkin. Bu esa ularning axloqiy tushunchalarida buzilishlarga olib keladi, masalan, zo‘ravonlik, buzg‘unchilik, bezorilik xatti-harakatlari va soxta, no‘to‘gri ma’lumotlarga (dezinformatsiya) ishonch ortishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar orasida noto‘g‘ri o‘zini namoyon qilish, milliy mentalitetimizga zid axloqiy qadriyatlarni qabul qilish holatlari ham ko‘payib bormoqda. Bunday vaziyatlarda yoshlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. Axborot texnologiyalari ta’sirida yoshlar orasida “ommaviy madaniyat”ning ham tasiri kuchayib bormoqda.

“Ommaviy madaniyat”ning yoshlar axloqiga ta’siri: Kishi xulq-atvorini shakllantirishda madaniyat — kino, televideniye, musiqa, reklama va boshqalar muhim vositalardan biridir. Bu madaniyat vositalari yoshlar

ongiga, ular orasida axloqiy tamoyillarni singdirishga ham ta’sir ko‘rsatadi. “Ommaviy madaniyat» atamasi birinchi marta 1941-yilda nemis professori M.Xorkxaymer va 1944-yilda amerikalik olim D.Mak-Donald tomonidan kiritilgan. Bu atamaning mazmuni qarama-qarshi. Bir tomondan, mashhur madaniyat - «Hamma uchun madaniyat», boshqa tomondan, bunday madaniyat «ommaviy madaniyat»ostida madaniyatsizlik, axloqsizlik yotadi.

“Ommaviy madaniyat” – o‘z auditoriyasiga oson ega bo‘ladigan tajovuzkor madaniyatdir. “Ommaviy madaniyat”ning ba’zan ayrim ko‘rinishlari — shov-shuvli, zo‘ravon yoki hayotiy qimmatlarni buzuvchi kontent — yoshlarning axloqiy qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, egoizm, amoralizm, fanatizm, starizm kabi yovuzlik, g‘azab, kamsitish, nomaqbul odatlar yoki yengilmaslik hissi kabi xatti-harakatlar normal sifatida qabul qilinishi mumkin. Chunki yoshlar ongida bo‘shliqlar mavjud bo‘lib qolmoqda. Ushbu bo‘shliq - internet, OAV orqali yoshlar ongini to‘ldirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mafkura sohasida bo’shliq degan narsaning o’zi hech qachon bo’lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to’xtamaydi. Demak, unga doimo ma’naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o’zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo’ladi, aytinglar? Bunday ozuqani u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo’l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketayapti!”[41]

Global axborot makonlari ta’sirida kirib kelib, milliy mentalitetimizga xavf solayotgan ba’zi “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlarini tahlil qilib chiqamiz.

Amoralizm[42] (lot. a – yo‘q, moralis – axloq) – ma’naviy xayot va shaxslararo munosabatda axloq me’yorlarining buzilishi hamda ularni imkor etish, umume’tirof etilgan xulq – atvor mezonlariga e’tiborsizlik va ularga yengil-yelpi munosabatda bo‘lish. Ayni paytda yoshlar orasida axloq me’yorlarining buzilish, ularni inkor etish, umume’tirof etilgan xulq – atvor mezonlariga e’tiborsizlik va ularga yengil- yelpi munosabatda bo‘lish,

[41] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., O‘zbekiston: NMIU, 2016. B-17.

[42] Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар [матн] / Т.: “Turon zamin ziyo” нашриёти. 2015. - Б.12

umuman, amorolizimning har qanday unsurlarini ifodalagan xatti–harakatlarning oldini olish, ularga qarshi izchillik va qat'iyat bilan kurashishda milliy-ma'naviy, tarixiy qadiratlatimiz, an'ana va urf-odatlarimizga asoslangan milliy g'oyamiz ruhida tarbiyalash, oila, mahalla, ta'lim-tarbiya maskanlari, OAV, keng jamoatchilikning doimiy ishiga aylanishga erishish kerak.

Starizm[43] (ingl. Star – yulduz) – ba'zi Estrada ijrochilari, aktyorlar, sportchilar va mashxur kishilarni ilohiylashtirishning giperbollashtirilgan ko'rinishini ifodalovchi tushuncha. Starizm ommaviy madaniyat faoliyat ko'rsatishining ajralmas unsuridir. XX asrning boshlanishidan boshlab va so'ngi vaqtlarda G'arbda siyosatchilar, radio, televideniye va matbuotda turli dasturlarni olib boruvchi sharxlovchilardan – ko'pincha ular tomonidan yaratilgan tinglovchilar yoki tomoshabinlarning "do'sti", "akaxoni" imidjiga qurilgan enkormenlarni (ingilizcha – qoziqqa bog'lash, mustahkamlash va tap – inson) yulduzlarga aylantirish tendensiyasi kuchayib bormoqda.

Hamma ham yoshlik davrida o'zini biror – bir artist, sportchi yoki boshqa shaxsning ashaddiy muxlisi deb bilgan, unga o'xshashni orzu qilgan, taqlid qilgan bo'lsa, ajab emas. Bu shaxs rivojining qonuniy bosqichi, bu o'smir yoshning o'z shaxsini izlayotgani, o'zini "men"ini uning ideali mujassam bo'lgan xayolidagi shaxs qiyofasiga yaqinlashtirgisi kelayotganidan darak beradi. U fanatlar kulubiga kiradi, o'z hayolidagi idealini boshqa muxlislari, ixlosmandlari yoki tarafdorlari bilan xatlar yozishadi, unga bag'ishlangan kecha yoki konsertlarga boradi. Ko'pgina kishilar o'z qiyofasini uning tashqi ko'rinishiga moslashga xarakat qilib o'zgartiradi. Kimdir uning oilasi, xayoti va ijodi bilan yoki ichki dunyosi bilan yanada yaqindan tanishishni istaydi, xatto ayrimlar o'z "qaxramoni"ning ichki dunyosiga taqlidan o'z xarakterlarini o'zgartirishga kirishadi.

Buning natijasida u o'z shaxsini, o'zligini, individualligini yo'qotishgacha boradi. O'zligini yo'qotishni esa xech narsa bilan qoplab bo'lmaydi, endi uning "Men"ini tiklash uchun uzoq vaqt davomida katta hajimli ish olib borish kerak. Insonning "birovning hayoti" bilan uzoq vaqt

[43] Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар [матн] / Т.: "Turon zamin ziyo" нашриёти. 2015. - Б. 276

yashashi uning ongi tuzilishini vayron qilib, uni tubdan o‘zgartirib yuboradi (“qahramoni”ning ketidan yugurish, uning e’tiborini qozonishga intilish, uning yashash tarzini o‘ziga ko‘chirish, narkotik moddalar qabul qilish va x.k), ko‘p xollarda buzilgan ong muammolarni xal qilish yo‘li sifatida kishining o‘zini o‘zi o‘ldirishga turtki beradi. Shunday qilib, o‘z “qaxramoni”ga aynan o‘xashash istagi shaxsning boshqa hayotiy muhim manfaat va qiziqishlarini kechib qo‘yadi hamda fanatini nainki fanatizimga yetaklaydi, balki, uning ruhiy salomatligini zararlovchi salbiy oqibatlarga olib keladi.

Fanatizim[44] (lot. fanaticus – asabiylashgan, jazava tutgan) – so‘zidan olingan bo‘lib, muayyan g‘oya , e’tiqodigan ko‘r – ko‘rona va kuchli ishonish ma’nosini anglatadi. Bu ibora turli davrlarda johillik, ashaddiy xurofotchlik, mutassiblik, jazavakorlik, darg‘azablik telba – teskari ish tutish ma’nosida qo‘llanlgan. Umunan olganda: 1) iste’molchilik fanatizimi, ya’ni muayyan moddiy – ma’naviy ne’matlarni o‘zlashtirishga kuchli mayyilik: 2) diniy fanatizim - diniy fundamentalizmi va eksterimizim radikal shakli: 3) siyosiy g‘oyaviy fanatizim: 4) etnik, milliy va irqiy fanatizim.

Fanatizimning xatarli jihati shundaki, unga yo‘liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to‘lqinini keltirib chiqarishga qodir bo‘ladi. Ommaviylik unsuri esa muayyan bir xatti-harakatlar uchun shaxsiy javobgarlik xissini yo‘qotib yuboradi, harakatga ommaviy tus beradi. O‘zining shak – shubxasiz xaqligiga, haqiqatni faqat o‘zi bilishishga ishonch xissi so‘ngi choralarga - zo‘ravonlik harakatlariga moilligi bilan ajralib turadi.

Egoizm[45] (frans. egoism: lot. ego – men) – ijtimoiy borliqda shaxsiy manfaatlarning inson faoliyatining bosh maqsadi hamda jamiyat va atrofdagilarga munosabatini baholashning asosliy mezoniga aylanganini ifoda etuvchi hayotiy faoliyat prinsipini anglatuvchi atama.

Zamonaviy madaniyatning yaroqsizligi kishilar xaddan tashqari o‘zini yaxshi ko‘rishi va xudbinligidan emas balik “ular o‘larini sevmasligidandir” oxir oqibatda, aslida xudbin kishi boshqalarni nazariga ilmasdangina

[44] Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар [матн] / Т.: “Turon zamin ziyo” нашриёти. 2015. - Б. 316
[45] Ташанов А. Вайронкор ғоялар ва бузғунчи мафкуралар [матн] / Т.: “Turon zamin ziyo” нашриёти. 2015. - Б. 365

qolmasdan, balik o‘zidan ham nafratlanish ayni vaqtda asil muhabbat ham o‘zini, ham boshqalarni sevishga qodir bo‘lishni nazarda tutishi ma’lum bo‘ladi, shaxslararo munosabatlarda “egoizm” turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, bu “diktatorlik egoizim “, ya’ni insonda “hamma mening manfaatlarimga xizmat qilishi kerak”, degan ishonch xissi namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan “shaxsiy nodirlik egoizmi” – “ agarda menga qulay bo‘lmasa” barcha rioya qiladigan axloqiy tamoyillarga men rioya qilmayman” kabi qarashlarda ifodalanadi. Uchinchidan “anarxik egoizm” – har biro dam o‘z manfaati yo‘lida ko‘ngiliga kelgan ishni qilishi mumkin”, degan fikirga tayanadi.

Demak, insonning, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy kamoloti ko‘p jihatdan ulardagi egoistik mayillarni tizgilash, shaxsiy manfaatlarni o‘zga kishilar va jamiyat manfaatlari bilan nuyg‘unlashtirishga intilishiga bog‘liq. Bu esa ta’lim tarbiya tizimini quyidan yuqori bosqichiga takomillashtirish va rivojlantirishni taqazo etadi.

Yoshlar ongi xuddi shunday ozuqaga muhtoj bo‘lib bormoqda. Kerakli ozuqani o‘zi yashayotgan muhitdan topa olmasa, u bu ozuqani boshqa joydan izlashi tayin. Shuning uchun ham «ommaviy madaniyat»ning yoshlar hayotida o‘rni kundan kunga ortib bormoqda. Yoshlar ongidagi g’oyaviy bo’shliqdan foydalanib, chetdan kirib kelayotgan, biz uchun yot bo’lgan, ma’naviy va axloqiy tuban illatlarni o’z ichiga olgan bu “madaniyat”lar ko’plab falokatlarning ibtidosidir. “Ommaviy madaniyat” degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig’dirolmaydigan ko’plab axloqiy buzuqlik g’oyalari mavjud. Xususan, zo’ravonlik, individualizm, egotsentrizm g’oyalarini tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo’porishga qaratilgan xatarli tahdidlar ana shular jumlasidandir. Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni “madaniyat” deb atalishi, yoki, ming yillik ma’naviy qadriyat va an’analarni bepisandlik bilan “eskilik sarqiti” deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda.

Yoshlar axloqining shakllanishida muvozanatning ahamiyati

Yoshlarning axloqiy tarbiyasi oila, maktab, jamiyat va madaniyat muhitida yuzaga keladi. Axborot texnologiyalari yoshlarning axloqiy

qadriyatlarini shakllantirishda kuchli omillardir. Shu sababli, ular bilan ishlashda muvozanatni saqlash zarur.

Yoshlar axloqiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

1) **Axborot savodxonligini oshirish:** Yoshlarni internetdagi axborotlarni tanqidiy baholashga o‘rgatish;

2) **“Ommaviy madaniyat”ning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish:** Televideniye, gazeta-jurnallar, internet nash va ijtimoiy tarmoqlar orqali axloqiy qadriyatlarni rivojlantiruvchi kino, musiqa va boshqa ko‘rinishdagi targ‘ibot materiallrini yaratish va ommalashtirish;

3) **Oilaviy va maktab tarbiyasining kuchaytirilishi:** Axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash uchun ota-ona va o‘qituvchilar rolini oshirish;

4) **Yoshlarni foydali onlayn faoliyatga jalb qilish:** Raqamli platformalarda ijobiy va ijodiy loyihalar yaratish.

Axborot texnologiyalari yoshlarning axloqiy rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Ular orqali yoshlar yangi bilim va madaniyat bilan tanishadi, ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ammo bu jarayonda axloqiy qiyinchiliklar, noto‘g‘ri qadriyatlarning shakllanishi xavfi ham mavjud. Shu bois yoshlarni raqamli va madaniy muhitda sog‘lom axloqiy qadriyatlarga yo‘naltirish uchun hamjamiyat, oila va davlat birgalikda faol ish olib borishi zarur. Bu orqali yoshlarimizning ma’naviy barkamolligi, kelajakda mustahkam jamiyat barpo etishda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T., O‘zbekiston: NMIU, 2016. B-17.

2. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [matn] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B.12

MEHNAT INTIZOMINI TA’MINLASH BO‘YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR QONUN HUJJATLARI

Qovulov A.M.
Jamoat xavfsizligi universiteti 201-guruh talabasi

Zamonaviy mehnat bozori tobora murakkablashib borar ekan, har bir tashkilot uchun xodimlar intizomini yuqori darajada saqlash dolzarb masalaga aylanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, faqat jazoga asoslangan intizom emas, balki xodimlarni rag‘batlantiruvchi, motivatsiyalovchi va ijtimoiy mas’uliyatni oshiruvchi tizimlar ancha samarali natijalar beradi.

Bugungi O‘zbekiston sharoitida, ish joylarida adolatli, shaffof va zamonaviy intizomiy yondashuvlar joriy etilishi nafaqat mehnat unumdorligini, balki xodimlarning mehnatdan qoniqish darajasini ham oshirishi mumkin. Ayniqsa, texnologik rivojlanish davrida inson kapitali bilan ishlash madaniyatini yangilash zarurati kun tartibiga chiqmoqda.

Hozirgi kunda samarali ish muhitini yaratish uchun intizomiy mexanizmlarning yangicha shakllari izlanmoqda. Jumladan, xodimlarning shaxsiy o‘sishiga e’tibor qaratish, ularning kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirish va jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish asosiy tamoyillardan biri bo‘lib qolmoqda. Intizom faqat jazodan iborat bo‘lmay, balki xodimlarni o‘z ishiga sodiq qolishga undovchi mexanizmlarni o‘z ichiga olishi lozim.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida xodimlarning ish faoliyatini monitoring qilish va baholash jarayonlari samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa boshqaruvni yanada shaffof va adolatli qilish imkonini yaratadi.

Rag‘batlantirish tizimlari esa faqat moliyaviy ko‘mak bilan cheklanmay, ijtimoiy e’tibor, taqdirlash va kasbiy o‘sish imkoniyatlarini ham o‘z ichiga oladi. Natijada, intizomiy yondashuvlar insoniy omillarni hisobga olgan holda ishlab chiqilganida, xodimlar o‘z ishiga ko‘proq bag‘ishlanadi, tashkilotning umumiy samaradorligi oshadi. Shu tarzda, ish beruvchi va ishchi o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi hamda mehnat muhiti barqarorlashadi.

Xorijiy ayni vaqtda rivojlangan mamlakatlarning qonun hujjatlariga va tajribasiga qaraydigan bo‘lsak,

Rossiya federatsiyasi - Mehnat intizomi tushunchasi va asosiy tartibga soluvchi hujjat Rossiya Federatsiyasida mehnat intizomini ta’minlash 'Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksi' (Трудовой кодекс Российской Федерации) bilan asosiy tarzda tartibga solinadi.

Kodeksning 189-moddasida mehnat intizomi quyidagicha ta’riflanadi: ‘Mehnat intizomi — bu xodim tomonidan tashkilot ichki mehnat tartib-qoidalariga rioya qilish majburiyatidir’.

Xodimlar ishga kelish, belgilangan ish vaqtiga amal qilish, ish vazifalarini vijdonan bajarish va ish joyidagi ichki tartib-qoidalarga amal qilishlari lozim. shuningdek, Ichki mehnat tartib-qoidalari Mehnat kodeksining 190-moddasiga ko‘ra, har bir tashkilot o‘zining ichki mehnat tartib-qoidalarini ishlab chiqadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ish vaqti boshlanishi va tugashi, tanaffuslar, intizomiy jazolar, xodimning asosiy majburiyatlari.

Shu bilan birga Mehnat intizomini buzganlik uchun javobgarlik Mehnat kodeksining 192–193-moddalariga asosan, mehnat intizomini buzgan xodimga quyidagi intizomiy jazo choralari qo‘llanilishi mumkin:

- Ogohlantirish

– Hayfsan

- Mehnat shartnomasini bekor qilish (og‘ir buzilish holatlarida). Ish beruvchi jazo chorasi qo‘llashdan avval xodimdan yozma tushuntirish olishi shart.

Rossiya federatsiyasida mehnat kodeksidan tashqari asosiy hujjatlar mavjud quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar ham mehnat intizomini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi: birinchisi, Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi. Bunga misol qilib 37-moddada har kimning mehnat qilish huquqi, adolatli sharoitlarda ishlashi va intizomiy jazolardan qonuniy himoyasi kafolatlanadi. Ikkinchisi, Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksi. Jinoyat kodeksining 143-moddasi mehnat xavfsizligini buzish oqibatida zarar yetkazish, 286-moddasida esa vakolatni suiiste’mol qilish uchun javobgarlik belgilanadi. Uchinchisi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) konvensiyalari.To‘rtinchisi, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari -

Ayniqsa, davlat xizmatchilari uchun intizomiy javobgarlik prezident farmonlari orqali tartibga solinadi. Beshinchisi, Tarmoq va ichki mehnat nizomlari - Korxona yoki soha doirasida ishlab chiqilgan ichki nizomlar mehnat intizomini real amaliyotda belgilaydi.[1]

Qozog‘iston Respublikasi - Qozog‘iston Respublikasida mehnat nizolarini hal qilish quyidagi asosiy qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi: Birinchisi, Qozog‘iston Respublikasi Mehnat Kodeksi - Asosiy huquqiy hujjat bo‘lib, mehnat munosabatlarini tartibga soladi. Mehnat kodeksining 126–140-moddalari mehnat nizolarini ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi. Individual va jamoaviy mehnat nizolarining tushunchasi, ko‘rib chiqish muddati, nizolarni hal etish organlari va tartibi aniq ko‘rsatilgan. Ikkinchisi, “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonun.Ushbu qonun Kasaba uyushmalarining xodimlar manfaatlarini himoya qilishdagi vakolatlarini belgilaydi.Shuningdek, Jamoaviy mehnat nizolarida vositachi yoki muzokarachilar orqali kelishuv mexanizmlarini ko‘zda tutadi. Uchinchisi, “Vositachilik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun. Ushbu qonun mehnat nizolarini sudgacha bosqichda hal qilishda vositachilik (meditatsiya) tartibini ko‘rsatib o‘tadi To‘rtinchisi, Qozog‘iston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.Bu kodeks mehnat nizolari bo‘yicha sud ishlarini yuritish tartibini belgilaydi.[2]

Germaniya Federativ Respublikasi - Germaniya Federativ Respublikasida mehnat intizomi quyidagi asosiy qonun hujjatlari va normativ asoslar orqali tartibga solinadi. Birinchisi, Fuqarolik kodeksi (Bürgerliches Gesetzbuch — BGB).

Bu kodeksning 611a va 622 kabi moddalari mehnat shartnomasi, ishdan bo‘shatish va xodimlarning majburiyatlarini belgilaydi.

Ikkinchisi, Ishdan bo‘shatishni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (Kündigungsschutzgesetz — KSchG). Xodimga nisbatan intizomiy chora sifatida ishdan bo‘shatish holatlari ushbu qonun orqali tartibga solinadi. Shuningdek bu qonun asossiz yoki adolatsiz ishdan bo‘shatishdan himoya qiladi.

Uchinchisi, Xodimlar vakilligi to‘g‘risidagi qonun (Betriebsverfassungsgesetz — BetrVG). Ish joyida xodimlar kengashlari (Betriebsrat) mehnat intizomini nazorat qilishda va nizolarni hal etishda faol

ishtirok etadi. Xodimga intizomiy chora qo‘llashdan oldin bu kengash bilan maslahatlashish talab qilinadi (agar mavjud bo‘lsa).

To‘rtinchisi, Ish joyidagi tartib va ichki nizomlar (Betriebsordnung / Hausordnung). Har bir ish beruvchi o‘z tashkiloti uchun ichki tartib-qoidalarni ishlab chiqadi. Mehnat intizomi, ish boshlanishi, tanaffuslar, xatti-harakat me’yorlari va jazolash tartibi ushbu ichki hujjatlar bilan belgilanadi.[3]

Zamonaviy mehnat bozori sharoitida intizomni saqlash endi nafaqat yuridik majburiyat, balki strategik resursga aylanmoqda. Turli mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mehnat intizomiga yondashuvlar milliy huquqiy tizimlar, ijtimoiy qadriyatlar va mehnat madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Rivojlangan davlatlar, xususan, Germaniya, Rossiya va Qozog‘iston tajribasi asosida shuni anglash mumkinki, intizomiy tizimlar faqat jazolash vositasi bo‘lishi emas, balki inson salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish imkoniyatini ham berishi zarur. Bu davlatlarda mehnat intizomini tartibga soluvchi qonunchilik aniq va qat’iy me’yorlarga ega bo‘lishi bilan birga, xodimlar huquqlarini himoya qilish va ularni adolatli muhitda ishlashiga zamin yaratishga qaratilgan. Ayniqsa, zamonaviy tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, samarali intizom tizimi individual mas’uliyatni oshiruvchi, tashkilot manfaatlariga sodiqlikni shakllantiruvchi va insoniy munosabatlarga asoslangan yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston sharoitida ushbu xorijiy tajribalardan o‘rnak olib, ichki intizomiy siyosatlarni yangilash va zamonaviylashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish, tashkilotlarda ijobiy iqlim yaratish va inson kapitalidan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjud. Bu esa uzoq muddatda nafaqat tashkilot darajasida, balki butun iqtisodiyot uchun ijobiy natijalar berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksi: https://www.consultant.ru

2. Qozog‘iston Respublikasi Mehnat kodeksi: https://adilet.zan.kz

3. Fuqarolik kodeksi (Bürgerliches Gesetzbuch - BGB), https://www.gesetze-im-internet.

4. Ishdan bo‘shatishni himoya qilish to‘g‘risidagi qonun (Kündigungsschutzgesetz - KSchG), https://www.gesetze-im-internet.de/kschg/

3[2] Xodimlar vakilligi to‘g‘risidagi qonun (Betriebsverfassungsgesetz - BetrVG). https://www.gesetze-im-internet.de/betrvg/

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ ДОГОВОРОВ

Реймбаева Гулдаулет Курбанбаевна
Докторант 2-курса кафедры «Гражданского и бизнес право», Каракалпакского государственного университета
+998913816664 guldaulet@gmail.com

Правовое регулирование туристических договоров - это важная область, охватывающая правила и стандарты, которые регулируют взаимоотношения между участниками туристической деятельности, такими как туристы, туроператоры, турагенты, гостиницы и другие поставщики услуг. В разных странах законодательство в этой области может сильно различаться, но в целом оно стремится обеспечить права и интересы всех сторон, а также безопасность и комфорт туристов.

Необходимость правового регулирования туристской деятельности обусловлена объективными процессами, происходящими как на национальном, так и на международном уровне. Расширение региональных и трансграничных туристских связей, рост объемов туристических потоков, а также активное формирование современной туристской индустрии требуют четкого, системного и комплексного правового подхода к регулированию данной сферы.

В этих условиях становится особенно актуальным развитие нормативно-правовой базы, способной обеспечить баланс интересов государства, туристических организаций и потребителей туристских услуг. Основу такого регулирования в Республике Узбекистан составляет совокупность законодательных и подзаконных актов, непосредственно или опосредованно затрагивающих вопросы организации, предоставления и потребления туристских услуг. Эти

нормы охватывают широкий спектр правоотношений: от лицензирования деятельности туроператоров и турагентов до обеспечения безопасности туристов, регулирования перевозок, стандартизации услуг размещения, питания, экскурсионного обслуживания и других аспектов индустрии[46].

В системе правового регулирования туристических договоров особое место занимает Закон Республики Узбекистан «О туризме» и «О защите прав потребителей», который выступает ключевым нормативным актом, обеспечивающим защиту интересов туристов как стороны договора. Указанные законы закрепляют за потребителями туристических услуг право на получение полной, достоверной и своевременной информации о характере, объёме, условиях и стоимости предлагаемых туристических продуктов.

Наличие таких положений имеет важнейшее значение при заключении туристического договора, поскольку именно информация, предоставленная до его подписания, влияет на формирование воли туриста и обоснованность его выбора. Недостоверность либо неполнота сведений о маршруте, услугах размещения, транспортных условиях, сроках и гарантиях исполнения обязательств может привести к нарушению прав потребителя и возникновению правовых последствий для туристических организаций.

Правовое регулирование деятельности, связанной с производством и потреблением туристских услуг, заключается в воздействии права на общественные отношения, возникающие при их оказании, с помощью специальной системы юридических средств. Общественные отношения, складывающиеся по поводу производства, реализации и предоставления туристских услуг, являются весьма разнообразными и охватывают различные стороны деятельности предприятий индустрии туризма, в них принимают участие турист, туристские организации, иные организации туристской индустрии -

[46] И.Е.Отческий «Защита прав потребителей в обязательствах по возмездному оказание туристических услуг» LLC «Yustitsinform» 2017 стр-375

непосредственные «производители» туристских услуг (перевозчики, средства размещения, предприятия питания и др.), государство[47].

Есть несколько типов туристических договоров, которые считается основными аспектами правового регулирование в сфере туризма. Например, **договор на оказание туристических услуг - э**то основной тип контракта, регулирующих предоставление услуг в сфере туризма. Он включает в себя договора на организацию туров, бронирование жилья, транспортные услуги и другие. А также можно привести в пример **договоры между туристом и туроператором и** в этих контрактах детально прописываются условия турпакетов, обязательства сторон и ответственность за несоответствие заявленным условиям.

Фундаментальные принципы регулирования туристических договоров направлены на обеспечение справедливости, правовой определённости, прозрачности и баланса интересов всех участников договорных отношений в сфере туризма. Эти принципы играют ключевую роль в формировании нормативной базы, регулирующей заключение, исполнение и прекращение туристических договоров как на национальном, так и на международном уровнях.

В их основе лежит стремление к обеспечению правовой защиты туристов как потребителей услуг, а также созданию благоприятных условий для добросовестной предпринимательской деятельности туроператоров, турагентов и поставщиков отдельных туристических услуг. Принципы добросовестности, равенства сторон, свободы договора, недопустимости злоупотребления правом, а также приоритета интересов потребителя находят отражение в профильных законах, международных соглашениях, судебной практике и кодексах деловой этики в туризме.

Кроме того, данные принципы способствуют гармонизации правовых норм, особенно в условиях трансграничного туризма, где необходимо учитывать различия в национальных правопорядках. Их реализация важна не только для обеспечения правовой устойчивости

[47]А.С.Кусков Н.Б.Сирик «Оказание туристических услуг: Гражданско-правовое регулирование» ЗАО «Юстицинформ» 2013г. Стр-243.

туристических правоотношений, но и для повышения доверия к туристической отрасли в целом.

Правовое регулирование туристических договоров занимает важное место в системе гражданско-правовых отношений, обеспечивая баланс интересов между туроператорами, турагентами и туристами. Наиболее существенные проблемы правового регулирования связаны с недостаточной детализацией обязанностей сторон, пробелами в регулировании форс-мажорных обстоятельств (особенно в условиях пандемий и военных конфликтов), а также с отсутствием единого подхода к ответственности за некачественное исполнение услуг. Особую актуальность приобретают вопросы защиты прав потребителей, включая порядок возврата денежных средств, информирование об условиях тура и возможность одностороннего отказа от договора.

Важно отметить, что туристический договор должен быть ясным, с четким изложением всех условий, чтобы потребитель мог принимать осознанные решения. Все условия контракта должны быть четко и доступно изложены для клиента. Это включает информацию о стоимости, составе услуг, сроках выполнения обязательств, а также правила изменения или расторжения договора. Законодательство чаще всего предполагает, что стороны несут ответственность за неисполнение или ненадлежащее исполнение обязательств. Это могут быть штрафы, компенсации или возмещение ущерба. Для туристов предусмотрены особые меры защиты, такие как право на возврат денег за не оказанные или некачественно оказанные услуги, право на получение информации о всех условиях договора и другие.

Одной из центральных задач в рамках правового регулирования туристических договоров является установление их юридической природы. От правильной квалификации такого договора зависит не только выбор применимого законодательства, но и определение прав и обязанностей сторон, а также механизмов защиты прав потребителей туристических услуг.

Особое значение приобретает анализ международной и национальной практики, в которой туристический договор, как правило, рассматривается либо как договор купли-продажи туристского продукта, включающего в себя комплекс различных услуг (транспортировка, проживание, питание, экскурсионное обслуживание и др.), либо как договор возмездного оказания отдельных туристических услуг. Такой подход отражает специфику туристской деятельности, где конечный продукт формируется из множества составляющих, оказываемых различными исполнителями.

Правовая природа туристического договора влияет на весь спектр регулирующих норм - от требований к содержанию договора и порядка его заключения до вопросов ответственности сторон, расторжения договора и защиты прав потребителей. Поэтому правовая определённость в данном аспекте играет ключевую роль в обеспечении стабильности и предсказуемости правоотношений в сфере туризма.

Для обеспечения действенного и стабильного правового регулирования туристических договоров требуется комплексный и системный подход, отражающий многоаспектную природу туристической деятельности и её межотраслевой характер. Туризм как форма предпринимательской и социальной активности охватывает широкий круг отношений, возникающих на стыке различных отраслей права — гражданского, административного, транспортного, финансового, а также международного частного и публичного права. Это обусловливает необходимость согласованности и взаимосвязи между нормами различных правовых институтов.

Учитывая, что туристический договор включает элементы поставки, перевозки, размещения, страхования и иных услуг, правовое регулирование в данной сфере не может быть ограничено рамками только гражданско-правового механизма. Возникает потребность в создании единого, координированного правового поля, в котором эффективно взаимодействуют законодательные и подзаконные акты, стандарты качества, правила безопасности и международные соглашения.

Такой подход обеспечивает не только защиту прав и законных интересов участников туристических правоотношений, но и способствует развитию внутреннего и въездного туризма, повышая прозрачность, предсказуемость и правовую устойчивость деятельности в данной сфере.

Особое значение такая системность приобретает в условиях правовой и экономической нестабильности, когда внешние вызовы — такие как пандемии, международные санкции, геополитические конфликты и резкие колебания валютных курсов - напрямую влияют на исполнение обязательств по туристическим договорам. В подобных ситуациях критически важна гибкость правового регулирования, его способность оперативно адаптироваться к меняющимся обстоятельствам, обеспечивая при этом баланс интересов всех участников туристической сферы: потребителей, туроператоров, турагентов и поставщиков отдельных услуг.

Для достижения правовой устойчивости и защиты прав сторон необходимо не только совершенствование существующего законодательства, но и разработка механизмов антикризисного реагирования, включая внедрение особых правовых режимов (например, форс-мажорных условий, отсрочек по обязательствам и т. п.), а также формирование единообразной судебной практики в данной области.

Стоит отметить, что правовое регулирование туристических договоров требует системного подхода, учитывающего комплексную природу данных отношений и их межотраслевой характер.

В условиях правовой и экономической нестабильности особенно важна гибкость законодательства, способного адаптироваться к быстро меняющимся реалиям (пандемии, санкции, геополитические конфликты).

Ключевая цель - обеспечение баланса интересов сторон, где турист выступает как уязвимая сторона, а значит, требует усиленной правовой защиты.

Будущее отрасли - за цифровизацией, прозрачными онлайн-механизмами заключения и исполнения договоров, а также

гармонизацией с международными стандартами, в том числе в сфере страхования и информационной безопасности.

Таким образом, правовое регулирование туристической деятельности представляет собой сложный и многоуровневый процесс, охватывающий широкий круг субъектов и регулирующий разнообразные виды правоотношений. В условиях постоянного развития туристской индустрии и расширения спектра туристских услуг особую значимость приобретает создание эффективного и сбалансированного механизма правового воздействия, способного обеспечить правовую защиту интересов всех участников туристических правоотношений. Законодательство должно учитывать межотраслевой характер туристской деятельности, обеспечивая согласованность норм гражданского, административного, транспортного и иного законодательства. Только при наличии комплексного, гибкого и адаптивного правового регулирования возможно достижение устойчивости и правовой определённости в сфере туризма как важнейшей отрасли экономики и социальной жизни.

Использованная литература:

1. www.lex.uz/ Закон Республики Узбекистан «О туризме».

2. www.lex.uz/ Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей».

3. Отческий И.Е «Защита прав потребителей в обязательствах по возмездному оказание туристических услуг» LLC «Yustitsinform» 2017 стр-375

4.Кусков А.С Сирик Н.Б «Оказание туристических услуг: Гражданско-правовое регулирование» ЗАО «Юстицинформ» 2013г. Стр-243.

5.Гуляев В.Г. Правовое регулирование туристской деятельности. -М.: Финансы и статистика. 2005. – 304 с.

6.Реймбаева Г. законодательство Республики Узбекистан в сфере туризма с международными стандартами и нормами. journal of international scientific research, Volume 2, Issue 2,January, 2025 стр.389-393

FUQAROLARNING ISHGA KIRISHDA KERAK BO‘LADIGAN MA’LUMOTLARINI AVTOMATLASHTIRISH

Jo‘rayev Boburjon Umidjon o‘g‘li
JXU 2-bosqich talabasi.

Bugungi raqamli asrda inson resurslarini boshqarish va mehnat bozoridagi samaradorlikni oshirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Xususan, fuqarolarning ishga kirishda taqdim etadigan ma’lumotlarini avtomatlashtirish bu jarayonni soddalashtirish, tezlashtirish va shaffof qilish uchun asosiy vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlarda allaqachon joriy etilgan bu tizimlar orqali yuqori samaradorlikka erishilmoqda. Xorijiy mamlakatlarda fuqarolarning ishga kirishda kerak bo‘ladigan ma’lumotlarini avtomatlashtirish dasturlari (yoki tizimlari) odatda raqamli identifikatsiya, ishga qabul qilish platformalari, hamda mehnat bozorini tartibga soluvchi davlat tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak ayrim yetakchi mamlakatlarda qanday ishlashi haqida keltirib o‘tish mumkin.

Germaniyada: Raqamli identifikatsiya va ***e-HRM (Electronic Human Resource Management***) tizimi mavjud. Bundesagentur für Arbeit (Germaniya ish bilan ta’minlash agentligi).

Estoniyada: ***eesti.ee*** tizimi mavjud: Bu tizimda har bir fuqaro raqamli ID kartaga ega bo‘lib, bu karta orqali sog‘liqni saqlash, ta’lim, bank, soliq va mehnat sohasidagi barcha ma’lumotlar yagona tizimga ulangan. Ish beruvchilar fuqaroning ish staji, malakasi, soliq to‘lovlari, ijtimoiy sug‘urtasi haqida onlayn ma’lumot olishlari mumkin.(agar fuqaro ruxsat bersa). Bu avtomatlashtirilgan platformalar orqali fuqarolar rezume yuborish, test topshirish, va shartnoma imzolash mumkin.

AQSh tizimi: ***Background Check + ATS (Applicant Tracking Systems)*** deb nomlanadi. Bu tizim **ATS (Applicant Tracking System)** orqali fuqarolarning ma’lumotlari avtomatik yig‘iladi: rezume, diplom, ish. Shuningdek keyinchalik **Background check (orqa fonni tekshirish)**

platformasi orqali avtomatlashtirilgan xizmatlar fuqaroning jinoyat tarixini, ta’limini, soliq tarixini va boshqalarni avtomatik tekshiriladi

Singapur tizimida ***MyInfo platformasi bor. MyInfo*** bu davlat tomonidan boshqariladigan platforma bo‘lib, fuqaroning: Shaxsiy ma’lumotlari (ID, manzil, oilaviy holat),soliq, ta’lim, mehnat staji, ijtimoiy sug‘urta ma’lumotlarini bir joyda saqlaydi.Ish beruvchilar fuqaroning roziligi bilan shu tizim orqali zaruriy ma’lumotlarni avtomatik olishadi. Qo‘shimcha hujjat so‘ralmaydi. Ushbu tizimning umumiy funksiyalari quyidagicha bo‘ladi:shaxsni identifikatsiyalash raqamli **ID** orqali amalga oshadi.Diplom/sertifikatlarni tasdiqlash avtomatik ravishda davlat yoki ta’lim muassasalari bazasi orqali tekshiriladi.Ish tajribasi va ijtimoiy sug‘urta tizimlari orqali ko‘riladi.Jinoyat tarixini tekshirish esa **Davlat ma’lumotlar bazalari** bilan integratsiya qilingan tizim orqali amalga oshiriladi.

Xorijiy mamlakatlardagi ishga kirishda zarur ma’lumotlarni avtomatlashtirish platformalarining asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Tezlik va samaradorlikni oshiradi. Qog‘ozbozlikni yo‘q qiladi – diplom, pasport, mehnat daftarchasi nusxalarini olib borish shart emas. Ish beruvchi bir necha daqiqada fuqaroning malaka, staj, soliq to‘lovlari va boshqa muhim ma’lumotlarini tekshiradi.

Ishga qabul qilish jarayoni kunlar emas, soatlar ichida yakunlanishi mumkin.

2. Ishonchlilik va aniqlikni oshiradi. Ma’lumotlar ruxsat berilgan davlat tizimlari orqali olinadi – bu yolg‘on rezume, soxta diplom muammolarini kamaytiradi. Har bir malaka, tajriba, yoki sertifikat rasmiy manbalar bilan tekshirilgan bo‘ladi.

3. Xavfsizlik va shaxsiy hayotni himoya qilishni kuchaytiradi. Zamonaviy platformalarda faqat fuqaro roziligi bilan ma’lumotlar beriladi. Maxfiylikni saqlashga oid qonunlar (masalan, GDPR – Yevropada) yordamida ma’lumotlar noqonuniy tarqalishidan himoyalangan.

4. Teng imkoniyatlar yaratiladi. Har bir fuqaro uchun bir xil standartdagi ma’lumotlar taqdim etiladi. Tanish-bilishsiz, faqat malaka asosida ishga kirish imkoniyati oshadi.

Integratsiya qilingan tizimlar ish beruvchiga kerakli hamma ma’lumotni bir joyda olish imkonini beradi. Birgina platforma orqali quyidagi ma’lumotlar olinadi:

- Shaxsni tasdiqlash (ID)
- Ta’lim (diplomlar, baholar)
- Ish staji
- Ijtimoiy sug‘urta tarixi
- Soliq to‘lovlari
- Jinoyat/tarixiy tekshiruv

6. Tahlil qilish va mehnat bozorini tartibga solish imkoniyatini rivojlantiradi. Davlat bu platformalar orqali qaysi sohalarga talab yuqori, qayerda ish o‘rinlari yetarli emas, degan analitik ma’lumotlarni avtomatik ravishda oladi. Bu esa bandlik siyosatini yanada aniq va samarali yuritishga yordam beradi.

O‘zbekistonda avtomatlashtirilgan xorijiy mamlakatlarni tajribalaridan foydalanib ishga kirish tizimini joriy qilish: imkoniyatlar va foydalari quyidagicha bo‘ladi:

1. Yagona raqamli platforma yaratish kerak. Bunda fuqaroning pasporti, STIR (INN), mehnat staji, diplomlari, ijtimoiy sug‘urtasi, jinoyat tarixi haqida ma’lumotlar birlashtirilgan yagona davlat tizimiga (masalan:“***IshgaQabul.uz***” kiritiladi.

Foydasi: Ish beruvchilar hujjat so‘rash o‘rniga, fuqarolarning roziligi bilan kerakli ma’lumotni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tizimdan ko‘ra oladi.Soxta diplom, tajriba haqida yolg‘on ko‘rsatmalar kamayadi.

2.Ishga qabul jarayonini onlayn platforma orqali avtomatlashtirish kerak:

Davlat bandlik xizmati, xususiy HR kompaniyalari va ish beruvchilar uchun yagona onlayn ishga qabul platformasi yaratiladi (masalan, “IshgaQabul.uz”). Foydasi: fuqaro CV yuklaydi, diplom va sertifikatlar avtomatik tizimdan olinadi. Ish beruvchi vakili nomzodni ko‘rib chiqadi, intervyuni onlayn o‘tkazadi, shartnomani elektron imzolaydi.

3. Ma’lumotlarni real vaqtda yangilab turish kerak:

Soliq qo‘mitasi, DSQ, oliy o‘quv yurtlari, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalari o‘zaro bog‘langan bo‘lishi kerak. Foydasi:

Diplom olgach, u avtomatik tizimda paydo bo‘ladi. Ish joyi o‘zgarganda, ish staji tizimda yangilanadi.Soliq va ijtimoiy to‘lovlar kechiktirilmasdan tizimda aks ettiriladi.

4. Shaxsiy maxfiylik va xavfsizlikni ta’minlash kerak. Har bir fuqaroga o‘z ma’lumotlarini boshqarish imkonini berish (kimga, qachon, qaysi ma’lumotlarini ko‘rsatish). Foydasi: shaxsiy ma’lumotlar noqonuniy tarqalishining oldi olinadi.Ish beruvchilar faqat ruxsat etilgan qismini ko‘ra oladi.

5. Mehnat bozorini tahlil qilish va boshqarish kerak. Platforma orqali qaysi hududda, qaysi kasblarga ehtiyoj ko‘p yoki kamligi haqida real tahliliy axborotlar yig‘iladi.

Ish beruvchi va fuqarolar uchun kutilayotgan afzalliklar va ijobiy natijalar:

- Tezlik: 10-15 kunlik ishga qabul jarayoni 1-2 kunga tushadi.
- Adolat: Nomzodlar imkoniyatlarda teng bo‘ladi.
- Ishonchlilik: Soxta hujjatlar kamayadi.
- Davlat nazorati: Real vaqt rejimida mehnat statistikasi yuritiladi.
- Fuqarolarga qulaylik: Qog‘ozli hujjat yig‘ishdan xalos bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, biz O‘zbekiston sharoitida bunday tizimlarni joriy qilish orqali adolat, tenglik, shaffoflik kabi konstitutsiyaviy noramalarni o‘rnatishimiz mumkin.

Shuningdek bu tizim orqali ham ish beruvchiga ham fuqaroga(nomzodga) imkoniyatlar oshadi. Bu yo‘nalishda dastlabki qadamlar allaqachon qo‘yilgan. Endilikda muhim jihat – bu tizimni chuqurlashtirish va fuqarolarga tatbiq etishimiz kerak. Bu kabi platformalar tezlik, ishonchlilik, xavfsizlik hamda adolatli tanlov imkonini ta’minlaydi. Ayniqsa, raqamli identifikatsiya, yagona ma’lumotlar bazasi, va elektron hujjat aylanishi orqali ishga qabul qilish jarayoni soddalashadi va shaffoflikni taminlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 .O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.

2 .O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qarori. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini reyting baholash tizimini joriy etish to‘g‘risida.

3. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi.

MEHNAT HUQUQI VA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA YOSHLARNING ROLI:MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Ismatullayeva Madina Xayriddin qizi,
O‘R JXU Maxsus fakulteti Yurisprudensiya yo‘nalishi 2-bosqich 202-guruh talabasi
El.pochta: ismatullayevamadina724@gmail.com
Tel: 95-888-14-03

Mehnat huquqi — bu xodimlar va ish beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy soha bo‘lib, fuqarolarning mehnat qilish huquqi, adolatli ish sharoitlari va ijtimoiy himoyasini kafolatlaydi. U O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi hamda xalqaro mehnat standartlariga asoslanadi. Mehnat huquqi fuqarolarning ijtimoiy farovonligini oshirish va jamiyatdagi adolat tamoyillarini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.Korrupsiya — bu shaxsiy manfaat evaziga davlat organlari vakolatlarini suiiste’mol qilish bo‘lib, mehnat sohasida ham muhim salbiy oqibatlarga olib keladi va bu o‘z navbatida, jamiyatda ishonchsizlik, norozilik va huquqiy madaniyatning susayishiga sabab bo‘ladi.Darhaqiqat, “Zamonaviy mehnat munosabatlarida qonuniylik, etik tamoyillar va korrupsiyaga qarshi yondashuvni uyg‘unlashtirish talab etiladi. José Eduardo Magalhães Alvesning fikricha, ish beruvchi va ishchi o‘rtasidagi munosabatda doimiy muvozanatni ta’minlash, ayniqsa masofaviy ishda, mehnat qonunchiligi va korrupsiyaga qarshi me’yorlarning ustuvorligini saqlash uchun zarurdir” (Journal of Law and Corruption Review, 2023).[48]Bunday yondashuvda,avvalo,yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish zarurati asosiy omil sifatida e’tirof etiladi.Zero,yoshlar — har qanday jamiyatning tayanchi va kelajagidir.

[48] https://corruptionreview.org

Ularning huquqiy bilimga ega bo‘lishi, qonuniylik va adolatga sodiq bo‘lib ulg‘ayishi — korrupsiyaga qarshi kurashning eng muhim omillaridan biridir. Ayniqsa mehnat sohasida adolatli tizim qurish uchun yoshlarning tashabbuskorligi va faolligi talab etiladi.

Asosiy qism.Har bir sohada bo‘lgani kabi,mehnat huquqida ham korrupsion holatlarning uchrab turishi tabiiy. Xususan,ishga joylashish jarayonida pora evaziga qabul qilish,nizomga zid ravishda vaqtinchalik mehnat shartnomalari tuzish,ishchilarning qonuniy huquqlarini (ta’til, mehnat muhofazasi, ish haqi) poymol qilish,davlat xizmatlarida “tanish-bilish” orqali lavozimlarga tayinlash.Davlat yoki yirik xususiy tashkilotlarga ishga kirishda ayrim hollarda pora talab qilinishi holatlari uchraydi. Bu holat qonun bilan qat’iy taqiqlangan bo‘lishiga qaramay, ba’zi vakolatli shaxslar tomonidan suiiste’mol qilinadi. Bu esa adolatli raqobatni yo‘qqa chiqaradi va yoshlar orasida umidsizlikni kuchaytiradi.Shu bilan bir qatorda,xodimlarning ish haqlarini kechiktirish yoki noqonuniy asosda kamaytirish holatlari mehnat huquqini buzish bilan birga, korrupsiyaviy muhitni kuchaytiradi. Ayrim hollarda bunday amallar rahbarlarning shaxsiy manfaatlariga xizmat qilishi mumkin.Bundan tashqari,ko‘p hollarda mehnat shartnomalari xodimning huquqlarini e’tiborga olmasdan tuziladi yoki umuman yozma shartnoma tuzilmaydi. Bu esa ish beruvchilarga xodimlarni o‘z xohishicha ishdan bo‘shatish yoki haqlarini bermaslik imkonini yaratadi. Bu turdagi holatlar ham korrupsiya elementlari bilan bevosita bog‘liqdir.

ILO 2023-yilgi hisobotida qayd etilishicha, dunyo bo‘yicha har 5 nafar ish izlovchidan 1 nafari korrupsiyaga duch kelganini bildirgan. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonda ham muhim e’tiborni talab etadi.Mana shunday holatlarga qarshi kurashishda dastavval,huquqiy savodxonlikni oshirish maqsadga muvofiq. Yoshlarning huquqiy bilimini oshirish orqali korrupsiyaga qarshi immunitet shakllantirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni (2017)da ham jamoatchilik nazorati, ta’lim muassasalaridagi islohotlar va axborot erkinligi bu borada ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Bunda,yoshlarning mehnat huquqi, shartnoma tuzish tartibi, ish haqi, dam olish va boshqa ijtimoiy kafolatlar bo‘yicha to‘liq xabardor bo‘lishi

korrupsiya holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Bu maqsadda o‘quv yurtlarida maxsus seminarlar, treninglar, huquqiy tanlovlar tashkil etilishi asosiy yechimlardan biridir.Ikkinchidan, ochiq tanlov asosida ishga qabul qilishni targ‘ib qilish,ya’ni yoshlar davlat tashkilotlari va xususiy korxonalar tomonidan e’lon qilinayotgan ochiq ish o‘rinlarida adolatli tanlov asosida ishga qabul qilish mexanizmlarini targ‘ib etishlari, bu bo‘yicha jamoatchilik fikrini shakllantirishda faol bo‘lishlari kerak. Internet tarmoqlarida ochiqlik tamoyillari asosida bahs-munozaralar tashkil etilishi foydalidir.Bundan tashqari,universitet va maktab o‘quvchilari, faol yoshlar tashkilotlari, «Yoshlar ishlari agentligi» va boshqa muassasalar tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi jamoatchilik guruhlarini tashkil qilish, ularning qonuniy asosda faoliyat yuritishini ta’minlash zarur. Bunday guruhlar tashkilotlarda shaffoflikni ta’minlash, huquq buzilishlarini aniqlash va tegishli organlarga xabar berish orqali korrupsiya ko‘lamini kamaytiradi. Yoshlar ishtirokidagi antikorrupsiya loyihalarini kengaytirishning empirik kuzatuvlar va statistik dalillarini keltirib o‘tadigan bo‘lsak,

1. Korrupsiya va yoshlar bandligi: Bouzid (2016)Bechir Naier Bouzidning Jahon banki moliyalashtirgan tadqiqoti mehnat bozorida korrupsiyaning yoshlar ishsizligiga ta’sirini o‘rganadi.Model (System-GMM) orqali aniqlanishicha, korrupsiya darajasi oshishi bilan yoshlar ishsizligi ham ortadi.Har 10 % ga ko‘tariladigan korrupsiya balansi yoshlar ishsizligini taxminan +1,5–2 foizga oshiradi.Ayniqsa, malakali yoshlar ko‘proq pora to‘lashga majbur bo‘lib, bu ularning mehnat bozoriga kirishini sekinlashtiradi .

2. Yosh ishsizligi, korrupsiya va siyosiy barqarorlik.UNDP va ilmiy maqolalar tahlillari shuni ko‘rsatadiki:Korrupsiya va yuqori yoshlar ishsizligi darajasi birga bo‘lgan davlatlarda siyosiy beqarorlik xavfi sezilarli darajada ortadi .

3. Yevropa Ittifoqi amaliyoti .Transparency International tomonidan e’lon qilingan “Eng yaxshi amaliyotlar” hisobotida:Maktab va kampuslarda antikorrupsiya ta’limi orqali yoshlar savodxonligi oshiriladi.Bunday yondashuv natijasida ishtirokchilar orasida korrupsiya holatlarini +30–40 % aniqlash imkoniyati yuzaga kelgan .

4. Korrupsiya va jinoyatchilik bog‘liqligi. Huaiyu Zhang (Xitoy) tadqiqotida:Korrupsiyaning yuqori darajasi bilan bir qatorda yoshlar nisbati yuqori bo‘lgan davlatlarda jinoyatchilik darajasi ham oshgan. Bu hol ko‘proq jinoyat statistikalariga asoslanib tasdiqlangan .Buni quyidagi jadval asosida tahlil qilishimiz ham mumkin:

Empirik kuzatuv	Natija	Ahamiyati
Bouzid(2016)	Korrupsiya +10% /yosh ishsizligi +1,5-2%	Mehnat bozori adolatsizligi aniqlanadi
UNDP tadqiqoti	Korrupsiya +ishsizlik/siyosiy barqarorlik	Ijtimoiy xavfni oshiradi
EU amaliyoti	Antikorrupsiya ta’limi/muammolarni anqilash +30-40%	Ilmiy asoslangan profilaktika
Zhang(Xitoy)	Korrupsiya va yosh nisbati/jinoyatchilik o‘sishi	Yirik integratsion muammo

Yuqoridagi empirik kuzatuvlarga asoslanib quyidagi takliflarni ilgari surish darkor:

1. Mehnat huquqi va korrupsiyaga qarshi kurslarni oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalariga kiritish.

2. Elektron ishga qabul platformalarini keng joriy etish orqali monitoringni kuchaytirish.

3. Yoshlar antikorrupsiya tashabbuslarini hududiy va milliy grantlar dasturlari bilan qo‘llab-quvvatlash.

4. Jamoatchilik tahlili va interaktiv platformalar orqali kadr tanlovidagi korrupsiyani real vaqtda kuzatib borish.

Xulosa. Mehnat sohasida korrupsiya nafaqat iqtisodiy, balki axloqiy va ijtimoiy muammo sifatida yosh avlodning salohiyatini cheklaydi. Ushbu muammoni hal etishda yoshlarning huquqiy bilimini oshirish, ularning nazoratdagi ishtirokini kuchaytirish, ochiqlik va shaffoflikka asoslangan tizimlarni joriy etish zarurdir. Korrupsiyaga qarshi kurashda yoshlar — muammo emas, yechim egasi sifatida qaralishi lozim.Zero,mehnat huquqining kafolatlarini kuchaytirish uchun qonunlar to‘liq bajarilishi, barcha ishga qabul qilish va ish faoliyati qonuniy asosda amalga oshirilishi shart. Ish beruvchilar va xodimlar o‘rtasidagi shartnomalar shaffof va huquqiy asosda tuzilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi(2023-yilgi tahrir

2. ILO. (2023). World Employment and Social Outlook: Trends 2023. Geneva: International Labour Organization.

3. UNODC. (2022). Global Report on Corruption in Public Sector Employment. New York: United Nations Office on Drugs and Crime.

4. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar.

5. Karimova, N. (2022). “Mehnat huquqining xalqaro standartlari va O‘zbekistonda ularning amalga oshirilishi”. Yuridik fanlar jurnali, №4.

6. Xujamkulov, B. (2021). “Yoshlarning huquqiy ongi va korrupsiyaga qarshi kurash”. Adolat va qonun, №7.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA OILAVIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

G‘ulomjonov Odiljon Ragimjon o‘g‘li
Andijon davlat universiteti Tadqiqotchisi

Annotasiya: Yangi O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar ijtimoiy institut sifatida jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaning institut sifatidagi falsafiy talqini ijtimoiy hamkorlik, qadriyatlar barqarorligi va taraqqiyot strategiyalaridagi roli orqali tahlil qilinadi. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlarning institutsional tabiati, ularning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy talqini, shuningdek, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida oilaviy institutning o‘rni ham ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Jamiyat, oila, dezinformatsiya, ijtimoiy ong, taraqqiyot strategiyasi

Raqamli transformatsiya sharoitida oilaviy qadriyatlarning saqlanishi va ozgarish jarayonlari ham alohida muhokama qilinib, yangi texnologiyalar va axborot vositalari oilaviy hayotga qanday tasir korsatishi organilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy qadriyatlar doimiy dinamik rivojlanish jarayonida bo‘lib, ular jamiyatning umumiy sotsiokulturni evolyutsiyasi bilan uzviy bogliqdir. Shu bilan birga, raqamli muhitning

oilaviy barqarorlikka salbiy tasir qilishi ehtimoli ham mavjud bolib, bu borada muayyan choralar korish lozimligi takidlangan.

Dezinformatsiya zamonaviy jamiyatda eng dolzarb muammolardan biri bolib, u oilaviy munosabatlarga salbiy tasir korsatishi mumkin. Ushbu bolimda dezinformatsiyaning mohiyati falsafiy-axborot nazariyalari nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilingan. Shu bilan birga, raqamli kommunikatsiyalar muhitida dezinformatsiyaning tarqalish shakllari va usullari tadqiq etilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, dezinformatsiya nafaqat ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish vositasi, balki oilaviy barqarorlikka putur yetkazuvchi omil sifatida ham namoyon bolishi mumkin. Ayniqsa, oilaviy ijtimoiylik va axborot makonida dezinformatsiyaning jamiyat barqarorligiga tasiri murakkab sotsiokulturaviy hodisa sifatida organilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni korsatadiki, notogri malumotlar tarqalishi natijasida oila azolari orasida ishonchsizlik vujudga kelib, bu oilaviy muhitga salbiy tasir otkazishi mumkin.

Dezinformatsiya oilaviy munosabatlarga ta’sir o‘tkazish xavfini kamaytirish uchun turli strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Ushbu bolimda oila institutini dezinformatsiya tasiridan himoya qilishning konseptual yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda dezinformatsiyaga qarshi kurash tamoyillari organilib, oilaviy muhitda media savodxonlikning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni korsatadiki, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va dezinformatsiyadan himoya qilishda axborot madaniyatini rivojlantirish, media savodxonlik darajasini oshirish hamda jamiyatda tanqidiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlarni dezinformatsiya xavfidan himoya qilish bo‘yicha taklif qilingan strategiyalar oilaviy institutning barqarorligini taminlash va uning sotsiokulturni mustahkamligini oshirishda muhim omil bolib xizmat qilishi mumkin.

Yangi O‘zbekistonda oila instituti jamiyat barqarorligi va ma’naviy rivojlanishining muhim omili sifatida qaraladi. Biroq, globallashuv sharoitida axborot oqimlarining keskin ortishi natijasida dezinformatsiya hodisasining oila munosabatlariga tasiri tobora kuchayib bormoqda. Ushbu

dissertatsiyada dezinformatsiyaning oilaviy qadriyatlarga tasirini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali uning mohiyati, tarqalish mexanizmlari va salbiy oqibatlari har tomonlama yoritilgan.

Oila instituti ijtimoiy ong va axloqiy meyorlarning shakllanishida markaziy orin egallaydi. Shu bois, dezinformatsiyaning oilaviy muhitga kirib borishi nafaqat shaxsiy munosabatlarga, balki jamiyatning umumiy axloqiy va manaviy tuzilishiga ham tasir korsatadi. Xususan, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan notogri malumotlar oilaviy ishonchsizlik, ajralish holatlari ortishi, ananaviy qadriyatlarning zaiflashishi kabi jarayonlarni jadallashtirishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni korsatadiki, dezinformatsiyaning tasirini kamaytirish va oilaviy barqarorlikni taminlash uchun tizimli yondashuv zarur. Ushbu masalaning yechimi sifatida jamiyatda axborot madaniyatini yuksaltirish, media savodxonlikni oshirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlovchi strategiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, dezinformatsiyaga qarshi kurashishda milliy mafkuraviy immunitetni shakllantirish, axborot xavfsizligini taminlash va oilaviy munosabatlarning mustahkamligini oshirish boyicha davlat siyosati doirasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Bu jarayonda zamonaviy texnologik vositalardan foydalanish, ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini kuchaytirish va ijtimoiy kommunikatsiya tizimlarini mustahkamlash orqali oilalarning dezinformatsiyaga qarshi immunitetini shakllantirish lozim.

Yangi O‘zbekistonda oilaviy munosabatlarning barqarorligi milliy taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri sifatida namoyon bolib, uning mustahkamligini taminlash uchun dezinformatsiya tahdidlariga qarshi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish strategik ahamiyatga ega. Mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan ilmiy asoslar va takliflar oilaviy qadriyatlarni asrash va mustahkamlash yolidagi muhim qadam bolib xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot makonining keskin ozgarishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi oilaviy munosabatlarga bevosita tasir otkazuvchi dezinformatsiya fenomenining kengayishiga olib kelmoqda. Oila institutining barqarorligi jamiyatning sotsiomadaniy rivojlanishining muhim sharti bolib, dezinformatsiyaning oilaviy

qadriyatlar, gender munosabatlari va avlodlararo aloqalarga salbiy tasiri ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan jiddiy tahlilni talab etadi. Mazkur tadqiqotda Yangi Ozbekiston sharoitida dezinformatsiyaning oila institutiga korsatadigan tahdidlari, uning tarqalish mexanizmlari va unga qarshi kurash strategiyalarining ilmiy asoslari ochib berilgan.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqotlar shuni korsatadiki, dezinformatsiya oilaviy munosabatlarning zaiflashishiga, ananaviy qadriyatlarning erozion jarayoniga, avlodlar ortasidagi ishonchning pasayishiga va jamiyatda ijtimoiy ajralishning ortishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli media vositalari orqali notogri malumotlarning tarqalishi jamiyatda yolgon xabarlarni real fakt sifatida qabul qilishga moyillikni kuchaytirib, oilaviy nizolar, ijtimoiy ajralish va manaviy beqarorlikka sabab bolmoqda. Bunday sharoitda axborot madaniyatini yuksaltirish, media savodxonlikni oshirish va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash ijtimoiy taraqqiyotning ustuvor yonalishlaridan biri sifatida etirof etiladi. Mazkur tadqiqotda dezinformatsiyaning ijtimoiy falsafiy mohiyati, uning jamiyatda kechayotgan kommunikatsion jarayonlardagi orni, shuningdek, oilaviy munosabatlarga nisbatan axborot manipulyatsiyasi orqali amalga oshirilayotgan tasir mexanizmlari tizimli yondashuv asosida organilgan. Olingan ilmiy natijalar shuni korsatadiki, oilalarni dezinformatsiya tasiridan himoya qilish uchun huquqiy, madaniy, axborot-kommunikatsion va talimiy yondashuvlarni oz ichiga olgan kompleks strategiyani ishlab chiqish zarur. Jumladan, milliy axborot siyosati doirasida oilaviy qadriyatlarni asrashga qaratilgan kommunikatsion mexanizmlar shakllantirilmogi, shaxsning media madaniyatini rivojlantirish boyicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanda qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF–4947-son

3. Jabborov I. Ozbeklar turmush tarzi va madaniyati. - Toshkent:Oqituvchi, 2003.

МЕСТО МЕДИАТИВНОГО СОГЛАШЕНИЯ В СИСТЕМЕ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫХ ДОГОВОРОВ

Халлакова Азиза Баходировна
Самостоятельный соискатель ТГЮУ

Процедура медиации является относительно новым правовым институтом для правовой системы Узбекистана. Хотя элементы примирения и посредничества существовали в традициях узбекского общества и в советском праве, современная концепция медиации, соответствующая международным стандартам, начала развиваться относительно недавно. С принятием закона «О медиации» от 3 июля 2018 года № ЗРУ 482 началось развитие рассматриваемой примирительной процедуры в узбекском законодательстве.

Этот закон заложил основу для современного правового регулирования медиации в Узбекистане. До этого были отдельные попытки внедрения медиативных практик, но они не имели системного характера и четкой правовой базы.

Несмотря на то, что примирительные процедуры существовали и ранее, они не соответствовали современному пониманию медиации как добровольного, конфиденциального и структурированного процесса, осуществляемого нейтральным посредником. Закон «О медиации» определил эти принципы и требования к медиаторам.

Внедрение медиации потребовало изменений в судебной системе и сознании юристов и граждан. Необходимо было обучить медиаторов, создать центры медиации и сформировать культуру использования медиации как альтернативы судебному разбирательству.

Таким образом, хотя элементы посредничества и примирения существовали в узбекской правовой системе и раньше, институт медиации в его современном понимании, с четкими правилами, профессиональными медиаторами и правовым регулированием, является относительно новым и активно развивается в последние годы.

Принятие Закона «О медиации» стало отправной точкой для формального внедрения этого института в правовую систему Узбекистана.

Однако, законодатель не реализовал значительную часть потенциала процедуры медиации, что негативно сказывается на распространении медиативных практик.

Несмотря на усилия по развитию медиации, существуют факторы, которые замедляют ее распространение:

Недостаточная осведомленность населения и бизнеса о преимуществах медиации и о том, как она работает. Многие до сих пор предпочитают обращаться в суд по привычке, не зная о возможности более быстрого и менее затратного решения спора.

Отсутствие достаточного доверия к медиаторам как к нейтральным и компетентным посредникам. Это может быть связано с нехваткой квалифицированных и сертифицированных медиаторов, а также с отсутствием единых стандартов качества медиации.

Недостаточная развитость инфраструктуры для медиации, включая наличие специализированных центров медиации, подготовленных медиаторов и учебных программ.

В Узбекистане нет обязательной медиации для определенных категорий споров. Это ограничивает возможности для широкого применения медиации, особенно в тех случаях, когда стороны не готовы добровольно прибегнуть к этому методу. (В некоторых странах введена обязательная попытка медиации перед обращением в суд)

Традиционное предпочтение судебного решения споров, а также особенности менталитета, такие как нежелание идти на компромисс и признавать свою неправоту, могут препятствовать использованию медиации.

Несмотря на наличие Закона «О медиации», в нем могут существовать пробелы и неясности, которые затрудняют его применение на практике.

Недостаточная поддержка со стороны государства: хотя государство поддерживает развитие медиации, необходимо усилить эту поддержку путем предоставления финансовой помощи, организации обучения для медиаторов, проведения информационных кампаний и разработки механизмов стимулирования использования медиации.

Некоторые стороны опасаются, что в процессе медиации они потеряют контроль над ситуацией и будут вынуждены пойти на уступки, которые им невыгодны.

Некоторые юристы недооценивают возможности медиации и не рекомендуют ее своим клиентам, опасаясь потерять доход от судебного процесса.

Для преодоления этих проблем необходимо принять комплекс мер, направленных на повышение осведомленности, развитие инфраструктуры, повышение квалификации медиаторов, совершенствование законодательства и стимулирование использования медиации со стороны государства и общества. Это позволит в полной мере реализовать потенциал медиации в Узбекистане и сделать ее эффективным инструментом для разрешения споров и укрепления правовой культуры.

Сущность медиации является урегулирование споров посредством обращения к нейтральному третьему человеку, который поспособствует достижению оптимального результата для сторон спорного правоотношения.

Правовым итогом процедуры медиации является заключение медиативного соглашения.

Для успешного внедрения процедуры медиации в отечественное правовое поле необходимы тщательный правовой анализ и теоретическая разработка комплекс мер охватывающих законодательную, образовательную, информационную и

организационную сферы, которые претворил в жизнь Закон о медиации.

В этой связи наибольший интерес, вызывает медиативное соглашение.

Правовая природа медиативного соглашения вызывает немало споров в юридической среде. В то же время — это уникальный процесс в каждом конкретном случае. Так как в каждом случае поиск индивидуальных решений.

В результате успешно проведенной процедуры медиации стороны заключают медиативное соглашение.

В соответствии с ст.4 Закона “О медиации”, медиативное соглашение – это соглашение сторон медиации, достигнутое в результате применения медиации.

Медиативное соглашение может охватывать не только предмет первоначальных требований, но и выходить за его пределы Стороны не ограничены способами урегулирования спора, поэтому могут использовать нетипичные решения.[49]

Этот факт вносит некоторые трудности для юридической квалификации медиативных соглашений.

Калашникова С.И. пишет, что “в процедуре медиации учитываются как правовые, так и иные основания спора, соответственно, соглашение конструируется с учетом всех возможных аспектов и может включать юридически не значимые, но важные для сторон условия”.[50]

Иногда делаются попытки привязки медиативного соглашения к конкретной отрасли права: “Природа “медиативного соглашения”, достигнутого до передачи дела в суд, определена как гражданско-правовая сделка, направленная на установление, изменение или прекращение прав и обязанностей сторон”.[51]

Для понимания правовой природы медиативного соглашения необходимо различать медиативные соглашения:

---

[49] Каменков В.С. Медиативное соглашение: правовая природа и значение. Журнал российского права. 2015. № 8. С.59.

[50] Калашникова С.И. Указ соч. С. 121.

[51] Каменков В.С. Медиативное соглашение: правовая природа и значение. Журнал российского права. 2015. № 8. С

- заключенные до передачи дела в суд,
- заключенных по делу, находящемуся в рамках судебного разбирательства.

В первом случае соглашение в рамках медиации приравнивается к гражданско-правовой сделке.

Во втором случае соглашение, достигнутое сторонами после рассмотрения спора судом, может быть утверждено в качестве мирового соглашения.

И такой подход по праву считается противоречивым. Ведь медиативное соглашения в широком смысле слова не должно противоречить закону, но и не может быть свзяно рамками закона, регулирующего определенную сферу общественных отношений.

В соответствии с ст.3 Закона “О медиации”, действия настоящего Закона распространяется на отношения, связанные с применением медиации к спорам, возникающим из гражданских правоотношений, в том числе в связи с осуществлением предпринимательской деятельности, а также индивидуальным трудовым спорам и спорам, возникающим из семейных правоотношений, если законом не предусмотрено иное.

Соответственно возникает вопрос: а какое значение имеет медиативное соглашение, достигнутое в результате разрешения трудового спора без участия суда? Признать его гражданско-правовой сделкой невозможно. Так как гражданское законодательство регулирует имущественные и личные неимущественные отношения.

А трудовые отношения — это отношения, основанные на соглашении между работником и работодателем о личном выполнении работником трудовой функции (работы по должности, профессии или специальности либо конкретного вида поручаемой ему работы) за заработную плату. Работник, вступивший в трудовые отношения, обязан подчиняться правилам внутреннего трудового распорядка, а работодатель обязан обеспечить ему условия труда в соответствии с законодательством, коллективным или индивидуальным трудовым договором.[52]

[52] https://ru.wikipedia.org/wiki

Но, с другой стороны, чрезмерная формализация и регламентация медиативных процедур и правил, в том числе попытка жёстко привязать их конкретной отрасли права, могут свести сущность самой медиации и её потенциала к нулю.

Следовательно, в ТК РУз необходимо определить, каков статус медиативного соглашения, заключённого по трудовому спору, и каковы последствия неисполнения сторонами данной договорённости.

Таким образом, медиативное соглашение имеет комплексный характер и может сочетать различные способы урегулирования спора, содержать обязательства различной правовой природы, а также включать юридически не значимые, но важные для сторон условия.[53]

Потому что медиативное соглашение может опираться не только на нормы права, но и на неправовые категории, такие как справедливость, мораль, этика, обычаи и т.д.

Место медиативного соглашения в системе гражданско-правовых договоров можно определить следующим образом:

Медиативное соглашение является разновидностью гражданско-правового договора. Это означает, что к нему применимы общие положения Гражданского кодекса (ГК) Узбекистана о договорах, такие как свобода договора, обязательность исполнения, ответственность за нарушение и т. д.

Как любой договор, медиативное соглашение заключается на основе добровольного соглашения сторон. Никто не может быть принужден к заключению медиативного соглашения.

Объектом медиативного соглашения является урегулирование спора или разногласия между сторонами. Это отличает его от обычных договоров, направленных на установление, изменение или прекращение гражданских прав и обязанностей.

Предметом медиативного соглашения могут быть различные вопросы, вытекающие из гражданских, трудовых, семейных и других правоотношений, если иное не предусмотрено законом.

Медиативное соглашение, как и любой договор, является основанием для возникновения гражданских прав и обязанностей у

[53] Каменков В.С. Указ соч. С. 60.

сторон. Стороны обязаны исполнять условия, предусмотренные в медиативном соглашении.

В случае неисполнения медиативного соглашения, сторона, чьи права нарушены, может обратиться в суд для принудительного исполнения соглашения.

Наличие медиатора: в отличие от большинства гражданско-правовых договоров, медиативное соглашение заключается при участии медиатора, который оказывает содействие сторонам в урегулировании спора.

Медиативное соглашение заключается в результате проведения процедуры медиации, которая регулируется Законом «О медиации».

Связь с судебным процессом: если спор находится на рассмотрении в суде, то заключение медиативного соглашения может повлечь за собой прекращение судебного производства.

Медиативное соглашение не является каким-то особым видом договора, который стоит над другими гражданско-правовыми договорами. Оно является одним из видов договоров, который регулируется общими положениями ГК и специальными нормами Закона «О медиации».

Однако, медиативное соглашение имеет особый статус, если оно утверждено судом. В этом случае оно приобретает силу судебного решения и подлежит принудительному исполнению в порядке, установленном для исполнения судебных решений.

В заключение:

Медиативное соглашение — это гражданско-правовой договор, направленный на урегулирование спора при содействии медиатора. К нему применимы общие положения ГК о договорах, но с учетом особенностей, связанных с процедурой медиации и ее целью. Медиативное соглашение является важным инструментом для альтернативного разрешения споров и способствует снижению нагрузки на судебную систем

Процедура медиации в Узбекистане играет все более важную роль в разрешении споров и снижении нагрузки на судебную систему. Ее роль заключается в следующем:

Медиация предоставляет альтернативный способ разрешения конфликтов вне судебного процесса. Это позволяет сторонам самостоятельно прийти к взаимовыгодному решению, контролируя процесс и результат.

Медиация помогает уменьшить количество дел, поступающих в суды, позволяя судебной системе сосредоточиться на более сложных и требующих судебного вмешательства случаях.

Медиация способствует укреплению доверия между субъектами экономической деятельности, позволяя им решать споры более оперативно и конфиденциально, что положительно сказывается на инвестиционной привлекательности страны.

Медиация может применяться для разрешения семейных, трудовых и других социальных конфликтов, способствуя сохранению и укреплению социальных связей. Медиация формирует культуру диалога и сотрудничества в обществе, обучая стороны находить компромиссы и учитывать интересы друг друга.

В целом, медиация рассматривается как эффективный инструмент для достижения справедливости, снижения затрат на разрешение споров, сохранения деловых и личных отношений, а также для развития правовой культуры в Узбекистане.

Список литературы:

1. Каменков В.С. Медиативное соглашение: правовая природа и значение. Журнал российского права. 2015. № 8. С.59.
2. Калашникова С.И. Указ соч. С. 121.
3. Каменков В.С. Медиативное соглашение: правовая природа и значение. Журнал российского права. 2015. № 8. С.60.
4. https://ru.wikipedia.org/wiki

UY QAMOG‘INI IJRO ETISHDAGI AYRIM MUAMMOLAR VA AMALIYOTDA ADOLATLI QO‘LLASH JIHATLARI

Kamilxanov Jamshidxon Kamilxanovich
O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

Uy qamog‘i protsessual ehtiyot chorasi sifatida jinoiy-protsessual majburlashning muhim va dolzarb vositalaridan biri hisoblanadi [1]. Har yili dunyoda uy qamog‘i 100 ming martadan ortiq qo‘llanishiga qaramay, sudlar tomonidan ushbu ehtiyot chorasini qo‘llagan shaxslar soni ortib bormoqda. Bunga yaqqol misol sifatida, 2023-yilda ushbu chorani qo‘llash holatlari soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14 foizga o‘sganini ko‘rsatish mumkin [2].

Uy qamog‘i va uni qo‘llashning huquqiy asoslari davlatning jinoiy va jinoyat-protsessual siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi – Jinoyat-ijroiya tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ham aks etib boradi.

Konsepsiyalarning asosiy maqsadlaridan biri – xalqaro majburiyatlar va umume’tirof etilgan xalqaro huquq normalariga muvofiq, jinoiy jazolarni ijro etish hamda ehtiyot choralarini amalga oshirish sohasida huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish hisoblanadi[3].

Afsuski, amaliyot ko‘rsatmoqdaki, hozirgi vaqtda uy qamog‘ini qo‘llashda bir qator tashkiliy va huquqiy muammolar mavjud. Quyida ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Huquqiy muammolardan biri – qonun hujjatlaridagi baho berishni talab qiluvchi va mazmunan noaniq kategoriyalarning mavjudligi. Bu esa uy qamog‘i shartlariga rioya qilishdan bo‘yin tovlash yoki nazoratni amalga oshirishni qiyinlashtiradi. Masalan, qonunchilikda qayd etilgan «audiovizual, elektron va boshqa texnik nazorat vositalari faoliyatiga xalal beruvchi harakatlar» tushunchasiga kiruvchi “boshqa harakatlar” nimalardan iborat ekani aniq belgilanmagan. Bu esa nomuayyanlikka olib keladi [4].

Tashkiliy muammolardan biri – gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan belgilangan taqiqlarga rioya etilishini nazorat qilishning samarali mexanizmi mavjud emasligi. Hozirgi kunda jinoyat-ijroiya inspeksiyalarida nafaqat texnik, balki huquqiy jihatdan ham yashash joyidagi aloqalarni (masalan, tinglash, kuzatish) monitoring qilish imkoniyati yo‘q.

Yana bir muhim muammo – uyda bo‘lgan holda ma’lum shaxslar bilan muloqot qilish kabi cheklovlarni buzganlikni isbotlashdagi qiyinchiliklardir. Bundan tashqari, jinoyat-ijroiya inspeksiyalari xodimlari bugungi kunda nazoratda bo‘lgan shaxslarning pochta-telegraf yozishmalari, telefon va internetdan foydalanishi haqida ma’lumot olish huquqiga ega emas. Bunday huquqiy va amaliy muammolar uy qamog‘ini qo‘llash orqali belgilangan maqsadlarga to‘liq erishishga to‘sqinlik qiladi.

Uy qamog‘i kabi ehtiyot choralarini jinoyat-protsessual amaliyotida qo‘llash bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinganda uning huquqiy tartibga solishda ham kamchilik mavjudligi va huquqiy bo‘shliqlar borligi ma’lum bo‘ladi.

Bu borada, xorij tajribasi o‘rganilganda (Rossiya federatsiyasi misolida) ularning Konstitutsiyasining 2-moddasiga muvofiq, inson, uning huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanib, ularni himoya qilish davlatning burchi etib belgilangan.

Shuningdek, har bir shaxsning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqidir. Bu huquq yuqorida qayd etilgan konstitutsiyaviy qoidalarga asosan, jinoyat-protsessual faoliyatni amalga oshiruvchi organlar, jumladan, Ichki ishlar vazirligiga qarashli tergov organlari tomonidan kafolatlanishi lozim.

Ehtiyot choralari — bu jinoyat-protsessual qonun bilan belgilangan va ayblanuvchining erkinligini jiddiy darajada cheklovchi majburlov choralaridir.

V.V. Klimovning fikricha, ehtiyot choralari majburiy xususiyatga ega bo‘lib, shaxsga psixologik yoki jismoniy ta’sir ko‘rsatadi, uning mol-mulkiy huquq va manfaatlarini cheklaydi.

Rossiyada ehtiyot choralari ularning qattiqlik darajasiga ko‘ra iyerarxik tizimga ajratilgan holda belgilab qo‘yilgan. Ular ichida eng qattiq

chora — qamoqqa olish — qonunchilikda istisno hol sifatida belgilangan. Amaliyotda tergovchilar, aksar hollarda, ushbu moddada nazarda tutilgan barcha ehtiyot choralaridan faqat ikkitasini: «ketmaslik va to‘g‘ri xulq-atvor haqida tilxat» hamda «qamoqqa olish» choralarini qo‘llash bilan cheklanishmoqda. Uy qamog‘i kabi ehtiyot choralari yetarlicha qo‘llanilmayotgani ayon bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun bunday choralarni qo‘llash doirasini kengaytirish zarurati tug‘ilmoqda. Biroq, bu choralarni tanlash imkonini beradigan protsessual asoslarning huquqiy tartibga solinishida muayyan kamchiliklar mavjudligi ta’kidlanishi lozim.

Bunday ehtiyot choralarini afzal tomoni shundaki, u shaxsning shaxsiy erkinligini cheklamaydi, davlatga tergov hibsxonalarida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchilarni saqlash uchun byudjet mablag‘lari sarflashga zarurat qolmaydi, shaxsning ruhiy yoki ijtimoiy buzilishlarga uchramaydi, mehnat faoliyatini davom ettirishi, oilasini ta’minlashi, sodir etilgan jinoyat ortidan kelib chiqqan moddiy va ma’naviy zararni qoplashi mumkin. Agar shaxs uy qamog‘i bilan bog‘liq majburiyatlarni buzsa, tergov va sud organlaridan qochsa, u moddiy yo‘qotishlarga uchraydi. Shu o‘rinda, savol tug‘iladi: nega bu kabi ijobiy jihatlarga qaramay, uy qamog‘i kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi?

Bunda, ayrim protsessual huquqshunoslarning tanqidiy fikriga qo‘shilish lozim: jinoyat-protsessual qonunning yangilangan tahriri Rossiyadagi jiddiy ijtimoiy tengsizlik va moliyaviy farqlarni yanada yaqqollashtirishi mumkin. Uy qamog‘i shaklidagi ehtiyot chorasini qo‘llash shunday noxush holatga olib kelishi ehtimoldan xoli emas: bunday amaliyot mamlakatda ijtimoiy keskinlikning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Uy qamog‘i – shaxsning aniq bir manzilda erkin harakatlanishini cheklash shaklidagi ehtiyot chorasi bo‘lib, uy qamog‘i ayblanuvchi tomonidan jinoyatning yangi holatlarini sodir etishining oldini olish, guvohlar yoki jabrlanuvchilarga ta’sir o‘tkazish imkonini cheklash maqsadida qo‘llaniladi. Ammo bu choraning samarali qo‘llanilishi uchun zamonaviy elektron kuzatuv vositalari (masalan, elektron brasletlar) talab etiladi. Amalda esa texnik jihozlar yetishmasligi, elektron nazorat tizimining hududlarda noteng tarqalganligi tufayli, ko‘p hollarda uy qamog‘ini nazorat qilish muammolari yuzaga keladi.

Shuningdek, uy qamog‘iga olingan shaxslar tomonidan belgilangan cheklovlarga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha aniq mexanizmi mavjud emas. Bu esa ayblanuvchi tomonidan uy qamog‘i shartlarini buzish ehtimolini oshiradi. Shuningdek, ayrim sudlar uy qamog‘ini jinoyatning og‘irligiga qarab emas, balki shaxsiy ishonch asosida belgilaydi. Bu esa huquqni qo‘llashda yakdillikni buzadi.

Xullas, qamoqqa olishga nisbatan alternativ choralarni qo‘llash amaliyotida qonuniy va amaliy kamchiliklar mavjud. uy qamog‘i choralarini qo‘llashda shaffof va bir xil mezonlarni joriy etish, elektron nazorat vositalarini keng joriy qilish, shuningdek, sud amaliyotida bir xil yondashuvni ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

Shu bois, O‘zbekistonda qamoqqa olishga nisbatan alternativ choralar — xususan, uy qamog‘ini samarali va adolatli qo‘llash uchun qonunchilikni takomillashtirish, elektron nazorat vositalarini keng joriy etish, sud amaliyotida yakdil mezonlarni belgilash va ijtimoiy adolatni ta’minlashga xizmat qiluvchi yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: «Adolat», 2023. – 242¹-modda.
2. Sud departamenti pri Verxovnom Sude Rossiyskoy Federatsii. Yejegodniy otchet o deyatelnosti sudov obshey yurisdiksii za 2023 god. – M.: Suddep RF, 2024. – [Statistika bo‘limi].
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 28 oktabrdagi 621-son qarori bilan tasdiqlangan “Jinoyat-ijroiya tizimini 2022–2026 yillarda rivojlantirish konsepsiyasi” // www.lex.uz.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 5 dekabrdagi 813-son qarori bilan tasdiqlangan “Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” // www.lex.uz.

ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI TIZIMIDAGI TA’LIM MUASSASALARINING O‘ZINI-O‘ZI MOLIYALASHTIRISH ZARURATI

Qulmurodov Ulug‘bek Islomovich
Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Milliy va xorijiy davlatlar statistikasi tahlili boshqa davlat organlariga qaraganda politsiya idoralarida xizmat o‘tayotgan xodimlar soni nisbatan ko‘p ekanligini ko‘rsatmoqda. BMT tahliliga ko‘ra dunyo bo‘ylab har 100 ming kishiga 368,9 nafar politsiya xodimi to‘g‘ri keladi [1]. Bu ko‘rsatkich Turkiyada 521,5, Rossiyada 404,4, Italiyada 408,6, Qozog‘istonda 383 nafarni, O‘zbekistonda esa 285,7 nafarni tashkil etmoqda. Politsiya xodimlarini o‘qitish va kasbga tayyorlash iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlarni ham moliyaviy qiyinchilikga duchor qilmoqda. Politsiya xodimlarini tayyorlovchi ta’lim muassasalarining o‘zini o‘zi moliyaviy ta’minlash sohasini kengaytirish, pulli ta’lim va xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarini oshirish, asosiy faoliyatiga ta’sir ko‘rsatmaydigan tadbirkorlik va daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanishning fuqaroviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish va pirovardida budjet yuklamalarini qisqartirish butun dunyo mamlakatlarida dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Dunyo ta’lim bozorida shiddatli tus olayotgan kadrlar tayyorlashdagi raqobat kurashida faqatgina moslashuvchan va zamonaviy moddiy-texnik baza bilan ta’minlangan ta’lim muassasalarigina ishtirok eta oladi. Mazkur jarayonlarda faol qatnashish va yuqori natijalarga erishish maxsus kadrlarni o‘qitish hamda kasbga tayyorlaydigan IIV vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarining ham iqtisodiy jihatdan qudratli bo‘lishini taqazo etadi. Zero, ta’lim muassasalarining yetarli darajada va o‘z vaqtida moliyalashtirilishi uning rivojlanishi va mavjud bo‘lishini hamda muvofaqiyatli faoliyat yuritishini ta’minlaydigan muhim omil sanaladi.

Ta’lim sohasini global tarzda birinchilardan o‘rgangan sotsiologiya faxriy professori Clark, Burton R. ta’lim muassasalarida o‘zini-o‘zi moliyalashtirish zarurati vujudga kelganligini ta’kidlab, fanga «Enterpreneurial University» (“Tadbirkor universitet”) konsepsiyasini

kiritishni taklif qiladi [2]. Mazkur konsepsiyaning mohiyati, ta’lim muassasi bir vaqtning o‘zida ta’lim, ilmiy tadqiqot va innovatsion bilimlarni tijoratlashtirishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi.

Bugun dunyoda ta’lim muassasalarini faoliyatini rivoshlantirish bo‘yicha turli modellarning mavjud bo‘lishiga qaramay, O‘zbekiston sharoitida Clark, R. Burtonning “Tadbirkor universitet” konsepsiyasini joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, IIV tizimidagi ta’lim muassasalarining an’anaviy faoliyati dunyo ta’lim bozorining globallashuvi jarayonidagi talablarga mos kela olmayapti. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish” Konsepsiyasida “oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish” hamda “oliy ta’lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash” nazarda tutildi [3].

Shu bilan birga ilmiy manbalarda uchinchi avlod ta’lim muassasalarini shakllantirish bo‘yicha turli fikrlar bildirilgan. Mazkur konsepsiya tarafdorlari bo‘lgan AQShning tadqiqotchi va mutaxassis olimlaridan Schulte P., Thorp H., Goldstein B. va Ropke J. fikrlariga ko‘ra, tadbirkor universitetni rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim muassasalarini asosiy funksiyasini bajarishini cheklamaydi, aksincha o‘zini-o‘zi moliyalashtirishga ko‘mak beradi va budjet yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi [4]. Clark, Burton R.ning «Enterpreneurial University» konsepsiyasini yoqlamagan olimlar ta’lim muassasalariga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga imkon yaratish salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkinligini qayd etishadi. Xususan, N.Bunyakning fikricha, tadbirkorlik faoliyati ta’lim muassasasi uchun yashirin xavfni o‘zida mujassamlaydi. Ushbu holat shu bilan izohlanadiki, o‘qituvchilar resurslardan foydalangan holda, o‘zlarining tadbirkorlik loyihalarini amalga

oshirishga katta e’tibor qaratishadi va natijada bevosita majburiyati hisoblangan talabalarga (ta’lim berishga) e’tibor qaratmaydi. Pirovardida an’anaviy ta’lim berish hamda universitet uchun qo‘shimcha pul mablag‘larini ishlab topish uchun o‘qituvchi o‘zida tadbirkorlik faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi desa [5], A.A.Sidorova va N.A.Rumyansevlar Rossiyadagi mavjud amaliyotni tahlil qilgan holda, tadbirkor universitet mezoniga ta’lim muassasalarining mos kelmasligini qayd etgan holda, universitetlar tarixiy rivojlanish xususiyatiga ko‘ra ilmiy emas, balki asosan ta’lim berish funksiyasini bajarishga mo‘ljallangan. Shu sababli ular kadrlar tayyorlashga javob beradi, Fanlar Akademiyasi esa, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi. Ta’lim muassasalari u yoki bu faoliyat turini tanlashda erkinlik va mustaqillikka ega emas va qolaversa ularda tadbirkorlik madaniyati past va tajribasi yetishmaydi [6], deb hisoblashadilar.

Albatta yuqorida keltirilgan fikrlarning har bir o‘z asosiga ega. Biroq, bugun ta’lim xizmatlari fuqarolik huquqining ob’ekti sifatida o‘z o‘rnini topishga ulgurdi. Ta’lim muassasalarining pulli ta’lim va boshqa daromad keltiradigan faoliyati natijasida qo‘lga kiritayotgan mablag‘lari shu ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilayotganligini inobatga olgan holda davlat ta’lim muassasalari, shu jumladan IIV tizimidagi ta’lim muassasalari ham o‘quv jarayoniga xalaqit bermagan holda tadbirokorlik va doramad keltiradigan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari mumkin, deb hisoblaymiz.

Ilmiy izlanishlar tahlili IIV tizimidagi ta’lim muassasalari soni 20 nafardan oshganligi va ular turli tashkiliy-huquqiy shaklda (Akademiya, Institut, Litsey, Maktab, Markaz va boshq.) faoliyat yuritayotganligini ko‘rsatmoqda. Mazkur ta’lim muassasalarini «Universitet 3.0» konsepsiyasiga o‘tkazish avvalo ularning tashkiliy, huquqiy va boshqaruv faoliyatidagi mavjud an’anaviy usullarini isloh qilish zaruratini taqazo etadi. Shu o‘rinda, xalqaro ta’lim maydonida ma’lum bo‘lgan “Universitet 1.0”, “Universitet 2.0” va “Universitet 3.0” modellarining mohiyati va IIV tizimidagi ta’lim muassasalari aynan qaysi modelga yaqin ekanligi bo‘yicha fikr bildirishni o‘rinli deb hisoblaymiz. Ma’lumki, ta’lim muassasasining ilk tarixiy rivojlanish bosqichi “Universitet 1.0” modeliga to‘g‘ri keladi. Bunda

an’anaviy ta’lim berish ustuvor vazifa hisoblanadi. S.Adizovning bildirishicha, “Universitet 1.0 faqat ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanadi, u bilimlarni uzatish, kadrlar tayyorlash va ijtimoiy yuksalishni ta’minlashni amalga oshiradi” [7]. Ya’ni, “Universitet 1.0” modeli birinchi avlod universiteti hisoblanib, unda faqat ta’lim berish makoni mavjud. Universitet 2.0 modelidagi ta’lim muassasalari esa bir vaqtning o‘zida ikkita funksiyani: ta’lim berish va ilmiy tadqiqotni amalga oshiradi. “Uchinchi avlod universiteti” hisoblangan “Universitet 3.0” modelidagi ta’lim muasasasida esa o‘zini-o‘zi moliyalashtirish imkoni yuqori bo‘ladi, chunki u fan-ta’lim bilan bir qatorda innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyati bilan ham shug‘ullanadi. O.V.Narimanovaning ta’kidlashicha “Bunday universitet intellektual mulk huquqlarini boshqaradi, tadbirkorlik ekotizimi, istiqbolli texnologik bozorlarni shakllantiradi va jahon miqyosida mamlakatning iqtisodiy ustunligini yaratish platformasiga aylanadi. Aynan shu universitetlar zamonaviy texnologik inqilobning yuzini belgilaydi” [8].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ichki ishlar organlarini insonparvar politsiya tashkilotiga aylantirish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Ma’lumki, chorak asr mobaynida mazkur davlat organi maxsus qonuni bo‘lmagan holda muvaqqat nizom asosida faoliyat yuritdi. O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur sohadagi islohotlarning dastlabki bosqichi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoev “Agar davlat tayanadigan asosiy ustun qonun bo‘lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi” [9] deb ta’kidlagan edi. Darhaqiqat, ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi davlat organi sifatida bajaradigan aniq funksiya va vazifalarga ega. Ichki ishlar organlarining faoliyati esa ularda xizmat qilayotgan xodimlarning o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq xati-harakatlarida o‘z ifodasini topadi.

Ichki ishlar organlari uchun professional kasbiy bilim darajasiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash IIV tizimidagi ta’lim muassasalarining asosiy faoliyati hisoblanadi. Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’biri bilan aytganda “... ushbu idoralar hali xalqchil tuzilmaga, fuqarolarning chinakam

himoyachisiga aylangani yo‘q” [10]. Shu sababli, islohotlarni davom ettirib, ichki ishlar idoralarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish zarurligini va bu borada xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilishini muhim deb hisoblaymiz. Professor N.Kuldashev o‘z tadqiqotida “Bugungi kunda insonparvar politsiya tizimini yaratish davlatlar oldidagi muhim vazifadir. Bunda Daniya, Islandiya, Shveysariya, Gonkong, Luksemburg, Malta, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Portugaliya kabi davlatlarning politsiya faoliyati tajribasidan foydalanish ayni muddaodir” deb ta’kidlaydi [11]. Darhaqiqat, Xalqaro iqtisodiyot forumi har yili “Politsiya xizmatlarining ishonchliligi” (Reliability of police services) bo‘yicha hisobot taqdim etadi. Uning ma’lumotiga ko‘ra 2023-2024 yillarda ham yuqorida qayd qilingan davlatlar eng ishonchli politsiya tizimiga ega mamlakatlar qatorida ekanligi aytilgan [12].

Xorijiy davlatlarning politsiya tashkilotlariga kadrlarni tayyorlovchi ta’lim muassasalari statistikasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Rossiya Federatsiyasi IIV tizimida turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi ta’lim muassasalari mavjud bo‘lib, ular har yili 10 mingga yaqin ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlab beradi [13]. Mazkur ta’lim muassasalarining tashkiliy-huquqiy shakliga qaraydigan bo‘lsak, ulardan, 3 tasi universitet, 5 tasi akademiya, 11 tasi institut, 10 tasi filial, 2 tasi maktab va 6 tasi esa uchilishi maqomida [14]. Qozoqiston Respublikasi IIV tizimida 5 nafar oliy o‘quv yurti mavjud bo‘lib, shunda 3 tasi Akademiya va 2 tasi institut maqomidagi ta’lim mussasasi hisoblanadi [15]. Qirg‘iziston Respublikasi IIV tizimida 2 nafar ta’lim muassasasi mavjud bo‘lib, shundan 1 tasi Akademiya va 1 tasi yuridik shaxs maqomiga ega o‘quv markazi hisoblanadi [16]. Mazkur statistik ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimida faoliyat yuritayotgan ta’lim muassasalari son jihatdan hamda ichki ishlar organlari tizimi uchun kadrlar tayyorlash soni bo‘yicha ham yuqori o‘rinlarda turadi. Xususan, O‘zbekiston IIV tizimida 20 ta yuridik shaxs maqomiga ega ta’lim muassasasi faoliyat yuritadi va 10 mingdan ortiq xodimlar o‘qitiladi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida keltirilgan asoslar IIV tizimidagi ta’lim muassasalarining o‘zini-o‘zi moliyalashtirish zaruratini taqazo etmoqda. Zero, yangi avlod ta’lim muassasalarigina global ta’lim

jarayonlariga kirisha oladi. Chunki, an’anaviy ta’lim muassasalari zamon talablariga mos emas. Bugungi avlod ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirishni o‘rganishi zarur va bu esa davlat ta’lim muassasasiga o‘zini-o‘zi moliyalashtirish imkoniyatini yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://ru.wikipedia.org - Spisok stran po chislennosti politsii
2. Clark, Burton R. “Creating Enterpreneurial Universities: Organizational Pathways of Transormation. London and New York: International Association of Universities Press and Pergamon Elsevier Science”, 1998. 53-b.; Klark B. 3.R. Sozdanie predprinimatelskix universitetov: organizatsionnыe napravleniya transformatsii / per. s an. A. Smirnova; Gos. u–Vыsshaya shkola ekonomiki. – M.: izd. dom Gos. u–Vыsshey shkolы ekonomiki, 2011. – S. 240.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston yespublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni [Elektron manba] / URL: https://lex.uz/docs/4545884#4547902
4. Schulte P. “The entrepreneurial university: a strategy for institutional development” // Higher education in Europe. V.29. – P. 187-193; Thorp H., Goldstein B. The Entrepreneurial University // http://www.insidehighered.com/ views/ 2010/ 09/27/ thorp; Ropke J. The Entrepreneurial University: Innovation, academic knowledge creation and regional development in a globalized economy. N.Y., 1998.
5. Bunyak N.M. Predprinimatelskiy universitet: suщnost i osobennosti formirovaniya // Ekonomika i upravlenie. 2016. – №2. – S. 144-147.
6. Sidorova A.A., Rumyansev N.A. Predprinimatelskie universitetы: suщnost i tendensii razvitiya. –M., 2014. – S. 20-30. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2430627
7. Adizov, S. (2022). UNIVERSITETNI RIVOJLANTIRISh UChUN ZAMONAVIY MAQSADLAR. Iqtisodiyot Va ta’lim, 23(4), 278–283.
8. Narimanova O.V. Konsepsiya Universitet 3.0: perspektivы realizatsii v Rossii v usloviyax novoy texnologicheskoy revolyusii. //

Lichnost v menyayuщemsya mire: zdorove, adaptatsiya, razvitie: setevoy jurn. 2019. T. 7. № 2 (25).

9. Sh.M.Mirziyoev. Ichki ishlar organlari xodimlari va faxriylariga tabrik. URL: https://aniq.uz/yangiliklar/shavkat-mirziyoev-ichki-ishlar-organlari-xodimlarini-tabrikladi

10. «Bu idoralar xalqchil emas» — Prezident ichki ishlar organlari haqida URL: https://kun.uz/news/2020/01/24/bu-idoralar-xalqchil-emas-prezident-ichki-ishlar-organlari-haqida

11. Kuldashev N.A. Ichki ishlar organlari delikt munosabatlar sub'ekti sifatida. Yurid. fanlar dok. dis... (Doctor of Science) . – T., 2021. – B.143

12. Reyting stran po urovnyu nadejnosti politsii // URL: https://nonews.co/directory/lists/countries/reliability-police

13. https://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Obrazovatelnыe_uch rejdeniya_MVD_Rossii

14. Zakatov V.V. Podgotovka kadrov dlya organov vnutrennix del Rossiyskoy Federatsii: izmeneniya i novatsii // Trudы Akademii upravleniya MVD Rossii. 2014. №4 (32). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/podgotovka-kadrov-dlya-organov-vnutrennih-del-rossiyskoy-federatsii-izmeneniya-i-novatsii (data obraщeniya: 06.07.2024).

15. https://www.gov.kz/memleket/entities/qriim/activities/10766?lang=ru

16. https://mvd.gov.kg/rus/civil/colleges

MUDOFAA SOHASIDA HAMKORLIKNI TA’MINLASHDA JAMOATCHILIK KENGASHLARINING O‘RNI VA ROLI

Xoliqov Sarvar Mingishovich
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 24 oktabrda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzurida Jamoatchilik kengashini tuzish to‘g‘risida»gi PQ-1839-son Qaroriga muvofiq Jamoatchilik kengashi tashkil etilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 25 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali yig‘ilishda Mudofaa vazirligi huzurida tuzilgan Jamoatchilik kengashining xalq va armiya birdamligiga erishish yo‘lidagi sa’y-harakatlarini yuqori baholab, ushbu kengashning hududiy bo‘linmalarini tuzish orqali uning imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini aytib o‘tdilar.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 23 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3234-son Qarori bilan Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining nomma-nom tarkibi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi va viloyatlarda Jamoatchilik kengashi hududiy bo‘linmalarining Namunaviy tarkibi tasdiqlandi.

Shunga asosan viloyatlar hokimlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashining Qarorlari ishlab chiqilib, kengash a’zolarining nomma-nom tarkibi tasdiqlandi.

Qaror bilan tasdiqlangan Nizom asosida kengash a’zolarining vazifalari va majburiyatlari belgilab berildi.

Jamoatchilik kengashi Nizomida kengash tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan har 3 yilda tasdiqlanishi belgilangan.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PQ-5010-son Qarorining ilovasi bilan Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining nomma-

nom tarkibi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi va viloyatlar hokimliklarida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hududiy bo‘linmalarining Namunaviy tarkibi belgilab berildi.

Ushbu Qaror asosida viloyat hokimlarining Qarorlari imzolandi hamda kengashning hududiy bo‘linmalari a’zolarining tarkibi tasdiqlandi.

Jamoatchilik kengashi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-49-son Farmoni bilan yanada mustahkamlandi.

Farmonning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan namunaviy tarkibga mos holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimlarining tegishli qarori bilan Jamoatchilik kengashi hududiy bo‘linma a’zolarining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Jamoatchilik kengashining hududiy bo‘linmalari tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimlarining o‘rinbosari - Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshliqlari hududiy bo‘linma raisi etib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi 18 ta davlat va jamoat tashkilotlari rahbarlari hududiy bo‘linmalar a’zolari etib tayinlandi.

Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo‘linmalariga belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tuman va shahar hokimliklari hamda tegishli davlat organlari va tashkilotlari, harbiy okruglar va harbiy qism (muassasa)lar qo‘mondonliklari o‘rtasida yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2023-yil 27-apreldagi 355-sonli buyrug‘i imzolandi va ijroga qaratildi.

Ushbu buyruq bilan Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashining hududiy bo‘linmalari ishchi organlari rahbarlari ro‘yxati, shuningdek, Jamoatchilik kengashining hududiy bo‘linmalari bilan hamkorlikni tashkillashtirish bo‘yicha yo‘riqnoma tasdiqlandi.

Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi a’zolari asosiy lavozimlaridan kelib chiqqan holda 4 ta komissiya tarkibida faoliyat yuritmoqdalar.

Bular:

- Mudofaa va harbiy qurilish sohasida meyoriy-huquqiy va boshqa rasmiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish, jamoatchilik fikrini o‘rganib borish, jamoatchilik birlashmalari va Mudofaa vazirligi o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minlash Komissiyasi;

- Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoyasi hamda rezervga bo‘shatilgan fuqarolarning ish bilan bandligini ta’minlash, ularni ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlarining ijrosini tahlil qilish va bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatish Komissiyasi;

- Fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish tizimi hamda chaqiruvga qadar yoshlar va harbiy xizmatchilarning harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish Komissiyasi;

- Ommaviy axborot vositalari orqali mamlakatimizda olib borilayotgan harbiy qurilish hamda Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlar masalalariga doir tushuntirish ishlarini olib borish Komissiyasi.

Jamoatchilik kengashining 2024-yil 19-dekabr kuni yil yakunlariga bag‘ishlab o‘tkazilgan umumiy yig‘ilishida kengash Nizomida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 40 banddan iborat “Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2025- yil davomida belgilangan vazifalar asosidagi faoliyat ish rejasi” tasdiqlandi va ijroga qaratildi. Mazkur reja asosida kengashning hududiy bo‘linmalari o‘z rejalarini ishlab chiqdilar.

Shuningdek, hududiy bo‘linmalar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida kengash a’zolarini hududiy bo‘linmalarga biriktirish ro‘yxati tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevraldagi “Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-65-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Jamoatchilik kengashining

“Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo‘lidagi qahramonlik unutilmaydi” shiori ostida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

O‘tgan o‘n ikki yil mobaynida harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini, jangovar va milliy ruhini hamda jamiyatda harbiy xizmat nufuzini oshirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlariga salmoqli hissa qo‘shib kelayotgan Jamoatchilik kengashining faol a’zolari Mudofaa vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Qurolli Kuchlariga 25 yil”, “O‘zbekiston Qurolli Kuchlariga 30 yil” esdalik nishonlari, Mudofaa vazirining “Namunali xizmatlari uchun”, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar a’lochisi”, “Yosh avlodni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi faol ishtiroki uchun” ko‘krak nishonlari va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlanib kelmoqdalar.

Bugungi kunda, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan “Xalq va armiya – bir tanu bir jon” degan ezgu g‘oyani amalda ro‘yobga chiqarish borasida harbiy qism va muassasalarda, maktab, akademik litsey va mahallalar hamda boshqa tashkilotlarda qator tadbirlar, shuningdek, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish, ijtimoiy himoyasini ta’minlash, moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

DAM OLISH VAQTI VA TA’TILLAR: HODIMLARGA BERILADIGON TA’TILLARNING QANDAY TURLARI MAVJUD?

Odiljonov Elyor Doniyor o‘g‘li
Jamoat xavfsziligi universiteti 2-bosqich talabasi

Dam olish vaqti – bu xodimning mehnat majburiyatlaridan ozod bo‘lgan va o‘z ixtiyoriga ko‘ra foydalanishi mumkin bo‘lgan vaqt hisoblanadi. Ya’ni 5 kunlik ish haftasida ishlovchi xodimlar uchun haftada 2 kun, 6 kunlik ish kuni haftasida ishlovchi xodimlar uchun esa bir dam olish kuni beriladi.

5 kunlik va 6 kunlik ish haftasida ishlovchi xodimlar uchun umumiy dam olish kuni yakshanba hisoblanadi. Dam olish kunlarida xodimlarni ishga jalb qilish mumkin emas.

Afsuski jamiyatning ayrim yerlarida xodimlarni dam olish kunlari ham ishga jalb qilish hollari kuzatiladi. Bunday hollarda ish beruvchi tomonida xodimning ish vaqtidan tashqari yoki bayram kunlaridaishlagan taqdirda ular uchun ikki xissa haq to‘lanishi O‘zbekiston Respublikasining 2022- yil 28- oktabrda yangi tahrirda qabul qilinga “ Mehnat kodeksi”da belgilab qo‘yilgan.

Lekin uzluksiz ishlab chiqarish sharoitlarida yoki aholiga doimiy xizmat ko‘rsatish oqibatida dam olish kunlari ham ish bilan band bo‘lgan, shuningdek vaxta usulida ishlaydigan xodimlar uchun dam olish kunlari korxona,muassasa yoki tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalarida belgilandan holda haftaning boshqa kunlari dam olish kuni qilib belgilab beriladi.

Quyidagi bayramlar ishlanmaydigan bayram kunlari hisoblanadi :

- 1-yanvar - Yangi yil
- 8-mart – Xotin-qizlar kuni
- 21-mart – Navro‘z bayrami
- 9-may – Xotira va qadrlash kuni
- 1-sentar –Mustaqillik kuni
- 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni
- 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni
- Ro‘za hayit (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni
- Qurbon hayit (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchikuni.

Dam olish vaqti bir nechta turlarga bo‘linadi:

- Ish kuni davomidagi tanafuslar
- Har kungi dam olish
- Har haftalik uzluksiz dam olishlar

Bundan tashqari yuqorida takidlab o‘tkanimizdek, xodimning istagiga ko‘ra ko‘ra dam olish kuni yoki ishlanmaydigan dam olish kunlarida ishlaganlik uchun xodimga kompensatsiya sifatida taqdim etiladigan ishdan bo‘sh qo‘shimcha kunkar yoki qon topshirilgan har bir

kundan keyingi donorlarga beriladigan dam olish kunini dam olish kunining bir turi difatida e’tirof etsak bo‘ladi.

Bundan tashqari jahonning ko‘plab davlatlarida dam olish kunlari turlicha belgiladanadi. Bunga misol qilib dunyoda dam olish kuni bo‘yicha yuqori o‘rinda turuvchi davlatlarni ko‘rsatish mumkin.

Rossiyada dam olish kunlari 13 tani tahskil qiladi va bunga qo‘shimcha ravishda 28 kunlik mehnat ta’tili va haftaning barcha dam olish kunlarini qo‘shib hisoblaganda 2 oydan ko‘roq vaqtni keltirib chiqaradi.

Avstriya mamlakatida 25ta rasmiy davlat bayramlari nishonlanadi va shulardan 13 tasi dam olish kuni etib belgilangan.

Malta davlatinin dunyodagi eng ko‘p dam olish kuniga ega bayramlar mavjud davlat deb atasak bo‘ladi, chunki ushbu davlatda 14 ta rasmiy bayram mavjud hisoblanadi.

Buyuk Britaniya davlati esa o‘zining 8 ta dam olinadigan bayram kunlari bilan yevropaning eng mehnatkash davlati maqomini olgan deb aytolamiz.

Gretsiya davlatida 12 ta dam olinadigan bayram kunlari mavjud hisoblanadi va bularning yarmini diniy bayramlar tashkil etadi.

Ushbu davlatlar dam olish kunlarining ko‘pligi tufayli 10 dangasa mamlakat nomini olgan bo‘lsada, bu ularning rivojlanishiga hech qanday ta’sir ko‘rsatmagan.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra xodimlar dam olish kunlarida tashqari ham ishdan ozod etilishlari mumkin hisoblanadi. Buni qisqacha qilib aytkanda ta’til desak ham bo‘ladi.

Dam olish vaqtidan farqli ravishda ta’tillar bayram kunlaridan tashqari kunlarda beriladi va ta’tillarning quyidagi turlari mavjud hisoblanadi ;

- Har yilgi mehnat ta’tili
- Ijtimoiy ta’tillar
- Ish haqi qisman saqlanadigan ta’tillar
- Ish haqi saqlanmaydigan ta’tillar

Bundan tashqari hozirgi kunda ko‘pchilik bilmaydigan va foydalanmaydigan ota-ona yoki uning o‘rnini bosuvchi shaxsga beriladigon,

bolani ovqatlantirish uchun beriladigan, ijodiy, 18 yohsgacha bo‘lgan xodimlarga yillik uzaytirilgan mehnat ta’tillari va 1 va 2- guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga beriladigon ta’til turlari ham mavjud hisoblanadi. Afsuski hozirgi jamiyatimiz hayotida ko‘pchilik xodimlar ushbu ta’tillarni olish huquqlari mavjudligini bilishmaydi. Ushbu ta’tillarni olish tartibi quyidagicha bo‘ladi :

Homiladorlik va tug‘ish ta’tili – ushbu ta’til turi ayol xodimlarga tug‘riqqa qadar 70 kalendar kuni va tug‘riqdan keyin 56 kalendar kuni, agarda tug‘riq og‘ir kechgan hollarda 70 kalendar kunigacha homiladorlik va tug‘ish ta’tili beriladi va eng asosiysi oylik ish haqining 75% miqdoridan kam bo‘lmagan miqdorda nafaqa to‘lanishi shart hisoblanadi.

Ijodiy ta’tillar – ushbu ta’til turi faqatgina mehnat faoliyatini yoki pedagogik faoliyatni ilmiy ish bilan birga olib borayotgan shaxslarga nisbatan asosiy ish joyida o‘rtacha ish haqi va lavozimi saqlangan holda beriladigon ta’til hisoblanadi. Ijodiy ta’tillar ilmiy ish turiga qarab turli muddatlarga berilishi mumkin. Masalan, falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun 3 oygacha, fan doktori ilmiy darajasini olish uchun 6 oygacha berilishi mumkin.

12 yoshga to‘lmagan 2 va undan ortiq farzandi bor yoki 16 yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolaning ota-onasidan birgiga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxsga har yili kamida 4 kalendar kuni bo‘lgan haq to‘lanadigan ta’til berilishi lozim hisoblanadi.

Keyingi ta’til turi esa ko‘pchilikning habari bo‘lmagan va ko‘pchilik foydalanmaydigan ta’til turi hisoblanadi. Ushbu ta’tilning nomi bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanafus deb ataladi. Bunda 2 yoshga to‘lmagan farzandi bor ota-onaning biriga(vasiysiga) har 3 soatda davomiyligi 20 daqiqadan kam bo‘lmagan ovqatlanish va dam olish vaqtidan tashqari tanafus berilishi lozim hisoblanadi. Agarda 2 yoshga to‘lmagan 2 yoki undan ortiq farzand bo‘lgan taqdirda ushbu tanafus vaqti 1 soatgacha qilib belgilanadi.

Bundan tashqari aytishimiz mumkinki 1936-yil 4- iyunda Jenevada qabul qilingan xalqaro konvensiyaning 4-moddasiga muvofiq “Har yilgi haq to‘lanadigan ta’til olish huquqini istisno qiluvchi yoki bunday ta’til berish huquqini rad etuvchi har qanday bitim haqiqiy emas deb topiladi.

Ushbu ta’tillardan farqli o‘laroq ish haqi saqlanmaydigan ta’til turlari ham mavjud. Ya’ni bunday ta’tillar xodimning yozma arizasiga binoan 12 oylik davr mobaynida 3 oydan ortiq bo‘lmagan holda berilishi mumkin. Xodimning yozma arizasiga binoan ushbu ta’til ko‘pi bilan 6 oy muddatgacha cho‘zib berilishi mumkin. Bunga 1 va 2 – guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarga nisbatan beriladigan 14 kalendar kundan kam bo‘lmagan ta’tilni ham aytish mumkin.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan ta’tillarning barchasida o‘rtacha oylik ish haqi saqlangan holda berilishi kafolatlanadi. Lekin o‘rganilmagan huquqlar bir kun sizdan qast oladi deganidek ushbu huquqlarni bilmaslik faqatgina o‘zimizga ziyon olib keladi.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, hozirgi kunda jamiyatimizda o‘zlarining dam olish vaqtlari va qanday tarzda ta’til olishlari haqida bilmaydigan xodimlar soni afsuski juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Buni oldini olish maqsadida xalqimiz huquqiy ongini rivojlantirish maqsadida Mehnat qonunchiligi yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish uchun mutaxasislarni jalb qilish lozim. Zero chet el davlatlarida insonlar o‘z huquqlarini bilishi muhim hisoblanadi, o‘z huqularini bilmagan va undan foydalana olmagan inson esa doim o‘z zarariga ya’ni ish haqining kamayishiga va jamiyatdagi o‘rnini yo‘qotishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi
3. Haq to‘lanadigan ta’til to‘grisidagi Jeneva xalqaro kanvensiyasi
4. M.Sadikova “Dam olish vaqti va Ta’tillar” ilmiy maqola
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Dam_olish_vaqti

QUROLLI MOJAROLAR VA TINCHLIK DAVRIDA MULKKA NISBATAN SEKVESTR QO‘LLASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA CHORALARI

Sabirov Utkirjon Nizamatdinovich
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
sudining iqtisodiy ishlar bo‘yicha sudyasi
Utkirjonsabirov@gmail.com

Sekvestr atamasi Rim huquqidan kelib chiqqan. Bugungi kunda bu huquqiy tushuncha ko‘plab mahalliy huquq tizimlarida fuqarolik protsedurasining bir qismi sifatida qo‘llaniladi. Asosiy prinsip sifatida sekvestr davlatning o‘z yurisdiksiyasiga bo‘ysunuvchi shaxslarga qaratilgan buyruqni anglatadi, bunda davlat mulk egasining mulkiy huquqini o‘tkazmasdan, xususiy mulk ustidan vaqtincha nazoratni o‘z zimmasiga oladi. Sekvestrning maqsadi mulkni vaqtincha saqlash yoki hisobni muzlatish orqali uni vaqtinchalik choralar sifatida yoki garov vositasi sifatida saqlab qolishdir. Mahalliy qonunlarga ko‘ra, sekvestr odatda davlatning mulk egasiga kompensatsiya to‘lash majburiyatini o‘z ichiga olmaydigan choralarga cheklanadi. Tushunchaning asosiy umumiy elementlari xalqaro umumiy huquq yozuvlarida qabul qilingan. Biroq, shartnoma huquqida bu atamaning aniq ta’rifi yoki ma’nosi shakllanmagan. Sekvestrlar qurolli mojarolar davrida, davlat hududidagi xorijiy mulk holatlarida va inson huquqlari bilan bog‘liq masalalarda xalqaro umumiy huquqqa bo‘ysunadi. Ba’zida internment va musodara kabi atamalar sekvestr bilan bir xil ma’noda ishlatiladi.

Qurolli mojarolar paytida sekvestr, musodara, konfiskatsiya yoki rekvizitsiya buyurilishi mumkin bo‘lgan uchta holatni ajratish mumkin.

Urushayotgan davlat hududidagi dushman mulki kodifikatsiyalangan qoidalar bilan himoya qilinmaydi. Urush boshlanganda dushman chet el fuqarolariga aylangan shaxslar odatda urush davom etayotgan vaqtda o‘z huquqlarini amalga oshirishdan mahrum qilinadi. Bu choralar faqat dushman mulkining ushbu mulk joylashgan davlatga qarshi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita ishlatilmasligini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi. Bu maqsad mulkni konfiskatsiya qilish yoki mulkiy huquqni o‘tkazishga

deyarli yo‘l qo‘ymaydi. Bugungi kunda umumiy davlat amaliyoti mulkni konfiskatsiya qilish o‘rniga sekvestr qilishdan iborat. O‘tmishda ba’zi mahalliy huquq tizimlarida dushman mulkini “o‘zlashtirish” mulkiy huquqning o‘tishi bilan yakunlanishi taxmin qilingan. Sekvestr choralar dushman mulkini himoya qilish maqsadi bilan ham oqlangan. Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida dushman mulkini konfiskatsiya qilish kelgusidagi reparatsiya da’volarini qoplashga qaratilgan va iqtisodiy urush chorasi sifatida tushunilgan. Birinchi jahon urushidan so‘ng, mag‘lub bo‘lgan davlatlarning sekvestr choralari Versal sulh shartnomasining 297-moddasi (E) bandiga muvofiq “favqulodda urush choralari” sifatida tasniflangan va sekvestrning qonuniyligidan qat’i nazar, mulk egasiga kompensatsiya to‘lash talab qilingan. Bunga qarama-qarshi ravishda, Versal sulh shartnomasining X qismi IV bo‘limiga ilovaning 2-bandiga ko‘ra, Ittifoqchi va Hamkor davlatlarning sekvestr choralari bo‘yicha hech qanday da’vo yoki harakat qilinmasligi kerak edi[1].

Hozirgi odatiy xalqaro huquq holatiga ko‘ra, dushman xususiy mulki sekvestr qilinishi mumkin. Biroq, sekvestr choralarining maqsadi dushman mulkining sekvestr qiluvchi davlatga qarshi ishlatilmasligini ta’minlash bilan cheklanishi kerak.

Odatiy xalqaro huquqqa ko‘ra, vasiylar o‘z vazifalarini mulk egalarining manfaatlari, shuningdek ularni tayinlagan davlat manfaatlari yo‘lida bajarishi kerak. Sekvestrni buyurgan davlat chet el egasining manfaatlarini hurmat qilishga majburdir. Mulkning shikastlanishi kompensatsiya to‘lash majburiyatini keltirib chiqaradi. Urush tugagach, sekvestr qilingan mulk egasining talabiga binoan darhol qaytarilishi kerak.

Sekvestr urushayotgan davlatdagi dushman xususiy mulki bilan cheklanadi va chet el fuqarosining betaraf maqomi asosida qo‘llaniladigan choralarga kengaytirilmasligi kerak. Biroq, betaraf uchinchi davlat o‘z fuqarolarining mulkini ularning manfaati uchun sekvestr qilishni talab qilishi mumkin. Ikkinchi jahon urushi davrida Xitoy hukumati AQShda joylashgan xitoy mulkini Yaponiyadan himoyalash uchun sekvestr qilishni so‘ragan. Biroq, maxsus shartnoma qoidolari bo‘lmaganda, bunday hollarda mulkni saqlash bo‘yicha egalik qiluvchi davlatning majburiyatlari dushman mulkiga nisbatan bo‘lgan majburiyatlar kabi qat’iy ekanligi shubhali.

Umuman olganda, betaraf davlatdagi urushayotgan davlat fuqarolariga tegishli xususiy mulk sekvestrga tortilmaydi.

Hibsga olingan harbiy asirlardan qimmatbaho buyumlar yoki pul ma’lum shartlar ostida olib qo‘yilishi mumkin. Bu obyektlar hibsga oluvchi davlatning vasiyligida saqlanadi va asirlik tugaganida asirga asl holatida qaytariladi.

Belligerent ishg‘oli holatida xususiy mulk ma’lum shartlar ostida qonuniy ravishda sekvestr qilinishi mumkin. Ishg‘ol qilingan hududdagi dushman xususiy mulki, agar u mahalliy harbiy maqsadlarda foydali bo‘lmasa, olinmasligi yoki unga aralashilmasligi kerak. Gaaga qoidalarining 23(g)-moddasiga ko‘ra, dushman mulkini yo‘q qilish yoki musodara qilish, agar bunday yo‘q qilish yoki musodara urush zaruriyatlari bilan qat’iy talab qilinmasa, ayniqsa ta’man qilinadi. Gaaga qoidalarining 46-moddasiga ko‘ra, xususan, xususiy mulk hurmat qilinishi va konfiskatsiya qilinmasligi talab qilinadi[2].

Tinchlik davrida chet el mulkini sekvestr qilish faqat ma’lum shartlar ostida ruxsat etiladi. Barselona Traction ishida Xalqaro sud Barselona Traction, Light and Power Company Ltd kompaniyasini bankrot deb eqlan qilgan va uning aktivlarini musodara qilganligi xabar qilingan. Sud hukmida davlatlar, umumiy qoidaga ko‘ra, yuridik shaxsni e’tiborsiz qoldirib, aksiyadorlar nomidan diplomatik himoya qilish huquqiga ega emasligi aytilgan[3].

Sekvestr choralar ekspropriatsiya sifatida talqin qilinishi mumkin. Birinchidan, ular vaqtincha bo‘lmasdan, chet el mulkini ekspropriatsiya qilish sari qadam bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ikkinchidan, agar sekvestr holati uzoq muddat davom etsa, bu odatiy xalqaro huquqqa ko‘ra bilvosita ekspropriatsiya sifatida baholanishi mumkin.

Sanksiyalar rejimining bir qismi sifatida xususiy mablag‘larni muzlatish orqali sekvestrga o‘xshash choralar amalga oshirilishi mumkin. Sekvestr tushunchasi so‘nggi yillarda ko‘p e’tibor qozonmagan. Biroq, Xavfsizlik Kengashi tomonidan buyurilgan keng ko‘lamli choralar sekvestr va unga o‘xshash choralar inson huquqlari va qonun ustuvorligi nuqtai nazaridan muammoli ekanligini ko‘rsatdi.

Sekvestr choralar ekspropriatsiya sifatida talqin qilinishi mumkin. Birinchidan, ular vaqtincha bo‘lmasdan, chet el mulkini ekspropriatsiya qilish sari qadam bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, Elettronica Sicula SpA (ELSI) ishida AQSH Italiya tomonidan ELSI zavodining rekvizitsiya qilinishi mulkni olib qo‘yish sifatida baholanganini ta’kidladi, chunki bu choralar AQSH korporatsiyalarining nazorati va boshqaruvini tugatish maqsadida amalga oshirilgan. Odatiy xalqaro huquqqa ko‘ra, agar chet el mulki tinchlik davrida sekvestr qilinsa, bu murakkab masalalarni keltirib chiqarishi mumkin. Agar choralar uzoq muddat davom etsa, kompensatsiya huquqi paydo bo‘lishi mumkin[4].

Biroq, odatiy xalqaro huquqning bu sohadagi amaliy ahamiyati ikki tomonlama investitsiya shartnomalari tarmog‘i tufayli kamaydi. Xalqaro investitsiya nizolarini hal qilish markazi (ICSID) qarorlarida investorning mulkidan foydalanish va foyda olish huquqidan mahrum qiluvchi davlat choralari, hatto nominal mulkiy huquq saqlanib qolsa ham, bilvosita ekspropriatsiya yoki ekspropriatsiyaga teng ta’sir ko‘rsatuvchi choralar sifatida qaralishi mumkin deb tan olingan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining savdo va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi (UNCTAD) tadqiqotida ta’kidlanishicha, jismoniy olib qo‘yishdan kam bo‘lgan choralar, agar ular xorijiy investorning mulk ustidan boshqaruvi, foydalanishi yoki nazoratining samarali yo‘qotilishiga yoki mulk qiymatining sezilarli darajada pasayishiga olib kelsa, mulkni olib qo‘yish sifatida baholanishi mumkin.

Eron-AQSH da’volar tribunalida chet el mulki, agar huquqlar foydasiz holga keltirilsa, hatto davlat mulkni ekspropriatsiya qilishni maqsad qilmagan bo‘lsa va qonuniy mulkiy huquq mulk egasida qolsa ham, ekspropriatsiya qilingan deb hisoblanishi kerakligi tan olingan. Mulkdan mahrum qilish yoki olib qo‘yish xalqaro huquqqa ko‘ra mulkdan foydalanish yoki undan foyda olishga davlat tomonidan aralashuv orqali sodir bo‘lishi mumkin, hatto mulkiy huquqqa ta’sir qilmasa ham[5].

Sekvestr choralar ma’lum shartlar ostida inson huquqlarini buzishi mumkin. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya (1950 yil 4 noyabrda imzolangan, 1953 yil 3 sentabrda kuchga kirgan) o‘zining Birinchi protokolining 1-moddasida mulkdan tinchlik bilan

foydalanishni himoya qiladi. Amerika inson huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya (1969 yil 22 noyabrda imzolangan, 1978 yil 18 iyulda kuchga kirgan) har bir shaxsning o‘z mulkidan foydalanish va undan bahramand bo‘lish huquqini kafolatlaydi. Afrika xalqlari va inson huquqlari to‘g‘risidagi xartiyada (1981 yil 27 iyunda qabul qilingan, 1986 yil 21 oktabrda kuchga kirgan) mulk huquqi 14-moddada e’lon qilingan. Biroq, ikkala xalqaro inson huquqlari to‘g‘risidagi pakt – Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966 yil 19 dekabrda qabul qilingan, 1976 yil 23 martda kuchga kirgan) va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (1966 yil 16 dekabrda qabul qilingan, 1976 yil 3 yanvarda kuchga kirgan) – mulk huquqini, xalqning o‘z tabiiy boyliklari va resurslaridan erkin foydalanish huquqidan tashqari, umuman eslatmaydi. Shunday bo‘lsa-da, mulk huquqi odatiy xalqaro huquq maqomiga ega bo‘lishi mumkin.

Sekvestr choralarining bilvosita oqibatlari inson qadr-qimmati, oziq-ovqat huquqi yoki hatto hayot huquqini buzishi mumkin. Bundan tashqari, sud nazorati huquqi ham ta’sirlanishi mumkin.

Sekvestr choralar chet el mulki egasining vatandosh davlatining oldingi xatti-harakatlari javob chorasi sifatida oqlanishi mumkin. Aksincha, agar vatandosh davlat tomonidan xalqaro miqyosda noqonuniy harakat sodir bo‘lmagan bo‘lsa, faqat bosim o‘tkazish maqsadida chet el mulkini sekvestr qilishga ruxsat berilmaydi. Bu masala, ayniqsa, xorijiy savdo kemalari kontekstida, embargolar deb ataladigan holatlarda muhokama qilingan.

Sekvestr tushunchasi so‘nggi yillarda ko‘p e’tibor qozonmagan bo‘lsa-da, Xavfsizlik Kengashi tomonidan buyurilgan keng ko‘lamli choralar sekvestr va shunga o‘xshash choralar inson huquqlari va qonun ustuvorligi nuqtai nazaridan muammoli ekanligini ko‘rsatdi. Bu choralar ko‘pincha fuqarolar huquqlariga, xususan, mulk huquqiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lib, ularning qonuniyligi va oqibatlari xalqaro huquq doirasida muhokama qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Versal sulh shartnomasi (1919). 297(e)-modda va X qism, IV bo‘lim, 2-band. Xalqaro shartnomalar to‘plami.
2. Gaaga qoidalari (1907). 23(g) va 46-moddalar. Xalqaro gumanitar huquq hujjatlari to‘plami.
3. Barcelona Traction, Light and Power Company Ltd ishi (1970). Xalqaro sud qarori. ICJ Reports 1970.
4. Elettronica Sicula SpA (ELSI) ishi (1989). Xalqaro sud qarori. ICJ Reports 1989.
5. Eron-AQSH da’volar tribunali qarorlari (1981-yildan hozirgacha). Xalqaro arbitraj qarorlari to‘plami.

ПОНЯТИЕ ИНФОРМАЦИИ

Халмухаммед Палуаниязов
самостоятельный соискатель, Ташкентский государственный юридический университет x.paluaniyazov@elections.uz

Понятие информации, его генезис и современное правовое регулирование представляют собой одну из важнейших тем в контексте развития информационного общества. История термина «информация» восходит к латинскому слову «informatio», которое изначально означало «разъяснение», «изложение», «представление». В древнеримской культуре этот термин использовался преимущественно для обозначения процесса передачи знаний, что значительно отличается от современного понимания информации как универсальной категории. До начала XX века понятие информации существовало преимущественно в обыденном значении, как сведения, передаваемые людьми устно или письменно, не имея строгого научного определения.

Научное осмысление феномена информации началос с работ Ральфа Хартли, который в 1928 году предложил логарифмическую меру для измерения информации, положив начало количественному подходу к ее изучению. Однако настоящий прорыв произошел в конце 1940-х годов, когда Клод Шеннон опубликовал свою

«Математическую теорию связи» (1948), где впервые определил информацию через вероятност и энтропию, заложив фундамент современной теории информации. Эта работа стала революционной, поскольку предложила не только математический аппарат для измерения информации, но и принципиально новый взгляд на ее природу. В тот же период Норберт Винер, разрабатывая основы кибернетики, придал информации статус фундаментального понятия, сопоставимого по значимости с материей и энергией, определив ее как «содержание того, что мы обмениваемся с внешним миром в процессе приспособления к нему и воздействия на него нашими приспособлениями».

В последующие десятилетия понимание информации продолжало расширяться, охватывая не только технические, но и биологические, социальные, философские аспекты. Значительный вклад в развитие теории информации внес советский математик Андрей Николаевич Колмогоров, разработавший алгоритмическую теорию информации, в которой предложил измерят информацию через сложност алгоритма, необходимого для ее описания. Эта концепция существенно обогатила теоретический аппарат информатики и повлияла на развитие вычислительной техники. Другим важным исследователем в области теории информации стал Лотфи Заде, основател теории нечетких множеств, который расширил понятие информации на случаи неопределенности и неточности, что особенно актуально в контексте моделирования человеческого мышления и принятия решений в условиях неопределенности.

С конца XX и начала XXI века, в условиях формирования информационного общества, информация превратилас в ключевой ресурс социально-экономического развития, что потребовало не только теоретического осмысления, но и правового регулирования информационных отношений. В различных странах начали формироваться правовые определения информации, отражающие как общие подходы к пониманию ее сущности, так и национальные особенности правовых систем.

В законодательстве США информация определяется контекстуально в различных нормативных актах. Например, в законе «О свободе информации» (Freedom of Information Act) информация понимается как любые данные, находящиеся в распоряжении федеральных органов власти. Такой подход обеспечивает гибкост правового регулирования, позволяя адаптироват определение к конкретным обстоятельствам и сферам применения. В сравнении с правовой системой Узбекистана, американское законодательство демонстрирует более развитую систему регулирования оборота информации и защиты информационных прав, что обусловлено более длительной историей становления информационного общества в США.

Российское законодательство в Федеральном законе «Об информации, информационных технологиях и о защите информации» определяет информацию как «сведения (сообщения, данные) независимо от формы их представления». Это лаконичное и универсальное определение охватывает все возможные виды и формы информации, что делает его применимым в различных областях правоотношений.

В правовом поле Европейского Союза особое внимание уделяется регулированию персональных данных. Регламент ЕС о защите данных (GDPR) фокусируется на понятии «персональные данные», которые определяются как «любая информация, относящаяся к идентифицированному или идентифицируемому физическому лицу». Европейский подход характеризуется высоким уровнем защиты информационных прав граждан и строгими требованиями к обработке и защите информации, что создает более жесткие рамки для информационной деятельности по сравнению с законодательством Узбекистана.

Китайское законодательство, в частности закон КНР «О кибербезопасности», определяет информацию преимущественно в контексте сетевых данных и цифровой информации, делая акцент на защите национальных интересов в информационной сфере. Модел регулирования информационных отношений в Китае характеризуется

более строгим государственным контролем над информационными процессами по сравнению с подходом, принятым в Узбекистане, что отражает специфику политической системы и приоритеты национальной безопасности Китая.

В законодательстве Казахстана, страны, имеющей схожие с Узбекистаном исторические и культурные традиции, закон «Об информатизации» определяет информацию как «сведения о лицах, предметах, фактах, событиях, явлениях и процессах, полученные или созданные способом, не запрещенным законом». Сравнивая подходы Казахстана и Узбекистана к регулированию информационных отношений, можно отметит схожие концептуальные основы, но более детализированное законодательство Казахстана, что может быт связано с более активным развитием цифровой экономики в этой стране.

Особый интерес представляет законодательство Украины, где в Гражданском кодексе Украины дается следующее определение: «Информацией являются любые сведения и / или данные, которые могут быт сохранены на материальных носителях или отражены в электронном виде». Украинский законодател акцентирует внимание не только на содержательной стороне информации (сведения, данные), но и на возможности ее материального воплощения, что важно для определения правового режима информации как объекта гражданских прав.

Кроме того, украинское законодательство выделяет различные виды информации в зависимости от сферы применения: информация о физическом лице, информация справочно-энциклопедического характера, информация о состоянии окружающей среды, информация о товаре, научно-техническая информация, налоговая информация, правовая информация, статистическая информация, социологическая информация и др. Такая детализация позволяет учитыват специфику различных видов информации при правовом регулировании, что может быт полезным опытом для совершенствования законодательства Узбекистана.

На основе анализа международного опыта правового регулирования информационных отношений представляется целесообразным внести в Гражданский кодекс Узбекистана определение информации, указав её отдельной статьёй устанавливающие понятие информации, а именно, как «Информацией являются любые сведения (данные), которые могут быт сохранены на материальных носителях или отражены в электронном виде». Такое определение имеет ряд преимуществ: оно достаточно лаконично, охватывает все возможные виды информации, учитывает ее нематериальную природу и признает ее статус как объекта гражданских прав.

ASORATLI BITIMLARNING O‘ZIGA XOSLIKLARI

Tarixov Kamal Maksetbaevich
Berdaq nomidagi QDU erkin tadqiqotchisi
kamaladdint@gmail.com

Shartnoma nazariyasi bo‘yicha mavjud adabiyotlar haqiqiy hayotdagi yuristlar murakkab tijorat bitimlaridagi noaniqlikka qanday munosabatda bo‘lishlarini yetarli darajada yoritmaydi. Murakkab tijorat munosabatlari, jumladan qo‘shilish va qo‘shib olish (merger and acquisition) yoki venchur kapital shartnomalarida yuristlar va biznes vakillarining o‘zini tutishi shuni ko‘rsatadiki, hatto iqtisodiy munosabatlarda ham inson fe’l-atvori faqat “iqtisodiy inson” (homo economicus) modeli bilan cheklanmaydi[1].

Tijorat noaniqligi va uning huquqiy yechimi – bu faqat kengroq falsafiy muammo bo‘lgan tasodif (contingency) masalasining bir qismi xolos. Huquq va yuristlarning muomaladagi noaniqlikka qanday munosabatda bo‘lishi – bu insonning o‘z hayotida va jamiyatda noaniqlik bilan qanday kelisha olishi masalasining bir qismi xolos. Biz shartnomalar tuzar ekanmiz, hali sodir bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan holatlar – ya’ni tasodifiy holatlar bilan ish ko‘ramiz. Ayrim olimlar shartnoma huquqi biznes vakillarining tasodifga qarshi kurashishi uchun yagona vosita emasligini ta’kidlashgan[2]. Lekin juda oz sondagi olimlar bu masalani falsafa nuqtai nazaridan yoritgan.

Martxa Nussbaumning haqiqiy dunyoda shartnoma tuzish jarayonini tarixiy falsafa va huquq manbalari bilan bog‘lashga qaratilgan chaqiruviga javob berishga urindim. Buning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. dunyo haqida faqat bitta asosiy fikrlash usuli bor deb hisoblovchi mualliflar va falsafiy yo‘nalishlarni tanqid qilish;
2. huquqshunoslikni falsafa an’analari doirasida boshqa fan sohalari bilan bog‘lash imkoniyatini ko‘rsatish;
3. huquqshunoslarning muomala jarayonlarini yakunlashdagi rolini (hatto ilmiy emas, balki amaliy idealizm shaklida) asoslash.

G‘oyalar tarixi davomida takrorlanuvchi bir namuna shundan iboratki, insonlar tasodifni yo butunlay tushuntirishga urinishadi, yoki esa qo‘l siltab, bunday urinishlarni bekorga, hatto biologik tuzilish yoki ovqat hazm qilish bilan bog‘liq tasoduf sifatida baholashadi. Har qanday tasodifning bardavomligini tushunish va shu bilan birga, undan voz kechmaslik – huquqshunoslar yetakchi sifatida jamiyatda ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan eng muhim xissalardan biri bo‘lishi mumkin[3].

Shu bilan birga, Amerika falsafasi tarixida tasodif masalasiga eng yaqin bo‘lgan yondashuv – Uilyam Jeyms va Jon Dyui tomonidan asos solingan pragmatizm (hamda uning huquqdagi shakli – Oliver Uendell Xolms, Jr.ning huquqiy pragmatizmi) – bugungi kunda huquq falsafasining ayrim tarafdorlari tomonidan o‘zlashtirilgan. Ular yuristlarning jamiyatdagi o‘rni va ma’naviy falsafani inkor etishga va buni ilmiy yondashuv bilan almashtirishga urinishadi.

Qonunlar tuzuvchi va huquqshunoslar ko‘pincha huquqni inson xulqini tartibga soluvchi vosita sifatida ko‘radi. Xuddi shunday, iqtisodchilar insonni ratsional agent sifatida, sotsiologlar uni jamoa va guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali, psixologlar esa inson ongi orqali tushunishga harakat qiladilar. Odatda neytral kuzatuvchilar har qanday modelning qiymatini uning real hayotdagi harakatlarni izohlash va bashorat qilish qobiliyati bilan baholaydilar[4]. Hech qaysi model haqiqatni to‘laqonli aks ettirmaydi, ammo har bir modelda ma’lum darajada haqiqat mavjud.

Shuning uchun men bugungi siyosiy muhit va (afsuski) intellektual muhitda “oq-qora”, “yaxshi-yomon”, “biz va ular” tamoyillari asosida

shakllantirilayotgan modellarni qanday yaratishimiz va ularni qanday asoslashimizga falsafiy baho berishni taklif qilinadi. G‘oyalar tarixi falsafa va skeptitsizm, tajriba va aql, tasodif va zaruriyat, jamoa va tashkilot, va shunga o‘xshash qarama-qarshi tushunchalar o‘rtasidagi dialektik munosabatlardan iborat. Shuni aytish mumkinki, har bir avlod shunday qarama-qarshiliklarni yangidan kashf etadi yoki ularni yangidan yarashtirishga urinadi.

Bizning bugungi mukammal va zid fikrlarga asoslangan voqelikda yashashimizga paradoks tarzida sabab bo‘lgan narsa – aynan ana shu ikki qarama-qarshilik haqida qanday fikr yuritishimizning o‘ziga xos tabiati bo‘ldi. Yuristlar orasida keng tarqalgan bir ibora bor: “Aql yetarli darajada yetishmas ekan, biz o‘zimizni tepalik bo‘lmasa ham, shug‘ilgich yoqadan pastga tushib ketgandek tuya boshlaymiz”. Bizning aqlimiz “yo u, yo bu” (binar) yondashuvga moyil bo‘lib, bu kabi yondashuvlarga qarshi huquq yoki biznesdagi (va, degan umiddamiz, siyosatdagi ham) yetakchilik fikrlashni ishlatish bilan aqlli bo‘lish o‘rtasidagi farqni tushunishni talab qiladi. Hayotda, amaldagi qisqa muddatli davrda, muammo yechuvchi, himoyachi sifatida, biz aniq javoblar topishimiz, murakkab ishlarni hal qilishimiz, ishga olish yoki bo‘shatish, Uoll-stritning kutilayotgan natijalarini qondirishimiz kerak bo‘ladi. Lekin, Robert Luis Stivensondan uzr so‘ragan holda, uzoq muddatli manzarada, yetakchi va siyosat ishlab chiquvchi sifatida, niyat bilan safar qilish o‘zini maqsadga yetib bo‘ldik, deb aldashdan yaxshiroqdir. Muqammallik – afsonadan ham yomon bo‘lishi mumkin; unga yetishish mumkin, degan ishonch – xastalikka aylanishi mumkin[5]. Hozirgi kundagi huquqiy pragmatizm tarafdorlari (masalan, Richard Pozner) ham o‘zlarining falsafiy po‘shnalariga qaraganda bu qopqonga tushib qolishgan: ular endi ma’naviy falsafani fikrlash manbai sifatida hatto sog‘lom shubha bilan ham qabul qilmaydilar; ular bu sohani batamom yaroqsiz, deb hisoblaydilar.

Shartnoma – bu tasodifga qarshi kurashning bir usuli. Biz bir-birimiz bilan kelisha olmasak, sudyaga murojaat qilish – yana bir usul. Ikkalasi ham yagona vosita emas.

Pragmatik instinkt (masalan, Richard Poznerdagi kabi) absolyutizmga qarshi yetarli darajada tushunarli bo‘lgan nafratdan kelib chiqqan, bu esa

o‘z navbatida, Kantning idealizmga munosabatida namoyon bo‘ladi: u uni inkor etmagan, lekin cheklov qo‘ygan. Falsafiy pragmatistlar (ayniqsa, Uilyam Jeyms) e’tiqodlar haqidagi asosiy xato shunda, deb hisoblashganki, odamlar “e’tiqod faqatgina real voqelikni aks ettirsa, to‘g‘ri yoki asosli bo‘ladi”, deb o‘ylashadi – Jeyms tanqid qilgan Xakslining agnostitsizm haqidagi fikriga ko‘ra, “bizning Xudoga ishonishimiz faqat u bizning unga bo‘lgan shaxsiy ishonchimizdan tashqarida ham mavjudligini isbotlay olsakgina to‘g‘ri bo‘ladi”[6].

Huquq murakkab biznes bilan kesishadigan “harbiy okoplarda” (boshqacha aytganda, sud emas, amaliyot hukmron bo‘lgan muhitda), pragmatistlar haq: faqatgina bir g‘oyaga to‘la bo‘ysuntirish – ishni amalga oshirishda aqldan foydalanish imkonini cheklaydi, va bu har bir “yurist menga faqat ‘yo‘q’ deb aytyapti”, degan tadbirkor uchun kulfatdir. Odamlarning qanday javob qaytarishini tushunish, ularni Kant ta’riflaganidek, ob’ekt sifatida emas, sub’ekt sifatida ko‘rish, yuridik hujjatlar yetarli bo‘lmagan hollarda ham nazar va ishonchga ega bo‘lish – dunyoda katta qiymatga ega va shunga ko‘ra haqiqatdir. Uning o‘lchanishi mumkin yoki mumkin emasligidan qat’i nazar. O‘lchanadigan va o‘lchanmaydigan g‘oyalar ham ahamiyatga ega. Haqiqat shuki, har ikkisini tan olish dunyoni yaxshiroq qiladi. Biz rag‘batlantirmoqchi bo‘lgan yetakchilar ham, kelishuvlarni amalga oshiradigan yuristlar ham buni tan olishadi. Poznerning “pragmatik skeptitsizmi” bizni muvaffaqiyatli natijalarga qaratib, mutlaqchilikni rad etish orqali ikki uchdan ikkisini bosib o‘tadi, lekin biz “nazar” yoki “yetakchilik” deb his qiladigan, ehtimol o‘lchanmaydigan, siquvchan nursiz narsani hisobga olmaydi.

Iqtisodiy nazariyalardagi optimal xatarni taqsimlash (masalan, Kouz nazariyasi) yoki strategik xulq-atvor, faqatgina inson ratsional harakat qiladi, deb taxmin qilingan cheklangan holatlardagina kelishuv tuzuvchilarga foyda beradi. “Huquq va jamiyat” harakati shartnomalarning tijoratdagi chegaralangan rolini to‘g‘ri tasvirlaydi, biroq amaliyot uchun foydali maslahat bermaydi. Huquq sohasida ko‘pincha chetlab o‘tiladigan falsafa – xususan, Yum, Kant va amerikalik pragmatistlar (Jeyms va Dyui)ning qarama-qarshi nuqtai nazarlarini muqobil yondashuv sifatida

taklif qilardik, bu yondashuv esa bitim tuzishning ijodiy jarayonini anglashda yordam berishi mumkin bo‘lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. James, William. *Pragmatism: A New Name for Some Old Ways of Thinking*. Harvard University Press.
2. Dewey, John. *Human Nature and Conduct*. The Modern Library, 1930.
3. Kant, Immanuel. *Critique of Pure Reason*. Translated by Norman Kemp Smith, Macmillan, 1929.
4. Hume, David. *A Treatise of Human Nature*. Oxford University Press.
5. Holmes Jr., Oliver Wendell. *The Common Law*. Little, Brown and Company, 1881.
6. Posner, Richard A. *The Problems of Jurisprudence*. Harvard University Press, 1990.

MA’NAVIY TARBIYA JAMIYATNING ASOSIY BO’G‘INI

Ilimjon Abduxamjonovich Adbumalikov
Andijon davlat universiteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasi dotsenti, PhD

Oila odobiga ko’ra katta yoshlilar bolalarga, balog‘atga yetgan farzandlar, kelinlar katta yoshlilarga ochiq-sochiq holda ko’rinmaydilar, bachkana qiliq qilmaydilar, pardasiz so’zlarni aytmaydilar. Ko’chaga uy kiyimida chiqilmaydi. O‘zbek oilasiiing fazilatlari ko’p, qonunlarda belgilanmagan, ammo millatimizning qadriyatlariga aylangan tartib va talablari mavjud. Ularni farzandlarimiz o’zlashtirishi ham farz, ham qarzdir.

Shunday qilib, oila – jamiyatning asosiy bo’g‘ini. Oilada singdirilgan tarbiya, vatan, el-yurt, mustaqillik, ozodlik haqida berilgan tushuncha, tasavvur bolaning murg‘ak qalbila bir umr muhrlaiib qoladi. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog‘lom bo’lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga keladi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek “Oilaning jamiyatdagi o’rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimatini anglab yetmasdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondashmasdan turib, xalqchil mafkura

yaratolmaymiz”. Ya’ni ma’naviy sohadagi vazifalarimizni muvaffaqiyatli amalga oshira olmaymiz.

Shuning uchun ham mamlakatimizda oilani mustahkamlashga alohida e’tibor berilmoqda. Jumladan, asosiy qonunimizning “Oila, bolalar va yoshlar” deb atalgan 14-bobida quyidagi qoidalarni o’qish mumkin:

76-modda Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir.

77-modda. Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar.

78-modda. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Mustaqil Respublikamizda Oila munosabatlariga alohida ahamiyat berilayotganligipi Oliy Majlisning birinchi chaqiriq o’n birinchi sessiyasida “Oila kodeksi”ning qabul qilinishida ham ko‘rishimiz mumkin. Davlatimizning oilaning rolini oshirishga qaratilgan siyosati albatta farzandlarimizning ma’naviyati yuksaltirishida katta ahamiyatga ega bo’ladi.

Adabiyot va san’at asarlari mustaqil respublikamiz fuqarolari ma’naviy dunyosini boyitish, ularni go’zal narsalarning hammasidan bahramand qilish kabi ajoyib xususiyatlarga ega. Ma’naviyat, yuksak badiiy, jozibali adabiyot va san’at asarlari kishilar qalbiga tezroq yo’l topish, estetik hissiyotiga kuchli ta’sir qilish, hayotiy voqea-hodisalarni chuqur mushohada etishga da’vat etish kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun adabiyot va san’at asarlarining kishilarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalashdagi badiiy ta’sir etishdek vositalik xususiyatidan imkoni boricha kengroq foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyot va san’at asarlarining kuchi uning xalqchil va tushunarliligida, kishilar ichki — ruhiy dunyosiga emosional ta’sir ko’rsata olishidadir. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyot va san’atning ana shu xususiyatini hisobga olish muhimdir.

Ma’naviy tarbiyada o’zbek xalqining boy ma’naviy merosidan keng foydalanish uning ta’sirchanligi, samaradorligini oshirishda muhim omil

bo’la oladi. Yoshlarimiz ma’naviy tarbiyasida Yusuf xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Mashrab, Muqimiy, Furqat, Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Usmon Nosir kabi mumtoz shoir va yozuvchilarimiz asarlaridan foydalanishimiz ular qalbini, ruhiy dunyosini ma’naviy boyitishda katta ahamiyatga egadir. Ularning bizga qoldirgan boy badiiy-ma’naviy merosi o’zining chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yo’nalishi bilan ajralib turadi.

Mumtoz san’atkorlarimiz asarlarida halollik va poklik, to’g‘rilik, birovning haqiga ko’z olaytirmaslik, xiyonat qilmaslik, insonparvarlik, vatanparvalik, mehnatsevarlik, diyonatlilik, iymonlilik, halol luqma bilan kun ko’rish, ota-onani hurmat qilish kabi inson uchun zarur ma’naviy xislatlar yuqori badiiy saviyada bayon etilgan.

Ma’naviy tarbiyada Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Said Ahmad, O’tkir Hoshimov kabi yozuvchilarimiz; Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Omon Matchon kabi shoirlarimizning asarlaridan ham keng foydalanish, badiiy asarlar, ulardagi qahramonlarning fe’l-atvori, axloqi, ma’naviy dunyosi to’g‘risida suhbat, munozara o’tkazish katta samara beradi.

Ma’naviy tarbiyada kishilar ongi, ruhiyatiga ta’sir etishda teatr san’atining ham roli, o’rni va ahamiyati, ta’sir etish doirasi imkoniyatlari cheksizdir. Biz teatr san’atini ikki tomoni charxlangan shamshirga o’xshatishimiz mumkin. U bir tomoni bilan kishilar qalbiga yorug‘lik olib kirsa, uni yuksak ma’naviylik tomon yo’llasa, ikkinchi tomoni bilan inson qalbidagi nodonlik, jaholat, ya’ni, ma’naviyatsizlikka va jaholatga qarshi kurashadi.

Teatr san’ati boshqa san’at turlari kabi obrazli – badiiy tabiati bilan inson qalbiga emotsional ta’sir ko’rsatish, uning ruhiy dunyosiga chuqur kirib borish, shu orqali ma’naviy dunyosini boyitish xususiyatiga ega. Mustaqillikni mustahkamlash, kishilarni yuksak ma’naviylik ruhida tarbiyalashda teatr san’atining ana shu xususiyatidan unumli foydalanish zamon talabi. Afsuski, kishilarimiz, shu jumladan yoshlarimizning teatr, kino san’ati yoki san’atning boshqa turlariga bo’lgan qiziqishi unchalik yetarli darajada emasligi kishini ajablantiradi.

Teatr voqeligimiz, kishilarimiz turmushi, intilishi, qiziqishi, xatti-harakatlarini hayajon bilan aks ettiradigan maydondir. U bir vaqtning o'zida ham so'z, ham musiqa, ham xatti-harakat orqali inson qalbiga ta'sir etish xususiyatiga egaligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun teatr va kino san'atining bu xususiyatidan ma'naviy tarbiyada foydalanish katta samara berishi shubhasiz. Faqat ulardan samarali foydalanish lozim bo'ladi.

Bunday asarlarni kishilar qalbiga kirib borishida televideniye imkoniyatlaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Kishilarimiz "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" kabi ko'rsatuvlarni sabrsizlik bilan kutganidek ma'naviy yuksaklikka chorlaydigan, ya'ni jasorat va olijanoblikni, ma'naviy go'zallik va axloqiy poklikni, ulug'vorlik, nafosat va ma'naviy qadriyatlarimizni targ'ib etuvchi badiiy yuksak adabiyot va san'at asarlariga muhtojdir. Chunki, ular ma'naviyatimizni yuksaltiribgina qolmasdan, shu bilan birga yoshlarimizga ilm egallashda, millat va vatanni taraqqiy ettirishda, fidoyilik ko'rsatishda, zavq-shavq va ilhom bag'ishlaydigan vositalarning asosiylaridan biri hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda va yoshlarimiz ongiga milliy istiqlol g'oyalarini singdirishda Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashining olib borayotgan amaliy ishlarini ham alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Uning viloyatlardagi va Toshkent shahridagi bilimlarida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, talaba yoshlar bilan Respublikamizning ko'zga ko'ringan adabiyot va san'at arboblarining uchrashuvlarini tashkil qilish, ko'zga ko'ringan olimlar ishtirokida turli ilmiy-amaliy konferensiyalar uyushtirish kabi o'ta muhim ishlarni amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu kengash tomonidan ma'naviyat, tarbiya va ta'lim masalalariga bag'ishlangan ilmiy, ilmiy-ommabop risolalarni bosib chiqarayotgani va ularni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Bu kengash o'z faoliyati bilan mamlakatimizda tarbiya borasida olib borilayotgan umumiy ishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari – o'qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, shifokorlar, artistlar, barcha rahbarlar birdek mas'uldirlar. Mamlakatimizda tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida

olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishish mumkin bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Ma'naviyat va ma'rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi farmonini bajarish vazifalari haqida. - T.: 1996 yil.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jild. - T.: 1997-2003 yil.
3. Komil ma'naviyat - mustaqillik tayanchi. - T.: 1997 yil.
4. Ma'naviyat – mas'ullik. - T.: 1997 yil.
5. Ma'naviyatning oydin yo‘li. - T.: 1997 yil.

AYOLLAR MIGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA IJTIMOIY TA’SIRI

Mamatqulov Abdurasul Abdugapporovich
Andijon davlat unversiteti Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslar va huquq ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy davrda ayollar migratsiyasi fenomenining kuchayib borayotgan tendensiyalari, uning sabablari va ijtimoiy oqibatlari falsafiy-ijtimoiy tahlil etilgan. Shuningdek, ayol migrantlarning huquqiy, iqtisodiy va madaniy muammolari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston misolida ayollar migratsiyasining jamiyatga ta’siri, ijobiy va salbiy jihatlari ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: ayollar migratsiyasi, gender tengligi, mehnat migratsiyasi, oilaviy migratsiya, ijtimoiy oqibatlar.

So‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro migratsiya jarayonlarida ayollar ishtiroki ortib bormoqda. Shuning uchun ham ayollar migratsiyasi butun jahon miqyosida jadal davom etmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Hozirgi kunda oldingiga qaraganda xalqaro migrantlarning soni ancha ko‘p, yaqin kelajakda ularning soni yanada oshishi aniq. Bu deyarli yer yuzidagi barcha mamlakatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi va ko‘rsatishda davom

etmoqda. Migratsiya rivojlanish, kambag‘allik, va inson huquqlari kabi boshqa global masalalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Migrantlar ko‘pincha jamiyatning eng ishbilarmon va xarakatchan a’zolari xisoblanadi. Ayollar endilikda faqat erkaklar ortidan ko‘chib yuruvchi «izdoshlari» emas, balki o‘zlari ham mustaqil ravishda migratsiyaga qaror qiluvchi faol sub’ektlardir. Ayollar migratsiyasining sabablari ko‘p qirrali: iqtisodiy yetishmovchilik, ijtimoiy bosim, gender tengsizlik, zo‘ravonlikdan qochish kabi holatlar bunga sabab bo‘lmoqda [54]. Har bir mamlakat emigratsiya oqimini tartibga solish va nazorat qilish uchun qonunlarga ega. Nobuko Oishi ta’kidlaganidek, “Janubiy Osiyo davlatlarining emigratsiya siyosatidagi ajralib turuvchi jihat — bu siyosatning erkaklar va ayollarni bir xil tarzda ko‘rmasligidir. Ayollarning, ayniqsa mehnat migrantlari sifatida migratsiya jarayonidagi ishtiroki ortib borayotganiga qaramay, Janubiy Osiyo – Ko‘rfaz yo‘nalishidagi yuboruvchi va qabul qiluvchi davlatlarning migratsiya siyosati ko‘pincha gender stereotiplarga asoslangan. Ushbu hududdagi migratsiya siyosati odatda ayollarni chetga surib, mavjud gender stereotiplarini — ya’ni ayollarni har xil zo‘ravonliklar qurboni, chet elga chiqish qarorini o‘zi qabul qila olmaydigan shaxslar sifatida — takrorlaydi. Davlat ayollarni himoya qilish va nazorat ostiga olish bahonasi bilan ularning mustaqil qaror qabul qilish va halol mehnat orqali daromad topish huquqini cheklaydi”[55]. Janubiy Osiyo davlatlarida ayollar migratsiyasiga nisbatan davlatning otalarcha munosabati ularning borishi mumkin bo‘lgan yo‘nalishlari va ishlashi mumkin bo‘lgan kasblarga ham cheklovlar qo‘yilishida ko‘rinadi.

Masalan, 1998-yilda Bangladesh ayollarning xorijda uy xizmatchi bo‘lishi taqiqlangan edi, keyinchalik bu bekor qilindi. Hindistonda ham ayrim davlatlarga (masalan, Quvayt) uy xizmatchilar yuborilishini taqiqlagan edi. Shri-Lankada esa hukumat 5 yoshdan kichik farzandi bor ayollarning uy xizmatchi sifatida ishlash uchun chet elga chiqishini taqiqlagan, “uyda ijtimoiy beqarorlikni kamaytirish” bahonasi bilan — bu ham keyinchalik bekor qilindi. Bunday cheklovchi migratsiya siyosatlari ayollar uchun rasmiy va qonuniy migratsiya imkoniyatlarini kamaytirgan,

[54] Castles, S., & Miller, M. J. (2009). *The Age of Migration*. Palgrave Macmillan.
[55] Oishi, N. (2005). *Women in Motion: Globalization, State Policies, and Labor Migration in Asia.* Stanford University Press.

ularni xavfli usullar orqali ketishga majbur qilgan. Masalan, Nepalda Kanu Sherpa ismli ayol migrantning Koʻrfazda zoʻravonlik qurboni boʻlishi va vafot etishi ortidan, 1998-yilda hukumat ayollarning Koʻrfaz davlatlariga migratsiyasini taqiqladi — bu 2003-yilda bekor qilindi. 2008-yilda esa "Xorijiy Bandlik Toʻgʻrisida Nizom 2064" qabul qilindi. Ushbu qonunda chet elga chiqish faqat Katmandudan amalga oshirilishi mumkinligi belgilandi. Xalqaro migratsiya — bu katta ijtimoiy va iqtisodiy harakatchanlik imkoniyatlarini beruvchi jarayondir. Shu sababli Janubiy Osiyo davlatlari migratsiya siyosatiga gender sezgirlikni joriy qilishi, ayollarning migratsiya huquqini tan olishi zarur. Ayollarni faqat jarayon tomoshabinlari sifatida emas, balki faol ishtirokchilar sifatida koʻrib, davlat migratsiya siyosatini ularning ehtiyojlari asosida shakllantirishi kerak. Ayollarning migratsiyasiga toʻsiq boʻladigan, uni murakkablashtiradigan siyosatlar oʻrniga, ularning xavfsiz migratsiyasini ta'minlovchi tizim yaratilishi kerak. Bu tizim ham yuboruvchi, ham qabul qiluvchi davlatlarda faol boʻlishi lozim. Shuningdek, ayollar uchun kasbiy malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish ham ularning "vertikal harakatchanligini" (ya'ni yuqori malakali ishga oʻtishini) ta'minlovchi strategiya boʻlishi mumkin.

XXI asrga kelib ayollar migratsiyasining quyidagi shakllari koʻp uchramoqda:

Mehnat migratsiyasi – ayollar uy xizmatchisi, parvarishlovchi, tibbiyot, toʻqimachilik sohalarida ishlash uchun xorijga chiqmoqda;

Oilaviy migratsiya – turmush qurish yoki oila bilan yashash uchun koʻchish; **Majburiy migratsiya** – urush, tabiiy ofatlar yoki zoʻravonlikdan qochish holatlari.

Bu holat migratsiya jarayonining gender oʻziga xosliklarini chuqurroq oʻrganishni taqozo etmoqda. Ayol migrantlar koʻpincha norasmiy sektorda, past maoshli va ijtimoiy kafolatlar yetishmaydigan ish joylarida ishlaydilar[56]. Bu ularning iqtisodiy ekspluatatsiyaga uchrash xavfini oshiradi. Shu bilan birga, ular topgan daromadlar orqali: oilaviy byudjetni mustahkamlashadi, bolalarining ta'limini ta'minlaydi, mahalliy iqtisodiy faollikni oshiradi. Shunga qaramay ayollarning migratsiya jarayonlari oilada uzoq muddatli ajralishlar, bolalarning parvarishsiz qolishi, erkaklar va ayollar rolining oʻzgarishi ijtimoiy muvozanatga ta'sir qilmoqda.

[56] Human Rights Watch. (2021). *Abused and Abandoned: Violence against Women Migrants*.

Ayol migrantlar bugungi kunda ko‘pincha quyidagi holatlar sabab muammolarga duch kelmoqdalar. huquqiy savodsizlik, hujjatsizlik, ijtimoiy kafolatlarning yetishmasligi, jinsiy zo‘ravonlik va diskriminatsiyaga uchramoqdalar. Buning sababi bugungi kunda ko‘plab davlatlarda migrant ayollar uchun maxsus dasturlar mavjud emas yoki amalda samarali ishlamaydi. Xalqaro meyorlar (masalan, IOM, CEDAW) bu borada milliy qonunchilikka integratsiyalashuvda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasida ayollar migratsiyasi so‘nggi yillarda ortib bormoqda. Rasmiy statistikaga ko‘ra, xorijga chiqayotgan mehnat migrantlarining 15–20 foizini ayollar tashkil etmoqda[57]. Davlat tomonidan qabul qilingan “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonun (2020-yil), “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi” kabi hujjatlar ayollar migratsiyasining xavfsizligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa sifatida Ayollar migratsiyasi — zamonaviy global jarayonlarning ajralmas qismidir. U ijobiy iqtisodiy imkoniyatlar bilan birga, salbiy ijtimoiy va huquqiy xatarlarni ham olib keladi. Shuning uchun ayollar migratsiyasini gender nuqtai nazardan o‘rganish va ularni huquqiy, ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Castles, S., & Miller, M. J. (2009). *The Age of Migration*. Palgrave Macmillan.

2. UN Women. (2020). *Migrant Women and Gender Equality: Challenges and Best Practices*.

3. 3. Piper, N. (2008). Feminisation of migration and the social dimensions of development.

4. Oishi, N. (2005). Women in motion: Globalization, state policies, and labor migration in Asia. *Stanford University Press*.

5. Human Rights Watch. (2021). *Abused and Abandoned: Violence against Women Migrants*.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori, 2021-yil 2-mart, “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar”.

[57] O‘zbekiston Respublikasi Mehnat migratsiyasi agentligi hisobotlari, 2023.

O‘ZBEKISTON VA XORIJIY DAVLATLAR QONUNCHILIGIDA AXBOROT VOSITACHILARI TUSHUNCHASI

U.NURULLAEV,
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)
nurumidbek@mail.ru

Zamonaviy huquqiy nazariya va amaliyotda “axborot vositachisi” tushunchasiga nisbatan yagona va umumqabul qilingan ta’rif mavjud emas. Hozirgi kunda axborotni uzatish, saqlash yoki unga kirish imkoniyatini yaratish bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshiruvchi sub’ektlarni belgilovchi turlicha atamalar qo‘llaniladi. Masalan, 1998 yil 28 oktabrda qabul qilingan AQShning “Raqamli davrda mualliflik huquqi to‘g‘risida”gi qonun keyingi o‘rinlarda – *DMCA*[1] deb o‘qiladi) doirasida “axborot vositachisi” tushunchasi o‘rniga “xizmat ko‘rsatuvchi provayder” atamasi ishlatiladi. Ushbu tushuncha axborotni uzatish, uni vaqtincha yoki doimiy saqlash, hamda foydalanuvchilarga ma’lumotlarga kirish imkonini taqdim etish bilan bog‘liq vositachilik faoliyatini amalga oshiruvchi shaxslarga nisbatan tatbiq etiladi[2]. Shunga ko‘ra, DMCAning 512(k)-moddasida “xizmat ko‘rsatuvchi provayder” tushunchasiga keng va tor ma’noda ta’rif berilgan. Keng ma’noda, “xizmat ko‘rsatuvchi provayder” deganda internet xizmatlarini taqdim etuvchi har qanday shaxs, ya’ni “axborotni uzatish, ma’lumotlardan foydalanish, yozib olish, saqlash yoki serverda joylashtirish kabi xizmatlarni ko‘rsatuvchi har qanday shaxs” tushuniladi. Tor ma’noda esa ushbu atama “faoliyat yoki tarmoq faoliyatini amalga oshirish uchun foydalanuvchilarga onlayn xizmat taqdim etuvchi shaxs” sifatida belgilab qo‘yilgan.

DMCA qonunchiligining yana bir muhim jihati shundaki, u faqat xizmat ko‘rsatuvchi provayderlarning turlarini sanab o‘tish bilan cheklanib qolmay, balki ushbu sub’ektlar uchun umumiy huquqiy ta’rifni ham belgilaydi. Bu esa ularning huquqiy maqomini aniqlash, majburiyatlar doirasini belgilash va qonuniy immunitet *(“safe harbor”*[3] *xavfsiz makon)* mexanizmlarini tatbiq etishda aniqlik va standartlashuvni ta’minlaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston qonunchiligi bilan taqqoslaganda, DMCAning bu

jihati axborot vositachilari faoliyatini tartibga solishda mukammal va funksiyalarini aniq belgilaydigan yondashuvni namoyon etadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi provayder deb foydalanuvchi tomonidan tanlangan kontentning mazmunini o‘zgartirmay, belgilangan nuqtalar o‘rtasida raqamli onlayn-ma’lumotni uzatish, yo‘naltirish yoki aloqa uzatishni amalga oshiradigan shaxs, shuningdek onlayn xizmatlar ko‘rsatuvchi, tarmoqqa kirish imkonini ta’minlovchi yoki ushbu maqsadlar uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan jihozlar operatori tushuniladi[4].

“Xizmat ko‘rsatuvchi provayder” tushunchasi DMCA doirasida nafaqat qonuniy ta’rif orqali, balki sud amaliyotida[5] ham keng va funksional mazmunda talqin qilinadi. Xususan, AQSh Kongressining 1998 yilgi rasmiy hisobotida ta’kidlanishicha, ushbu tushunchaga internetga kirish, elektron pochta, chat xizmatlari hamda veb-sahifalarni serverda saqlash va uzatish kabi axborot almashinuviga yo‘naltirilgan xizmatlarni taqdim etuvchi sub’ektlar kiritiladi[6].

Sud amaliyotida esa ushbu ta’rif yanada kengaytirilib, foydalanuvchilarga ma’lumotlarni joylashtirish va uni tarqatish imkonini beradigan interaktiv platformalarni ham qamrab olgan holda qo‘llanilmoqda. Masalan, Hendrickson v. eBay Inc.[7] ishida sud eBay platformasini, ya’ni tovarlar savdosi bo‘yicha takliflarni joylashtirish imkonini yaratib beruvchi saytni, xizmat ko‘rsatuvchi provayder sifatida e’tirof etgan.

Shuningdek, Columbia Pictures v. Gary Fung[8] ishida foydalanuvchilarga torrent-fayllar orqali axborot almashishni ta’minlovchi saytlar ham mazkur toifaga kiritilgan. Ushbu misollardan kelib chiqib, “xizmat ko‘rsatuvchi provayder” tushunchasi nafaqat axborotni passiv ravishda uzatuvchi yoki xosting qiluvchi sub’ektlarga, balki axborot muhitini shakllantiradigan va foydalanuvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa va almashinuv imkoniyatini yaratib beruvchi platforma egalariga ham taalluqli ekanligi ayon bo‘ladi.

AQShning 1996 yilda qabul qilingan “Aloqa sohasida muloqot odobi to‘g‘risidagi qonun” (Communications Decency Act 47 U.S.C. §230 - keyingi o‘rinlarda – *CDA*[9] deb o‘qiladi)[10]da *“xizmat ko‘rsatuvchi provayder”* tushunchasi alohida shaklda “interaktiv kompyuter xizmati

provayderi” (provider of interactive computer service) sifatida ifoda etilgan. Qonunga muvofiq, interaktiv kompyuter xizmati provayderi deb “foydalanuvchilarga kompyuter serverlariga kirish imkonini taqdim etuvchi yoki ruxsat beruvchi axborot xizmati, tizimi yoki dasturiy ta’minot provayderi” tushuniladi. Bu ta’rif doirasiga Internetga kirishni ta’minlovchi operatorlar, kitobxonalar, ta’lim muassasalari va ular tomonidan boshqariladigan kompyuter tarmoqlari ham kiradi[11]. CDA qonuni va sud amaliyotida “interaktiv kompyuter xizmati” tushunchasi keng talqin qilinib, asosan foydalanuvchilarga axborotni joylashtirish imkonini beruvchi onlayn platformalar, masalan, forumlar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar ham ushbu kategoriyaga kiritiladi[12]. Xususan, Sarah Jones v. Dirty World[13] ishida sud bunday saytni interaktiv kompyuter xizmati sifatida baholagan va uning provayderini kontent uchun javobgar deb topmagan.

CDAning 230-moddasida interaktiv kompyuter xizmati provayderi tushunchasi “axborot kontenti provayderi” bilan qiyoslanadi. Agar interaktiv provayder faqat texnik platforma vazifasini bajarib, foydalanuvchilar tomonidan yuklangan axborotga o‘zgartirish kiritmagan bo‘lsa, u holda u taqdim etilgan kontent uchun javobgar hisoblanmaydi. Ammo agar shaxs axborotning yaratilishi yoki rivojlanishiga bevosita ta’sir etgan bo‘lsa, u axborot kontenti provayderi sifatida baholanadi va ushbu kontent mazmuni uchun javobgar bo‘ladi.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligida “axborot vositachisi” tushunchasi “axborot jamiyati xizmatlari provayderi” atamasi orqali ifodalanadi[14]. Ushbu tushuncha 2000 yil 8 iyundagi Yevropa Parlamenti va Kengashining “Ichki bozorda, ayniqsa, elektron tijorat sohasida axborot jamiyati xizmatlarining ayrim huquqiy jihatlari to‘g‘risida”gi Direktivida (Directive 2000/31/EC, “E-Commerce Directive”)[15] mustahkamlangan bo‘lib, unda axborot vositachisiga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy rejim belgilangan (12-14-moddalar).

Axborot jamiyati xizmatining huquqiy ta’rifi esa avvalroq qabul qilingan 1998 yil 22 iyundagi Direktivi (Directive 98/34/EC, o‘zgartirilgan holda - Directive 98/48/EC)ning 1-modda 2-bandida berilgan. Unga muvofiq, axborot jamiyati xizmati deganda *“odatda haq evaziga, masofadan turib, elektron vositalar orqali va foydalanuvchining talabiga*

binoan taklif qilingan har qanday xizmat"[16] tushuniladi. Shu tariqa, ma'lum bir xizmat "axborot jamiyati xizmati" sifatida baholanishi uchun to'rtta mezonga javob berishi lozim: *birinchidan,* xizmat haq evaziga ko'rsatilishi; *ikkinchidan,* u masofadan turib taqdim etilishi, ya'ni xizmat ko'rsatuvchi va foydalanuvchi bir vaqtda bir joyda bo'lishi shart emas; *uchinchidan,* xizmat to'liq elektron vositalar simli, radioto'lqinli yoki boshqa elektromagnit vositalar orqali ma'lumotlarni ishlash, saqlash va yetkazish asosida amalga oshirilishi; *to'rtinchidan*, xizmat foydalanuvchining individual talabiga asosan ko'rsatilishi, ya'ni axborot u tomonidan maxsus so'ralgan holda uzatilishi lozim.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligida axborot jamiyati xizmatlari tushunchasi keng qamrovli internet xizmatlarini o'z ichiga oladi. Axborot jamiyati xizmati sifatida tan olinadigan xizmatlar qatoriga, jumladan, kontekstli reklama xizmatlari[17], tovarlar savdosi bo'yicha takliflar joylashtirish xizmatlari[18], rasm va videolarni izlash xizmatlari[19] hamda umumiy izlash xizmatlari kiradi. Bu xizmatlar axborot jamiyati xizmati deb e'tirof etiladi, chunki ular, odatda, elektron vositalar orqali, masofadan turib, foydalanuvchining individual talabiga muvofiq haq evaziga taqdim etiladi.

Shu bilan birga, ayrim xizmatlar belgilangan talablarga javob bermagani bois axborot jamiyati xizmatlari sifatida tasniflanmaydi. Masalan, tibbiyot tekshiruvlari elektron jihozlardan foydalanilgan holda bemorning bevosita ishtirokida amalga oshirilsa, yoki do'konda elektron katalog orqali ma'lumot taqdim etilsa, bu xizmatlar masofadan turib ko'rsatiladigan xizmatlar toifasiga kirmaydi, chunki ular foydalanuvchining jismoniy hozir bo'lishini talab qiladi[20]. Shuningdek, ma'lumotlar optik disklar yoki boshqa moddiy ma'lumot tashuvchilar orqali yetkazib berilsa, bunday faoliyat elektron vositalar orqali amalga oshirilmagan bo'ladi va shu bois axborot jamiyati xizmati sifatida baholanmaydi[21]. Radio va televizion tarqatuv xizmatlari ham axborot jamiyati xizmatlari hisoblanmaydi, chunki ular foydalanuvchining individual talabiga asosan emas, balki ommaviy ravishda va bir tomonlama tarzda namoyish qilinadi[22].

To'g'ri, Yevropa Ittifoqi qonunchiligida axborot jamiyati xizmatlarini ko'rsatuvchilar sifatida tan olish uchun qator qo'shimcha talablar mavjud

bo‘lib, bu holat ularni AQSh qonunchiligidagi o‘xshash xizmatlardan farqli ravishda murakkabroq huquqiy baholanishiga olib keladi. Xususan, Yevropa huquqida xizmatning masofadan turib, elektron vositalar orqali taqdim etilishi va foydalanuvchining individual talabiga javob berishi kabi mezonlar axborot jamiyati xizmatlarini tan olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ayrim hollarda tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, mazkur qo‘shimcha talablar Yevropa Ittifoqi sudlari tomonidan cheklangan va aniq tushuniladigan tarzda talqin etilgan bo‘lib, amaliyotda qonun normalarini qo‘llashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan masalalarni oldini oladi.

YeI sudining *“McFadden v. Sony Music”*[23] nizoli ishida qabul qilingan qarorda WiFi orqali bepul internet xizmatini taqdim etuvchi do‘kon egasi “axborot jamiyati xizmati provayderi” sifatida tan olindi. Garchi ushbu holatda provayder va foydalanuvchi jismoniy bir makonda bo‘lgan va xizmat masofadan turib taqdim etilayotgani aniq bo‘lmagan bo‘lsada, sud WiFi orqali internetga kirish imkoniyatini elektron vositalar orqali foydalanuvchi talabiga muvofiq amalga oshiriladigan xizmat deb baholadi. Shu tariqa, sud xizmatni elektron muhitda bajarilayotgan funksional faoliyat sifatida baholab, uni axborot jamiyati xizmati deb e’tirof etdi.

Yevropa Ittifoqi sudining *“UPC Telekabel Wien”*[24] nizoli ishida axborot jamiyati xizmati provayderi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar foydalanuvchining individual talabiga asosan amalga oshirilishi kerakligi to‘g‘risidagi talab cheklangan va amaliy mazmunda talqin qilindi. Sud ushbu ishda provayder bilan foydalanuvchi o‘rtasidagi “maxsus munosabatlar” yoki rasmiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi mavjud bo‘lishi shart emasligini aniq belgiladi. Agar internet-provayderning texnik imkoniyati sabab foydalanuvchilar muayyan veb-saytlarga kirish imkoniga ega bo‘lsa, u holda bunday xizmat foydalanuvchining talabiga asosan ko‘rsatilayotgan xizmat sifatida baholanadi. Shuningdek, provayder veb-sayt egasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzmagan bo‘lsa ham, u axborot jamiyati xizmati ko‘rsatuvchisi deb e’tirof etiladi. Sudning ushbu yondashuvi axborot jamiyati xizmati maqomini belgilashda formal shartnomalar emas, balki xizmatning elektron vositalar orqali amalga

oshirilishi va uning foydalanuvchilarga amaliy yetib borishi asosiy mezon sifatida baholanishini namoyon etadi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, AQSh qonunchiligidagi “*xizmat ko‘rsatuvchi provayder*” va Yevropa Ittifoqi qonunchiligidagi *“axborot jamiyati xizmati provayderi”* tushunchalarining keng talqin qilinishi axborot vositachilari uchun huquqiy jihatdan qulaylik yaratadi. Bu keng talqin vositachiga uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgar bo‘lmaslik imkonini taqdim etadi. AQSh va YeI sud amaliyoti tahlilidan ko‘rinib turibdiki, ayni paytda huquqbuzarlar o‘zlarini xizmat ko‘rsatuvchi provayder yoki axborot jamiyati xizmati provayderi sifatida tan olinishiga intilishadi, chunki bu holatda ular maxsus huquqiy immunitetlardan (“safe harbor” yoki javobgar bo‘lmaslik rejimlaridan) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu tendensiyaga qarshi ravishda, ayrim davlatlarda, jumladan Rossiya Federatsiyasida, sud amaliyotida teskari holati kuzatiladi. U yerda da’vogarlar, aksincha, javobgarni “axborot vositachisi” deb tan olinishiga intiladilar. Bu orqali ular javobgarga nisbatan ayblov prezumpsiyasini shakllantirib, uning huquqbuzarlik uchun javobgarligini asoslashni maqsad qilgan holda harakat qilishadi[25]. Demak, shulardan ko‘rinib turibdiki, “axborot vositachisi” maqomining huquqiy mazmuni va uning sudda qo‘llanilishi turli yurisdiksiyalarda turlicha strategik yondashuvlarga sabab bo‘lmoqda.

Yevropa Ittifoqi qonunchiligida axborot vositachilarining huquqiy maqomini tartibga solishda yana bir muhim tushuncha – bu *“vositachiga xizmat ko‘rsatuvchi provayder”* (intermediary service provider)[26] tushunchasidir. Ushbu tushunchaning mazmuni YeI bir qancha sud qarorlarida asosida paydo bo‘lgan bo‘lib, unga ko‘ra vositachiga xizmat ko‘rsatuvchi provayder – bu foydalanuvchilarga ma’lumotni tarqatish, almashish yoki o‘zaro aloqa o‘rnatish imkonini beradigan internet platformasi yoki xizmat ko‘rsatuvchi sub’ekt hisoblanadi. Bunday provayderlar, odatda, kontentni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yaratmaydi, balki uchinchi shaxslar yoki foydalanuvchilar tomonidan yuklangan ma’lumotlarni internetda tarqatishga yordam beradi. Sud amaliyotida[27] “axborot vositachisi” tushunchasi, odatda, internet-xosting xizmatlari,

elektron tijorat platformalari, reklama tizimlari, chat-platformalar yoki torrent-servislar kabi sub'ektlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu holatda ularning faoliyati kontentni yaratish yoki tahrirlashga emas, balki texnik vosita orqali ma'lumotlarni uzatish, saqlash yoki taqdim etishga qaratilgan bo'lsa va ular ushbu kontent ustidan nazorat amalga oshirmasalar, "axborot vositachisi" maqomi qo'llanilishi mumkin bo'ladi.

Bunday xizmat ko'rsatuvchi axborot jamiyati xizmati provayderi sifatida e'tirof etilishi mumkin, biroq buning uchun uning faoliyati faqat texnik, avtomatlashtirilgan va faol bo'lmagan xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ya'ni, agar provayder ma'lumotlarni uzatish yoki saqlash jarayonida ishtirok etsada, ularning mazmunidan xabardor bo'lmasa yoki ularni nazorat qilmasa, u holda u vositachiga xizmat ko'rsatuvchi provayder maqomini saqlab qoladi. Masalan, Sotiris Papasavvas v. O Fileleftheros[28] ishida YeI sudi aynan shunday yondashuvni qo'llab-quvvatlagan. Shu tariqa, axborot jamiyati xizmati provayderi vositachi sifatida e'tirof etilishi uchun asosiy mezon - *bu uning kontent ustidan faol ta'sir ko'rsatmasligi va ma'lumot uzatish jarayoniga aralashmasligidir*.

So'nggi yillarda Yevropada internetda axborotni uzatish, saqlash yoki unga kirish imkonini berish bilan bog'liq vositachilik faoliyatini amalga oshiradigan shaxslarni aniqlash uchun yangi tushuncha kiritish haqida muhokamalar olib borilmoqda[29]. Masalan, 2016 yilda Yevropa Komissiyasi *onlayn-platformalar* faoliyatini tartibga solishga bag'ishlangan bayonotni e'lon qildi. Unda onlayn-platformalarning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'sib borayotgan roliga to'xtalib, Yevropa Komissiyasi yangi innovatsion onlayn-platformalarni jalb qilish, saqlash va rivojlantirish uchun sharoit yaratish zarurati haqida ta'kidladi. Shu bilan birga, unda onlayn-platforma operatorlarini o'z faoliyatlarini mas'uliyat bilan olib borishga qaratilgan huquqiy tartibni yaratish zarurligini alohida ta'kidlandi[30].

Haqli savol tug'iladi, ya'ni "onlayn-platforma" tushunchasi "axborot jamiyati xizmati" tushunchasi bilan qanday bog'liqligi bor. Huquqiy adabiyotda onlayn-platformalarning birinchi navbatda axborot jamiyati xizmati servislari ekanligi ta'kidlanadi, chunki ular foydalanuvchilar tomonidan taqdim etilgan katta hajmidagi kontentni o'zida jamlaydi.

Bunday xizmatlar ko‘pincha foydalanuvchi kontentni maqbullashtirish yoki targ‘ib qilish bilan shug‘ullanadilar[31]. Bu esa ularning faoliyatini faqat kontentga kirishni ta’minlashdan ko‘ra ko‘proq natijalarni beradi. Bunday onlayn-platformalarga intellektual mulk huquqlarini buzishga qarshi kurashishga qaratilgan qo‘shimcha majburiyatlar, xususan, onlayn-platformalarga intellektual huquqlarni buzib tarqatilgan axborotni faol tarzda izlash va o‘chirish, yoki ularning intellektual faoliyat natijalari bilan bog‘liq litsenziya shartnomalarini tuzish majburiyatini yuklash imkoniyati ko‘rib chiqilmoqda[32]. Shu bilan birga, Yevropa Komissiyasining bayonotida internet-platformalarga faqat foydalanuvchi kontenti xosting qiluvchi xizmatlargina emas, balki “onlayn-reklama va elektron savdo platformalari, qidiruv tizimlari, ijtimoiy tarmoqlar va ijodiy kontent platformalari, ilova tarqatish platformalari, aloqa xizmatlari, to‘lov tizimlari va hamkorlik iqtisodiyoti platformalari” xam kiritilgan[33].

MDH, xususan RF qonunchiligida axborot vositachilarining huquqiy maqomi mustaqil tushuncha sifatida belgilangan. RF FKning 1253.1-moddasida “axborot vositachi” axborotni axborot-telekommunikatsiya tarmog‘ida, jumladan, Internetda uzatish, joylashtirish yoki unga kirish imkonini yaratib beruvchi shaxs sifatida belgilanadi. Ushbu norma axborot vositachisining huquqiy tabiatiga nisbatan funksional yondashuvni aks ettiradi. Ya’ni, vositachilikning mazmuni faoliyatning shakli yoki vositasidan emas, balki uning ijtimoiy-huquqiy funksiyasidan kelib chiqadi.

Rossiyalik olim V.O. Kalyatinning ta’kidlashicha, “provayder” tushunchasidan voz kechish va uni “axborot vositachisi” bilan almashtirish qonunchilikda tartibga solishni keng mazmunli va texnologik jihatdan betaraf shaklda amalga oshirish imkonini beradi[34]. Bu o‘rinda qonun “Internet” tushunchasiga qaraganda ancha umumiyroq “axborot-telekommunikatsiya tarmog‘i” atamasidan foydalanadi, bu esa axborot vositachisi sifatida tan olinishi mumkin bo‘lgan sub’ektlar doirasini texnologik platformalar bilan cheklab qo‘yishning oldini oladi. Bunday yondashuv axborot vositachilik faoliyatining asl mohiyati ya’ni ma’lumotlarni yetkazish, saqlash yoki ularga kirishni ta’minlashdagi texnik roliga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Natijada, axborot vositachisi maqomida faqat an’anaviy aloqa operatorlari yoki xosting xizmatlari emas,

balki telefon, kabel yoki boshqa telekommunikatsiya tarmoqlari orqali ma’lumotni yetkazish yoki ushbu ma’lumotlarga kirishni ta’minlovchi barcha sub’ektlar qamrab olinadi. Bunday keng talqin Rossiyada internet-infratuzilma ishtirokchilari tomonidan ham qo‘llab-quvvatlangan. Masalan, “Yandeks” kompaniyasi tomonidan bildirilgan fikrga ko‘ra, hatto agar internet foydalanuvchisi boshqa foydalanuvchiga havola yuborsa, bu ham axborotga kirish imkonini yaratayotgan vositachilik faoliyati deb baholanishi mumkin[35].

Rossiya Federatsiyasida axborot vositachilarining huquqiy maqomi nafaqat qonunchilik, balki sud amaliyoti orqali ham kengayib va chuqurlashib bormoqda. Fuqarolik kodeksining 1253.1-moddasida axborot vositachisi deb axborotni axborot-telekommunikatsiya tarmog‘ida uzatish, joylashtirish yoki olish imkonini ta’minlovchi shaxslar e’tirof etilgan bo‘lsada, amaliyotda ushbu tushuncha an’anaviy provayderlar va xosting xizmatlaridan tashqari, zamonaviy raqamli muhitdagi keng doiradagi platformalarga ham tatbiq etilmoqda. Xususan, Rossiya sudlari tomonidan axborot vositachisi sifatida tan olinayotgan sub’ektlar quyidagilardan iborat: masalan, video ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkonini beruvchi sayt administratorlari (striming platformalari) [36], foydalanuvchi kontentini taqdim etuvchi ijtimoiy tarmoqlar administratorlari[37], mobil ilovalar do‘konlari (App Store, Google Play) kabi axborotni saqlamasada, unga vositachilik qiluvchi platformalar[38], kontentni texnik jihatdan yetkazib beruvchi CDN (Content Delivery Network) infratuzilmalari[39], shuningdek, musiqiy asarlarni o‘z sahifasida tarqatuvchi saytlar ham axborot vositachisi[40] sifatida e’tirof etilmoqda. Bunday saytlar kontentni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xost qilmasdan, uni boshqa manbalardan avtomatik ravishda olish orqali integratsiya qilish orqali faqat texnik vositachilik funksiyasini bajaradi. Agar ular kontent mazmuniga ta’sir etmasalar va uni nazorat qilmasalar, amaliyotda ularga nisbatan axborot vositachisi maqomi qo‘llanilishi mumkin. Bu keng talqin Rossiya huquqshunoslari, jumladan, V.O. Kalyatin tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanib, “provayder” tushunchasidan voz kechish va uni texnologik neytral, huquqiy keng qamrovli “axborot vositachisi” atamasi bilan almashtirish zarurati bilan izohlanadi[41].

O‘zbekistonda esa axborot vositachilariga doir munosabatlar bevosita maxsus bir qonun bilan emas, balki bir nechta sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, 2003 yil 11 dekabrdagi 560-II-son “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun, 2024 yil 27 dekabrdagi O‘RQ-1015-son “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi qonun hamda 2007 yil 15 yanvardagi O‘RQ-78-son “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunlarda axborotning aylanishi, axborot xizmatlari, ommaviy tarqatish va tarmoq infratuzilmalari bilan bog‘liq masalalar nazarda tutilgan bo‘lsada, ushbu hujjatlarda “axborot vositachilari” degan tushuncha aniq huquqiy kategoriya sifatida mustahkamlanmagan. Bu holat amalda qonunchilikdagi bo‘shliqni anglatadi, ya’ni axborotni tarqatishda, uzatishda yoki saqlashda ishtirok etuvchi shaxslarning masalan, veb-saytlar administratorlari, xosting xizmat ko‘rsatuvchilar, internet-platforma egalari, domen nomini ro‘yxatdan o‘tkazuvchilar kabi sub’ektlarning huquqiy maqomi aniq belgilanmagan. Shu sababli, O‘zbekiston huquqiy tizimi doirasida “axborot vositachisi kim?” degan savolga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonuniy ta’rif orqali javob berishning iloji yo‘q. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar, xususan RF, AQSh va YeI mamlakatlari tajribasi asosida qiyosiy tahlil yuritilganda, axborot vositachisi sifatida quyidagi shaxslarni ko‘rsatish mumkin: “axborot tizimi operatori”, “domen nomini ro‘yxatdan o‘tkazuvchi”, “domen nomining ma’muri”, “kontentni saqlovchi va uzatuvchi xosting provayderlar” hamda texnik vositachilik qiluvchi tarmoq xizmatlari ko‘rsatuvchilar.

Shu bilan birga, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida “bloger” tushunchasi alohida huquqiy sub’ekt sifatida kiritilgan bo‘lib, u jamoatchilikka mo‘ljallangan axborotni internet orqali tarqatuvchi shaxs sifatida belgilanadi. Blogerlar o‘z kanallari yoki sahifalari orqali axborotni joylashtiradi va iste’molchiga yetkazadi, bu esa ularning axborot vositachisi sifatida faoliyat yuritishini anglatadi. Ushbu meyor amalda axborot vositachisi tushunchasini mukammal yuridik tarzda mustahkamlamasada, kamida uning muayyan shaklini tan olish yo‘lidagi dastlabki qadam sifatida baholanishi mumkin.

Qozog‘istonning 2023 yil 10 iyuldagi “Onlayn-platforma va onlayn-reklama to‘g‘risida”gi qonunida axborot vositachiligi bilan bog‘liq

munosabatlarni tartibga solishda blogerlar (inflyuenserlar. ingl. «influence» - “ta’sir qilish”)ning huquqiy maqomi belgilangan. Qonunning 1-moddasi 2-qismi 6-bandiga muvofiq, “inflyuenser (bloger)” deb onlayn-platformalarda tadbirkorlik faoliyati maqsadida keng ommaga ma’lumot tarqatuvchi va bundan olishni maqsad qilgin foydalanuvchi tushuniladi. Bu yerda “bloger” va “inflyuenser” atamalari sinonim sifatida ishlatilib, ular axborot vositachisi sifatida aynan tijorat munosabatlari mazmunida qaraladi. Shu tariqa, Qozog‘istonning mazkur qonuni blogerlarning faoliyatini reklama qilish huquqi, huquqiy majburiyatlar va davlat tomonidan tartibga solinishini aniq belgilash orqali ularni tadbirkorlik xususiyatiga ega axborot vositachilari sifatida huquqiy jihatdan institutsionallashtiradi. Bu yondashuv, mazmunan, O‘zbekistonning “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunida nazarda tutilgan bloger tushunchasiga yaqin bo‘lsada, Qozog‘iston qonunchiligida blogerning iqtisodiy faoliyati va undan kelib chiquvchi javobgarligi aniqroq va tizimliroq tarzda belgilangan.

Qozog‘iston qonunchiligida blogerni “inflyuenser” sifatida atash amaliyoti xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan Yevropa Ittifoqining 2005 yil 11 maydagi 2005/29/EC-sonli “Iste’molchilarni noto‘g‘ri tijoratdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Direktivi bilan ham o‘zaro hamoxang. Mazkur Direktivda, xususan, 4.2.6-bandida “inflyuenser” deb o‘rtacha yuqori auditoriyaga ega bo‘lgan jismoniy shaxs yoki virtual tashkilot tushuniladi. Bu ta’rif inflyuenser faoliyatining asosiy xususiyati – keng jamoatchilikka ta’sir ko‘rsatish va tijorat maqsadida axborot tarqatishga asoslanishini ko‘rsatadi[42].

Milliy qonunchilik darajasida “inflyuenser” tushunchasiga aniq va huquqiy asoslangan ta’rifni birinchi bo‘lib Fransiya bergan. 2023 yil 9 iyunda qabul qilingan 2023-451-sonli “Biznesning ta’sirini tartibga solish va ijtimoiy tarmoqlarda ta’sirchan shaxslar tomonidan ta’sir ko‘rsatilishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasida inflyuenserlar “o‘z auditoriyasida mashhurlikni oshirish maqsadida elektron shaklda kontent taqdim etadigan va to‘lov asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tovarlar, xizmatlar yoki boshqa maqsadlarni targ‘ib qiluvchi, shu orqali tijoratda o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar” sifatida belgilangan.

Bu ta’rif orqali Fransiya inflyuenserlarni nafaqat axborot tarqatuvchi, balki iqtisodiy va reklama ta’siriga ega shaxslar sifatida javobgar sub’ekt sifatida huquqiy maqom beradi[43]. Fransuz qonuni inflyuenser faoliyatini tijorat munosabatlari tizimida baholab, uni reklama, iste’molchilarni himoya qilish va onlayn platformalar faoliyati bilan uzviy bog‘liq tarzda huquqiy tartibga solishni nazarda tutadi.

So‘nggi yillarda inflyuenserlarning huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga solish xalqaro miqyosda jadal rivojlanib, qator davlatlarda qonunchilik va o‘zini o‘zi tartibga solish mexanizmlari asosida institutsionallashtirilmoqda. Jumladan, 2020 yilda Ispaniyada Tijorat kommunikatsiyalarini o‘zini o‘zi tartibga solish assotsiatsiyasi (Autocontrol) va Ispaniya reklama assotsiatsiyasi (AEA) tomonidan qabul qilingan “Inflyuenserlardan foydalanish bo‘yicha xulq-atvor kodeksi” axborot tarqatuvchi shaxslar, ya’ni blogerlar, yutuberlar, instagrammerlar kabi shaxslarni “inflyuenser” sifatida ta’riflab, ularning faoliyatidagi axloqiy standartlarni belgilaydi[44]. Ushbu kodeks yuridik jihatdan majburiy bo‘lmasada, raqama muhitini shaffoflashtirishga va o‘zini o‘zi nazorat qilish tizimini kuchaytirishga xizmat qiladi. AQShda esa, xususan Illinoys shtatida 2024 yil 1 iyuldan kuchga kirgan “Bolalar mehnati to‘g‘risida”gi qonunga kiritilgan o‘zgartishlar orqali inflyuenserlik tijorat faoliyati sifatida huquqiy tartibga solina boshlandi. Qonun “videoblog” va “videobloger” (16 yoshdan katta bo‘lgan shaxs yoki kontent yaratayotgan oila a’zolari) atamalarini aniq ta’riflab, bolalar ishtirokidagi kontentdan tushgan daromadning muayyan qismini bolalarning jamg‘arma hisobvarag‘iga o‘tkazish majburiyatini joriy etdi[45]. Shu bilan, inflyuenserlik faoliyati axborot vositachiligidan tashqarida, iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirga ega professional faoliyat sifatida huquqiy maydonga chiqarilmoqda.

Turli davlatlarning “bloger” va uning sinonimi qo‘llaniladigan “inflyuenser” tushunchasiga oid normativ hujjatlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa G‘arb mamlakatlarida mazkur faoliyat turi, avvalo, reklama va raqamli marketing sohalari bilan bog‘langan tadbirkorlik shakli sifatida ko‘rsatiladi. Qonunchilikda “bloger” atamasi mavjud bo‘lgan taqdirda ham, amalda “inflyuenser” atamasi qo‘llanilib, axborot tarqatuvchi sub’ektlar

keng auditoriyaga ta’sir ko‘rsatuvchi va tijorat axborotini tarqatuvchi shaxslar sifatida baholanadi.

O‘zbekistonda esa blogerlik faoliyati “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun orqali jamoatchilikka axborot tarqatuvchi sub’ekt sifatida nazarda tutilgan bo‘lsada, unda inflyuenserlik faoliyatining tijorat va reklama sohalari bilan bog‘liq iqtisodiy va huquqiy majburiyatlari aniq belgilanmagan. Shu nuqtai nazardan, inflyuenserlik faoliyatini hali to‘liq ma’noda tijorat sohasi sifatida baholash mumkin emas. Shu bilan birga, O‘zbekistonda axborot vositachisi sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan yana bir sub’ekt domen nomi ma’muri 2008 yil 26 maydagi 155-sonli buyruq bilan tasdiqlangan “UZ” domenidagi domen nomlarini ro‘yxatdan o‘tkazish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizomda huquqiy maqomga ega. Nizomning 4-bandida “domen nomining Ma’muri” deb ushbu nomni o‘z nomiga ro‘yxatdan o‘tkazgan jismoniy yoki yuridik shaxs tushunilishi belgilab qo‘yilgan. Agar ushbu shaxs o‘z domenida axborot tarqatish, kontent yaratish yoki auditoriyaga axborot yetkazish bilan shug‘ullansa, u axborot vositachisi sifatida qaralishi mumkin. Bu axborot turli shaklda matn, foto, video, audio yoki grafik ko‘rinishda bo‘lishi mumkin va uning tarqalishi, mazmuni hamda auditoriyasi uchun shaxs ma’lum darajada javobgarlikni ham o‘z zimmasiga oladi. Ammo agar domen nomi shaxsiy foydalanish uchun saqlansa va ommaviy axborot tarqatish bilan bog‘liq bo‘lmasa, u holda bunday sub’ektni axborot vositachisi deb baholash asossiz bo‘ladi.

Xulosa.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda axborot vositachilarining huquqiy maqomini belgilashda quyidagilarga e’tibor qaratish taklif qilinadi:

Axborot vositachisining huquqiy maqomini aniqlash, uning ijtimoiy va huquqiy faoliyatini to‘g‘ri baholash uchun muhim nazariy va amaliy asos hisoblanadi. Turli mamlakatlar qonunchiligida bu maqomni belgilashda bir qancha umumiy mezonlar va funksiyalar shakllangan bo‘lib, ular axborot vositachisining kimligi, faoliyat usullari, mustaqilligi, axloqiy va huquqiy javobgarligi bilan bog‘liq. Quyida bu masala bosqichma-bosqich tahlil qilinib, xalqaro amaliyot asosida asoslab beriladi.

Birinchidan, axborot vositachisini aniqlash zarurati. Axborot vositachisining huquqiy maqomini belgilashda avvalo uning kimligi va faoliyati aniqlanishi lozim. U axborotni yaratish, uzatish yoki tarqatish orqali jamoatchilikka yetkazuvchi shaxs yoki tashkilotdir. Masalan, RF FK 1253.1-moddasida internetda axborotni joylashtirish, uzatish yoki olish imkonini beruvchi har qanday shaxs “axborot vositachisi” sifatida ko‘rsatiladi. Fransiyada 2023 yil 9 iyunda qabul qilingan 2023-451-sonli qonunda “inflyuenserlar” tijorat kontentini tarqatuvchi shaxslar sifatida huquqiy maqomga ega. Shu bois, blogerlar, inflyuenserlar, platformalar egalari va domen nomi ma’murlari axborot vositachilari sifatida baholanishi mumkin.

Ikkinchidan, axborot vositachisining mustaqilligi – uning axborot tarqatishda erkin harakat qilishi, tashqi ta’sirlardan xoli bo‘lishi va qarorlarni mustaqil qabul qilishi bilan bog‘liq. Bu tamoyil axborot erkinligining asosiy mezoni hisoblanadi. Yevropa Ittifoqining 2005 yil 11 maydagi 2005/29/EC-sonli Direktivi iste’molchilarni insofsiz tijorat munosabatlaridan himoya qilishni ko‘zlagan holda, inflyuenser faoliyatini ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqil axborot yetkazuvchi, reklama kontentini ochiq belgilashga majbur sub’ekt sifatida baholaydi. Mustaqil axborot vositachisi esa hech qanday siyosiy, moliyaviy yoki ma’muriy bosimlarsiz faoliyat yuritishi va kontentni erkin tanlash huquqiga ega bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, axborot vositachisining shaxsiy javobgarligi – u tarqatayotgan axborotning huquqiy va ijtimoiy oqibatlari uchun javob beradi. AQShning Illinoys shtatidagi “Bolalar mehnati to‘g‘risida”gi qonunidagi qoidalar bevosita voyaga yetmagan inflyuenserlar faoliyati orqali olinayotgan daromadni tartibga solishga qaratilgan bo‘lib, ota-onalarni mas’ul shaxslar sifatida belgilar ekan, axborot tarqatish faoliyati uchun shaxsiy va iqtisodiy javobgarlikni ta’minlaydi. Shuningdek, Fransiyadagi 2023 yilgi qonun inflyuenserlarning axborot manipulyatsiyasi yoki zararli kontent tarqatish holatlarida javobgarlikka tortilishini nazarda tutadi.

Shunday qilib, yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston Respublikasi 2003 yil 11 dekabrdagi “Axborotlashtirish

to‘g‘risida”gi Qonunning 3-modda birinchi qismi quyidagicha axborot vositachisining ta’rifini qo‘shimcha sifatida kritish mumkin:

Axborot vositachisi *– axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida, jumladan, Internet orqali axborotni uzatish, qabul qilish, qayta ishlash, vaqtincha yoki doimiy saqlash, joylashtirish, hamda foydalanuvchilarga ushbu axborotga kirish imkonini ta’minlash faoliyatini amalga oshiruvchi, axborotni texnik, texnologik yoki algoritmik vositalar orqali tarqatishga yordam beradigan jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi.*

Axborot vositachisining huquqiy maqomini aniqlashda quyidagi mezonlar asos qilib olinadi:

Faoliyatning mohiyatiga asoslangan mezon – axborot vositachisi axborot-telekommunikatsiya tarmoqlarida axborotni uzatish, saqlash, joylashtirish yoki foydalanuvchilarga unga kirish imkonini yaratishga qaratilgan texnik, texnologik yoki algoritmik faoliyatni amalga oshiruvchi sub’ekt hisoblanadi.

Axborot mazmuniga ta’sir darajasi – vositachining axborot mazmuniga ta’sir etmasligi (ya’ni, uni tahrir qilmasligi, nazorat nazorat qilmasligi yoki o‘zgartirmasligi) uning passiv vositachi sifatida baholanishiga asos bo‘ladi.

Texnik vositachilik vazifasi – axborot vositachisi axborotni mustaqil yaratmasdan, uning tarqatilishida texnik vosita sifatida ishtirok etadi. U faqat ma’lumotni uzatish, vaqtincha yoki doimiy saqlash, ya’ni “axborot oqimini” tashkil etishga xizmat qiladi.

Foydalanuvchilar bilan munosabatlar xususiyati – vositachi, odatda, foydalanuvchilarga axborotga kirish imkonini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tarzda yaratib beradi, lekin axborot mazmuni ustidan nazoratni to‘liq amalga oshirmaydi.

Shartnomaviy va xizmat ko‘rsatish asosi – axborot vositachisining faoliyati aksar hollarda shartnomalar, foydalanish shartlari (terms of service) yoki litsenziyalar asosida amalga oshiriladi va foydalanuvchilarga axborot xizmatlarini taqdim etishga qaratilgan bo‘ladi.

Yuqorida milliy va xalqaro huquqiy tajribaga asoslanib, blogerning axborot vositachisi sifatidagi maqomi uning faoliyat shakli, tarqatilayotgan axborotning manbai va platformaning funksiyalariga qarab baholanishi

lozim. Shunday qilib, agar ***bloger boshqalar tomonidan yaratilgan axborotni*** o‘z platformasida joylashtirsa, tarqatsa yoki foydalanuvchilar uchun axborotga kirish imkonini yaratsa, u holda u ***axborot vositachisi sifatida qaralishi mumkin.*** Bunday faoliyat vositachilik funksiyalarini bajarish, ya’ni axborotni uzatish, saqlash, qayta tarqatish va kirish imkonini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, blogerni texnik yoki platformaviy vositachi sifatida huquqiy baholash imkonini beradi.

Boshqa holatda esa, agar ***bloger faqat o‘zi yaratgan axborotni*** mustaqil ravishda joylashtirsa va tarqatsa, ya’ni uning faoliyati faqat kontent yaratish va uni shaxsan tarqatishdan iborat bo‘lsa, bunday ***bloger axborot vositachisi hisoblanmaydi.*** U bunda axborot manbai, ya’ni axborot egasi sifatida harakat qilgan bo‘ladi va vositachilik bilan bog‘liq huquqiy majburiyatlar unga tatbiq etilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. DIGITAL MILLENNIUM COPYRIGHT ACT https://www.govinfo.gov/content/pkg/PLAW-105publ304/pdf/PLAW-105publ304.pdf
2. Kazakov N. A. Informatsionnыe posredniki v prave zarubejnыx stran // Mejdunarodnыy jurnal gumanitarnыx i yestestvennыx nauk. 2021. №4-3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnye-posredniki-v-prave-zarubezhnyh-stran (murojaat sanasi: 22.04.2025).
3. Carroll M. W. Safe harbors from intermediary liability and social media //Research Handbook on electronic commerce law. – Edward Elgar Publishing, 2016. – S. 168-184.
4. 17 U.S. Code § 512(k)(1)(B).
5. Digital Millenium Copyright Act of 1998. Report: 105-551. Part 2: July 22, 1998 / House of Representatives, 105th Congress, 2d Session. Washington: The Library of Congress — Thomas. - P 64. URL: http://www.gpo.gov/fdsys/pkg/CRPT-105hrpt551/pdf/CRPT-105hrpt551-pt2.pdf (murojaat sanasi: 14.04.2025).
6. Digital Millennium Copyright Act of 1998. Report: 105–551. Part 2, - P. 64
7. 165 F. Supp. 2d 1082, C.D. Cal. 2001. Hendrickson v. eBay, Inc., 165 F. Supp. 2d 1082 (C.D. Cal. 2001): Justia

8. 710 F.3d 1020, 9th Cir. 2013. Columbia Pictures Industries, Inc. v. Fung – CourtListener.com.

9. https://ipmall.info/sites/default/files/hosted_resources/crs/96-321.pdf

10. Communications Decency Act, 47 U.S.C. §230 https://www.columbia.edu/~mr2651/ecommerce3/2nd/statutes/

11. CommunicationsDecencyAct.pdf

12. CDA. 47 U.S.C. §230

13. Sarah Jones v. Dirty World. 755 F.3d 398 (6th Cir. 2014): United States Court of Appeals, Sixth Circuit ... Filed June 16, 2014. Dostup iz spravochnoy pravovoy sistemы Hein Online.

OILANI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING TARIXIY BOSQICHLARI

Sh.Q.Amirxo‘jayev

Andijon davlat universiteti, Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti, Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari huquq ta’limi kafedrasi mudiri, falsafa fanlari boyicha falsafa doktori (PhD), dotsent:

Mustaqilligimizning birinchi yillaridanoq mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda oilani mustahkamlash, ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi ma’suliyatini oshirishga katta e’tibor berilmoqda. Oila butun jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismi bo‘lishi bilan birga uning asosiy bo‘g‘ini hamdir.

Har bir oila ijtimoiy tizim – struktura sifatida jamiyat oldida ma’lum bir vazifani bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan, jamiyatning oilaga ta’sirini, ikkinchi tomondan, jamiyatda oilaning o‘rnini hal qiladigan ijtimoiy vazifalarni hisobga olish lozim.

“Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunish lozim. Bunda o‘zaro hurmat va qattiq tartib bo‘lmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko‘rsatilmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o‘zining ko‘p asrli mustahkam va ma’naviy tayanchlariga ega bo‘ladi, oilada demokratik

negizlarga asos solinadi, odamlarning talab ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi”.

O‘zbekiston Respublikasining gullab yashnashida mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Yurtboshimiz huquqiy demokratik davlat tashkil topishining asosiy shartlaridan biri oilani mustahkamlash ekanini qayta – qayta uqtirib o‘tgani bejiz emas, albatta. Oila, munosabatlari madaniyatining takomillashtirish masalasi milliy davlatimiz olib borayotgan siyosatning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelayotganning sababi ham shundadir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida shunday deyilgan: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir”.

Demak, Konstitutsiya mamlakatimizda har bir oila, har bir fuqaro tinch, xotirjam yashashini, teng huquqli oila qurib, farzand ko‘rish va ularni tarbiyalashni kafolatlaydi. Bunday jarayonda oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatda manfaatlarning umumiyligi, o‘zaro yordam, bir-birini sevish va hurmat qilish eng asosiy omil bo‘lib qoladi. Oilaga g‘amxo‘rlik qilish, unga har taraflama ijtimoiy, moddiy, ma’naviy yordam ko‘rsatish insonparvar huquqiy demokratik davlatning muhim vazifalaridan biridir.

Oila munosabatlari madaniyatining jamiyat hayoti, inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni haqida so‘z yuritar ekanmiz, avvalambor oilaning falsafiy tushunchasini mohiyati, ijtimoiy hayotda va tarbiyaviy ishlar tizimidagi o‘rni masalasining metodologik tahliliga e’tibor qaratish lozim.

Ma’lumki, oilada inson ma’naviyatining dastlabki kurtaklari shakllanadi, yoshlar o‘zlarining butun jamiyat oldidagi burchi, ma’suliyatini ilk bor oilada tushunib yeta boshlaydilar. Shu jihatdan oilaning inson ijtimoiy, ma’naviy kamolotidagi o‘rni katta va betakrordir. “Oila qadriyatlari va qon – qarindoshlik munosabatlarini qayta tiklanishi o‘z umrini yashab bo‘layotgan oila-urug‘ munosabatlarini abadiylashtirishni emas, balki har bir oilaning iqtisodiy, madaniy va kasb jihatidan erkin bo‘lish imkoniyatini anglatishi lozim. Ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi ularning hozirgi dunyo va axborot sivilizatsiyasi qadriyatlariga moslashishini ham anglatadi”.

Darhaqiqat, oilaning mohiyati, u o‘ziga xos funksiyalarni bajara olishi jamiyatdagi ijtimoiy, iqtsodiy, siyosiy munosabatlarga, ma’naviy muhitga ham bog‘liq. Agar ma’lum imkoniyatlar, sharoitlar bo‘lmasa, oilaviy munosabatlar zaiflashib, ota-onalar ijtimoiy funksiyalarni, ayniqsa, farzand tarbiyasi borasidagi o‘z burchlarini bajara olmaydilar. Bu esa jamiyat bilan oila o‘rtasidagi munosabatlarning naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi.

Oila uzoq ijtimoiy, tarixiy jarayonlarda shakllangan, rivojlangan kishik ijtimoiy birlikdir. Uning rivojlanishi ham kishilik jamiyatiga xos bo‘lgan pastdan yuqoriga qarab takomillashishi qonuniga asoslanadi. Bunga sabab bo‘lgan tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy omillar quyidagilardir:

-oila kishilarning tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, nasl qoldirishga intilish), ijtimoiy-huquqiy (nikoh, fuqarolik holatlarini qayd qilish), ma’naviy-ahloqiy (er-xotin ota-ona va bolalar o‘rtasidagi sevgi, mehr-muxabbat tuyg‘usi) omillar asosiga qurilgan birlik bo‘lgan;

- oilani shakllanishida garchand tabiiy, ijtimoiy omillarning ta’siri kuchli bo‘lsa-da, ijtimoiy, ma’naviy omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham insonlar oilasi hayvonlarning jinsiy juftlashishidan keskin farq qiladi;

- oila er-xotin, ularning bola-chaqalari, eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi dastlabki jamoani tashkil etgan. Shu ma’noda oila kishilik jamiyati shakllanishining dastlabki poydevori ham bo‘lgan.

Taraqqiyotning turli bosqichlaridagi ehtiyoj va imkoniyatlar oilaning turli shakllarini yuzaga keltirgan. Oilaning ibtidoiy ko‘rinishlaridan sanaluvchi qon-qarindosh oila, undan keyingi bosqichda esa punalual oila, ya’ni bir guruhga mansub opa-singillarning boshqa jamoa guruhidagi erlarga xotinlik qiladigan oila dastlabki oiladan iborat an’analar yuzaga kelgan.

Kishilik jamiyatining ilk ibtidoiy bosqichidagi poligam oiladan monogam oilaga o‘tish jarayonida yuzaga kelgan endogamik nikoh, ya’ni ibtidoiy urug‘chilik tuzimida qabila ishidan guruhiy nikohdan – bir qabilaga mansub erkak va ayol nikohidan chetlashib, aniqrog‘i, o‘zga qabila qizi bilan nikohlanishga asoslangan ekzogamik nikohga o‘tish insoniyatda

nomus tuyg‘usini anglash naqadar uzoq davom etgan jarayon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Onalik urug‘i, otalik urug‘i ham oilaviy munosabatlar tadrijining bosqichlaridir. Keyinroq borib ko‘p xotinlik (poligam). Bir xotinlik (monogam) asoslangan oilalar kelib chiqqani ma’lum. Demak, oila insoniyat oldida turgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy munosabatlar taqozosi bilan bog‘liq ravishda vujudga kelgan.

Islom manbalarida ham oilani tashkil bo‘lishi, mazmun-mohiyati, oila munosabatlari madaniyatiga oid ko‘rsatmalar, talablar o‘z ifodasini topgan. Islom dini targ‘ib qilgan oila madaniyati joxiliya davrida xukm surgan oilaviy munosabatlardan tub farq qiladi. Agarda joxiliya davrida ayollarning oiladagi huquqlari umuman paymol qilishgan holda erkak hologanicha xotin olish (15-20ta, undan ham ko‘p) huquqiga ega bo‘lgan bo‘lsa, islom manbalarida bu masalalar muayyan darajada tartibga solindi. Islom ta’limotiga asoslanib ko‘riladigan oilalar yangicha mazmun, yangicha shakl kasb eta boshladi. Qaryib 1,5 ming yil davomida islomga e’tiqod qiluvchi xalqlar islomiy nikoh asosida oila quradilar va shu davr ishida oila munosabatlari madaniyati shakllanib, mazmuni boyib bordi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qarang. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 1998. – B. 532

2. O‘zbekiston Respublikasi KonstitutsiY. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B. 43

3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlik tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – B. 147

4. Qarang: Mustaqillik izohli ilmiy ommabop lug‘ati. – Toshkent: 2000. – B. 127; O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – M: 1981. – B. 526

YANGI O‘ZBEKISTONDA MIKROKREDIT TASHKILOTLARINING TASHKIL TOPISHI VA BEKOR BO‘LISHINING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISH ASOSLARI

Madumarov Talantbek Tolibjonovich
Andijon davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma’naviy marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, Y.f.d. prof.

Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2024 yil 1 mart holatiga ko‘ra, respublikada 88 ta lombard, 86 ta mikromoliya tashkiloti va 36 ta bank faoliyat yuritmoqda. Oxirgi 11 oyda nobank kredit tashkilotlarining kredit portfeli 4,24 trillion so‘mdan 8,05 trillion so‘mga, ularning umumiy bank-moliya tizimidagi ulushi esa 1 foizdan 1,7 foizga o‘sdi.

Mikromoliya tashkilotlarining aktivlari hajmi va kredit qoldig‘i qariyb 2,5 baravarga o‘sib, mos ravishda 4,91 va 4,48 trillion so‘mni tashkil etdi. Ushbu ikki ko‘rsatkich bo‘yicha mikrokredit tashkilotlari Ipoteka kreditini qayta moliyalash kompaniyasi va lombardlardan sezilarli darajada oldinda.

Yillik hisobda mikromoliya tashkilotlarining majburiyatlari 3,09 trillion so‘mga, ipoteka kreditlarini qayta moliyalash kompaniyalarining majburiyatlari esa qariyb ikki barobarga oshib, 3,41 trillion so‘mga yetdi. Bundan tashqari, mikrokredit tashkilotlarining kapitali 1,8 trillion so‘mdan oshdi.

Yaqinda Markaziy bank O‘zbekistonda yangi bank shakli — mikromoliya banklari faoliyatiga ruxsat berilishi rejalashtirilganini ma’lum qilgandi. Shundan kelib chiqilsa, eng yaxshi mikrokredit tashkilotlarining bankka aylanish ehtimoli yo‘q emas. Shu sababdan Bankers.uz O‘zbekistondagi mikrokredit tashkilotlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha ularning reytingini tuzib chiqdi.

Fortuna Biznes: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 951 mlrd so‘m, kredit portfeli - 916,5 mlrd so‘m, jami kapitali - 520.9 mlrd so‘m.

Ushbu tashkilot 2018 yilda Farg‘ona shahrida faoliyat boshlagan. Respublika bo‘ylab 14 dan ortiq filiallari mavjud. Tashkilot 2024 yil yakuniga qadar butun respublikaning har bir mintaqasida filiallarini ochishni rejalashtirgan. Tashkilot ta’sischilari Axror Xaydarov (98%

ulushga ega, Kuzatuv kengashi raisi) va Ulug‘bek Maxmudov (2% ulushga ega, boshqaruv raisi) hisoblanadi.

Shaffof-Moliya: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 1,3 trln so‘m, kredit portfeli - 1,2 trln so‘m, jami kapitali - 93 mlrd so‘m.

Tashkilotning rasmiy sayti mavjud bo‘lmaganligi sababli, u to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotlar olish imkoni bo‘lmadi. Markaziy bank saytida tashkilotga mikromoliya faoliyatini olib borish uchun litsenziya berilgani ko‘rsatilgan. Tashkilot ta’sischisi «Techno Future Trade» MChJ hisoblanadi. Uning ta’sischisi esa «MAKESENSE» MChJ. Bu tashkilotning 15% ulushi esa Uzum ekotizimini rivojlantirayotgan «Djuzum SPV Ltd»ga tegishli. Uzum Nasiya platformasida «Shaffof-Moliya» MChJ hamda «Techno Future Trade» MChJlar bilan o‘zaro hamda mijozlarga mikromoliya, muddatli to‘lov xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy ofertalar mavjud.

Vodiy taraqqiyot: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 456,4 mlrd so‘m, kredit portfeli - 438,7 mlrd so‘m, jami kapitali - 208,5 mlrd so‘m

Bu tashkilotning ham internetda rasmiy sahifalari mavjud emas. 2014 yilda Farg‘ona filoyati Buvayda tumanida ro‘yxatdan o‘tkazilgan, mikromoliya tashkiloti sifatida esa 2015 yildan beri faoliyat yuritadi. Tashkilot ta’sischilari bir nechta, biroq 65% ulush «Fotuna Biznes»ning asosiy egasi Axror Xaydarovga tegishli ekani ko‘rsatilgan.

Hamroh: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 208,1 mlrd so‘m, kredit portfeli - 200,8 mlrd so‘m, jami kapitali - 85,3 mlrd so‘m

Mazkur tashkilot ham Buvayda tumanida 2012 yilda ro‘yxatga olingan. Mikromoliya tashkiloti sifatida faoliyat olib borishga esa 2020 yilning mart oyida litsenziya berilgan. Bu mikrokredit tashkiloti ham Xaydarovlar oilasiga tegishli. Bu safar ta’sischilar safida Axror Xaydarovning o‘zi ko‘rsatilmagan bo‘lsada qolgan to‘rtta ta’sischining familiyasi Xaydarov ekanini ko‘rish mumkin. Ushbu tashkilotning 30% ulushdorlari bo‘lgan ikki jimoniy shaxs ham bor. Ularning ismlari ochiqlanmagan. Ijtimoiy tarmoqlarda rasmiy sahifasi mavjud emas.

Delta: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 139,5 mlrd so‘m, kredit portfeli - 121,6 mlrd so‘m, jami kapitali - 63,6 mlrd so‘m

Ushbu mikrokredit tashkiloti 15 yildan buyon mijozlarga xizmat ko‘rsatib keladi. Tashkilot 12 turdagi mikromoliyaviy xizmatlarni ko‘rsatishini bildirgan. 2022 yilda «Axbor-Reyting» reyting agentligi tomonidan uzA+ «barqaror» reytingi berilgan. Tashkilot ta’sischilari sifatida Mirsaid Mirpo‘latov (46%), Dilnoza Mirpo‘latova (21,5%), Sherzod Abdumo‘minov (24,30%), Go‘zal Abdumo‘minova (5,7%) hamda Baxtiyar Xashimov (2,5%) ko‘rsatilgan.

Microfin: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 149,8 mlrd so‘m, kredit portfeli - 109,5 mlrd so‘m, jami kapitali - 80,3 mlrd so‘m.

2018 yildan beri mikromoliya xizmatlarini ko‘rsatadi. Tashkilot «Agat Credit»« brendi ostida faoliyat olib boradi. 5 mingdan ortiq mijozlari va yettita filiali mavjud. Tashkilot ta’sischilari bir nechta. Ammo kompaniyaning 61,4% ulushi Sergey Lagutinga tegishli. U boshqa faoliyat turlari bo‘yicha yana bir nechta kompaniyalarning ta’sisichisi hisoblanadi.

Renesans: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 141 mlrd so‘m, kredit portfeli - 119,7 mlrd so‘m, jami kapitali - 29,8 mlrd so‘m.

Ushbu tashkilot 2007 yildan mikromoliya xizmatlari bilan shug‘ullanadi. Respublika bo‘ylab 13 ta filiali borligi qayd etilgan.Tashkiloti ta’sischilari jismoniy va yuridik shaxslardan iborat. Tashkilotdagi 47,5% ulush «Renesans Credit« moliyaviy lizing bilan shug‘allanuvchi kompaniyaga tegishli. Ikkala kompaniyaning ta’sischilari deyarli bir xil.

PulMan: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 118,1 mlrd so‘m, kredit portfeli - 111,4 mlrd so‘m, jami kapitali - 33,1 mlrd so‘m.

2019 yildan beri mikrokreditlash bozorida o‘z xizmatlarini ko‘rsatib keladi. Kompaniya ta’sischilari Timur Isaaev va Diyar Medeubekov teng miqdordagi ulushdorlar hisoblanishadi. Bu ikki ta’sischi «Oltin lombard» MChJ ta’sischilari hamdir.

Ehtirom Plus: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 83,9 mlrd so‘m, kredit portfeli - 78,9 mlrd so‘m, jami kapitali - 52,3 mlrd so‘m.

2007 yilda mikromoliya tashkiloti faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya olgan. O‘zbekistonda ochilgan eng birinchi mikrokredit tashkilotlaridan biri hisoblanadi. Bosh idorasi Qo‘qon shahrida joylashgan. Kompaniyaning asosiy ulushi (70%) Alievlar oiilasiga tegishli.

Biznes Finans: Ko‘rsatkichlari: aktivlari - 82,9 mlrd so‘m, kredit portfeli - 77,1 mlrd so‘m, jami kapitali - 46,8 mlrd so‘m.

2017 yildan beri mikromoliyaviy xizmatlar bozorida xizmat ko‘rsatib keladi. Respublika bo‘yicha 8 ta viloyatda filiallari mavjud Kompaniya 10 mingdan ortiq mijozlarga xizmat ko‘rsatadi. Kompaniya ta’sischisi Timur Xodjaxanov. Timur Xodjaxanov «SNS Ratings» reyting agentligining ham ta’sischilaridan biridir (30% ulushga ega). Bundan tashqari, u «LOMBARD HAMKOR-KREDIT» MChJning ham yakka ta’sischisi sifatida ko‘rsatilgan.

Barcha mikromoliya tashkilotlarining ko‘rsatkichlari va Bankers.uz reytingidagi o‘rni bilan quyidagi jadval orqali tanishishingiz mumkin.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yuridik shaxslar alohida o‘rin tutadi. Jamiyatni yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish sharoitida yuridik shaxslar ishlab chiqarish, sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatishning barcha sohalarida yetakchi kuch va iqtisodiy muomalaning asosiy sub’ekti hisoblanadi.

Binobarin, kapitallar, ish kuchi va mehnat sarfini birlashtirish yuridik shaxslarning iqtisodiy imkoniyatlarini oshiradi va bu o‘z navbatida, iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Mamlakat hayotida yuridik shaxslar nafaqat iqtisodiy muomalani ta’minlashga xizmat qiluvchi sub’ekt balki, ijtimoiy himoya va ish o‘rinlarini yaratuvchi sub’ekt sifatida ham ahamiyatlidir.

Shu bilan birga yuridik shaxslarning iqtisodiy muomaladagi faoliyatini fuqarolarning bu munosabatlaridagi ishtirokiga nisbatan qulay va har tomonlama samarali vositalar orqali tartibga solish mumkinligi ham dunyodagi iqtisodiy vositalar integratsiyalashuvi jarayonida e’tiborga molik holat sifatida baholanadi.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY APATIYA TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA SABABLARI

R.E.XAIDAROV
f.f.b.f.d. (PhD)
Z.X.TADJIBAYEV
mustaqil izlanuvchi

Globallashuv jarayonlari zamonaviy jamiyatning har bir qatlamiga, ayniqsa, yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu ta’sir o‘zining ikki tomonlama mohiyatiga ega: bir tomondan, u zamonaviy texnologiyalar, erkin axborot oqimi, xalqaro ta’lim tizimi orqali yangi imkoniyatlar eshigini ochsa, ikkinchi tomondan, o‘ziga xos identitet inqirozi, milliy qadriyatlar va ijtimoiy ongda beqarorlik, ijtimoiy apatiya kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Natijada yoshlar ongida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-psixologik o‘zgarishlar va ular orasida ijtimoiy apatiya fenomenining kuchayib borayotganligi zamonamizning dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Aynan shu muammolarning falsafiy-sotsiologik ildizlarini ochib berish, globallashuv sharoitida uning oldini olish mexanizmlarini aniqlash, ularni yengib o‘tishning konseptual yechimlarini taklif qilish hamda ijtimoiy faollikni shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqish bugun ijtimoiy gumanitar fanlarning asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Mana shunday murakkab paytda apatiya yoki ijtimoiy apatiya tushunchasi nisbatan yangi, ammo har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelayotgan ilmiy masalalardan biridir. Ilmiy jamoatchilik orasida, ya’ni sotsiolog, psixolog, faylasuf va pedagoglar tomonidan fanning turli tarmoqlari doirasida keng muhokama mavzusiga aylanib ulgurdi. Buning asosiy sabablari “...hozirgi jamiyatda apatiya fenomenining tahlili nafaqat sotsiologik, psixologik, iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-falsafiy fan tarmoqlarida, balki iqtisodiy, siyosiy sohalar va ijtimoiy tuzulmadagi, diniy va siyosiy g‘oyalardagi inqirozli hodisalar bilan “apatiya” tushunchasining an’anaviy talqiniga nisbatan ancha kengroq va o‘zgacharoq talqin qilinishi bilan ham izohlanadi”[58].

[58] Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B.24-25

Jahon falsafasi qomusi kitobida “Apatiya – (yunoncha apatheia – beparvolik) – insondagi emotsional passivlik, befarqlik, hissiy loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadi. Bunday holatda inson yon atrofdagi voqea-hodisalarga e’tiborsiz bo‘ladi, hech narasaga qiziqish bildirmaydi, uning jismoniy, ruhiy va ma’naviy faolligi pasayadi”[59], deb ta’rif berilgan. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida “apatiya - 1) odamning tevarak atrofidagi voqea va hodisalarga loqayd bo‘lib qolish holati; 2) tibbiyotda – tashqi muhitga qiziqmay butunlay beparvo bo‘lib qolish bilan ifodalanadigan kasallik holati; 3) antik falsafada – stoitsizm etikasining asosiy tushunchalaridan biri, qalbning barcha ehtiroslaridan to‘la ozod bo‘lishini talab etadi”[60], deb keltirilgan.

Apatiya haqidagi dastlabki ijtimoiy-falsafiy qarashlar ilk bor antik davr faylasuflari Aflotun va Arastu tomonidan ilgari surilgan. Antik davr falsafasida apatiya tushunchasi salbiy ma’no anglatmagan, balki qadimgi axloqda bu atama ta’sirning yo‘qligi yoki unga befarqlik sifatida namoyon bo‘ladigan ijobiy hislatni anglatgan. Xususan, unga ko‘ra apatiyani qalbning barcha ehtiroslardan to‘la ozod bo‘lishini talab etadigan tushuncha sifatida qo‘llashgan.

Aflotun davridan boshlangan apatiyaning axloqiy kontseptsiyasi kiniklar va megariyaliklar orasida shakllana boshladi, ular apatiyani deyarli to‘liq “befarqlik” deb talqin qildilar. Stoiklar esa apatiyani fazilatli holat, ya’ni donolikning muhim xususiyati, “tashqi” narsalarni noto‘g‘ri baholash natijasida paydo bo‘ladigan ta’sirlarni birinchi navbatda, 4 ta asosiy “ehtiroslar”: qayg‘u, qo‘rquv, shahvat va zavqni yengishning ijobiy qobiliyati sifatida tushunishgan.

Antik davrda axloq konsepsiyasining ajralmas qismi sifatida tushunilgan apatiya fenomeni XX asrga kelib jamiyatda salbiy ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘la boshladi. Jumladan, u insonlardagi emotsional passivlik, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga nisbatan befarqlik, loqaydlik kabi kayfiyatni ifoda etadigan buzg‘unchi tamoyilga aylandi. Natijada insonning jismoniy, ruhiy va ma’naviy faolligi pasayib, iqisodiy, siyosiy hamda ruhiy-ma’naviy befarqliklar oqibatida

[59] Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2023. – B. 91
[60] O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Tahrir hay’ati: M.Aminov, B.Ahmedov, H.Boboyev va b. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 378

insonlar bilan ijtimoiy muomalalari sovuqlashib, xatto yaqinlari, oilasi, farzandlariga ham loqayd bo‘lib qoladi.

Bugungi globallashuv sharoitida insonlar ijtimoiy hayotiga salbiy ta’sirlar ko‘plab omillar orqali vujudga kelmoqda. Olimlar fikricha, “bugun jamiyatda uchrayotgan siyosiy madaniyat va fuqarolar faolligi darajasining pastligi nafaqat “elita guruhlar” xulq-atvorida, balki oddiy fuqarolarning kayfiyatlari va xatti-harakatlarida ham namoyon bo‘lmoqda”.[61] Texnologik va madaniy taraqqiyotda ilg‘or bo‘lgan jamiyatlarda fuqarolarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligi darajasi ancha past ko‘rsatkichlarga ega. Bu esa bir necha obyektiv va subyektiv omillar bilan izohlanadi. Xususan, buni jamiyatda apatiya holatining ortib borishi bilan ham namoyon bo‘lmoqda. Quyida biz apatiyani vujudga keltirayotgan omillarga to‘xtalib o‘tamiz.

1. Iqtisodiy sabablarga ko‘ra: iqtisodiy notenglik va kambag‘allik darajasining oshishi odamlarni o‘z muammolariga e’tibor qaratishga majbur qiladi, bu esa ijtimoiy jarayonlarga befarqlikni keltirib chiqaradi. Ishsizlik va iqtisodiy noaniqlik ham ijtimoiy apatiyani kuchaytiradi, chunki odamlar o‘z hayotlarini yaxshilashga umidlarini yo‘qotadilar.

Global iqtisodiy o‘zgarishlar, ishsizlik va moliyaviy noaniqliklar insonlarni umidsizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy inqirozi global iqtisodiyotga katta salbiy ta’sir ko‘rsatgan murakkab jarayon sifatida tarixda qoldi. Bunday inqirozlar odatda moliyaviy tizimlarning zaifligi, iqtisodiy siyosatdagi xatoliklar va xalqaro moliyaviy bozorlar muvozanatsizligi natijasida yuzaga kelsa-da, davr kishilarda jamiyatning turli jabhalariga nisbatan ijtimoiy, siyosiy apatiyani ortishiga ham sabab bo‘ladi.

2. Siyosiy sabablarga ko‘ra: siyosiy tizimga nisbatan ishonchsizlik va norozilik, odamlarni siyosiy jarayonlardan chetlashishga olib keladi. Siyosiy apatiyaning kelib chiqishiga ijtimoiy-siyosiy muammolar, siyosiy ta’sirsizlik, huquqiy maqom hamda iqtisodiy xavotirlar sabab bo‘lishi mumkin. O‘ziga xos muammolar tasniviga ko‘ra, odamlar ko‘pincha o‘z mamlakatlaridagi siyosiy muammolar, urushlar yoki iqtisodiy inqirozlar sababli xorij mamlakatlarga chiqib ketadilar. BMT va mahalliy hokimiyatlarning ma’lumotlariga ko‘ra, Sudandagi mojarolar tufayli

[61] Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B.26

20 mingdan ortiq odam halok bo‘lgan, 15 million kishi esa ko‘chirilgan. BMT Bosh kotibi Antonio Guterresh Sudandagi tinimsiz urushning oddiy fuqarolarga yetkazayotgan oqibatlari haqida to‘xtalib, “Ikki yildan beri davom etayotgan vayronkor urush natijasida Sudan misli ko‘rilmagan inqirozga yuz tutmoqda, bunda eng katta zarar oddiy fuqarolarga yetmoqda. Taxminan, 12 million kishi o‘z uylarini tark etishga majbur bo‘ldi, bu dunyodagi eng katta ko‘chirilish inqiroziga aylandi,” dedi u. “Shulardan 3,8 milliondan ortig‘i qo‘shni davlatlarga boshpana izlab ketgan”.[62] Shuningdek, tashkilotning ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda mojarolar, ta’qiblar, zo‘ravonliklar va inson huquqlari buzilishi tufayli dunyo miqyosida 108,4 million kishi o‘z uyini tashlab ketishga majbur bo‘lgan.[63] Bundan tashqari so‘nggi yillarda Ukrainadagi keng ko‘lamli urush, Sudan, Kongo Demokratik Respublikasi va Myanmadagi qurolli mojarolar, Afg‘onistondagi mojarolar hamda Somalidagi qurg‘oqchilik, suv toshqini kabi omillar tufayli ham odamlar o‘z yurtlaridan ketishga majbur bo‘lmoqdalar. Natijada ular yangi joyda o‘z muammolariga e’tibor qaratishadi va siyosatga qiziqishlari kamayib, ularda apatiya holati vujudga keladi.

Xorijga ishlash uchun ketgan shaxslar ko‘pincha o‘zlarini siyosiy jarayonlardan chetlatilgan his qilishadi, chunki ular o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatiga ega emas deb o‘ylashadi va bu hissiyot, ayniqsa, ularning ovozlari yoki fikrlari e’tiborga olinmaydi deb hisoblashadi. Vaholanki, xalqaro huquq normalariga muvofiq har qanday demokratik davlatda chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari ta’minlanadi. Ba’zi mamlakatlarda esa chetga ketgan fuqarolar saylov huquqiga ega bo‘lmaydi, bu esa ularning o‘z mamlakatlaridagi siyosiy jarayonlarga ta’sir etish imkoniyatini kamaytiradi.

Yana bir mavjud muammolardan biri ko‘plab migrantlar huquqiy maqomga ega emaslar yoki vaqtincha vizalarda yashaydilar, bu esa ularning siyosiy jarayonlarga jalb etilishiga to‘sqinlik qiladi. Sababi, xorijiy mamlakatlarda bo‘lib turgan shaxslar orasida obyektiv va subyektiv omillar sababli viza va vaqtincha yashash masalasida noqonuniy holatlarning

[62] https://trt.global/uzbek/article/f606c26e6de2
[63] https://kun.uz/news/2023/06/14/bmt-dunyoda-qochqinlar-soni-110-million-kishiga-yetdi

borligi, shuningdek, mavjud bo‘lib turgan ish bilan ta’minlash va iqtisodiy imkoniyatlarni yo‘qotib qo‘ymaslik vajidan chet davlatlarda bo‘lib turgan shaxslar siyosiy nofaollikka tushib qolishga majbur bo‘ladilar. Bu esa siyosatga qiziqishni kamaytiradi. Oqibatda saylovlarda ishtirok etish ko‘rsatkichi pasayishi natijasida demokratik jarayonlarning zaiflashishiga olib keladi. Yana bir jihatdan esa, odamlar o‘z ovozlarini berishga qiziqmasliklari natijasida avtoritar rejimlar kuchayishi mumkin.

3. Ma’naviy-madaniy sabablarga ko‘ra: xalqlar o‘rtasida milliylik va umuminsoniy tamoyillarining integratsiyalashuvi kabi ijobiy holatlar bilan birga, kishilar axloqi, xalqlarning milliy o‘zligi va ma’naviyatiga salbiy ta’sir etuvchi individualizm, egoizm, kosmopolitizm, nigilizm, pessimizm, amoralizm, sinizm va “ommaviy madaniyat” (ommaviy madaniyatsizlik)ning turli ko‘rinishlarining keng yoyilishi jamiyatga bo‘lgan mas’uliyat hissining pasayishiga ham olib kelmoqda. Jumladan, individualizm g‘oyasining noto‘g‘ri talqin etilishi natijasida insonning shaxsiy hayoti jamoaga, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan, faqat uning o‘ziga tegishli alohida bir hodisa deb qaraydigan, jamiyat manfaatlaridan o‘z huquq va erkinliklarini mutlaq ustun ko‘radigan ta’limot sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa shaxs va jamiyat manfaatlari o‘rtasida keskin va jiddiy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Rossiyalik faylasuv V.G.Fedotova o‘zining “Yaxshi jamiyat” nomli asarida jamiyatda shaxsiy individuallikning ommalashishi masalasiga to‘xtalib, “shaxsni yaratmasdan individlashuv, faqat o‘zi haqida o‘ylovchi xudbin shaxsni shakllantirishdir”[64], deb ta’rif beradi. Odamlar dunyoqarashini boshqarish, ularning qalbi va ongiga ayrim mafkuraviy markazlarning manfaatlariga xizmat qiladigan shu kabi salbiy g‘oyalarning populyatsiyasi ko‘payishi keskin ortmoqda. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “G‘arbcha individualizm sharq kishisiga yot. Jamoa tartibida yashash bizga mos. Mahallalarga alohida e’tibor qaratilayotganining boisi ham shunda. Chunki mahallada kimning qandayligi, o‘z kunini halol yoki qing‘ir yo‘llar bilan ko‘rayotgani kunday

[64] «Хорошее общество». Социальное конструирование приемлемого для жизни общества. — М.: ИФ РАН, 2003. 182 с.

ayondir. Men G‘arb falsafasida ham barcha muammolar yechilgan, demoqchi emasman. Biz ko‘p masalalarda G‘arb faylasuflarining fikrlari bilan, ayniqsa, individualizm, egoizm qarashlarini ilohiylashtirish bilan kelishmasligimiz mumkin. Lekin ularni hisobga olishimiz, keraklisini e’tirof, keraksizini inkor etishimiz zarur”,[65] deb bugungi global jarayonlar ortidan sodir bo‘layotgan ma’naviy bo‘xronlar haqida ayni haq gapni aytganlar.

Shuningdek, bugun odamlardagi ijtimoiy apatiya holati jamiyatning axloqiy tubanlashuvi, ma’naviy tanazzulini ham keltirib chiqarmoqda. Jamiyatning ayrim qatlamlaridagi moddiy farovonlik ularning ma’naviy taraqqiyotini yuksaltirish o‘rniga, aks natija ham berayotgan holatlar yo‘q emas. Ayniqsa, bu yoshlar orasida yuqoridagi g‘oyalar ta’sirida shaxsiy tubanlik, ijtimoiy xudbinlik, bevatanlikni targ‘ib qiluvchi va har bir ishga moddiy manfaatdorlik yuzasidan yondashlarning urchishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari, ayniqsa yoshlar orasida ta’lim darajasining pastligi va madaniy tarbiyaning yetishmasligi, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan samarasiz foydalanish, behuda vaqt o‘tkazish, turli markazlarning manipulyatsiyasi va yolg‘on ma’lumotlari, insonlar o‘rtasida ishonch va o‘zaro aloqalarning yo‘qolishi ham insonlarni charchatishi, ularni muhim masalalarga nisbatan befarqlikka olib kelib, ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir qilib, apatiya holatini kuchaytirmoqda.

Xulosa va takliflar. Jamiyatida ijtimoiy apatiyaning salbiy oqibatlari ko‘pchilikni passivlikka, ijtimoiy hayotdan uzilib qolishga va davlat idoralari yoki jamiyatning boshqa tuzilmalariga nisbatan ishonchning yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, bir qancha iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoliga ega:

birinchidan, noto‘g‘ri olib borilgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat tufayli adolatsizlik yuzaga kelib, jamiyatda tabaqaviy farqlar, iqtisodiy nomutanosiblik va adolatsizlik holatlari odamlarda apatiya holatini yuzaga keltirishi mumkin;

ikkinchidan, siyosiy sabablar ko‘ra ham odamlarda siyosiy tizimga nisbatan ishonchsizlik va norozilik, ularda asta-sekin siyosiy jarayonlardan

[65] Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B. 111-112

chetlashishga olib kelishi, mavjud ijtimoiy-siyosiy muammolar, siyosiy ta’sirsizlik, huquqiy maqom hamda iqtisodiy xavotirlar siyosiy apatiyaning shakllanishiga olib kelishi;

uchinchidan, globallashuv sharoitida kishilar axloqi, xalqlarning milliy o‘zligi va ma’naviyatiga salbiy ta’sir etuvchi individualizm, egoizm, kosmopolitizm, nigilizm, pessimizm, amoralizm, sinizm va “ommaviy madaniyat” kabi turli ko‘rinishdagi axloqsizlik va ma’navuy buzuqlikni targ‘ib qiluvchi g‘oya va ta’limotlarning keng yoyilishi ham odamlarda jamiyatga bo‘lgan mas’uliyat hissining pasayishiga ham olib kelib, ijtimoiy apatiya holatining ortishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur murakkab fenomen bo‘lgan apatiya jamiyatda ko‘plab ziddiyatli muammolarni keltirib chiqarishi bilan xarakterlanadi. Uni vujudga keltiruvchi sabablarini aniqlash, tahlil qilish va oqibatlarini tushunish, bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Ta’lim, siyosat va ijtimoiy loyihalar orqali odamlarni jamiyatga jalb qilish apatiyani kamaytirishga yordam beradi hamda ijtimoiy befarqlikni bartaraf etish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur omil deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B. 24-25

2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob – T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2023. – B. 91

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. Tahrir hay’ati: M.Aminov, B.Ahmedov, H.Boboyev va b. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 378

4. Tashanov A. Vayronkor g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralar [mant] / T.: “Turon zamin ziyo” nashriyoti. 2015. - B. 26

5. »Хорошее общество». Социальное конструирование приемлемого для жизни общества. — М.: ИФ РАН, 2003. 182 с.

6. https://trt.global/uzbek/article/f606c26e6de2.

7. https://kun.uz/news/2023/06/14/bmt-dunyoda-qochqinlar-soni-110-million-kishiga-yetdi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK JIHATLARI

Axmedov Bexzod Madaminovich
Andijon davlat universiteti O‘quv ishlar boyicha prorektor
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd).

Bolalarga o‘z ona tabiatining go‘zalligini ochib berib, ularni madaniy meros bilan tanishtirib, o‘z uyiga muhabbatni shakllantirib, irsiy xotirani uyg‘otish va rivojlantirib hamda boshqalarga nisbatan mas’uliyat va g‘amxo‘rlik tuyg‘usini tarbiyalab, ularga samarali va amaliy munosabatni shakllantirib Vatanga muhabbatni tarbiyalash haqida gapirish mumkin.

Psixologik-pedagogik sharoitlarni aniqlash, tarbiyaviy ishning eng samarali usullari, shakllari va muammolarini aniqlash uchun biz maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha mavjud tadqiqot va pedagogik amaliyotni tahlil qildik.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tarbiyasi muammosini hal qilish qiyin vazifadir. Bu, birinchi navbatda, bolalarning yosh xususiyatlari, vatanparvarlik tushunchasining ko‘p qirraliligi, vatanparvarlik tarbiyasiga oid tushunchalar, nazariy-uslubiy ishlanmalarning yo‘qligi bilan bog‘liq. Bu muammo zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda yetarlicha aks ettirilmagan. Aksariyat mualliflar maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvarlik tarbiyasining muhimligi va ahamiyatiga ishora qiladilar, ammo bu yo‘nalishdagi yaxlit ish tizimini taklif qilmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalash bilan bog‘liq tadqiqotlarning o‘ziga xos xususiyati muammoning ayrim jihatlariga murojaat qilishdir. T.N.Doronova (“Bolalikdan o‘spirinlikkacha” tarbiya dasturi) vatanparvarlik tarbiyasi g‘oyasini juda aniq ifodalangan, ammo “vatanparvarlik tarbiyasi” tushunchasi qo‘llanilmaydi. S.N.Nikolayeva (“Yosh ekolog” dasturi) vatanparvarlik tarbiyasini ekologik tarbiya bilan uyg‘unlikda ko‘rib chiqadi. V.Loginova, T.Babayeva, N.Notkina (“Bolalik” dasturi), O.L.Knyazev, M.D.Maxanevlar (“Bolalarni xalq madaniyatining kelib chiqishi bilan tanishtirish”), E.V.Pchelinsev (“Kichik Vatanning abadiy qadriyatlari”) kabi mualliflar guruhi;

T.S.Komarova, T.A.Rotanova va boshqa mualliflar jamoasi (“Bolalar tarbiyasida xalq ijodiyoti”), L.E.Nikonov (“Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tamoyillarini tarbiyalash”), E.I.Korneyev (“Maktabgacha yoshdagi bolalarni vatanparvarlik tarbiyasida folklor bayramlari va xursandchiliklari”) va boshqalar bolalarni xalqning madaniy merosiga daxldorligiga qaratilgan.

V.A.Slastenin oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslikda vatanparvarlik tarbiyasi haqida gapirar ekan, bosqichma-bosqich yondashuvni ta’minlashga e’tibor qaratadi: kichik vatanga, o‘z ona joylariga, ona vatan tabiatiga, uning tarixiy hayotiga muhabbat uyg‘otishdan - Vatan tarixiga, uning madaniy merosiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni shakllantirishga; Vatan himoyasiga shaylikni tarbiyalash; boshqa mamlakatlar va xalqlar vakillari bilan qardoshlik va do‘stona munosabatlar o‘rnatishgacha. Bizga yaqin bo‘lgan vatanparvarlikni bosqichma-bosqich shakllantirish g‘oyasini mamnuniyat bilan qabul qildik, chunki bu bolalarning yoshga doir rivojlanishini hisobga olgan holda tarbiyani amalga oshirishga imkon beradi. Bizning fikrimizcha, maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolani kichik Vatanni anglashga erishtirish kerak va unga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish, keyingi yosh bosqichlarida esa - Vatan tarixi va madaniyatiga daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish kerak.

S.A.Kozlova, T.A.Kulikovalarning so‘nggi psixologik-pedagogik tadqiqotlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan “Maktabgacha pedagogika” darsligida maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik asoslarini tarbiyalash muammosini hal etish yo‘llarini quyidagicha ochib beradi: shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash – narsalarga, kitoblarga, tabiatga munosabatda tejamkorlik; o‘z guruhi va o‘rtoqlari manfaati uchun ishlashga tayyorlikni tarbiyalash; atrofdagi tabiatning go‘zalligiga daxldorlik; xalq, mamlakat, san’at an’analari va urf-odatlarigi daxldorlik.

Qo‘llanma mualliflari bolalar yashaydigan muhitning o‘zi, badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, o‘yin, mehnat, mamlakatda va bog‘chada nishonlanadigan bayramlarni vatanparvarlik tarbiyasi vositasi deb biladilar.

Vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash mezonlari quyidagilardan iborat: maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchisi mamlakat nomi, uning

geografiyasi, tabiati, ramzlarini bilishi; Vatanni ulug‘lash haqida bilishi; she’r o‘qish, qo‘shiqlar kuylashda ifodalanadigan olingan bilimlarga qiziqish.

Bizning fikrimizcha, ushbu qo‘llanma maktabgacha pedagogikada katta ahamiyatga ega, chunki u vatanparvarlikni tarbiyalash bo‘yicha maqsadli ishlarni belgilaydi, lekin shu bilan birga, biz vatanparvarlikni shakllantirishni kichik Vatanni bilishdan boshlash (oila, u yashaydigan joy - shahar, qishloq) va unga, keyin esa buyuk Vatanga - O‘zbekistonga daxldorlik hissini shakllantirish yaxshiroq deb hisoblaymiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotlar vatanparvarlik tarbiyasining ayrim jihatlariga qaratilgan. Maqsadga ko‘ra, tarbiya asosan bolada kognitiv jarayonlarni, nutqini, ayrim hollarda - shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, juda kamdan-kam hollarda esa uning his-tuyg‘ularini rivojlantirishga, kichik vatanga daxldorlik tuyg‘usiga e’tibor berish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha ish tajribasini tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida variativ dasturlar ishlab chiqilishi bilan tabiat va madaniy merosga muhabbatni tarbiyalash bo‘yicha ishlar jonlandi. Ko‘pgina maktabgacha ta’lim tashkilotlarida vatanparvarlik tarbiyasi, xususan, bolalarni o‘z ona yurtining tabiati bilan tanishtirish jarayonida amalga oshiriladi. Bir qator maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qishki bog‘lar jihozlangan bo‘lib, ularda bolalar yil davomida o‘simliklar va hayvonlarni kuzatish va ularga g‘amxo‘rlik qilish imkoniyatiga ega. Bu tashkilotlarda tabiatga mehr uyg‘otishning asosiy vositalari hissiy ohangdagi bolalar mehnati va tajriba faoliyatidir.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni madaniy meros bilan tanishtirish orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari faollashdi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mini-muzeylar tashkil etish va xalq bayramlarini nishonlash kabi shakllar faol qo‘llaniladi.

Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasining mavjud tajribasini tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish orqali ona vatanga muhabbatni tarbiyalash eng muvaffaqiyatli yo‘ldir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida atrofdagi tabiatni

estetik idrok etish va u bilan muloqot qilishda bolaning faolligini namoyon qilish uchun sharoitlar yaratiladi; ona yurtga muhabbat tuyg‘usi bolalarni madaniy meros bilan tanishtirish orqali ham muvaffaqiyatli amalga oshiriladi; xalq bayramlarini nishonlash, xalq amaliy san’ati bilan tanishish; kamdan-kam hollarda o‘z oilasi, urug‘i, shahri, qishloq va o‘lkaning diqqatga sazovor joylari tarixini o‘rganish bo‘yicha ishlar olib boriladi; shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ushbu yoshga xos bo‘lgan bolaning shaxsining ma’naviy fazilatlarini shakllantirish bo‘yicha maqsadli ishlarni amalga oshirish yetarli emas; nazariya va amaliyotda, asosan, bolani sezgir va faol bo‘lishga undamaydigan og‘zaki usullar qo‘llaniladi, bu bizning fikrimizcha, uning atrofidagi dunyoga hissiy jihatdan samarali munosabatni shakllantirishga, vatanparvarlik tarbiyasiga to‘sqinlik qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Agayev A.G. Patriotizm: soderjaniye, obyem razvivayuщyego ponyatiY. /Patriotizm: Istoki i sovremennыye problemы. Maxachkala: Izd-vo Yupiter, 1995. - 123s.
2. Adujalilova, Sh. A. Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari: ped. fan. nomzodi dis. avtoreferati / Sh. A. Adujalilova O‘zR Xalq ta’limi vazirligi.–Niyoziy nom. O‘z. Ped. Fan ilmiy tadqiqot in-ti.–Toshkent: 2005.– 22 b.
3. Azarov, Y.P. Oila pedagogikasi.– Toshkent: O‘qituvchi, 1998. – 272 b.
4. Azizovaning “Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Ped.fan.dok. ...diss.avtoreferati. – Toshkent, 2020.- 27 b.
5. Begmatov, E. A. O‘zbek nomlari 14600 ismlar izohi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensklpediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.- 604 b.

MASOFAVIY ISHLASH SHAROITIDA MEHNAT HUQUQLARINI TA’MINLASH: MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR

Abdukarimova Sevinch
Jamoat xavfsizligi universiteti 201-guruh talabasi

Masofaviy ish bugungi kunda zamonaviy mehnat munosabatlarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa internetning keng tarqalishi xodimlarga ish joyidan mustaqil, masofadan turib faoliyat yuritish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, bu turdagi ish faoliyati xodimning mehnat huquqlari, ijtimoiy kafolatlari va mehnat muhofazasi nuqtai nazaridan o‘ziga xos yondashuvni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi zamonaviy mehnat munosabatlarini huquqiy tartibga solishda muhim qadam bo‘ldi. Ushbu kodeksda masofaviy ish rasmiy mehnat shakllaridan biri sifatida tan olinib, 184-moddada uning huquqiy asoslari aniq belgilab berilgan [1].

Jumladan, masofaviy ishni tashkil etish mehnat shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi va ushbu shartnomada ish faoliyatining asosiy jihatlari – jumladan ish vaqti va dam olish tartibi, texnik va dasturiy ta’minot, axborot xavfsizligi, ishlab chiqarish hisobotlarini yuritish tartibi, hamda monitoring mexanizmlari – aniq ko‘rsatilishi majburiy sanaladi.

Bundan tashqari, Mehnat kodeksi masofaviy ishning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, ish beruvchining ayrim majburiyatlarini ham belgilab beradi. Xususan, ish beruvchi xodimning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, uning yashash joyini ish joyiga aylantirishda mehnat muhofazasi va sanitariya talablariga rioya qilish, shuningdek texnik vositalar bilan ta’minlash va ular uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish kabi huquqiy majburiyatlarni bajarishi shart.

Shu tariqa, O‘zbekiston mehnat qonunchiligi masofaviy ishning huquqiy asoslarini yaratish orqali nafaqat xodimning mehnat huquqlarini himoya qilish, balki mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va innovatsion ishlash madaniyatini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa global mehnat

bozoridagi tendensiyalarga mos ravishda ilg‘or xalqaro tajribalarga yaqinlashish yo‘lidagi muhim bosqichdir.

Masofaviy ishda xodimni kompyuter, internet, dasturiy ta’minot bilan ta’minlash, sog‘liqni saqlash choralarini ko‘rish, mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etish, mehnat ta’tili huquqi, ijtimoiy sug‘urta, nafaqalar va boshqa kafolatlar ham to‘liq ta’minlanishi lozim.

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) 2020-yilda pandemiya davrida masofaviy ish uchun maxsus tavsiyalar ishlab chiqqan. Ular orasida mehnat vaqti chegaralari, ish joyining xavfsizligi, texnik ta’minot, psixologik salomatlik va gender tengligi kabi masalalar muhim o‘rin tutadi[2].

Bulardan, masalan **Fransiyada** 2017-yildan boshlab «digital disconnect» (fransuzcha: le droit à la déconnexion) huquqi qonuniy kuchga kirib, bu xodimlarga ish vaqtidan tashqari elektron pochta, qo‘ng‘iroq va boshqa ish aloqalariga javob bermaslik huquqini berdi. Ushbu huquq mehnatkashlarning shaxsiy hayotini himoya qilish va ruhiy salomatligini saqlashga qaratilgan [3].

Germaniyada mehnat qonunchiligi xodimning salomatligi va xavfsizligini ustuvor deb biladi. Masofaviy ish joyi uyda tashkil etilgan taqdirda ham, ish beruvchi uni texnik va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan tarzda jihozlash uchun javobgar hisoblanadi. Bundan tashqari, Germaniyada ish va dam olish vaqtining qat’iy chegaralanishi talab qilinadi.

AQSHda masofaviy ishga oid tartib federal darajada emas, balki kompaniyalar siyosati va shtat qonunchiligi asosida belgilanadi. Misol uchun, Kaliforniya shtati ishchilarning texnik vositalaridan foydalanish xarajatlarini qoplashni talab qiladi, boshqa shtatlar esa ish beruvchining ixtiyoriga ko‘ra masofaviy ishni tashkil etadi [4].

Ma’lumki **Estoniya** raqamli infratuzilmani rivojlantirishda dunyoda yetakchi hisoblanadi. Aholi uchun mavjud davlat xizmatlarining 99% dan ortig‘i onlayn ko‘rinishda mavjud. Bu esa Estoniyada masofaviy ishni nafaqat xususiy sektorda, balki davlat boshqaruvida ham keng joriy qilish imkonini bergan [5].

Yaponiya hukumati “telework” strategiyasini rag‘batlantiradi. Bu strategiya mazmuniga ko‘ra ish va shaxsiy hayot muvozanatini saqlash, ortiqcha ishlash (karoshi) holatlarini kamaytirish hamda oilaviy hayot sifatini oshirishni maqsad qilgan. Shu maqsadda 2020-yildan boshlab “Telework days” kabi milliy tashabbuslar tashkil etilgan [6].

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ishning huquqiy asoslarini mustahkamlash mehnat huquqining zamonaviy vazifalaridan biridir. Bu nafaqat xodim manfaatlarini himoya qilish, balki samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish jihatidan ham foydalidir.

O‘zbekiston qonunchiligida masofaviy ish borasida bosqichma-bosqich o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jahon tajribasidan unumli foydalanish orqali milliy tizimni yanada mukammallashtirish mumkin.

Biroq masofaviy ish tizimi O‘zbekiston uchun bir qator foydali jihatlar bilan birga ayrim kamchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Foydali tomonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu xodimlarga moslashuvchan ish grafigini yaratish, vaqt va transport xarajatlarini kamaytirish, ayollar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ishga kirish imkoniyatini kengaytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ko‘plab ish turlari, xususan, IT, ta’lim, marketing, moliya va huquqshunoslik kabi sohalarda masofaviy ish samarali bo‘lib bormoqda.

Biroq, bu jarayon ayrim salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Xususan, mehnat intizomi, ish va dam olish vaqtining chegaralanmasligi, ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi va ish unumdorligining nazorat qilishdagi murakkabliklar masofaviy ishning kamchiliklari sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi ish sohalariga ta’siri borasida aytish mumkinki, masofaviy ish shakli texnologik jihatdan rivojlangan tarmoqlarda (masalan, IT, moliya, konsalting) allaqachon joriy qilinmoqda. Kelajakda bu tendensiya ta’lim, sog‘liqni saqlash va hatto davlat boshqaruvi sohalarida ham kengayishi kutilmoqda. Shu bilan birga, masofaviy ishning huquqiy asoslarini aniq va to‘liq belgilab berish orqali mehnat munosabatlarining barqarorligi ta’minlanadi va ish beruvchi hamda xodim o‘rtasidagi huquqiy nizolar oldi olinadi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (2023). https://lex.uz
2. https://www.ilo.org/global/topics/non-standard-employment/covid-19/lang--en/index.htm
3. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:52021DC0572
4. https://www.dol.gov/agencies/whd/fact-sheets/22-flsa-overtime
5. https://e-estonia.com/solutions/telework/
6. https://www.flexjobs.com/employer-blog/japan-encouraging-telework-days-help-traffic-increase-productivity

MAXSUS BO‘LINMALARNI SHAHAR SHAROITIDAGI MAXSUS OPERATSIYALARGA TAYYORLASHDA IMITATSION TEXNOLOGIYALARNING ROLI

Tulyaganov Farxod Valijanovich,
Jamoat xavfsizligi universiteti OTKTF doktoranti (PhD)

Bugungi murakkab va keskin o‘zgaruvchan xavfsizlik muhitida milliy xavfsizlik tizimining ajralmas qismi bo‘lgan maxsus bo‘linmalar zimmasiga qo‘yilayotgan vazifalar tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, shahar sharoitida o‘tkaziladigan maxsus operatsiyalar o‘zining yuqori darajadagi dinamikasi va kutilmagan vaziyatlar tezligi bilan ajralib turadi. Bunday real sharoitlarda muvaffaqiyatli harakatlana oladigan harbiy xizmatchilarni tayyorlash uchun nafaqat metodik yondashuvlar, balki zamonaviy texnik vositalar bilan ta’minlangan, real jangovar holatni imitatsiya qiluvchi maxsus o‘quv-moddiy bazalarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda.

Afsuski, amaldagi poligonlar, jumladan, mavjud o‘quv inshootlari va texnik vositalar maxsus bo‘linmalarning urbanizatsiyalashgan muhitda olib boriladigan maxsus operatsiyalarni to‘liq hajmda mashq qilishi uchun yetarli emas. Jumladan, zinalar, yerto‘la yo‘laklari, ibodatxonalar, ko‘p xonali koridorlar, ijtimoiy obyektlar (konsert zallari, restoranlar, savdo majmualari) kabi ob’ektlarda olib boriladigan taktik harakatlarni

o‘rganishga imkon beruvchi poligonlarning yo‘qligi sezilarli kamchilik bo‘lib qolmoqda.

Jahonning yetakchi mamlakatlarida (AQSH, Germaniya, Singapur, Rossiya) maxsus bo‘linmalar shahar infratuzilmasi modellarini to‘liq imitatsiya qiluvchi komplekslarda tayyorgarlik ko‘rmoqda. Bu esa ularga real sharoitga yaqin simulyatsiyalashgan muhitda muvofiqlashtirilgan, intuitiv va stressli harakat ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini bermoqda. Xususan, peyntbol va straykbol texnologiyalarining qo‘llanilishi bu boradagi mashg‘ulotlarni jangovar harakatlarga yanada yaqinlashtiradi, xodimlarning tezkor qaror qabul qilish, harakatlanish va intuitsiyaviy otish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, otish malakasini shakllantirishda klassik o‘quv otish mashg‘ulotlari real jangovar stress va to‘qnashuv sharoitlariga to‘laqonli tayyorlov bera olmasligi ko‘plab tadqiqotlar orqali isbotlangan. Natijada, aynan intuitiv va stress ostida avtomatlashtirilgan tarzda amalga oshiriladigan harakatlar ustunlik kasb etadi. Maxsus bo‘linmalarning turli sharoitlarda faoliyat yuritish qobiliyatini oshirish uchun o‘quv-moddiy bazani optimallashtirish, shahar muhitini modellashtiruvchi poligonlar va texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb masalaga aylangan.

Ma’lumki, maxsus bo‘linmalar xavfsizlik nuqtai nazaridan har doim ham davlat boshqaruv organlari binolari, ijtimoiy soha obyektlari, ko‘ngilochar maskanlar va transport obyektlarida maxsus operatsiyalarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishlarining imkoniyati bo‘lmaydi. Buning uchun rivojlangan davlatlarning armiya va politsiya bo‘linmalarining tajribasiga tayangan holda shahar sharoitiga ixtisoslashtirilgan poligonlarda tayyorgarlik ko‘rish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1-rasmga qarang).







1-rasm. Shahar sharoitiga ixtisoslashtirilgan poligonlar
(AQSH, Germaniya, Rossiya, Singapur)

Maxsus – taktik tayyorgarlik o‘quv – moddiy bazasini rivojlantirish masalalarini o‘rganar ekanmiz, maxsus bo‘linmalar bilan yaqin masofadagi jang sohasida o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda peyntbol va straykbolning qurollaridan foydalanish mashg‘ulotlarni jangovar harakatlarga yaqinlashtirilgan holda o‘tkazish borasida samarador ekanligi o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlarda o‘z isbotini topdi .

Bugungi kunda, peyntbol va straykbol ko‘plab rivojlangan davlatlarda maxsus bo‘linmalarning kasbiy va qo‘shimcha tayyorgarligida ishlatilmoqda. Rossiyada birinchi mashqlar IIV «Ris», FXX «Alfa» va «Vimpel» guruhlari bilan 1996 yildayoq o‘tkazilgan edi.

Garovga olinganlarni qutqarish bo‘yicha xorijiy maxsus bo‘linmalar tomonidan o‘tkazilgan maxsus operatsiyalar davomida yuzaga kelgan ko‘plab yo‘qotishlar, mo‘ljallagichni ishlatgan holda otish ko‘nikmalari o‘z ahamiyatini yo‘qotib, cheklangan makonda mo‘ljallagichdan foydalanmagan holda intuitiv otish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligiga urg‘u beradi. Zero, tezkor o‘q otish kontaktlari sharoitida mo‘ljallash uchun vaqt bo‘lmaydi va birinchi o‘q otishni boshlagan tomon odatda muvaffaqiyatga erishadi.

Shahar sharoitidagi maxsus operatsiyalar aksariyat hollarda yaqin masofalarda qurolli to‘qnashuvlarning yuqori dinamikasida o‘tadi. Bunday sharoitlar harbiy xizmatchilar (xodimlar)ni tayyorlashga bo‘lgan yondashuvlarni o‘zgartirishga va maxsus – taktik tayyorgarlik darajasini oshirishga bo‘lgan talablarni oshiradi.

Peyntbol va straykbol anjomlarini qo‘llash maxsus – taktik tayyorgarlikni mutlaqo boshqa darajaga olib chiqishga imkon beradi. Shu yo‘sinda, binolarni tozalash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot davomida ishg‘ol guruhi jangovar tartibining boshida harakat qiluvchi zirhli qalqonni ko‘tarib yuruvchi shaxs birinchi o‘qlar ovozini eshitgach, o‘zini olib qochib, xavfsiz joyga yashirinish choralarini ko‘rgan va bu harakati bilan orqasida turgan ishg‘ol guruhini ochib qo‘yganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari, zirhli qalqon ko‘tarib yuruvchining ruhiy holatiga orqasida ketayotgan ishg‘olchilar tomonidan otilgan o‘qlar ham ta’sir qilib, taktik harakatlarining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu mashq bir necha bor qaytarilgandan so‘ng qalqon ko‘tarib yuruvchida o‘ziga va sheriklariga nisbatan ishonch paydo bo‘ldi. Bu esa, ishg‘ol guruhi tarkibida jangovar otish natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va qalqon ko‘tarib yuruvchining harakatlarida ishonch paydo bo‘lishiga olib keldi.

Rus olimlari V.A. Tarasov, V.V. Belensev, A.V. Rijov, L.I. Timoshenko tomonidan o‘tkazilgan tadqiqot ishida ishg‘ol guruhining jangovar ikkiliklar tarkibida vazifa bajarish xususiyatlari o‘rganildi. Bunda, jangovar ikkilik straykbol pistoleti va avtomati bilan qurollantirilib, alohida binoni ishg‘ol qilishga jalb qilindi. Ishg‘ol vaqtida yo‘q qilinishi lozim bo‘lgan karton nishonlar ko‘rsatuvchilar tomonidan kutilmagan vaqtda, kutilmagan joyda ko‘rsatilib, mashg‘ulotga kutilmaganlik va reallik elementlarini qo‘shdi. Ko‘rsatuvchilar ham ishg‘ol qiluvchilar kabi tegishli himoyani ta’minlaydigan anjomlarda bo‘lgan holda javob otishmani olib borish maqsadida straykbol qurollari bilan qurollantirildi. O‘tkazilgan tadqiqot xulosalariga asosan peytbol va straykbol qurollarini maxsus – taktik tayyorgarligi mashg‘ulotlarida qo‘llash shaxsiy tarkibning taktik ko‘nikmalarini mustahkamlashga, yakka tartibda va guruh tarkibida vazifalar bajarish mahoratini oshirishga yuqori darajada samarali ta’sir etuvchi amaliyot ekanligi aniqlandi.

Tirlarda va otish maydonlarida amaliy otish mashg‘ulotlari bilan cheklanadigan jangovar tayyorgarlik qoidaga ko‘ra, real otish kontaktida muvaffaqiyatga olib kelmaydi. Tajribadan kelib chiqib, otish tayyorgarligi ijobiy baholangan maxsus bo‘linmalarning vakillari real jangovar sharoitda yuqori stress va dinamika tufayli 5-7 metr masofada turgan nishonni ham

zabd qilishga qiynaladi. Buning uchun mashg‘ulotlarni real jangovar vaziyatga yaqinlashtirish, ya’ni mashg‘ulotlarni maksimal stessli qilish, harbiy xizmatchilarga peyntbol, straybol qurollaridan otish, tutunni va pirootexnikani qo‘llash tavsiya qilinadi.

Straykbol va peyntbol qurollaridan maxsus – taktik tayyyorgarlik mashg‘ulotlarida foydalanishning yana bir ijobiy jihati, ularni jangovar qurollarni qo‘llash mumkin bo‘lmagan jihozlanmagan inshootlarda qo‘llashning afzalligi hamda real jangovar vaziyatlarni modellashtirish imkoniyatining mavjudligi hisoblanadi. Mazkur vositalardan foydalanish natijasida shaxsiy tarkibda intuitiv va stress ostida otish, guruh tarkibida muvofiqlashtirilgan harakat, qaror qabul qilish tezligi, va o‘zaro ishonch kabi ko‘nikmalar samarali shakllantirilmoqda. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy otish mashg‘ulotlari bilan chegaralanadigan tayyorgarlik haqiqiy to‘qnashuvlarda yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli, mashg‘ulotlarni real vaziyatga yaqinlashtirish, ya’ni stressli, muvofiqlashtirilgan va xavfsizlikka asoslangan mashg‘ulot muhitini yaratish zarur.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalar chiqariladi:

maxsus bo‘linmalar uchun shahar infratuzilmasini to‘liq modellashtiruvchi poligonlar yaratish dolzarb ehtiyojdir;

peyntbol va straykbol texnologiyalaridan foydalanish o‘quv mashg‘ulotlarini yanada realizmga yaqinlashtirib, maxsus taktik tayyorgarlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi;

bunday mashg‘ulotlar harbiy xizmatchilarning psixologik va taktik barqarorligini hamda tezkor harakatlarga tayyorlik darajasini oshiradi.

Shunday qilib, maxsus-taktik tayyorgarlik tizimida yuqoridagi tajribalarni joriy etish orqali nafaqat mashg‘ulotlarning samaradorligini, balki real operatsion muvaffaqiyat ehtimolini oshirish mumkin bo‘ladi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy-uslubiy izlanishlar va moddiy bazani yangilash ishlari istiqbolli natijalarga olib kelishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тарасов В.А., Беленцев В.В., Рижов А.В., Тимошенко Л.И. Повышение уровня профессиональной подготовки сотрудников спецподразделений с применением страйкбольного оружия // Вестник

Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2021. – №2 (90). – С. 134–139.

2. Enhancing Close Quarters Battle Performance: The Use of Simulated Weapons in Tactical Training / M.L. Hancock, A.D. Stull, J.A. Ford et al. // Criminal Justice Review. – 2024. – Vol. 49, Issue 1. – P. 88–103.

3. Руденко И.И., Гарбузов И.И. Моделирование и организация подготовки личного состава спецподразделений в условиях, приближенных к боевым // Военная мысль. – 2020. – №7. – С. 45–52.

4. Tarasov V.A. Straykbol kak sredstvo razvitiya takticheskogo myshleniya sotrudnikov spetsnaza // Наука и практика. – 2022. – №4. – С. 61–67.

5. Spencer J. Understanding Urban Warfare. – Washington D.C.: Institute for the Study of War, 2022. – 214 p.

6. Сухоруков А.В. Психологическая устойчивост сотрудников при ведении боевых действий в городской среде // Психология в правоохранительных органах. – 2021. – №3. – С. 52–57.

7. Дробязко С.В. Методика проведения подготовки спецподразделений МВД на полигонах, имитирующих городскую инфраструктуру // Теория и практика физической культуры. – 2023. – №6. – С. 89–93.

8. Kosar L.J., Fitzpatrick M., Holm M. Urban Combat Training Facilities: Design and Use in Military and Police Contexts // Military Technology. – 2020. – Vol. 44, No. 10. – P. 42–48.

MUNDARIJA

KIRISH.....3
Tojikulov Sh.M. Talabalarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash.....5
Babaqulov B.N. Harbiy xizmatchilar orasida jinoyatlarni oldini olish borasida harbiy sudlar faoliyatining ahamiyati.....10
Qodiralieva I.B. Oliy ta’lim tashkilotlarining xuquqiy maqomi.....13
Jaloldinov J.J. Xorijiy mamlakatlarda mehnatga haq to‘lash.....23
Utapov F. Parallel import siyosatini qo‘llashda jahon savdo tashkilotining trips bitimi va milliy qonunchilik.....30
Abdullayev Javohir A. Aholi bandligini taminlashda sun’iy intellektdan foydalanish.....35
Sayfiddinov Z. Ish vaqti: xorijiy tajriba va uning o‘rni.....40
Odilova F. Norasmiy bandlik va uning oqibatlari.....43
Xoliqulova U.Q. Mehnatda ayollar: jinsiy diskriminatsiya: qonun amalda ishlayabdimi.....46
Soliyeva S. Noformal bandlik: mehnat huquqlariga tahdid va uni bartaraf etish yo‘llari.....54
Bekmatov I.Q. Zamonaviy jamiyatda mehnatni muhofaza qilish.....63
Xonniyozov D.N. Prokuratura organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatining ilmiy-nazariy jihatlari.....69
Shokirov F.O. Qo‘riqlash xizmatining qo‘riqlanadigan obyektlar hududida huquqbuzarliklarni oldini olish faoliyatini huquqiy asoslari tahlili.....74
Madumarov F.T Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarish modellari va ularning qiyosiy tahlili.....86
Nazarov G‘anisher B Milliy gvardiya organlari ma’muriy amaliyot faoliyatinining huquqiy asoslari tahlili.....91
Axmedov A.A. Ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi.....105
Yusupov J.Z. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro xamkorlikni rivojlantirishda transport huquqi sohasida jamoatchilik nazoratining mexanizmini shakllanatirish: xalqaro tajriba va tahlil.....109

Хикматов Н.Ж. Правовое регулирование цифровых активов согласно международному и национальному законодательству.....113
Ashurova Z.E. Talabalarda ingliz tilidan kasbiy-muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning semantik shakllari.....127
Umbetov O.O. Qo‘riqlash shartnomasining turlari.....130
Saidov B.N. Fuqarolik huquqlari obyekti sifatida muhofaza qilinadigan obyektlar infratuzilmasi.....136
Ismailov S.A. Ta’lim jarayonlarida ijtimoiy sheriklik prinsiplari asosida huquqiy madaniyatni oshirishning zamonaviy metodi.....141
Atadjanov D.T. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ichki ishlar organlarining daromad keltiradigan faoliyatini rivojlantirishning fuqaroviy-huquqiy zarurati.....146
Ikramov D.T. Masofadan tuziladigan shartnomalarni fuqarolik-huquqiy tartibga solishning vujudga kelishi va rivojlanishi.....155
Jalolov A. Aholi bangligini ta’minlash: milliy va xorijiy tajribalar.....159
Mamatmurodov F.F. Definitions and their theoretical analysis applied to islamic securities sukuk.....164
Абдусамадова З.Х. Использование электронных подписей и смарт-контрактов в цифровой торговле: правовой анализ.....171
Абдусамадова З.Х. Трудовые права женщин-военнослужащих: гендерное равенство и правовые гарантии в республике узбекистан.....180
Ortiqboyev S.Y. Pensiya tizimidagi farqlar: o‘zbekiston va rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....185
Xoliqov S.M. Jamoat xavfsizligini taminlashda kuch ishlatar tuzilmalarning jamoatchilik bilan hamkorligi.....192
Бозоров Ё.А. Судейская оценка доказательств на основе внутреннего убеждения.....198
Adashov H.X. O‘zbekistonda tovar belgilariga nisbatan insofsiz raqobat holatlarida yuzaga keladigan transchegaraviy nizolar va ularni hal etish yo‘llari.....204
No‘monjonov X.A. Axborot texnologiyalari orqali “ommaviy madaniyat”ning yoshlar axloqiga salbiy ta’sirlari.....219
Qovulov A.M. Mehnat intizomini ta’minlash bo‘yicha xorijiy mamlakatlar qonun hujjatlari.....226
Реймбаева Г.К. Правовое регулирование туристических договоров.....230
Jo‘rayev B.U. Fuqarolarning ishga kirishda kerak bo‘ladigan ma’lumotlarini avtomatlashtirish.....237

Ismatullayeva M.X. Mehnat huquqi va korrupsiyaga qarshi kurashishda yoshlarning roli:muammolar va yechimlar.....241
G‘ulomjonov O.R. Jamiyat barqarorligini ta’minlashda oilaviy munosabatlarning ahamiyati 245
Халлакова А.Б. Место медиативного соглашения в системе гражданско-правовых договоров.....249
Kamilxanov J.K. Uy qamog‘ini ijro etishdagi ayrim muammolar va amaliyotda adolatli qo‘llash jihatlari.....257
Qulmurodov U.I. Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta’lim muassasalarining o‘zini-o‘zi moliyalashtirish zarurati.....261
Xoliqov S.M. Mudofaa sohasida hamkorlikni ta’minlashda jamoatchilik kengashlarining o‘rni va roli.....268
Odiljonov E.D. Dam olish vaqti va ta’tillar: hodimlarga beriladigon ta’tillarning qanday turlari mavjud?.....271
Sabirov U.N. Qurolli mojarolar va tinchlik davrida mulkka nisbatan sekvestr qo‘llashning huquqiy asoslari va choralari.....276
Халмухаммед П. Понятие информации.....281
Tarixov K.M. Asoratli bitimlarning o‘ziga xosliklari.....285
Ilimjon A.A. Ma’naviy tarbiya jamiyatning asosiy bo‘g‘ini.....289
Abdukarimova S. Masofaviy ishlash sharoitida mehnat huquqlarini ta’minlash: milliy va xalqaro yondashuvlar.....332
Tulyaganov F.V. Maxsus bo‘linmalarni shahar sharoitidagi maxsus operatsiyalarga tayyorlashda imitatsion texnologiyalarning roli.....335

Muharrir: Z. Murakayeva
Tehnik muharrir: A.Kамolov

Bosishga ruxsat etildi: 24.06.2025 y. Buyurtma: № 38. Format 60x90/16. Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi. Hajmi 3,35 n.-h.t. Bepul. Adadi_5 nusxa
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi.